

N.A.Boboyeva, N. Xalilov

# YAYLOVSHUNOSLIK VA YAYLOVLAR MELIORATSIYASI

o'quv qo'llanma



OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**N.A.Boboyeva, N. Xalilov**

**YAYLOVSHUNOSLIK VA YAYLOVLAR  
MELIORATSIYASI FANIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagи 314-son buyrug'iga asosan

5410200 – Agronomiya (yem-xashak ekinlari) va  
411300 – O'simlikshunoslik (yaylov-cho'l o'simlikshunosligi)  
ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**Toshkent - 2023  
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UO'K: 325.010.422.10

KBK: 65.9.(5O'zb)

**Boboyeva N.A, Xalilov N. Yaylovshunoslik va yaylovlar melioratsiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma.** – Toshkent, “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023, 248 bet

O'quv qo'llanma “Yaylovshunoslik va yaylovlar melioratsiyasi” fani dasturiga muvofiq tuzilgan bo'lib, 5410200- Agronomiya (yemxashak ekinlari), 5411300- O'simlikshunoslik (yaylov-cho'l o'simlikshunosligi) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'uv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanmada qurg'oqchil arid muhit sharoitida uchraydigan yaylov tiplari, ularda o'sadigan o'simliklarning hayotiy shakllari, asosiy yaylov o't turlarining bioekologik va xo'jalik hossalari, yaylovlar meliorativ holatini yaxshilash yo'llari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

### **Taqrizchilar:**

Rabbimov A. – q.x.f.n., katta ilmiy xodim

Ergashev I.T. – q.x.f.d., professor

ISBN: 978-9910-743-4-3-6

## So‘z boshi

Respublikamizda 21,1 mln gektar, yaylov yerlar mavjud bo‘lib, so‘nggi 35-40 yil davomida yaylov o‘simlik qoplamingin o‘zgarishi hamda yaylovlari 78 foiz yer maydonining degradatsiyaga uchrashi kuzatilgan. Respublikamizda tog‘, tog‘oldi va cho‘l yaylovlari tuproqlarining hozirgi holatini aniqlash, yaylov inqirozini oldini olish, yaylov mahsulorligini oshirish, yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston respublikasining qator qonun, farmon va qarorlari qabul qilingan bo‘lib, ular sohada yechilishi lozim bo‘lgan aktual muammolar talaygina ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda Yaylovshunoslik sohasini yanada rivojlantirish, bu sohada yuqori malakali sifatlari kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq. Lekin, hozirgi kunda, soha bo‘yicha raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun o‘quv adabiyotlari yetarli emas.

Mazkur “Yaylovshunoslik va yaylovlari melioratsiyasi” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 5410200-Agronomiya (yem-xashak ekinlari), 5411300- O‘simlikshunoslik (yaylov-cho‘l o‘simlikshunosligi) ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan bakalavr talabalari uchun tavsiya etilgan.

Shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanma, shu sohada faoliyat ko‘rsatuvchi har bir fermer, dehqon, tomorqa xo‘jalik rahbar-xodimlari, agroklasterlar, mustaqil tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, cho‘ponlar, chorvadordalar va sohaga qiziqish bildirgan keng aholi jamoasi uchun tavsiya etiladi.

“Yaylovshunoslik va yaylovlari melioratsiyasi” o‘quv qo‘llanmasi ikki qismidan iborat bo‘lib, birinchi, Yaylovshunoslik qismida yaylov tiplari, ularda o‘sadigan o‘simliklarning hayotiy shakllari, bioekologik va xo‘jalik hossalari yoritilgan bo‘lib, ikkinchi Yaylovlari melioratsiyasi qismida yaylovlari meliorativ holatini yaxshilash yo‘llari to‘g‘risida bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma orfografik xatolar va kamchiliklardan holi bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun o‘quv qo‘llanma haqidagi fikr mulohazalaringizni Samarqand shahri, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 77-uy, Samarqand Veterinariya Meditsinasiga yuborishingizni so‘raymiz (samvmi.uz).

## **1-2-mashg'ulotlar. Qorako'chilik yaylovlari o'simliklarining asosiy ozuqa guruhlari va ularning muhim biologik va xo'jalik xususiyatlari**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Qurg'oqchil hududlari sharoitida o'sishga moslashgan asosiy ozuqabop turlar va ularning asosiy guruhlari hamda muhim biologik, ekologik va xo'jalik xususiyatlari xususida tushuncha hosil qilish va zarur ma'lumotlar berish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Cho'l sharoitida o'sishga moslashgan ozuqabop o'simliklarning gerbariy materiallari, o'simlik g'aramchalari, videoproyektor, fotosuratlar, albom, slaydlar, animatsioin va videolavhalar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Qurg'oqchil mintaqalar o'simliklarining asosiy ekologik xususiyatlarini bayon qilib berish, mavjud gerbariylar va boshqa ko'rgazmali qurollar vositasida har bir ozuqaviy guruhga xos xususiyatlarni batafsil bayon qilish. Talabalarga gerbariylar misolida muayyan guruh-guruhlarga bo'linib mustaqil tanishish va ularga xos muhim ko'rsatkichlarni yakka holda yoki birgalikda o'rganishni o'rgatish, mustaqil konspekt tuzishi. Mavzuni "Uzum shingili" pedagogik texnologiyasi asosida mustahkamlash.

**Mashg'ulotning mazmuni** O'zbekistonning qurg'oqchil hududlarida tarqalgan barcha o'simliklar 4 ozuqaviy guruhga ajratiladi. **Ular efemer va efemeroидлар, dag'al poyali o'simliklar, butalar va yarim butalar, bir yillik sho'ra o'tlar.**

**Efemer va efemeroидлар** – bir va ko'p yillik o'tchil turlar bo'lib, ular odatda cho'lning yog'in – sochin va havo harorati qulay (bahor) davrda rivojlanishga moslashgan ozuqabop guruh hisoblanadi. Bahor boshlanishi bilan ularning jadal o'sib – rivojlanish davri boshlanadi, qurg'oqchil davrgacha urug' hosil qilishga ulguradi va o'z vegetatsiyasini tugatadi. O'z o'sish davrini o'tab bo'lgan bir xil turlar tezda parchalanib ketadi va «xas» holida foydalaniadi. Uzoq vaqt saqlanib qoladigan turlar «ildizdagи pichan» deb ataladi.

Efemerli yaylovlarning o'ta muhim fazilati va ustunligi shundaki, ular qorako'l zotli qo'ylar uchun eng to'yimli va ko'kat bilan ta'minlovchi bahorgi va yozgi o'tloqlar hisoblanadi. Chunonchi, protein, karbonsuvlar, vitaminlarga boyligi jihatidan cho'l yaylovlarida erta bahorda ularga teng keladigan o'simlik guruhi topilmaydi. Bu davrda barra (efemer) o'tlar nuqul shirali va zarur oziq moddalarga boyligi

tufayli barcha turdag'i uy va yovvoyi mollar tomonidan yaxshi ishtaha bilan yeylimadi va ularni semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Efemerli yaylovlarning ozuqa zahiralari to'plashi ko'klamning gidrotermik rejimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, yillar bo'ylab 0,5 sentnerdan 1,5-2,5 sentnergacha bo'lishi mumkin. O'rta yilga nisbatan efemerli yaylovlar ozuqa zahiralarining o'zgarishini tadqiqotchilar quyidagicha ta'riflaydilar: o'ta ser hosil (250 %), serhosil (160 %), o'rta hosil (100 %), kamhosil (50 %) va o'ta kamhosil (25 %).

**Butalar, yarim butalar** cho'l yaylovlari o'simliklari qoplamida eng yuqori qavatni egallovchi va qo'y-qo'zilarni kuz-qish oylari ozuqa bilan ta'minlovchi turlardan iborat. Ularning orasida butun yil davomida yeylimadigan yoki mavsumiy yeylimadigan turlari mavjud. Shuningdek, ular orasida, madaniylashtirilgan yoki madaniylashtirish uchun ham istiqbolli turlar anchagina. Tarqalish sharoitlari, yillar va turlariga qarab buta, yarim butalarning pichan hosildorligi o'zgaruvchan hisoblanib, ob-havo o'rtacha bo'lgan yillari gektaridan 1,5-3,0 sentner yeylimuvchan ozuqa to'playdi.

**Dag'al poyali o'simliklar** qorako'chililik hududlari uchun kafolatli ozuqa tayyorlash manbai hisoblanib, shu hisobdan tayyorlangan ozuqa zahiralari qo'y-qo'zilarni yaylovda boqish imkoniyati bo'lмаган davrlarda ishlatishda qo'l keladi. Yaylovshunoslik va qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish faniiga oid adabiyotlarda odatda «dag'al poyali xashak» deb yuritiluvchi o'simliklar guruhi ko'p yillik o'tchil o'simliklardan tashkil topgan bo'lib, ularning o'sish davrlari ancha davomli va nisbatan yuqori hosil to'plovchi, biroq, ozuqaviy qiymati jihatidan unchalik tuyimliligi yuqori bo'lмаган pichan to'plovchi turlar hisoblanadi. Cho'l yaylovlarida mazkur o'simlik guruhlariga urg'ochi va erkak selinlar, chalov, erkak o't, kavrak, turneforsiya, tuyaqorin, yantoq, karrak va boshqalar kiritilgan. Bu guruhga oid aksariyat turlar o'sish davrida unchalik xush ko'rib yeylimasada yilning boshqa mavsumlariga nisbatan yaxshi yeylimadi yoki foydalaniadi.


**Bir yillik sho'ra o'tlar** – uzoq o'sish davriga ega va tarkibida mo'l mineral tuzlar mavjud o'tchil turlardir. Sho'rlangan tuproqlarda tarqalgan mazkur turlarni odatda quruq va shirali guruhga ajratiladi. Xo'jalik nuqtai nazaridan ularning bir-biridan farqi shundaki, birinchilari butun o'sish davrida ozmi-ko'pmi yeylimaverilsa, shirali turlari, odatda, quriganidan keyingina yaxshi yeylimadi. O'rta Osiyo

cho'llarida 200 dan ortiq sho'ra o'tlar mavjud bo'lib ularning aksariyat qismi sho'radoshlar oilasiga mansub.

**Shirali bir yillik** sho'ralarning tana va barglari (balikko'z, donasho'r, olabo'ta, sveda, xaridandon) shirasi sero't bo'lsa, quruq sho'ralar (qumarchiq, seta, sag'an) dag'al tana va barglardan iborat. Bir yillik sho'ra o'tlar mavsumiy (kuz - qish) foydalilaniladigan turlar hisoblanadi. Ularning o'rtacha hosildorligi (1,5-5,0 s/ga) unchalik yuqori emas va yillar bo'y lab ham keskin o'zgarib turadi.

Cho'l yaylovlarida tarqalgan o'simliklar orasida yana bir guruh ham alohida ajratiladiki, ular **zaharli** va **zararli** o'simliklar bo'lib, yaylov ozuqasi sifatini buzadi, chorva mollarining zaharlanishiga olib kelib, hatto ularning nobud bo'lishiga ham sababchi bo'ladi. O'zbekiston cho'l yaylovlarida uchraydigan zararli va zaharli o'simliklar to'g'risida so'z yuritganda, shuni ta'kidlash lozimki, ularning zararli xususiyatlari butun vegetatsiya davrini egallamasdan, balki ayrim davrlariga to'g'ri keladi, xolos. Jumladan, qiltiq o'simligi faqatgina urug'lari pishgan davridagina chorva mollarining og'iz bo'shlig'ini jaroxatlashi mumkin. Ko'k holatda umuman zararsiz bo'lib, chorva mollari tomonidan qoniqarli iste'mol qilinadi. Tarkibida zaharli moddalar mavjud bo'lgan o'simlik turlari namoyondalarining ham ko'pchiligi faqatgina aktiv o'sish (vegetatsiya) davridagina zararlidir. Masalan, ayiqtovon, isiriq, uchmalar o'z vegetatsiya davrini tugatganidan so'ng chorva mollari uchun umuman zararsiz hisoblanadi.

**Topshiriq:** "Uzum shingili" pedagogik texnologiyasi asosida kichik-kichik guruhlarga bo'linib, yozuv taxtasiga bir nechta uzum shingilini rasmini chizing va ularni bir bosh uzumga birlashtiring. Qorako'lchilik yaylovlari o'simliklarining asosiy ozuqa guruhlari to'rt guruhga bo'linadi, demak, sizlardan to'rtta uzum shingilini chizish talab etiladi va shingil ustiga yaylov o'simliklarining ozuqa guruhlarini yozib chiqing, so'ngra shingilning atrofiga uzum mevalarini chizib, ularning ichiga shu ozuqa guruhiga mos o'simlik turlarini yozib chiqing. Shu tariqa barcha shingildagi uzum mevalarini to'ldirib chiqing.



### Nazorat savollari:

1. Cho'l mintaqasi o'simliklari qanday ozuqaviy guruhlarga bo'linadi?
2. Efemer va efemeroidlarga xos muhim xususiyatlarni bayon qilib bering. Ular bir-biridan qanday farqlanadi?
3. Buta va yarim buta ozuqaviy guruhning yaylov xo'jaligidagi mohiyati nimadan iborat?
4. Bir yillik sho'ra o'tlarga xos muhim biologik, fiziologik va xo'jalik belgilarni aytинг.
5. Ozuqaning to'yimliligi jihatidan cho'l o'simliklari orasida qaysi ozuqaviy guruh eng yaxshi hisoblanadi va ularga xos ko'rsatgichlarni sanab bering?
6. Qaysi ozuqaviy guruh kafolatli ozuqa tayyorlash manbai hisoblanadi? Unga misollar keltiring, ularning tavsifini bayon qiling.
7. Nima sababdan yaylovlarda tarqalgan zaharli va zararli o'simlik turlarini o'rganish va bilish lozim?
8. Har bir ozuqaviy guruhga xos asosiy xususiyatlarni batavsil bayon qiling.
9. Bir yillik sho'ra o'tlar qanday guruhlarga ajratiladi?
10. Buta va yarim buta ozuqaviy guruhning Yaylovshunoslikdagi ahamiyati nimalardan iborat?

### 1-2 mavzuga doir test savollari

1. Quyida keltirilgan qaysi o'simlik efemer o'simlik?
  - A. jag'-jag'
  - B. yantoq
  - C. chitir
  - E. barcha javoblar to'gri
2. Yaylov tushunchasi nima?
  - A. Chorva mollari boqiladigan joy
  - B. Dengiz sathidan 500 m baland joy
  - D. Tog'ning baland cho'qqisi
  - E. To'g'ri javob yo'q
3. Izen- qaysi ozuqaviy guruhga kiradi?
  - A. Butalar va yarim butalar
  - B. Efemer va efemeroidlari
  - D. Dag'al poyalilar
  - E. Bir yillik sho'ra o'tlar
4. Qiyrovuqni ozuqaviy guruhini toping?

- A. Butalar va yarim butalar
  - B. Efemer va efemeroitlar
  - C. Dag'al poyalilar
  - D. Bir yillik sho'ra o'tlar
5. Quyida keltirilgan qaysi o'simlik zaharli?
- A. Isiriq
  - B. Qilqon
  - C. Qiltiq
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
6. Efemeroitlarning hayotiy shakli qanday?
- A. Ko'p yillik
  - B. Bir yillik
  - C. Ikki yillik
  - D. Yarim yillik
7. Bir yillik sho'ralar necha guruhga bo'linadi?
- A. 2
  - B. 4
  - C. 3
  - D. 5
8. Quyida keltirilgan qaysi o'simliklar dag'al poyali ozuqabop o'simliklar guruhiga kiradi
- A. Karrak, yantoq, sho'rajriq
  - B. Seta, sagan, qumarchik
  - C. Jag'-jag', lola qizg'aldoq, yaltirbosh
  - D. Qo'ng'irbosh, chitir, arpaxon
9. Asosiy yaylov ozuqabop o'simliklar guruhi nechta?
- A. 4
  - B. 5
  - C. 3
  - D. 6
10. Zararli o'simliklarning zarari qaysi fazada nomoyon bo'ladi?
- A. Pishish
  - B. Unib chiqish
  - C. Gullash
  - D. Vegetatsiya davri davomida

### **3-4-mashg'ulotlar. Qorako'lchilik hududlari yaylov tiplari va ozuqabop turlarning bioekologik va xo'jalik xossalri**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Qorako'lchilik hududlarida tarqalgan yaylov tiplari to'g'risida tushuncha shakllantirish, har bir yaylov tipiga xos ozuqabop o'simlik turlarining tarqalish areali, fenologiyasi bioekologik va xo'jalik xossalari to'g'risidagi umumiy tushunchalarga ega bo'lish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Cho'l sharoitida o'sishga moslashgan ozuqabop o'simliklarning gerbariy materiallari, o'simlik g'aramchalar, videoproyektor, fotosuratlar, albom, slaydlar, animatsion va videolavhalar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Talabalarda qorakulchilik hududlarida tarqalgan asosiy yaylov tiplari, ularning biologik va ekologik xususiyatlari: tuproq tipi, uning mineralogik tarkibi, rel'yefi, dengiz sathidan balandligi, yillik yog'in miqdori, ozuqabob turlaning botanik tavsifi, bioekologik va xo'jalik xossalari to'g'risida bilim va ko'nikmalar shakllantirish.

**Mashg'ulotning mazmuni:** Qorako'lchilik hududlarida tarqalgan yaylov tiplari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning har biri ma'lum bir mavsumda chorva mollarini boqishga moslashgan bo'lib, ozuqabob turlari, ularning yeyiluvchanligi, to'yimliligi hamda ozuqaviy qiymati ham o'ziga xosdir.

**Yaylov tiplari xususida tushuncha.** Yaylovlardan to'g'ri va samarali foydalanishda ularni klassifikatsiyalash, ya'ni, tiplar, tip guruuhlar, klasslarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Cho'l yaylovlarini klassifikatsiyalashning eng ob'ektiv sxemasi sifatida fitotsenologik sxemani qabul qilish maqsadga muvofiq. Uning asosini 3-element - floristik tarkib, turlar dominantligi va fitotsenoz tarkibi tashkil etadi. Eng yuqori kategoriya sifatida yaylov tipi qabul qilingan.

**Yaylov tiplari** deb, ma'lum botanik tarkib, rivojlanish ritmi va fitotsenotik tuzilishga ega bo'lgan o'simlik guruhlariga aytildi. Qorako'lchilikda foydalanimadigan barcha yaylov maydonlari asosan **4 tipga** bo'linadi:

- efemer va efemeroидli yaylov tipi;
- buta-barra o'tli yaylovlar;
- yarim buta-barra o'tli yaylovlar;
- sho'ra o'tli yaylov tipi.

Efemer va efemeroидli yaylov tipi asosan bo'z tuproqlardan tashkil topgan adir mintaqasiga xos; buta-barra o'tli yaylovlar aksariyat qumli cho'l mintaqalariga xos; yarim buta-barra o'tli yaylov tipi esa respublikamiz bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, asosan bo'z, qo'ng'ir-bo'z va zichlashgan qumli tuproqlarga xos. Sho'ra o'tli yaylovlar ma'lum bir geografik hududni egallamasdan oldingi barcha tiplar bilan aralash holda asosan turli darajada sho'rlangan maydonlarda tarqalgan.

*Efemer va efemeroидli yaylov tipining* respublikamiz hududlaridagi umumiy maydoni 1,5 mln.ga dan ortiqroq. O'zbekistonda bu tipdagi yaylovlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlarining ayrim hududlarida tarqalgan. Mazkur tip o'simlik qoplaming asosini efemer va efemeroидli hayotiy shaklga oid o'simlik turlari tashkil qiladi. Ularning ildiz tizimi tuproqning yuza qismida qalin chim qatlamini vujudga keltiradi. Ko'p yillik efemeroидlar-qorabosh, qo'ng'irboshlar bilan birgalikda, efemer o'simlik turlari-yaltirbosh, arpaxon, qashqayo'ng'ichqa, no'xatak, chitir, qoramashoq va boshqalar tarqalgan bo'lib, erta bahor va yoz mavsumida muhim, sershira, vitaminlarga boy, to'yimli ozuqa manbai hisoblanadi. Efemer va efemeroидli yaylovlarga xos yana bir muhim holat shundan iboratki, bu tipdagi yaylov o'simlik tarkibi nisbatan baland bo'yli va asosan dag'al poyali xashak beruvchi o'simliklar-yantoq, karrak, oq quray, qo'ziqulqodan tashkil topgandir. Bu guruh o'simliklar qish oylarida foydalinish uchun dag'al xashak tayyorlash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Efemerli yaylovlarga xos biologik-xo'jalik xususiyatlardan biri, ularning yillik o'sishi, rivojlanishi va ozuqa zahiralari to'plashi ob-havoga, bahorning gidrotermik rejimiga bog'liq. Chunonchi, efemerlarning yillik o'sishi ob-havo sernam, bahor iliq kelgan yillari 50-60 sm va undan qalin; o'rtacha yillarda 20-30; qurg'oqchil, noqulay yillarda 8-20 sm atrofida o'zgarib turadi. Shu boisdan efemer-efemeroидli yaylovlarning yillik ozuqa zahiralari ham keskin o'zgaruvchan bo'lib, yillar, hududlar bo'ylab gettaridan 3,6 sentnerdan 5-7 sentnergacha quruq pichanni tashkil qiladi. Bu tipdagi yaylovlar xo'jalik ahamiyati jihatdan erta bahor va yoz mavsumlarida vitaminlarga boy, sershira ko'katlardan iborat yaylovlar hisoblansa, kuz-qish oylari o'simlik qoplamida yarim buta, butalarning kamchilligi sababli, serhosil yaylov tipi bo'la olmaydi. Shu boisdan, adir yaylovlarning xo'jalik mohiyatini oshirish maqsadida mazkur maydonlarda buta va yarim butalardan foydalanim kuzgi-qishki yaylovlar barpo etish maqsadga

muvofiq (Nechaeva N.T., Prixodko S.YA., 1966; Sergeeva G.A., 1954; Shamsutdinov Z.Sh., 1973). O'simlik turlarining miqdoriga kelsak, ularning umumiy miqdori boshqa yaylov tiplariga qaraganda ancha boy va xilma-xil. Biroq, bu holat yillar va mavsumlar bo'ylab o'zgaruvchan; ob-havo qulay kelgan yillari ularning yalpi miqdori 40-65 turdan oshadi.

**Buta-barra o'tli yaylovlар.** Mazkur tip yaylovlarning umumiy maydoni 9 mln. hektardan ortiq. Asosan qumli cho'l mintaqalarida tarqalgan. Ular Buxoro, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi yaylovlarning asosiy qismidir. Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida ularning maydoni ko'pi bilan 150-170 ming hektardan oshmaydi. Buta-barra o'tli yaylovlar o'simlik qoplami tarkibi turli hayotiy shakldagi (buta, yarim buta, o'tchil) turlardan tashkil topgan bo'lib, mustahkamlangan mayda-uydim, tepali qumlarda tarqalgan bo'lib, o'simlik qoplami odatda 3-4 yarusli (qavatli) guruhlardan tashkil topadi: birinchi (yuqori) yarus-daraxtsimon butalar, butalardan iborat bo'lib, 1,5-3 metrgacha bo'lgan bo'shliqni egallaydi: o'rta yarus unchalik baland bo'limgan (100-50 sm) yarim butalar (singren, qandimlar) dan tashkil topsa, quyi yarus (20-25 sm) barra o'tlar-ilak, yaltirbosh, bir yillik sho'ralar va boshqalardan iborat. Buta-barra o'tli yaylovlarning ozuqa zahiralari hektaridan 3,2-7,0 sentnerni tashkil qiladi. Buta-barra o'tli yaylovlarga xos xususiyatlardan biri shundaki, yilning qanday kelishidan qat'iy nazar yaylovlarda ozuqaning har-xil darajada mavjudligini ta'minlaydi.

Tez-tez takrorlanadigan qurg'oqchil ayniqsa, bahorda yog'ingarchilik kam bo'lgan yillari, ma'lumki, barra o'tlar yaxshi rivojlanmaydi. Biroq, shunday yillarda buta va yarim butalar yaxshiroq rivojlanganligi tufayli yillik hosildorlik tanqisligi unchalik sezilmaydi. Shuningdek, mazkur tipdag'i yaylovlarda bahor, yoz va kuz fasllarida ham yaxshi o'sadigan turlar mavjudligi tufayli, ular xo'jalik nuqtai nazaridan qulay yaylov tipi hisoblanadi. Eng to'yimli ozuqalardan birlilak o'simligi hisoblanadi. Bu o'simlik erta bahorda ko'kat, yozda quruq holida barcha chorva mollarining asosiy ozuqasi hisoblanadi. Kuz-qish oylarida esa oq saksovul, cherkezlar, cho'g'on kabi butalar va dag'al poyali o'tlar bilan birga ham yaxshi yeyiladi. Bahor sernam kelgan yillari buta-barra tipli yaylovlarda arpaxon, yaltirbosh va chitirlar kabi barra o'tlarning 6-8 turlari juda yaxshi rivojlanib, har hektaridan 2,5-3,0 sentnergacha pichan hosili to'plash imkonini beradi. Buta-barra o'tli yaylovlarning yana bir xo'jalik afzalligi, qumlarning past-baland-rel'efi,

butalarning serobligi tufayli ob-havoning noqulay kunlarida chorva mollari uchun yaxshigina boshpana vazifasini o'taydi.

*Yarim buta-barra o'tli yaylov tipining (yoki shuvoq-barra o'tli yaylov tipi)* maydoni yurtimizda 6,7 mln. gektardan ortiq. Ular asosan bo'z, qo'ng'ir-bo'z va zichlashgan qumli tuproqlarda tarqalgan. O'simliklar qoplami ikki yarusni: asosan yarim butalar-shuvoq, quyrovuq, cho'g'on, tetir, singrenlar tashkil qilsa, pastki yarusni bir va ko'p yillik o'tlar hosil qiladi. Pastki yarusning asosi qorabosh, qo'ng'irbosh; zichlashgan qumli maydonlarda ilakdan iborat. Bir va ko'p yillik o'tlar ob-havo qulay kelgan yillari anchagina serob bo'ladi va ularning miqdori 50-60 turdan oshishi mumkin. Yarim buta-barra o'tli yaylovlarning muhim xo'jalik qulayligi- ulardan butun yil davomida foydalanish mumkinligi hisoblanadi. Bu tipdag'i yaylovlarni odatda shuvoq-barra o'tli yaylovlар ham deb atashadi.

*Sho'ra o'tli yaylov tipi.* Mazkur tip yaylovlarning maydoni 1,5 mln. gektar bo'lib, cho'l mintaqasida yakkam-dukkam hududlar shaklida uchraydi. Qoraxotun, Mingbuloq, Oyoqog'itma, To'rtko'l botiqlari atrofidagi yaylovlar sho'ra o'tli yaylovlar tipiga misoldir. Bu yaylovlarning o'simlik qoplami juda siyrak. Turli darajada sho'rangan tuproqlarda aksariyat sho'rsevar o'simliklar-galofitlar o'sadi. Sho'ra o'tli yaylovlarning qimmatli ozuqabop turlariga donasho'r, haridandon, seta va boshqa sho'ra o'tlar kiradi. Sho'ra o'tli yaylovlarning mahsuldarligi tuproqning sho'ranganish darajasiga qarab har gektardan 0,5-5,0 sentner atrofida o'zgarib turadi. Xo'jalikda foydalanish jihatidan kuz faslida, qo'yлarni qochirish mavsumida juda yaxshi yaylovlar hisoblanadi. Sho'ra o'tlarning to'yimliligi mavsumlar bo'yicha quyidagicha: bahor-23,0; yozda-47-52, kuzda va qishda-30-33 ozuqa birligiga teng. Aksariyat qorako'lchilik yaylov tiplarining o'rtacha yildagi hosildorligi gektardidan 1,5-2,0 sentner miqdorida qayd qilinsa va qumli bo'limgan maydonlarda ozuqa zahiralarining miqdori taxminan 2,5-3,5 s/ga quruq massa yoki 1,1-1,7 sentner ozuqa birligidan oshmaydi. Adirlarda yaylov hosildorligi o'rtacha 3-5 s/ga dan iborat. Demak, zarur miqdordagi ozuqa massasini olish uchun qo'y-qo'zilar bir sutka davomida ancha masofani kechishi lozim.

Professor O.X.Xasanov (1995) ning ma'lumotlariga asosan O'zbekiston florasida ozuqaboplrik ahamiyatiga ega turlar 1500 turni tashkil etib, hozirgi kunga qadar ularning 650 turi o'rganilgan.

**O'simliklarni ozuqvayligi jihatidan baholash usullari, yeyiluvchanligi, ozuqvayi qiymati, to'yimliligi.** Har bir turga mansub

ozuqabop o'simliklarni ozuqaboplilik jihatdan baholashning kompleks usuli qabul qilingan bo'lib, odatda, kimyoviy tarkibi, yeyiluvchanlik, to'yimlilik, hazm bo'luvchanlik, ozuqabop moddalarning hayvonlar organizmida singishi, o'simlik massasining texnologik va biologik sifatlari, fermentativ aktivligi, hosildorligi, hosildorlikning yil mavsumlari bo'ylab taqsimplanishi, foydalanish davomiyligi, saqlash muddatları, mahsulot olishdagi ulushi kabi talay ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bular orasida eng muhimlari-yeyiluvchanligi, ozuqaviy qiymati, hazm bo'luvchanligi, hosildorligi (biologik va xo'jalik) kabilar eng asosiyları hisoblanadi.

Yirik shoxli hayvonlar odatda yumshoq, nam, shirin o'simliklarni xushko'rsa, yilqi-otlar quruq, biroz dag'aldoq, hidlilarni yoqtiradi; tuyalar esa dag'al, tuzlarga boy, hidli o'simliklarni yeydi. Qo'y va echkilar, tuya va otlar yeydigan o'simliklarni bemalol yeydi. Lekin qo'y-qo'zilarning bu turdag'i o'simliklarni tuyalardan farq qilib yeyishi shundaki, ular, bu o'simliklarni to'liq, butunlay yemasdan, ko'proq eng yumshoq qismlarini qisman yilib olib yeydi.

Yaylovda o'simliklarning yeyiluvchanlik darajasini aniqlash uchun ma'lum maydonda yaylov hosildorligi mol boqishdan oldin va qoniqarli mol boqilgandan keyin aniqlanishi mumkin. Bundan tashqari, har bir o'simlikning yeyiluvchanligini aniqlash uchun ma'lum miqdordagi ozuqani tarozida tortib va maxsus kletkalarda saqlanuvchi mollarga bevosita yedirish va yeyilgan sarqit-qoldirilgan farqni hisoblash orqali amalga oshirilishi mumkin. Boshqa tabiiy mintaqalardan biroz farq qilib, qorako'lchilik hududlari yaylovlarida o'suvchi o'simlik turlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunonchi, ularning ayrimlari rivojlanishining alohida bosqichlarida yoki faqat quruq holatda yeyiladi. Aksariyat turlarning faqat ma'lum qismlari-barglari, novdalari, gulto'plari yeyilsa, (butalar, yarim butalar) boshqalarida (efemerlar) barcha qismi yeyilib yuboriladi.

Sobiq SSSR territoriyasida yaylovlarda tarqalgan ozuqabop o'simliklarning yeyiluvchanligini birinchi bo'lib akad. I.V.Larin o'rgana boshlagan. Olim o'simlik yeyiluvchanligini 5 balli aniqlash usulini taklif etgan:

- 5-a'lo** yeyiladigan;
- 4-yaxshi** yeyiladigan;
- 3-qoniqarli** yeyiladigan;
- 2-qoniqarlidan past** yeyiladigan;
- 1-yomon** yeyiladigan;
- 0-yeyilmaydiganlar.**

*O'simliklarning to'yimlilik qiymati eng muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.* Bu jihatdan o'simlikni baholash uchun kimyoiy tahlil amalga oshirilib, dastavval, ozuqa tarkibidagi quruq modda va suv miqdori aniqlanadi. So'ngra quruq modda tarkibida kul miqdori aniqdanib, qolgan qismida protein, oqsil, yog', kletchatka, AEM miqdori aniqlanadi.

Hozirda o'simliklarning to'yimlilik qiymatini aniqlashda eng keng qo'llanilgan usul bu **ozuqa birligini** aniqlash usuli hisoblanadi. Ozuqa birligi sifatida 1kg suli qabul qilingan. 1 kg sulining to'yimliliqi 6048 kDj yoki 144 kkalga yoki 0,6 kraxmal ekvivalentiga teng.

**Energetik ozuqa birligi** (EOB) 10,5 MDj almashinuv energiyasiga teng deb qabul qilingan. U ozuqaning yalpi energiyasidan tezak, siyidik va metan energiyasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

**Ozuqaning to'yimliliği** dastavval, uning tarkibidagi protein miqdori bilan belgilanadi. Proteinga eng boy (25%) zamburug'lar hasoblanadi, keyin karamdoshlilar (20,4%), dukkakkadoshlar (18,4%), tollar (17,6%) hisoblanadi. Murakkabguldoshlar, g'alladoshlar (10,4 %), hamda lishayniklar (4 %) protein miqdori jihatdan eng so'nggi o'rirlarni egallaydi.


Protein miqdorining o'zgarishi, mazkur turlarning o'sish sharoitlari bilan bog'liq. Umuman, o'simliklarning yosh, endigina maysalagan paytida protein, yuqori bo'ladi, tana dag'allasha borganligi sababli unda kletchatka miqdori ortib protein kamaya borishi kuzatiladi. Masalan, efemerlarni olaylik: ularning aksariyatida ko'kat holida, boshoq chiqargunga qadar ozuqasi tarkibida 25-30 % gacha protein bo'lib, quruq holga kelgach 3-6 % gacha tushib ketadi. Ozuqa tarkibida aminokislotalar miqdorining mavjudligi ham muhim ko'rsatkichdan biri hisoblanadi. Aminokislotalar turlari ham har xil o'simliklarda har xil bo'lib, aksariyat cho'l o'simliklari ozuqasi tarkibida lizin, gistidin, tsistin kabi aminokislotalar yetarli miqdorda bo'ladi.

Ozuqa tarkibida mikroelementlarning miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar organizmida mikroelementlarning yetishmasligi, yoki me'yordan ortiq bo'lishi ularning sog'ligiga ziyon keltiradi. Chunonchi, marganetsning yetishmasligi mineral moddalar almashinuvini yomonlashtirsa, mis tanqisligi esa gemoglobin sintezini pasaytiradi. O'simlik tarkibida, mg/kg hisobida mikroelementlar miqdori quyidagi raqamlardan past bo'lsa, tanqis deb tan olinadi: marganets 30 mg/kg dan kam, mis-5, bor-2, molibden-2, kobalt-0,2; ular 30-60; 5-10; 2-5; 2-3 va 0,2-0,5 mg/kg bo'lsa optimal hisoblanadi. Ko'pchilik dukkakkadoshlarga mansub o'simliklarda mikroelementlar miqdori optimal miqdorda bo'lishi aniqlangan. Bor moddasi aksariyat g'alladoshlarida me'yordan kamligi

aniqlangan, lekin beda va donnikda uning miqdori me'yoridan 2-2,5 barovar yuqori.

**Ozuqa moddalarining hazm bo'lishi va o'zlashtirilishi.** Hayvon organizmida ozuqa moddalarining hazm bo'lishi va o'zlashtirilishi darajasi ozuqa turi, o'sish fazasi, ozuqani yeyishga tayyorlash texnologiyasi va boshqa bir talay omillar bilan belgilanadi. Masalan, proteinning hazm bo'lishini novdalash bosqichida 100 deb olsak, boshqa bosqichlarda quyidagicha taqsimlanishi mumkin: boshqo chiqarishda-90-95, gullahda-85-90, quriganda-60-70. Yog' va kletchatkaning hazm bo'lishi o'simlikning yosh davrida taxminan 60-70 % bo'lsa, o'simlik vegetatsiyasining so'ngida 50-60% ga tushadi. Ozuqa moddalarining o'zlashtirilishi uning hazm bo'luchanligidan past bo'ladi. Ayniqsa, u mineral tuzlar miqdori ko'p bo'lgan hollarda ancha past bo'ladi va aralash ozuqada organik moddalar miqdori mo'l bo'lganda ko'payadi.

**Topshiriq:** "Daryo irmoqlari" pedagogik texnologiyasi bo'yicha yozuv taxtasiga uzun daryo uzanini chizing va uning ustiga "Yaylov tipi" deb sarlavha yozing. Daryo uzanini yaylov tipi miqdoricha irmoqlarga bo'ling, irmoqlarni esa o'z navbatida har bir yaylov tipiga xos o'simlik turlari miqdoricha irmoqchalarga bo'ling va bilimingizni sinovdan o'tkazing.



#### **Nazorat savollari:**

1. Qurg'oqchil sharoitlarida tarqalgan tabiiy yaylovlar o'ziga xos xususiyatlari.
2. Butun yil davomida yaxshi yeyiladigan o'simliklar guruhlari.
3. Yaylov tipi nima?
4. Qorako'chilik hududlaridagi asosiy yaylov tiplari necha xil bo'ladi?
5. Respublikamizda efemer va efemeroидli yaylov tipining umumiy maydoni qancha va qaysi viloyatlarda keng tarqalgan?
6. Buta-barra o'tli yaylovlarning respublikamizdagи maydoni va qaysi viloyatlarda keng tarqalgan?
7. Buta -barra o'tli yaylovlarning ozuqa zahiralari qancha?
8. Xo'jalik nuqtai nazaridan qulay yaylov tipi qaysi?
9. Yarim buta -barra o'tli yaylovlarning maydoni qancha?

10. Sho'ra o'tli yaylov tipi maydoni qancha va ular asosan qayerlarda uchraydi?
11. Sho'ra o'tli yaylovlar mahsuldorligi qancha?
12. Sho'ra o'tli yaylovlarda qanday o'simliklar o'sadi?
13. Qo'yalmi qochirish mavsumidagi juda yaxshi yaylov tipi qaysi?
14. Adir yaylovlaring o'rtacha hosildorligi qancha?
15. O'simliklarning yeyiluvchanligi nimalarga bog'liq va ular qanday baholanadi?
16. Ozuqa birligi nima?
17. Energetik ozuqa birligi nima?
18. Ozuqaning to'yimliligi nima bilan belgilanadi?
19. Ozuqa moddalarining hazm bo'lishi va o'zlashtirilishi nimalarga bog'liq?
20. Ozuqa o'simliklarning umumiy va haqiqiy hosildorligi nima?

#### **3-4 mavzuga doir test savollari**

1. Yalov tipiga ta'rif bering.
  - A. Ozuqabop turlar va miqdor jihatdan ma'lum tarkibga ega yaylovlarga aytildi
  - B. Ozuqabop turlar jamg'armasiga aytildi
  - C. Ozuqabop turlarning miqdorini ko'pligiga aytildi
  - D. Ozuqabop turlarning tarkibi
2. Galofitlar nima?
  - A. Sho'rni sevuvchi o'simliklar
  - B. Qumni sevuvchi o'simliklar
  - C. Suvni sevuvchi o'simliklar
  - D. Issiq sevar o'simliklar
11. Quyida keltirilgan qaysi o'simlik psammofit o'simlik
  - A. Iloq
  - B. Qo'ngirbosh
  - C. Isiriq
  - D. To'g'ri javob yo'q
12. Adir yaylovlaringin hosildorligi qancha?
  - A. 1,5-3,6 s/ga
  - B. 5-6 s/ga
  - C. 10-12 s/ga
  - D. 7-8 s/ga
13. Efemeroidlarning hayotiy shakli qanday?
  - A. Ko'p yillik

- B. Bir yillik  
D. Ikki yillik  
E. Yarim yillik
14. Kvadrat maydoncha usuli yordamida yaylovlarning hosildorligi, qanday o'simliklarda aniqlanadi?
- A. Efemer va efemeroидlar  
B. Butalar va yarim butalar  
D. Dag'al poyalilar  
E. Bir yillik sho'ra o'tlar
15. Quyida keltirilgan qaysi o'simliklar dag'al poyali ozuqabop o'simliklar guruhiga kiradi
- A. Karraq, yantoq, sho'r ajiriq  
B. Seta, sagan, qumarchiq  
D. Jag"-jag", lolaqizgaldoq, yalturbosh  
E. Qo'ng"rbosh, chitir, arpaxon
16. Butun yil davomida yaxshi yeylimdigan o'simlik guruhlari?
- A. Efemer va efemeroидlar  
B. Butalar va yarim butalar  
D. Dag'al poyalilar  
E. Bir yillik sho'ra o'tlar
17. Yaylov tipi necha xil bo'ladi?
- A. 1  
B. 2  
D. 3  
E. 4
18. Xo'jalik nuqtai nazaridan eng qulay yaylov tipi?
- A. Efemer va efemeroидli yaylov tipi  
B. Buta-barra o'tli yaylov tipi  
D. Yarim buta-barra o'tli yaylov tipi  
E. Sho'ra o'tli yaylov tipi

## **5-6-mashg'ulotlar. Yaylovlarda tarqalgan efemer va eferoid o'simliklar, ularning muhim biologik va xo'jalik xususiyatlari**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Efemer va efemeroit ozuqaviy guruh va uning muhim, asosiy namoyondalarining biologik, ekologik va xo'jalik xususiyatlari xususida zarur ma'lumotlar berish, ularni yaylovlarda bevosita tanish va samarali foydalanish masalalarini o'rgatish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Cho'l sharoitida o'sishga moslashgan ozuqabop o'simliklarning gerbariy materiallari, fotosuratlar, albom, slaydlar, o'simlik g'aramchalari, videoproyektor, animatsion va videolavhalar.

**Mashg'ulotni o'tkazash tartibi** – gerbariy materiallari vositasida tushuntirish, zarur ma'lumotlarni yozdirish. Har bir turga oid ko'rgazmali qurollar bilan mustaqil ishslashga jiddiy e'tibor qilish. Maslahatlar berib borish, mashg'ulot so'ngida savol-javoblar o'tkazish, mustaqil topshiriq asosida talabalarni baholah. **Mashg'ulotning mazmuni.** Asosiy e'tibor yaylovlarda tarqalgan muhim turlarga xos bioekologik, xo'jalik xususiyatlariga oid ma'lumotlarni bayon qilishga qaratilgan.

**Carex Physodes M.V.- Ilak.** Ilak-hiloldoshlar oilasiga mansub psammofit (qumni sevuvchi), ildizpoyali efemeroit, bo'yи 15-25 sm. Qumli cho'llarning o'tchil yarusida dominant yoki subdominant tur hisoblanadi. Urug' xaltachalarining shakliga qarab uning ikki ko'rinishi farqlanadi: xaltachalari elliptik va aylanasimon shaklli. Ilakning areali nihoyatda keng: u Markaziy Osiyoning cho'l rayonlarini qamrab olib, shimolda qo'yи Volgaga qadar cho'zilgan. Shuningdek Afg'oniston va Eronda ham o'sadi. Ekologik jihatdan o'ta o'zgaruvchan tur: kuchli rivojlangan qumlar, qum tepalikdar orasidagi tekisliklar, qum tepalarining qiyalarida o'sadi. O'ta baland qum tepalar (barxanlar) da deyarli o'smaydi. Kuchli zichlashgan qumlar, sho'rangan maydonlarga chidamsiz. Ilak qumni yaxshi mustahkamlovchi o'simlik. Ilakning yerosti qismi qator yordamchi ildizlar, ildizpoyalar va portsial turlardan iborat. Zichlashgan qumlarda portsial turlar bir-biridan 15-30 sm, bo'sh qumlarda 50-60 sm masofada joylashgan chimgardan iborat bo'lib har qaysisining mustaqil ildiz tizimi mavjud. Ilak fevralsa ko'kara boshlaydi, martda gullaydi, aprel-mayda urug' beradi. Qizilqumda ilakning vegetatsiya (ko'karishi ) davri 65-120 kun. O'sish va ob-havo sharoitlariga qarab ilakning pichan hosildorligi gektridan 0,5-1,0 sentnergacha. Ilakda urug'i bilan ko'payishga nisbatan, vegetativ usulda

ko'payish ustunlik qiladi. Asosiy massasi tuproqning yuza qismida (5-18 sm) joylashgan bo'lib, ayrim juda chuqur rivojlanuvchi ildizlarning chuqurligi Qizilqum sharoitida 1-1,4 m ga yetadi. O'sish sharoitiga qarab maydon birligida ilak-novdalarining miqdori  $1\text{m}^2$  da 150 dan 825 donagacha yetadi.

Qumli cho'l yaylovlarda ilakning ozuqaboplrik mohiyati nihoyatda muhim: u yerda ilak barcha turdag'i mollar uchun a'lo darajadagi bahorgi ko'kat hisoblanadi. Qurib qolganidan keyin ham o'sgan joyida buzilmasdan saqlanib qolishi sababli ilakning yeyiluvchanlik xususiyati tugamaydi. Bahorda ilak pichanida (gullash fazasi) tarkibida 24,8 % protein mavjud. 100 kg pichanida 94 ozuqa birligi va 10 kg engil hazm bo'lувchan oqsil bor. Ilakning qurib qolishi bilan uning ozuqaviy qiymati biroz kamayadi va 100 kg quruq xashagida 60 ozuqa birligi va 3,3 hazm bo'lувchan oqsil mavjud. Karotin va C vitaminiga (100-24,3 mg/kg) boy.

**Poa Bulbosa L. - Qo'ng'irbosh.** Qo'ng'irbosh g'alladoshlar oilasiga mansub efemeroit, bo'yи 15-40 (60 sm). Poyalari tekis, yalang'och; novdalarining uchlarida urug'lari o'miga piyozchalar hosil qiladi. Barglari ingichka ipsimon. Qo'g'irbosh cho'l va yarim cho'l zonalarida ancha keng tarqalgan tur. Soz, qumoq tuproqlar, zichlashgan qumlarda tarqalgan, tuproqning qisman sho'rlnishi va shag'allanishiga chidamli. Ancha zich o'sadi va yuqori to'yimli ozuqabop o'simlik hisoblanadi. Uni barcha turdag'i hayvonlar ishtaha bilan yeydi. Vegetatsiya davrida pichani tarkibida 17 % protein va kam (26,3%) miqdorda kletchatka mavjud. 100 kg xashagida bahorda -83, yozda -48, kuzda -41 va qishda -34 ozuqa birligi va 4,9 kg yengil hazm bo'lувchan protein mavjud. Pichan tayyorlash uchun ham yaroqli. Yozda qurub qolishi sababli ozuqaviy qiymati biroz pasayadi.

Qo'ng'irboshning hosili aktiv o'sish davrining gidrotermik sharoitlarining qulayligi bilan belgilanadi: issiq va sernam bahor sharoitida, odatda eng yuqori (6-10 s/ga) hosil to'playdi. Ob-havo noqulay kelgan yillari qo'ng'irboshning hosildorligi 1,0-1,5 s/ga gacha pasayib ketadi. Qo'ng'irbosh-cho'lning diqqatga sazovor va chuqur o'rganishga moil ozuqabop o'simligi hisoblanadi. Cho'lning turli tuproq-iplim sharoitida olib borilgan tajribalar bu o'simlik ekin sharoitida tabiiy holda o'sishga nisbatan ancha yuqori hosil toplash imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatilmoqda. O'zbekistonda qo'ng'irboshning "Rohat" navi yaratilgan, uning hosildorligi gektaridan 8-10 sentnerni tashkil etadi.

**Malcolmia Turkestanica Litv., M. Grandiflora. M. Africana. -**

**Chitir.** Chitirning Markaziy Osiyo cho'l hududlarida bir necha (14) turlari tarqalgan. Ular krestguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, o'rtacha 10-15 smdan tortib yarim metrgacha yetadigan bir yillik o'simliklar. Turlarga qarab o'simlikning poyasi kamshoxliligidan tortib, ser yon shoxchalar hosil qiluvchilargacha bo'ladi. Poyasi, barglari va novdalari mayda tukchalar bilan qoplangan. Barglari cho'zinchoq, qirrali va lansetsimon, to'pgullari tarqoq, aksariyat novdalarning uch qismida joylashgan. Gultojlari juftli, binafsha rangli, uzunligi 2,5-3,5 mm. Gulbarglari cho'zinchoq, qizg'ish, binafsha rangda.

Aksariyat Markaziy Osiyo va Kavkazning cho'l va adir mintaqalarida nisbatan kengroq tarqalgan tur. Asosiy tarqalish sharoitilari: soz, qumoq, qumli tuproqlardar. Taqirsimon tuproqlarda ham o'saveradi, hatto begona o't sifatida ekinzorlarda ham uchraydi. Tarqalishining o'ziga hosligi shundaki, siyrak-siyrak maydonlarda o'sib, yaxlit yirik maydonlar hosil qilmaydi. Fevrалning oxiri-martning boshlarida maysalaydi, martda jadal o'sadi, aprelda gullaydi, may oyida urug'lari pishib yetiladi. Urug'lar pishib yetilgach tezda to'kilib qoladi. Eng yuqori ozuqa zahiralari ham aynan ko'klam fasliga to'g'ri keladi, yozning boshlaridayoq yalpi hosilning uchdan bir qismigina saqlanib qoladi holos.

Ko'kat holatida, quriganidan keyinroq ham chitirlar to'yimli ozuqabop turlar jumlasiga kiradi. Uni cho'ldagi barcha qishloq xo'jalik hayvonlari xushko'rib yeydi. Semirtiruvchi ozuqa hisoblandi. Madaniylashtirish uchun e'tiborga loyiq tur. Yirik shoxli mollar, qo'yechkilarga nibatan kamroq iste'mol qiladi. Chitirlar proteinga boy o'simliklar guruhiga kiradi. Tarkibida 26-32 % protein, 19,3-32,2 % kletchatka, 25,9-46,8 % AEM, 1,8-4,2 % yog' va 14,7-17,7 % kul moddalari saqlaydi. 100 kg abs. quruq pichanida 96,2 ozuqa birligi va 18 kg yengil hazm bo'lувchan oqsil mavjud.

**Sameraria Boissierana Reichenb. Fel. - Usma.** Krestguldoshlar oilasiga mansub o'tchil bir yillik o'simlik, bo'yi 50-80 sm. Barglari uzunchoq-lansetsimon, gulto'plami ro'vak, gultoj barglari sariq, mevasi-qo'zoqcha. Sovuqqa chidamli o'simlik. Tojikiston, O'zbekiston adirlarining lyosli tuproqlarida tarqalgan (Sinkovskiy, Xanchaev, 1981). O'sish davri fevral-aprel, aprelda urug' beradi. Usmani mayda shoxli mollar zo'r ishtaha bilan yeydi. Qo'zilatish davrida a'lo sifatlari bahorgi ko'kat. Gullah pallasida tarkibida 24,3 % protein, 3,3 % yog', 19,5 %

kletchatka, 25,4 % AEM, 14,5 % kul moddasi saqlaydi. 100 kg pichanida 71 oz. birligi va 18,5 kg hazm bo'luvchan oqsil mavjud. Bu ko'rsatkichi jahatidan u beda pichanidan ham ustun turadi. Demak, qo'zilatish davrida qorako'l zotli qo'yalar uchun a'lo sifatlari o'tloq hisoblanadi. Biologiyasi, ekologiyasi, madaniylashtirish masalalari Tojikistonda yaxshi o'r ganilgan va "Yakbashinskaya" navi yaratilgan. Ekin sharoitida usmaning pichan hosildorligi 20 s, o'z-o'zidan, urug'laridan juda yaxshi ko'payadi. O'zuqabopligidan tashqari asal to'plovchi, bo'yoq beruvchi o'simlik hisoblanadi.

**Carex Pachystylis Gay.-Rang (qorabosh).** Hiloldoshlar oilasiga mansub efemeroit, bo'yi 15-40 sm. Poyasi silliq. Ildizpoyasi ingichka, alohida-alohida tutam holida; chimchalari yumshoq. Rang soz, qumoq mexanik tarkibli bo'z tuproqlarda, ayniqsa adirlarda keng tarqalgan o'simlik. Boshqa o'simliklardan ham oldinroq erta bahordan ko'kara boshlaydi, ba'zan kuzdan boshlab ham ko'karadi. Rang juda yaxshi rivojlangan ildiz sistemasiga ega bo'lib, tuproqlarning yuqori qismini (25 sm gacha) butunlay qamrab oladi. Eng ko'p ozuqa zahiralarini martning oxiri-aprelning boshlanishida to'playdi. Ob-havo qulay bo'lgan yillari gektaridan 3-4 sentner hosil to'playdi, odatda hosildorligi gektaridan 1 sentnerdan oshmaydi. Cho'l ozuqabop o'simliklari orasida rang o'sish davrida yuqori ozuqabop xususiyatga ega tur hisoblanadi.

Gullash fazasida tarkibida 19 % protein va 20,5 % kletchatka mavjud. 100 kg quruq xashagi tarkibida bahorda (gullash fazasi) 100 ozuqa birligi va 3,5 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil, yozda (quruq holda) 51,7 ozuqa birligi va 2,6 kg oqsil mavjud. Gullash fazasida 100 g rang pichani tarkibida 28,5 mg karotin (provitamin A), urug' berish fazasida esa 23,3 mg karotin mavjud. Rangni barcha turdag'i hayvonlar butun mavsumlar bo'y lab yaxshi yeydi; ko'klamda esa semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. O'z vegetatsiyasini tugatgach, qurisa ham rang ildizida yaxshi saqlanib qoladi. Aksariyat vegetativ usul bilan ildizpoyalari yordamida ko'payadi.

**Anisantha Tectorum (L) Nevski. (Bmomus Tectorum). - Yaltirbosh.** G'alladoshlar oilasiga mansub ko'klamgi efemer, bo'yi 15-40 (60) sm. Yaltirbosh yayovlarda yaxlit o'suvchi maydonlar barpo qilmasada, barcha ko'klamgi turlar bilan birgalikda qo'y-qo'zilarning bahorgi ratsioniga kiradi. Yaltirbosh ustivorlik qiladigan yayovlarning yillik o'rtacha hosildorligi gektaridan 3-5 s atrofida; ayrim o'ta qulay bo'lgan yillari undan ham yuqori bo'lishi mumkin. Vegetatsiyasi

anchagina erta (fevral-mart) boshlanadi, aprel-mayda gullaydi, boshoq chiqargach qurib qoladi. U erta bahorning vitaminlarga boy muhim ko'katni hisoblanadi. Ko'kat holida barcha uy hayvonlari yaltirboshni yaxshi yeydi. Ayniqsa yirik shoxli mollar, yilqilar uchun eng yaxshi ozuqa hisoblanadi. Ildiz tizimi-popuksimon; tuproq yuzasidan boshlab sernovdali. Barglari lineysimon, enli (2-5 sm). Ro'vagi uzun (6-15 sm) egiluvchan, biryoqli.

Cho'l hududlarida keng tarqalgan tur. Markaziy Osiyoning barcha hududlarida (gipsli, qumli, kam sho'rhok) o'sadi. Umuman tuproq tanlamaydi. Boshoq chiqarib pishgach yeyiluvchanligi va to'yimliligi keskin pasayadi. —o'tkir uchli qurigan boshqolari qo'y qo'zilarning og'iz bo'shlig'iga tiqilishi ziyon keltirishi mumkin. Xashagining kimyoviy tarkibi jihatidan urug' berish pallasigacha yuqori to'yimli ozuqalar jumlasiga kiradi. Butanizatsiya pallasidagi oziqaning kimyoviy ko'rsatkichlari: protein-10%, yog'lar-5,7%, kletchatka-31,7%, kul-8,4%, AEM-44 %. Rivojlanishining butonizatsiya pallasida 100 kg xashagining to'yimliligi 73,5 ozuqa birligi va 6,7 kg yengil hazm bo'lувchan proteindan iborat. Urug'lari pishgach o'simlik ancha dag'allashganligi tufayli yeyiluvchanligi va to'yimliligi sezilarli pasayadi.

**Eremopyrum Orientale (L.) J Et.Sp - Arpaxon.** Boshoqdoshlar oilasiga mansub efemer, bo'yi 30 sm gacha. Boshoqlari keng (1,5-3,0 sm), boshog'ining eni 1-1,8 sm. Boshoq qiltiqlari uzun (4-8 mm) qiltiqli. Ildiz sistemasi chuqur rivojlanmagan. Cho'l zonasida keng tarqalgan bo'lib, efemerli, shuvoqli, sho'ra o'tli yaylovlarda boshqa efemerlar bilan birga o'sadi. Biroq yakka holda katta maydonlar tashkil qilmasdan boshqa turlar bilan aralash holda tarqalgan. Martdan aprelning oxirigacha o'sadi, aprelda gullab urug' beradi. Bu turning qiymati shundaki, uni barcha turdag'i hayvonlar zo'r ishtaha bilan iste'mol qildi.

Pichani tarkibida vitaminlar (100 g xashagida 69,7 mg karotin) va boshqa to'yimli moddalarning mavjudligidan qorako'l zotli qo'yilar uchun semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Gullash fazasida arpaxon 15,5 % protein, quruq holida esa 9,3 % protein saqlaydi. Boshqa tur ozuqa moddalarining miqdori quyidagicha: yog'lar -2,7, kletchatka-32,1, AEM-46,0, kul moddasi -8,7 %. 1kg quruq xashagi tarkibida bahorda 120, yozda 60, kuzda 30 mg yengil hazm bo'lувchan protein bor. Hosildorligi ko'klam davrining gidrotermik rejimining qulayligi bilan belgilanadi: odatda, unchalik yirik emas (1-1,5 s/ga atrofida). Ayrim yillari taqir maydonlarda yog'in-sochin suvlarining ancha yig'ilib qolganida mazkur

maydonlarda arpaxon juda jadal rivojlanib uning pichan hosili gektaridan 5-7 s va undan ham yuqoriroq bo'lishi mumkin. Turli hayotiy shakllardan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozlari barpo etganda arpaxon yaxshi komponent sifatida ham ishlatalidi.

**Papaver Pavonium Schrenk.** - *Lola qizg'aldoq*. Ko'knordoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, bo'yi o'sish sharoiti va yilning qulayligiga qarab 5-10 smdan 40-45 sm gacha yetadi. Poyasi oddiy, yakka; ba'zan tuproq yuzasidan boshlab shoxlangan; odatda qalin tukchalar bilan qoplangan. Barglarining cheti kemtrilgan, barglari bandsiz, uch marta kesilgan. Gullari yirik, qizg'ish rangli, manzarali. G'unchasi tuxumsimon, 8-15 mm uzunlikda. Gulkosasi juft, tez to'kiluvchan, gultoji qizil rangli, biroq ostki qismi qora dog'li. Changchisi ko'p sonli, changdoni uch xonali. Gul toji qisqa muddat (2-3 kun) da to'kilib ketadi.

Cho'l va adir mintaqalarida tarqalgan tur. Bahorning gidrotermik sharoiti qulay (iliq ko'klam, yog'ingarchilik serob) kelgan yillari yaylov va lalmi dehqonchilik maydonlarda chiroyli manzara hosil qiladi, mart oyidan boshlab unib chiqadi. Aprelning oxiri mayning dastlabki dekadasida gullaydi. Gullah fazasi tugagach tezda qurib o'simlik qoplamida ko'rinnmay qoladi. Asosan boshqa turlar bilan aralash holda tarqalganligi tufayli va qisqa muddatli vegetatsiya davriga ega bo'lganligi sababli ozuqa zahiralari toplash ko'rsatkichlari yuqori emas. *Lola qizg'aldoqni* mayda shoxli mollar yaylovda aksariyat ko'kat holida boshqa turlar bilan aralash holda yaxshi iste'mol qiladi. Vegetatsiya tugashi bilan tezda qurib va to'kilib shamol yordamida tarqalib ketishi sababli yaylovboplik sifati keskin pasayadi va "xas" holida iste'mol qilinadi.

**Allium Sabulosum Stev. Et. Bunge.-Qum piyozi.** Piyozguldoshlari oilasiga mansub ko'p yillik o'tchil o'simlik; bo'yi 30-70 sm. Tupguli soyabonsimon yapaloq, gulbandi tekis. Ko'kat holida gullagunga qadar yaxshi yeyiladi. Gullagandan keyin quriydi va yeyilmaydi. Piyozchalari yassi -tuxumsimon, boshqa qobiqlari terisimon, ochiq-qo'ng'ir rangli, barglari tekis, tanasidan qisqaroq. Qum piyozni qo'ylar, echkilar, tuyalar yeydi. Ozuqaboplik ahamiyatidan tashqari mahalliy aholi tomonidan qum piyozi ko'kat holida piyozchalari bilan birgalikda vitaminli ko'kat sifatida foydalaniadi. Mart oyidan maygacha maysalaydi, aprel-mayda gullaydi. Qum piyozi va uning turlari yaylovlarda kam sonli, tarqoq-tarqoq o'sganligi, shuningdek, tarkibida salonin moddalari mavjudligi sababli

- E. Suvni sevuvchi o'simliklar
4. Iloq efemer o'simligi qayerda tarqalgan?
- A. Markaziy Osiyoda
  - B. Afg'oniston va Eronda
  - C. Volga bo'yida
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
5. O'zbekistonda qaysi efemeroid o'simligining "Rohat" navi yaratilgan?
- A. Qo'ng'irboshning
  - B. Qoraboshning
  - C. Yaltirboshning
  - D. Qum piyozning
6. Chitir o'simligi qaysi oilaga mansub?
- A. Krestguldoshlar
  - B. Sho'radoshlar
  - C. Hilodoshlar
  - D. Torondoshlar
7. Usma o'simligining asosiy ekologik xarakteristikasi nimadan iborat?
- A. Sovuqqa chidamli
  - B. Sho'rga chidamli
  - C. Qurg'oqchilikka chidamli
  - D. Issiqlikka chidamli
8. Rang o'simligi asosan qanday ko'payadi?
- A. Urug'lari yordamida
  - B. Tuganaklari yordamida
  - C. Ildizpoyalari yordamida
  - D. Qalamchalri yordamida
9. Yaltirboshning yaylovboplik xususiyatlariga nimalar kiradi?
- A. Vitaminlarga boy muhim ko'kat
  - B. Pishgach yeyiluvchanligi pasayadi
  - C. Qurigach qo'y-qo'zilarning og'iz bo'shlig'iga zarar yetkazadi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
10. Lolaqizg'aldoqning lotincha nomi?
- A. Papaver Pavonium Schrenk.
  - B. Allium sabulosum stev. Et. Bunge
  - C. Capsella Vursa Pastorik (L.). Medis.
  - D. Ferula Asso-Foetida L.

## **7-mashg'ulot. Yaylovlarda tarqalgan dag'al poyali o'simliklar**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Qorako'lchilik yaylovlarida tarqalgan mazkur oziqaviy guruhga kiruvchi o'simlik vakilarining muhim biologik, ekologik xossalari va qorako'lchilikda foydalanish xususiyatlarini o'rganish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Gerbariy yoki yangidan terilgan o'simlik namunalari, har bir turning kimyoviy tarkibini aks ettiruvchi jadvallar, rangli rasmlar va slaydlar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Gerbariy materiallari misolida har bir tur o'simlikka oid muhim biologik, ekologik, xo'jalik belgilarini batavsil bayon qilish, yozdirish va talabalarning ko'rgazmali qurollar vositasida mustaqil ishlashini ta'minlash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Qorako'lchilik yaylovlarining o'ziga xos yana bir qirrasi shundan iboratki, ulardan bevosita o'tloq sifatidagina emas, balki, zarur bo'lganda, dag'al pichan tayyorlash manbai sifatida ham foydalanib kelinadi.

Shunday maqsadlarda, birinchi navbatda, maxsus adabiyotlarda dag'al poyali o'tlar nomi bilan mashho'r o'simlik turlari foydalilanadi. Bu guruhga kiritilganlar ko'p yillik ko'katlar bo'lib, yaylovda uzoq vaqt vegetatsiya davriga ega bo'lsada, to'yimlilik ko'rsatgichlari jihatidan unchalik yuqori baholanmaydi. Ularga xos yana bir xususiyat shundan iboratki, ularning aksariyatini vegetatsiya davomida mollar yaxshi yemaydi yoki yeyiluvchanligi ancha past. Biroq, ularning vegetatsiyasi tugagach yaxshi yeyila boshlaydi. Shunday qilib, qorako'lchilik hududlarida dag'al poyali o'simliklardan qo'y-qo'zilarni qish mavsumi davomida boqish va qo'shimcha oziqlantirish uchun kafolatlangan oziqa manbai sifatida foydalilanadi. Bu oziqaviy guruhga kiritilgan o'simlik turlari turli botanik oilalar, hayotiy shakllardan iborat bo'lib, cho'l ekologik tiplarining (qumli, gipsli, sho'rxok, lyossli) deyarli barchasida uchraydi.

**Aeluropus Littoralis (Youn) Parl.- Shlo'rajriq.** G'alladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik ildiz poyali o'simlik, bo'yi 20-60sm. Barglari yassi, ikki qatorlab joylashgan, ustki qismi g'adir-budir. Novdalari va barglari yuzasida, odatda tuz kristallari to'playdi, o'zidan tuz ajratuvchi galofitlar guruhiga kiradi. To'pguli boshoqsimon ro'vak, boshoqchalari 5-10 gulli. Mevasi ochilmaydigan bir urug'li doncha, oval-nashtarsimon shaklli uch qirrali: oq-qo'ng'ir rangli pardali meva o'rami gul va boshoq

qobiqlari bilan o'ralgan. Urug'larining laboratoriya sharoitida unib chiquvchanligi 38-52%, ularning unuvchanligi 8-9 yil davomida saqlanadi.

Sho'r ajriqning eng tipik tarqalish sharoitlari -sho'rangan cho'l maydonlari hisoblanadi: tuproqning sho'rlanishiga o'ta chidamli, boshqa turlar o'smaydigan sharoitda ham bu tur bermalol o'sa oladi. Ajriqzorlar yerosti suvlarining tuproq yuzasiga yaqin joylashganlik belgisi sifatida ham xizmat qiladi. U yerosti suvlari yaqin joylashgan maydonlarda yulg'un bilan birgalikda tarqalgan. Umuman ajriqzorlar Markaziy Osiyoda tog'oldi tekisliklari, daryolarning allyuvial tekisliklarida keng tarqalgan; uning eng zinch tarqalgan ekologik muhiti bo'lib sho'rangan va sho'rlanishga moil yerosti suvlari yaqin joylashgan o'tloq tuproqlar hisoblanadi. Kuchli sho'rangan tuproqlarda sho'rlanishga o'ta chidamligi tufayli monodominant o'simlik qoplami hosil qiladi; ajriqzorlar mavjud maydonlarda qisman sarsazan va boshqa sho'rlanishga moslasha bilgan bir yillik sho'ralar paydo bo'lsada, ajriqzorlarning botanik tarkibi juda kmbag'al hisoblanib, 3-4 turdan oshmaydi. Biroq, qisman drenajlanadigan maydonlarda, chunonchi, yog'ingarchilik suvlari hisobidan yuviladigan maydonchalarda ancha qalin va turlarga boy ajriqzorlar ham uchrab turadi. Sho'rajriq tarqalgan maydonlarda u bilan birgalikda yantoq, shirinmiya, yulg'un va boshqa sho'rlanishga chidamli turlar ham o'sadi. Martdan iyungacha maysalaydi, may-iyunda gullaydi, iyulda urug'i pishadi. Shamol yordamida chetdan changlanuvchi o'simlik. Changdonlari-uzunchoq enli shaklda. Chang donachalari uch hujayrali, aylana-ovalli. Sho'rajriqni mollar qoniqarli yeydi. Mol boqishga o'ta chidamli tur. Gullah pallasida uning ozuqaviy qiymati quyidagicha baholanadi (% hisobida): protein-17,4, kullar-13,2, kletchatka-18,7, yog' -2,9, AEM- 46,3. 100 kg quruq xashagida 30, 8 ozuqa birligi va 1,7 kg yengil hazm bo'lувchan oqsil mavjud. Hosildorligi gettaridan 2-4 sentner. Ob-havo qulay bo'lgan yillari hosildorligi ancha yuqori bo'lib, gettaridan 10-12 sentnerga yetadi va dag'al pichan tayyorlash manbai vazifasini o'taydi. Vegetativ (ildiz poyali) usulda va urug'lari vositasida ko'payadi

**Cousinia Resinosa Juz.- Karrak.** Murakkabguldoshlar oilasiga mansub ko'klam-bahorgi, ikki yillik monokarpik o'simlik. O'simlikning bo'yi yaxshi rivojlangan yillari 70-80 smga yetadi. Barglari yirik va atroflari qirqilgan, uchlari tiklonli, shuningdek tikanlar gul beruvchi novdalar va gulto'vida ham mavjud. Barglarining ostki qismi oqish va ustti yashil rangli. Guli qizg'ish - sariq. Gultoji gulkosasidan ajralib turadi. Har yili to'pbarglar hosil qilib ikkinchi yil poya chiqaradi, gullaydi va o'z vegetatsiyasini butunlay tugatadi.

Karrak ko'proq Markaziy Osiyo adir maydonlarida keng tarqalgan: ob-havo qulay kelgan yillari keng maydonlarda haqiqiy karrakzorlar hosil qiladi. Karrak odatda, erta bohorda (aprel) maysalaydi va yozning boshlanishida o'z vegetatsiyasini tugallaydi. Maysalashining birinchi yili nuql to'plam barglar hosil qiladi, ular qurg'oqchilik boshdanishi bilan qurib qoladi. 2-yilga borib barg to'plamidan tashqari, urug' beruvchi tikanli novdalar ham chiqaradi va o'simlikning bo'yi 70-80 sm ga yetadi. O'simlik iyunda gullab urug' bergach butunlay qurib qoladi.

Mollar (tuyalar bundan mustasno) karrakni yaylovda deyarli yemaydi, biroq karrakning cho'l zonasini uchun mohiyati shundaki, u asosiy dag'al xashak tayyorlash manbalaridan biri hisoblanadi. Turli yaylov maydonlarida yillar va o'simlik biologik xususiyatlariga qarab kuchli darajada o'zgarib turadi – yaxshi rivojlangan karrakzorlarning pichan hosili gettaridan 15-20 sentnergacha yetadi. Butonizatsiya pallasida xashagi tarkibida eng ko'p (13,4 mg %) karotin miqdori mavjud. Gullagach va undan keyin karotin miqdori keskin pasayadi. Karrakni pichan tayyorlash maqsadida butonizatsiyalash pallasida (may-iyun oylari) o'rish tavsija etiladi. 100 kg quruq karrak xashagi takibida bahorda-48, yozda- 32, kuzda- 25 va qishda-20 ozuqa birligi mavjud. Karrak pichani maxsus maydalanib va namlanib mollarga yedirilsa undan foydalanish samaradorligi va yeylimuvchanligi keskin oshadi.

**Alhagi Pseudoalhagi Mb -Yantoq.** Dukkakkoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tchil ildizpoyali o'simlik, bo'yi 50-130 sm. Poyasi ko'p novdali o'tkir burchakli tik o'suvchan. Barglari uzunchoq lansetsimon yoki yumaloq. Tikanchalarining uzunligi 1-3 sm bo'lib, o'zgargan novdalar hisoblanadi. Ildiz sistemasi juda kuchli rivojlangan bo'lib, universal tipli, grunt suvlari tarqalgan tuproq qatlamlarigacha yetib boradi. Bu turkumga ta'alluqli 4 turdan O'zbekistonning o'simlik qoplamida 2 turi A.psudolhagi va A.kirgihisorum eng ko'p tarqalgan. Gullari qizil rangli 5 qismli ikkilamchi gulqo'rg'onli. Tipik chetdan hasharotlar yordamida changlanuvchi o'simlik. Mevasi- ochilmaydigan dukkak. Urug'lari – oval – yumshoq silliq to'g'ri murtakli. Urug' po'stlog'i qattiq, kichik to'rsimon rasmlи.

Yantoq kam sho'rangan, nam bilan ta'minlangan maydonlarda ko'proq tarqalgan. Asosiy yantoqzorlar qadimiy va zamонави daryo o'zanlari, ko'l havzalari qirg'oqlariga yaqin maydonlarda ko'proq tarqalgan. Turli mekanik tarkibdagi bo'z tuproqlar, allyuvial sho'rangan maydonlarda ham o'sadi. Past tekisliklarning yer osti suvlari yaqin joylashgan maydonlarida yantoqlar juda yaxshi rivojlanadi, havo

haroratiga talabchan o'simlik. Aprelda ko'karadi, iyun–avgustda gullaydi; urug'lari sentyabr-oktyabrdagi pishib yetiladi. Vegetatsiyasi kuchli sovuqlar boshlanishi bilan tugaydi. Aksariyat vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Tabiiy sharoitda urug'lari unib chiqishi uchun tuproq namligi va havo haroratiga o'ta talabchanligi sababli urug'lari vositasida ko'payishi ancha chegaralangan. Yaxshi yetilgan urug'larning unib chiquvchanligi urug'i qobig'ini termik- mexanik ta'sir vositasida konsentrangan sulfat kislota bilan ishslash yo'li orqali ancha oshirish mumkin. Oshqozon- ichak fermentlarining ta'sirida ham uning unuvchanlik qobiliyati keskin oshadi.

Erta bahorda tuyalar, qo'y-qo'zilar, echkilar yantoqni qoniqarli yeydi. Vegetatsiya davrida yeyiluvchanligi juda past. Boshqa mavsumlarda (tuyalar bundan mustasno) boshqa turdag'i mollar tomonidan yeyiluvchanligi susayadi yoki yeyilmaydi. Kuzgi-qishqi yog'in-sochinlardan keyin novdalari, tikanlari biroz yumshaganligi tufayli yantoqning yeyiluvchanligi ancha yaxshilanadi. Yantoqning asosiy foydalanish usuli pichanini- yanchib va namlab ishlatish hisoblanadi. Yantoqzorlar keng tarqalgan maydonlarda, bu o'simlik muhim pichanbop turlar jumlasiga kiradi. Gullah fazasida pichani tarkibida 4,1 % yog', 6,3% kul, 12,6 % protein va 43,6 % AEM mavjud. 100 kg pichani tarkibida 33,5 ozuqa birligi va 4 kg hazm bo'luvchan protein; yashil ko'katni tarkibida 25,3 ozuqa birligi va 2,8 kg yengil hazm bo'luvchan protein mavjud. Ozuqaboplidan tashqari yantoq yana shifobaxsh, asal yig'uvchi o'simlik sifatida ham qadrlidir. Hosildorligi o'sish va ob-havo sharoitlarga qarab turlicha: gektaridan 6-35 sentnerni tashkil qiladi.

**Aristida Pennata- Urg'ochi selin.** Ko'p yillik chimli g'allasimon o't, bo'yi 50-100 sm. Qumli cho'lida, turli darajada mustahkamlangan yumshoq qumli maydonlarda keng tarqalgan. Yaxshi qum mustahkamlovchi. Tanasi ostidan boshlab silliq, yalang'och. Barglari tor, yashilsimon, chimining diametri 0,5-1,0 metrga cho'ziladi. Selin juda baquvvat rivojlangan ildiz sistemasiga ega bo'lib, odatda yonboshga qarab kuchliroq rivojlangan.(8-10 metrgacha cho'ziladi). Selinning ozuqaboplrik qiymati nisbatan yuqori emas: o'sish davrida ko'k massasi tarkibida 3-7% protein va 44% gacha kletchatka mavjud. 100 kg pichani tarkibida 34,5 ozuqa birligi va 1,7 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil mavjud. Maysalash davrida 100 g quruq massasi tarkibida 27,7 mg % va urug'lari pishish davrida 1,86 mg % karotin moddasi mavjud. Barcha turdag'i uy hayvonlari boshqol langanga qadar uni qoniqarli yeydi. Biroq o'sish davrida selinni qo'y-echkilar yaxshi yemaydi.

Qizilqumning ayrim qumli massivlarida selinni pichan tayyorlashga yaroqli yagona o'simlik jumlasiga kiritsa bo'ladi. Selin pichanini barcha turdag'i mollar yaxshi yeydi; 2-3 yil saqlangan pichanining yeyiluvchanligi ancha yaxshilanadi. Keyinroq novdalari dag'allashib qolganligi sababli deyarli yeyilmaydi. Kuzgi-qishgi yog'ingarchilik boshlanganidan so'ng selinning yeyiluvchanligi yaxshilanadi. Selin erta bahordan yozning o'rtalarigacha ko'karadi; mayda boshqo laydi, urug'lari iyun-iyulda, ba'zan avgustda pishadi. Urg'ochi selin ko'chuvehan qumlarni mustahkamlash va kuzgi-qishgi yaylovlarda muhim ozuqabop tur sifatida e'tiborga sazovor. Uni qumli yaylovlar mahsulдорligini oshirishda ham foydalanish zarur. Qumli cho'l sharoitida dag'al pichan tayyorlash uchun yaroqli tur.

**Agropyron Desertorum L.-Erkak o't.** G'alladoshlar oilasiga mansud qirg'oqchilikka va sovuqqa chidamli ko'p yillik o't. Dasht yarim cho'l va cho'l hududlarida tarqalgan tur: Qozog'istonning janubiy mintaqalari Qirg'izistonning past tog'li maydonlarida keng tarqalgan. Turli tuman tuproq sharoitida ham o'saveradi. Ildiz tizimi kuchli rivojlangan. Fevral mart oilari maysalaydi, naychalash davri may oylarining boshlariga boshqoqlashi – mayning o'rtalariga, gullashi mayning oxirlariga, urug'larining pishib yetilishi iyunning ikkinchi dekadasiga to'g'ri keladi. O'simlikning o'sish davri 110-130 kun davom etadi. Ko'kat holida boshqoq chiqarganga qadar barcha turdag'i qishloq xo'jalik mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Boshqoqlagach yeyiluvchanligi ancha pasayadi. Yilqilar va yirik shoxli mollar uchun semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Pichanining hosildorligi 8-10 s/ga, urug' hosildorligi 1-1.5 s/ga. Adir mintaqasi yaylovlari hosildorligini yaxshilashda muxim **fitomeliorant**.

**Stipa Hohenocakeriana Trin. Et Rupr.- Chalov.** G'alladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't, bo'yi 80-100 sm; barglari qalqonsimon o'ralgan, yaltiroq, 20-40 sm uzunlikda. Markaziy Osiyo cho'llarida tarqalgan, aksariyat qumoq, qumli cho'llarda o'sadi. Asosan tarqoq holda va siyrak o'sadi; yaxlit va yirik masshtabli maydonlar hosil qilmaydi, uzoq muddatli rivojlanish davriga ega emas. Ertal bahordayoq ko'kara boshlasada o'z vegetatsiyasini qisqa davrda tugatadi. Aprel-mayda boshqoq chiqarib gullaydi. Yoz oylari quriydi, hosildorligi ham yuqori emas; gektaridan ko'pi bilan 3-3.5 s/ga atrofida yalpi fitomassa to'playdi. Asosan erta bahorda ko'kat holida xushko'rib iste'mol qilinadi; yoz oylari novdalari dag'allashganligi, quruqligi tufayli deyarli yeyilmaydi; kuz-qish oylari yeyiluvchanligi yaxshilanadi. Yosh novdalari (gullaganga qadar) yuqori to'yimlili oziqa: protein miqdori -18,4%, yog'-4,1, kul-7,8;

kletchatka- 24,8 AEM- 44,9%. 100 kg xashagida 65 ozuqa birligi va 11,3 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil saqlaydi.

## 2-Jadval

### Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!

Nº	O'simlik nomi	Botanik ta'rifi, navlari va morfologiysi	Ekologiyasi va fenologiyasi	Yaylovbopligi va to'yimliligi	Hosildorligi va xo'jalik ahamiyati
1	Aeluropus Litoralis				
2	Cousinia Resinosa				
3	Alhagi Psudoalhagi				
4	Aristida Pennata				
5	Agropyron Desertorum				
6	Stipa Hohenocakeriana				

### Nazorat savollari:

- Dag'al poyali ozuqaviy guruhning umumiy tavsifi va ularning vakillariga qisqacha tavsif bering.
- Yantoq qaysi ozuqaviy guruhga kiritilgan? Uning muhim biologik va xo'jalik xossalari bayon qiling.
- Qumli cho'llarda qanday dag'al poyali o'simliklar tarqalgan va ularning tipik vakillarini ta'riflab bering.

### 7-mavzuga doir test savollari

- Sho'rajriqning lotincha nomi?
  - Aeluropus Litoralis (Youn) Parl
  - Cousinia Resinosa Juz
  - Alhagi Psudoalhagi Mb
  - Aristida Pennata
- Karrakning lotincha nomi?
  - Aeluropus Litoralis (Youn) Parl
  - Cousinia Resinosa Juz
  - Alhagi Psudoalhagi Mb
  - Aristida Pennata
- Yantoqning lotincha nomi?
  - Aeluropus Litoralis (Youn) Parl
  - Cousinia Resinosa Juz
  - Alhagi Psudoalhagi Mb

- E. Aristida Pennata
4. Urg'ochi selinning lotincha nomi?
- A. Aeluropus Litoralis (Youn) Parl
  - B. Cousinia Resinosa Juz
  - C. Alhagi Psudoalhagi Mb
  - D. Aristida Pennata
5. Quyidagi qaysi o'simlikning ozuqaviy birligi yuqori?
- A. Chalov
  - B. Erkak o't
  - C. Urg'ochi selin
  - D. Yantoq
6. Adir mintaqasi yaylovlari hosildorligini yaxshilashda muxim fitomeliorant?
- A. Chalov
  - B. Erkak o't
  - C. Urg'ochi selin
  - D. Yantoq
7. Qumli cho'l sharoitida dag'al pichan tayyorlash uchun yaroqli tur
- A. Chalov
  - B. Erkak o't
  - C. Urg'ochi selin
  - D. Yantoq
8. Qaysi o'simlik shifobaxsh, asal yig'uvchi o'simlik sifatida ham qadrlidir?
- A. Chalov
  - B. Erkak o't
  - C. Urg'ochi selin
  - D. Yantoq
9. Qaysi o'simlik ikki yillik hisoblanadi?
- A. Karrak
  - B. Chalov
  - C. Erkak o't
  - D. Urg'ochi selin
10. Qaysi o'simlik kuchli sho'rlangan tuproqlarda monodominant hosil qiladi?
- A. Sho'rajriq
  - B. Yantoq
  - C. Chalov
  - D. Karrak

## **8-mashg‘ulot. Buta va yarim buta o‘simpliklar**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Ushbu hayotiy shaklga mansub o‘simplik turlarining qorako‘lchilik yaylovlarda keng tarqalganini va ozuqa ratsionida o‘ta muhim va ahamiyat kasb etishini va o‘lkan salmoqqa ega ekanligini e‘tiborga olib yaylovlarda bevosita taniy bilishi va muhim botanik, xo‘jalik xususiyatlarini o‘rgatishga jiddiy e‘tibor qaratiladi.

**O‘quv va ko‘rgazmali qurollar:** gerbariy, pichan g‘aramlari, har bir konkret turning ozuqaboplik ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi jadvallar, rangli rasmlar, videoproyektor, animatsion lavhalar va h.k.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi va metodikasi.** Ko‘rgazmali qurollar vositasida har bir o‘simlikning o‘ziga hos ekologik, xo‘jalik xususiyatlari, foydalanish yo‘llarini batatsil bayon qilish; zarur ma‘lumotlarga alohida urg‘u berish. Talabalarning asosiy vaqtini o‘simliklarni mustaqil o‘rganishga qaratish.

**Mashg‘ulotning mazmuni.** Mashg‘ulotni auditoriya va bevosita dala sharoiti (tajriba maydoni yoki yaylov) da ham o‘tkazish mumkin. Mavzuga oid qo‘shimcha muhim ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, buta va yarim butalarni o‘rganishni har bir turning o‘ziga xos xarakterli foydali xossalalarini bayon qilish, ularning mahalliy, lotincha nomlari keltirish.

**Haloxylon Aphyllum-Qora saksovul.** Sho‘radoshlar oilasiga mansub daraxtsimon buta, bo‘yi 3-4 m, qulay sharoitlarda 5-6 metrgacha yetadi. Tanasi sershox, to‘q kulrang, bir yillik novdalari to‘q yashil, silindrishimon. Barglari vazifasini aynan bir yillik assimlyasion novdalar bajaradi. Ildiz tizimi kuchli rivojlangan bo‘lib, tuproqning nam qatlamlarigacha yetib boradi. Cho‘l hududlarida tarqalgan tur. Tabiiy holda vohasimon past tekisliklar, eski daryo o‘zanlari, zinchlashgan, qisman ko‘chuvchan qumlar sharoitida o‘ziga xos siyrak “cho‘l o‘rmonlari” hosil qiladi. Qum, sho‘rxok tuproqlar, qo‘ng‘ir-bo‘z va bo‘z tuproqlarda tarqalgan. Markaziy Osiyo (Qozog‘iston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qирг‘изистон) cho‘llaridan tortib Eron, Afg‘oniston, Mo‘g‘iliston, Xitoy cho‘llarigacha bo‘lgan maydonda tarqalgan. Martning oxiri-aprelning boshlarida ko‘kara boshlaydi, aprelning o‘rtalarida gullaydi, sentyabrda urug‘ hosil qiladi; urug‘lari noyabrning boshlarida pishgach, sovuq va shamollar ta‘siridan to‘kila boshlaydi, 1000 ta urug‘meva massasi-5,1 gr. Generativ fazasi 5-6 yoshligidan boshlanadi. Qora saksovulning bir yillik novdalari, urug‘i

yaylov chorvachiligi (qo'y, echki, tuyalar) uchun qoniqarli ozuqa hisoblanadi. Aksariyat kuz-qish oylari yeyiladi. Tabiiy saksovulzorlarning hosildorlik ko'rsatkichlari turlicha bo'lib, o'sish sharoitlari va tup soni zichligi bilan belgilanadi.

Saksovul ozuqasining to'yimliligi quyidagi ko'rsatgichlar bilan tavsiflanadi: protein miqdori 10-12% (urug'ida 20 % gacha), yog'-2,2-2,7 %, kul-21-38,6 %, AEM 38-39,3 %. 100 kg xashagida bahorda-20, kuzda-46, qish mavsumida-37 ozuqa birligi mavjud. Vegetatsiya davrida 116 mg/kg karotin, 2293 mg/kg C vitamini saqlaydi. Aminokislotalardan asparagin (4,0-10,2), glutamin (6,3-12,6 g/kg) mavjud. Makroelementlar tarkibi: kaliy -23,0-46,4, natriy -4,5-28,4, kalsiy-6,4-23,5 g/kg. Hosildorligi tabiiy sharoitda 3-4, madaniy sharoitda 8-12 s/ga.

**Haloxylon Persicum** Bunge-oq saksovul. Sho'radoshlar oilasiga mansub daraxtsimon buta, bo'y 3-4 m; yillik novdalarining uzunligi 50-65 sm, bo'lak-bo'lakli, to'q yashil kurtaklari yopiq tipli. Tashqi ko'rinishi va tanasining tuzilishi jihatidan qora saksovuldan farqli ularoq, tanasining yuzasi oqishroq rangli; ekologik jihatidan nuql qumli maydonlarda o'sadi. Ildiz tizimi-universal tipli; qora saksovulga nisbatan yuzaroq rivojlangan. Barglari yaxshi rivojlanmagan, o'tkir uchli. Qumli cho'lning dominant turi. Asosan o'ydim-chuydim qumlarda o'sadi. Eng zinch tarqalib yirik maydonlar hosil qilgan mintaqalari jumlasiga Qoraqum, Quzilqum, Muyunqum, Balhash oldi qumlari kiradi. Tarqalish areali ham anchagina keng bo'lib, Afrika, Osiyo, Yaqin Sharqni qamrab olgan. Jumladan, Markaziy Osiyoridan tashqari Eron, Afg'oniston, Xitoy, Suriya, Saudiya Arabistoni, Xitoyda tarqalgan.

Vegetatsiyasi martda boshlanadi, aprel-mayda jadal rivojlanadi, aprelda gullaydi (5-6 yoshligida urug' berish pallasiga kiradi), 1000 ta urug'mevasining vazni-3,5 gr. Generativ novdalari qisqa, vegetativ novdalar ularga nisbatan 2-4 baravar uzun. Molga yedirilgan novdalar jadal qayta ko'karish xususiyatiga ega, 10-25 balandlikda qirqilgan novdalar kelasi yili yonboshdan ko'psonli yangi novdalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Qora saksovul kabi u asosan kuz-qish oylari qoniqarli yeyiladi. Qo'y, echki, tuyalar uning bir yillik (assitsiyasion) novdalari, urug'larini iste'mol qiladi. Yaylovbopligidan tashqari qo'ng'ir ko'mirdan qolishmaydigan yuqori kaloriyalı o'tin tayyorlash, ko'chuvchan qumlarni mustahkamlovchi fitomeliorant vazifasini ham o'taydi. Gektaridan 40-50 tonnagacha o'tin tayyorlash imkonii mavjud.

Oq saksovul quruq xashagida 3,0-10 % protein, 13,0-26 % kletchatka, 25,0-40 AEM va 2,1-1,4-yog', 14,0-18,9 % kul muddasi mavjud. 100 kg xashagida yil mavsumlariga qarab 70,6 (bahor) -50,1 (qish) ozuqa birligi va 5,3-7,6 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil mavjud. Yashil novdalari tarkibida 1,2-1,7 % limon kislotasi, 1378-4374C vitamini, 56,3-87,0 mg/kg karotin saqlaydi; aminokislotalardan asparagin, glutamin kislotalariga boy. Shuningdek magniy (13,8-22), kalsiy (25-47,7) kaliy (10,8-36,3 g/kg) ga ham serob. Hosildorligi ozuqa zahiralari ko'rsatgichlari jihatidan qora saksovulga o'xshab tarqalish muhiti, yoshi va zichligi ko'rsatgichlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, 0,5 s/ga dan 5-7gacha yetadi.

**Calligonum Caput-Medusae Schrenk-Qizil qandim.** Torondoshlar oilasiga mansub buta, bo'yi 1,5-2 m, novdalari sershox, qing'ir-qiyshiq. Barglari (yillik assimilyasion novdalari) ninasimon, ayrimlari vegetatsiya davrida 50-100 sm gacha o'sadi, 9-15 sm uzunlikda; yozning o'rtalarigacha yashil holda bo'ladi. Markaziy Osiyo cho'llarining endemik turi. Qumli cho'l muhitida keng tarqalgan. Asosan kam zichlashgan, qisman ko'chuvchan qumlarda o'sadi. Havo haroratiga talabchan o'simlik. Qumning yuzasi qiziy boshlagach martning ikkinchi yarmi-aprelning boshlarida ko'kara boshlaydi; maygacha jadal o'sib mayning o'rtalarida gullaydi; iyunning uchinchi dekadasida urug'lari pishib yetiladi va to'kiladi. Urug'lar shamol yordamida qum oraliqlari tekisliklari, chuqurliklariga tarqalib qum bilan ko'milib qoladi.

Qandim turlarini, jumladan, qizil qandimni ham cho'l hayvonlari (qo'y, echki, yirik shoxlilar, tuyalar) xush ko'rib yeyuvchi turlar sirasiga kiritish mumkin. Chunonchi, ularning bir yillik yashil novdalari bahor va yoz oylari yaxshi yeyiladi. Qandimning pichani tarkibida gullah davrida 12,5 % protein, 1,1 % yog', 34,4 % AEM, 19,4% kul muddalari va 30,0 % kletchatka mavjud, 100 kg xashagini to'yimliligi; 71,8 ozuqa birligi va 7,4 kg yengil hazm bo'luvchan protein.

**Calligonum Setosum Litv.-Oq qandim.** Torondoshlar oilasiga mansub psammofit buta, bo'yi 80-120 sm, ko'p yillik o'simlikning bo'yi 1-1,5 metrgacha yetadi. O'rtacha 15-20 yil yashaydi. Assimilyasion va generativ novdalari har yili qurib to'kilib ketadi, yildan yilga kurtaklari hisobidan qayta ko'karadi. Ildiz tizimi universal tipli; asosiy ildiz kam rivojlangan bo'lsa, yonbosh, yordamchi ildizlar o'ta kuchli rivojlangan: ularning uzunligi yonboshga 10-15 metrgacha tarqaladi. Bir tup

qandimning tuproq yuza qismi o'rtacha 1,-1,3 kg ni tashkil qilsa, ularning ildizlarining vazni ikki baravar og'irroq bo'ladi.

Aksariyat zichlashgan, tekislashgan qumlarda tarqalgan. Ildiz tizimi asosan qumning yuza qismida tarqalgan. O'simlik qoplamida oq saksovul, cherkez yoki qandimning boshqa turlari bilan aralash o'sadi. Har bir alohida buta 12 000-14 000 dona atrofida urug' hosili beradi. Bu tur qandimning yillik o'sish, rivojlanish jarayoni boshqalariga o'xshash bo'lib, erta bahorda qayta ko'karadi; aprel-mayda jadal o'sadi; mayning o'rtalarida gullaydi, iyunda urug'lari pishib yetiladi. Pishib yetilgan urug'lar assimilyasion novdalar bilan bir vaqtida to'kiladi. Qo'y, qo'zilar, echkilar, tuyalar qandimlarning bir yillik yashil novdalarini yoz-kuz oylari ishtaha bilan yeydi.

**Calligonum Aphyllo-Daraxtsimon qandim.** Torondoshlar oilasiga mansub buta, bo'yi 1-3 m. Barg plastinkalari mayda, tez to'kilovchan; fotosintez bir yillik novdalar hisobidan sodir etiladi. Ildiz tizimi chuqur rivojlanmagan bo'lib, aksariyat qismi tuproq yuzasining 2 metr chuqurligigacha tarqalgan, biroq yonbosh ildizlar o'ta kuchli (15-20 metrgacha) tarqalgan. Urug'lari to'rsimon qanotchali, qumlarda keng tarqalgan, psammofit. Qumli maydonlarning barcha ekologik muhitida o'sadi. Qandimning boshqa turlariga nisbatan siyrak va kam tarqalgan. Sovuqqa chidamli.

Asosan yaylovbop (qumli cho'l) tur bo'lsada, asalarichilik, qumni mustahkamlovchi, oshlovchi homashyo sifatida ham ishlataladi. Uning bir yillik novdalari, yosh urug'larini qo'ylar, echkilar va tuyalar erta bahor va yozning boshlarida yaxshi yeydi. Tuyalar juzg'unni yil davomida iste'mol qilishi mumkin. Ozuqa zahirasi yuqori bo'lmasdan, gektaridan o'rtacha 15-40 kg/ga atrofida, protein miqdori aksariyat butanizatsiya va gullah pallasida ancha yuqori va 18-19 % ga yetadi. AEM miqdori o'sish fazasiga qarab 37,9 dan 53% oshib boradi; kul miqdori erta bahorda 3% atrofida qayd etilgan bo'lsa, barglari to'kilish pallasida 17,7 % gacha ko'tariladi. Yog' miqdori vegetatsiyasi davomida 1,6-4,7 % atrofida o'zgaradi. 100 kg ozuqasining to'yimliligi yil mavsumlari bo'yicha quyidagicha o'zgaradi: bahorda-56,9, yozda-71,8, kuz va qishda- 30 ozuqa birligi. Qumli yaylovlar holatini yaxshilashda istiqbolli fitomeliorant. Bir yillik novdalari va urug'lari vositasida yaxshi ko'payadi.

**Salsola Richteri- Rixter cherkezi.** Sho'radoshlar oilasiga mansub buta, bo'yi 1,5-2 m. Tanasining rangi ochiq kulrang, bir yillik novdalari

esa oqishroq rangda. Barglari kulrang yashil, g'adir-budir, ninasimon. Barglaridan olinadigan suyuqlik tabiiy gazlamani jigar rangga bo'yaydi. Nor boyalichning urug'i Paletskiy cherkeziga nisbatan maydaroq (10-12 mm), urug'ining rangi jigar rang bo'lib, ancha zichlashgan qumlarda o'sishga moslashgan. Mart -aprelda ko'karadi, iyun-iyulda gullaydi, oktyabr-noyabrda urug'i pishadi, 1000 ta urug'mevasining vazni-13,4 gr. Qumni yaxshi mustahkamlaydi. Ildiz sistemasi universal tipda, tuproq yuqori qismida yaxshi rivojlangan bo'lib, yonboshga 10 m va undan ham ortiq masofagacha tarqalishi mumkin.

Qumli cho'l uchun to'yimli ozuqabop turlar jumlasiga kiritilib pichani tarkibida 16,5-24,7 % protein, 2,4-4,0 % yog', 17,8-21% kul moddalari, 38,5-43,1 AEM, 17,8-21,0 % kletchatka mavjud. Tabiiy holda o'suvchan cherkezzorlarning pichan hosili yuqori bo'lmasdan, Turkmaniston va O'zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlarida barpo etilgan ekinzorlarning pichan hosildorligi gektaridan 3 sentnerdan 8 sentnergacha yetadi. Aksariyat urug'i yordamida ko'payadi.

**Salsola Paletzkiana- Paletskiy sho'rasi.** Sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yi 4-6 m daraxtsimon buta, yonboshdan ko'karuvchan tanalarining balandligi 1-1,5 m. Barglari ninasimon, yalang'och, to'q yashil rangli. Paletskiy sho'rasingning ho'jayra shirasi paxta gazlamani qora rangga bo'yaydi. Urug'lari (14-16 mm) yirik. Urug' qobiqlari qora rangda. Paletskiy sho'rasi barxanli va chala barxanli qumlarda siyraksiyrik tarqalgan. Yaxshi qum mustahkamlovchi. Butasi qum bilan ko'milib qolgan taqdirda tanalaridan yon ildizlar o'sib chiqish qobiliyatiga ega; ildizlari atrofi kuchli ochilib qolgan hollarda bunday xususiyatga ega emas. Cherkezni mayda shoxli mollar aksariyat kuz-qish mavsumida xush ko'rib iste'mol qiladi: boshqa turdag'i turlar uchun u qoniqarli ozuqa manbai hisoblanadi. Mart oyidan ko'kara boshlab, o'sish davri birinchi sovuqlar tushganga qadar (oktyabr-noyabr) davom etadi; may-iyulda gullaydi, oktyabrda urug'i pishadi, 1000 ta urug'mevasining vazni-16,3 gr.

Uni qo'ylar bahor, kuz, qish oylari yaxshi yeydi. Urug'lari semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Tuyalar Paletskiy sho'rasi butun yil davomida yeydi. Ozuqasining kimyoviy tarkibi quyidagicha (%): protein- 9,2-22,0, kletchatka- 10,0-22,5, kul -15,9-25,0. 100 kg quruq xashagida mavsumlarga qarab 33-45 ozuqa birligi mavjud. Tabiiy sharoitdagi zichligi-gektariga 60-350 buta. Ozuqa hosildorligi tabiiy sharoitda gektaridan 1,5-3,0 ekinzorlarda (Turkmaniston, O'zbekiston) -

3-8,4 sentner. Inqirozga uchragan qumli yaylovlar mahsuldorligini oshirishda, yaylov agrofitotsenozlari va ixotazorlar barpo etishda keng qo'llaniladi. Madaniy sharoitda saksovul, cho'g'on va boshqa turlarga nisbatan qalamchalari yordamida yaxshiroq ko'payadi. Yaylovboplidan tashqari shifobaxsh, manzarali, ishqor beruvchi, o'tinbop tur ham hisoblanadi.

**Atriplex Canescens-Atriplex.** Sho'radoshlar oilasiga mansub kserogalofit, yarim buta, bo'y 100-120 sm. O'zbekistonning tabiiy florasida uchramaydi; Yaqin Sharqdan (Suriya) 2000 yilda introduksiyalangan yangi tur. Tabiiy sharoitda Shimoliy va Janubiy Amerika, Janubiy-G'arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Avstraliyaning qurg'oqchil va sho'rangan tuproqlarida o'sadi.

Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida madaniylashtirilganda uzoq (280-310 kun) davom etuvchi vegetatsiya davriga ega. Yangi ekin sharoitida vegetatsiyasining ikkinchi yilidan boshlab urug' bera boshlaydi. Qo'y-qo'zilar atripleksning bir yillik novdalari, urug'larini kuz-qish oylari yaxshi iste'mol qiladi, 1000 ta urug'mevasining massasi 1,5-2,4 gr. Ozuqa tarkibi quyidagicha: protein-10,2 %, yog'-2,8 %, kletchatka-38,7%, AEM-41,9%. 100 kg pichani tarkibida 44 ozuqa birligi mavjud.

**Anabasis Salsa-Buyurg'un.** Sho'radoshlar oilasiga mansub galokserofit, yarim butacha, tanasi yog'ochlangan va kuchli shoxlangan. O'simlikning bo'y 10 sm dan 60 sm gacha. Novdalari qizg'ish-yashil, silliq, silindrishimon. Barglari seret, uchi dag'al tukli. Guloldi barglari pardasimon; gullari ikki jinsli, boshoqsimon to'p gullarida yakka-yakka joylashgan. Chang donachalari uch hujayrali, ko'p sporali. Avtogamiya, entomofil, chetdan changlanishi bilan navbatma-navbatlashib turishi xarakterli. Mevasi bir urug'li, rezavorsimon, keng tuxumsimon, shirali, qizg'ish rangli. Urug'lari mayda, aylanashimon, meva po'sti yupqa pardasimon qora-qo'ng'ir tusli. Urug'larning past haroratlarda uzoq muddatli stratifikatsiya qilinishi ularning unib chiqquvchanligini oshiradi. Aksariyat gipsli cho'llarda tarqalgan- sho'rxok tuproqlar, soz va qo'ng'ir-bo'z tuproqlarda o'sadi. Ustyurt platosining eng keng tarqalgan o'simlik turi. Apreldan oktyabrgacha ko'karadi, iyun-mayda gullaydi, oktyabrda urug' beradi, oktyabr-noyaborda urug'lari pishadi.

Buyurg'un- tuyalar uchun asosiy yaylov ozuqalaridan biri hisoblanib yilning barcha mavsumlarida yeyilaveradi. Qo'y, echkilar uni ko'proq kuz oylari, yirik shoxli mollar esa deyarli yemaydi. Bir yillik

novidalari xashagining kimyoviy tarkibi quyidagicha: protein miqdori 7,1-14,8%, kul- 18,2%; kletchatka -26,0, yog' -1,5-3,2%. 100 kg quruq xashagida qishda 45,1 ozuqa birligi va 6,5 kg yengil hazm bo'lувchan oqsil bor. O'sish sharoiti, ob-havoning qulayligi bilan belgilanadi. Ozuqa massasining miqdori gektaridan 1,5 sentnerdan 4,6 sentnergacha o'zgarib turadi. Sho'rxok yaylovlar fitomelioratsiyasida katta ahamiyat kasb etuvchi tur.

**Salsola Orientalis G.Gmel.- Quyrovuq (keyreuk).** Bo'yi 85, aksariyat 40-45 sm gacha bo'lган kserofit yarim buta. Butasining shakli keng-g'ovak yoki zich. Ko'p yillik novdalari yog'ochlashgan, egri-bugri; bir yillik novdalari tuklangan, ochiq yashil. Barglari navbatmanavbat joylashgan. Gullari ikki jinsli, mayda, rangi och sariq tusdan binafshasimongacha. Mevalari qanotchali. O'ta polimorf va o'zgaruvchan tur. Tabiatda uning gipsofil, gallofil, petrofil ekologik shakllari ajratiladi. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Kaspiy dengizi qirg'oqlari, Eron, Afg'oniston, Xitoyda tarqalgan. Uning eng zich tarqalgan areali - Orol yoni, Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt mintaqalari hisoblanadi. Bo'z, qo'ng'ir-bo'z tuproqlar, taqirlar, taqirli qumlarda o'sadi; ancha zichlashgan tuproqlarda ko'proq uchraydi. Kamdan kam hollarda kuchli namlangan va o'ta sho'rxoq maydonlarda o'sadi. Quyrovuqning o'simlik guruhlari turli hayotiy shakllarga ega. Odadta taqirlarda qora saksovul+ quyrovuqlar uchrasa, kamroq sho'rangan maydonlarda boyalich-quyrovuqli, shuvoq-quyrovuqli, boyalich+singren+quyrovuqli, quyrovuq+efemer+o'tchil turli guruhlardan iborat. Quyrovuq o'sadigan o'simlik guruhlarida butalarning ulushi 7-15, yarim butalarniki- 18-30, o'tlar, bir va ko'p yillik turlarniki 12-60% ni tashkil etadi. Martda ko'karadi, may-oktyaborda gullaydi, oktyabr-noyaborda urug'i pishadi, 1000 ta urug'mevasining massasi-8,9 gr. Kuzgi sovuqlardan keyin vegetatsiyasi tugaydi.

Quyrovuqni erta bahorda, kuz, qish oylari qo'y, echki, tuyalar ishtaxa bilan yeidi. Mollar quyrovuqning shu yilgi ko'karib turgan barcha qismlarini ko'kat holida va qurigandan keyin ham iste'mol qiladi. Pichani tarkibida ko'karish pallasida (Qizilqum) 16,9 % protein, 24,8 % kletchatka, 18,2 % kul va 36,5% AEM lar mavjud. Ekin sharoitida parvarishlangan quyrovuq xashagi tarkibida qorako'l zotli qo'ylar uchun yetarli miqdorda mineral moddalar mavjud: 1,35-2,23 % kalsiy, 0,12-0,31 % fosfor, 0,04-1,42 % oltingugurt, 2,2-2,8% kaliy va 3,2-5,2 % natriy. 100 kg quyrovuq pichani tarkibda bahorda-64,4 yozda-45,4

kuzda -38, qishda -29,6 ozuqa birligi mavjud. Pichanida aminokislotalar tarkibi ham xilma-xil: ko'p miqdorda aminokislotalar bahorda (ko'kat) mavjud: 0,7 g orginin, 1,7 g asparagin kislota, 2,4 g glutamin kislota; 1,2 g glitsin; 1,1 g alanin; 1,4 g valin; 0,25 g meteonorin; 1,4 g leysin; 0,5 g tirozin va h.k. Ko'katida 85,4 karotin va 78,1 mg/kg C vitamini saqlaydi. Quyrovuq cho'l yaylovleri mahsuldarligini oshirishda qimmatli **fitomeliorant** hisoblanadi. Quyrovuqnini muvoffaqiyatli madaniylashtirishning muhim biologik xususiyatlari sifatida dala sharoitida qoniqarli unib chiqishi (43 % gacha) va yashovchanligini (75-82%) qayd qilish mumkin. Quyrovuqning turli ekologik sharoitlardagi ozuqa hosildorligi gettaridan 6,9-21,2 sentnerni tashkil qiladi. O'zbekistonda quyrovuqning "Pervenets Karnaba", Qozog'istonda "Aydarlinskiy- 1" navlari yaratilgan.

**Camphorosma Lessingii Litv- Kamforosma.** Sho'radoshlar oilasiga mansub yarim buta, bo'yи 30-80 sm. Tuproq yuzasi qismiga yoyilib va tuproq yuzasidan tik o'suvchan novdalardan iborat. Braglari to'g'ri, ninasimon, dag'al, kuchli tuklangan. Gullari murakkab boshoqsimon, urug'lari yapaloq, qoramtil-qo'ng'ir. Aksariyat sho'rxok cho'l va sho'rangan tuproqlarda tarqalgan. Sho'rxok maydonlar, yerosti suvlari yuza joylashgan maydonlar, toshli qoyalarda qalin o'sadi. Chorva mollari (qo'y, echki, tuya, yilqi) kamforosmani asosan kuz-qish oylari xush ko'rib iste'mol qiladi. Mazkur yaylovlarda boqilgan qo'ylar yaxshi semiradi, ona qo'ylar tezroq qo'yga keladi. Xalq tabobatida siyidik-ter haydovchi modda sifatida ham qo'llaniladi.

Sho'rangan yaylovlari hosildorligini oshirishda istiqbolli **fitomeliorant**. Xashagini kimyoviy tarkibi jihatidan yuqori to'yimli ozuqa hisoblanadi. Jumladan, o'sish fazalariga qarab 11,7-15,2 % protein, 2,9 % yog', 22-31,4 % kletchatka, 34-38 % AEM saqlaydi. 100 kg pichani tarkibida (urug'lari pishish pallasi) 48,4 ozuqa birligi va 3,3 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil mavjud. Hosildorlik ko'rsatgichlari ham anchagina yuqori: tabiiy sharoitda 4-8, ekinzorlar sharoitida 12-15 s/ga pichan to'playdi.

**Halothamnus Subaphyllus- |Cho'g'on.** Sho'radoshlar oilasiga mansub, bo'yи 50-120 sm yarim buta. Tanasi kuchli shoxlangan, ochiq yashil rangli. Barglari navbatma-navbat joylashgan, shirali. Gullari guloldi qo'ltig'ida boshoqsimon to'pgulida yakka-yakka joylashgan. Gulqo'rg'on barglari keng, pardasimon yoki ra'nogul qanotchali. Shamol yordamida, kam hollarda hashorotlar yordamida changlanadi.

Chang donachalari uch to‘qimali, ko‘p sporali, oval-uzunchoq shaklli. Murtagi nisbatan yirik, spiral aylangan. Mevasi ochilmaydigan yong‘oqcha, mevasining kattaligi 12-20 mm. Urug‘lari aylanasiimon, qisman bukilgan, 2-3,5 mm. Murtagi spirali, yosh ildizchasi sarg‘ich rangli, ikkita to‘q yashil urug‘pallali, 1000 ta urug‘mevasining vazni-21 gr.

Markaziy Osiyo cho‘l-mintaqasining shag‘alli sho‘rxoklar, bo‘z-qo‘ng‘ir va bo‘z tuproqlar, taqirlar va kam quvvatli qumlarda tarqalgan. Martda ko‘karadi, may-sentyabrda gullaydi, oktyabr-noyabrning boshlanishida urug‘ beradi. Qo‘y-qo‘zilar, echkilar va tuyalar cho‘g‘onni aksariyat kuz-qish oylari yeydi. Ozuqa hosildorligi tabiiy sharoitda unchalik yuqori emas- gektaridan 0,8-2,0 sentner; ekin sharoitida parvarishlash sharoitlariga qarab pichan hosildorligi gektaridan 8-15 sentnerga yetadi. Urug‘ hosildorligi gektaridan 1,8-3 sentner. Qo‘y, echki, tuyalar uchun to‘yimli ozuqabop o‘simplik hisoblanadi. G‘unchalash fazasida uning pichani tarkibida 24,7 % protein, 2,7 % yog‘, 36,9 % AEM va 18,3% kletchatka mavjud. 100 kg quruq xashagida yil mavsumlari bo‘ylab 37-50 ozuqa birligi saqlaydi. Yaylovlар holatini yaxshilashda keng qo‘llanilmoqda. O‘zQCHEITida uning «Jayhun» navi yaratilgan.

**Kochia Prostrata (L) Schrenk-** Izen. Sho‘radoshlar oilasiga mansub yarim buta, o‘simplikning bo‘yi 30-75 sm. Izen 3 ekotipga ajratiladi: qumli, shag‘alli va soz tuproqli. Qumli izenning tanalari oqish rangdagi tuklar bilan qoplangan. Qizilqum, Muyunkum, O‘rtta va Quyi Volga bo‘yi va boshqa qumli cho‘llarning qumli va qumoq maydonlarida o‘sadi. Shag‘alli izenning novda va barglari yashilroq rangli, tuklangan. Uning tipik o‘sish sharoitlari-tog‘ va tog‘oldi maydonlarining shag‘alli, va toshli tuproqlari va turli mexanik tarkibdagi bo‘z tuproqlar hisoblanadi. Cho‘l va adirlarda madaniy pichanzorlar va yaylov agrofitotsenozlari barpo etish uchun qimmatli o‘simplik. Soz tuproqli izen ochiq sariq, ba‘zan qizg‘ish rangdagi novdalardan iborat bo‘lib tuklanish darajasi ancha past va to‘q yashil bargli. Arid va yarim arid zonalarining sho‘rxok tuproqlari va Pomir-Oloy, Tyan-shan tog‘larining soz tuproqlarida o‘sadi. Yaylovlар mahsuldarligini oshirish va pichanzorlar barpo etish uchun **istiqbolli fitomeliorant**. Aksariyat yer yuzasiga qisman cho‘zilib o‘suvchan novdalardan iborat bo‘lib, tanasining ustki qismi jingalaksimon tukchalar bilan qoplangan; barglari novda qo‘ltig‘ida joylashgan,

ninasimon-chiziqli. Gul-tupi-boshoqsimon-ro'vak. Urug'lari aylana-ovalsimon, markazida ikkala tomondan qisilgan; urug'lari pishgach jigar rangga kiradi. Fevral-martdan ko'karadi, mart-may oylari jadal o'sadi; maydan sentyabrgacha gullaydi. Mevasi lizikarpli, yakka urug'li. Urug' qanotchalari beshqamrovli, bir-biri bilan qo'shilmagan, 1000 ta urug'mevasining vazni 1,4-2,4 gr.

Izenni yilning barcha mavsumlarida qo'y, echkilar va tuyalar va boshqa turdag'i hayvonlar zo'r ishtaxa bilan iste'mol qiladi. Uning joriy yildagi novdalari, barglari va urug'lari ozuqa manbai hisoblanadi. Butonizatsiya davrida izen pichani tarkibida 14,3-15,6 % ho'l protein, 2,7-3,3 % yog', 32-35 %, AEM va 26,5-30,8 % kletchatka mayjud. Foydalanish mavsumiga qarab 100 kg izen pichani tarkibida 83,5-45,9 ozuqa birligi bor. Izen ekotiplarining ildiz tizimi tuproq chuqurligiga qarab ham va yonboshga qarab ham juda yaxshi rivojlangan: adirlar sharoitida 6,0 metr gacha, qumli cho'lida- 4,5-5,2; gipsli cho'lida- 3,5 metr chuqurlikkacha rivojlanadi. O'zining yuqori to'yimliligi, qurg'oqchilikka chidamliligi, yuqori hosildorligi sababli boshqa cho'l ozuqbop o'simliklari orasida ancha yuqori mavqeiga ega va uning 4 navi yaratilgan: "Karnabchulskiy", "Pustinniy", "Sahro", "Otavniy".

**Ceratoides Eversmanniana** (Stschegl.Et Losinsk.) Botch.et.  
**Ikonn -Teresken.** Sho'radoshlar oilasiga mansub yarim buta, bo'yi 1 metrgacha; ildiz tizimi kuchli rivojlangan. Barglari mayda, kuchli tuklangan. Gullari bir uyli, 3-8 donasi yaxlit gul to'plam hosil qiladi. Gullash pallasining davomiyligi 25-45 kun; changlanishdan urug'lari pishganga qadar davomiyligi 65-80 kun. Aksariyat urug'lar oktyabrdan pishib yetiladi; kechroq rivojlangan gullardan hosil bo'lgan urug'larning unib chiquvchanligi o'ta past, 1000 ta urug'mevasining vazni 4,7 gr.

Teresken, qumlar, sho'rxoklar, adirlarning shag'alli soz tuproqlari, qurigan daryo o'zanlari, bo'z, qo'ng'ir-bo'z tuproqlarda keng tarqalgan tur. Past tekisliklardan boshlab baland tog' tepalarigacha bo'lgan maydonlarda uchraydi. Ekologik jihatdan qumli, kam sho'rangan tuproqlar, past tog'liklar, soyalar, qurigan daryo o'zanlari, hatto Pomir tog'larining shag'al toshli-qumli tuproqlarida ham yaxshi o'sadi. Uning areali ham anchagina keng. Qizilqum, Muyunqum, Badbaxtdala, Orol bo'yi, Balxasholdi qumlaridan tortib Shimoliy-sharqiy Qozog'istongacha tarqalgan. Xorijda Xitoy, G'arbiy Mo'g'iliston, Afg'onistonda o'sadi. Yakka holda o'smasdan kam rivojlangan qumlar, Qizilqumning yassi tog'liklari, tog' etaklarida ilak, shuvoq, boyalich,

izen, singren, chalovlar bilan aralash assotsiatsiyalar hosil qilib o'sadi. Fevral-martda qayta ko'karadi, jadal rivojlanish davri aprel-may oylari; butonlarining rivojlanishi iyunning o'rtalarida ko'zga tashlanadi; gullashi iyulda kuzatiladi.

Urug' hosil qilish pallasi 70-80 kun davom etadi, urug'lari sentyabr-oktyabrdagi pishadi. Teresken asosan bahor-yoz-kuz oylari ko'kat holida bo'ladi. Cho'l hududlari uchun to'yimli ozuqa. Uning bir yillik novdalari, barglarini chorva mollari xush ko'rib iste'mol qiladi. Gullah davrida tayyorlangan pichani tarkibida 16 % protein, 2,7 % yog' va 34 % kletchatka va boshqa foydali moddalar mavjud. 100 kg xashagini to'yimligi o'rtacha 40 ozuqa birligiga teng. Tereskenni turli cho'l hududlarida madaniylashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmoqda. Ekin sharoitida mart oyida ko'karadi, aprel-iyun oylari jadal o'sadi, sentyabr-oktyabrdagi maksimal hosil to'playdi. Qumli, gipsli cho'l yaylovlari holatini yaxshilovchi **istiqbolli fitomeliorant**.

**Astragalus Villossissimus Bunge.- Singren.** Dukkakdoshlar oilasiga mansub yarim buta, buyi 70-120 sm. sernovda o'simlik. Barglari oqish to'plangan, poyasi sernovda, bir yillik novdalari kalta, barglari 1,5-3 sm. uzunlikda, ikki juftdan. Gullari mayda, qizg'ish rangda, gulkosasining uzunligi 5-6 mm, dukkaklari may oyida pishadi. Urug'i och qo'ng'ir, yaltiroq, 1000 ta urug'mevasining vazni 4,5 gr. Aksariyat qumli va gipsli cho'llarning zichlashgan tuproqlarida o'sadi, jumladan, respublikamizning Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida uchraydi. Markaziy Osiyo qumli cho'llarining endemigi. Mazkur o'simlik qorako'l qo'ylarning mikroelementlar va vitaminlarga bo'lgan talabini qondira olish qobiliyatiga ega. Chunonchi, uning 1 kg pichani tarkibida butonizatsiya pallasida 297 mg va 6,0 mg % C vitamini mavjud. Yil mavsumlariga qarab singren pichanining to'yimligi o'zgarib boradi: 100 kg da bahorda 61 va kuzda 32 ozuqa birligi saqlaydi.

Turli chorva mollari butun yil davomida singren ko'kati va pichanini xushko'rib iste'mol qiladi. Mollar uning barglari, gullari, dukkagi va bir yillik novdalarini yeydi. Tarqalish sharoiti, zichligi va ob-havoning quayliligidan kelib chiqib, gektaridan olinadigan pichan miqdori ancha o'zgaruvchan va o'rtacha 1-3 s/ga tashkil etadi.

**Ephedra Strobilacea Bunge.-Qizilcha.** Qizilchadoshlar oilasiga mansub, doimiy yashil, bo'yi 2 m butacha. Tanasi va shoxlarning rangi kulrang, yosh novdalari qo'ng'ir yashil, tekis, silindrsimon shaklda. Bir

bug' inidagi novdalar miqdori turlicha. Vegetativ novdalar bo'lak-bo'lakchali, diametri 2-3 mm. Barglari kipriksimon, uzunligi 2-3 mm. Ularga ikki tipdagi novdalar xos. 4-chi tartibdagi shoxlarda shakllanuvchi uzunligi 10-20 sm li qisqa generativ (2-5 yil yashovchi); 2-4 tartibdagi shoxlarda shakllanuvchi uzun (30-50 sm) vegetativ novdalar. Aksariyat qumli sahroda tarqalgan, yuzasi qumoqlashgan gipsli tuproqlarda ham uchraydi. Martdan borshlab ko'karadi, mayda gullaydi, iyulda urug' beradi.

Vegetativ usulda ko'payib bir asosiy ildizpoya atrofida yordamchi ildizlar vositasida bir talay yangi novdalar vujudga keladi. Bir tup o'simlik hisobidan tuproq osti va yuzasi organlari hisobidan 10 metr atrofga o'ziga xos qalqon hosil qilib qumlarning saqlanib qolishiga imkon tug'diradi; har yilgi novdalarning to'kilishi, qisman bo'lsa ham, atrofdagi qumni mustahkamlaydi. Bu tur o'simlikning tuproq hosil qilish jarayonidagi mohiyati aynan shunda sodir bo'ladi. Erta bahorda qo'y, echki, tuyalar borjokning bir yillik yosh novdalarini yaxshi yeidi. Kuz va qishda uning yeyiluvchanligi sezilarli oshadi. Gullah pallasidagi ozuqanining kimyoviy tarkibi qo'yiidagicha: protein 16%, yog' – 3,7, kul – 9,6, AEM – 47,2, karotin – 50,5-81,5 mg/kg, C vitamin – 785-865,6 mg/kg.

Aminokislota (g/kg hisobida) tarkibi va miqdori: asparagin kislota – 9,8-13,7, glutamin kislota – 11,3-16,5, lizin – 6,7-9,9, prolin – 4,7-8,7, leytsin – 7,1-10,8 (Nikolaev va boshqalar, 1974). Gullah fazasida 100 kg quruq hashagida 85,8 ozuqa birligi va 8,9 kg hazm bo'lувchan oqsil mavjud. Tarkibida oshlovchi moddalar, alkaloidlar mavjud bo'lib, qumlarni mustahkamlovchi tur hisoblanadi. Sahro mintaqasida manzarali, ko'kalamlashtirishda istiqbolli o'simlik. Urug'i yordamida va vegetativ usulda ko'payadi.

**Salsola Arbuscula Pall.- Boyalich.** Sho'radoshlar oilasiga mansub sershox butacha. Bo'yi 0,8-1,0 m; po'stlog'i ochiq kulrang, barglari navbatma-navbat joylashgan, sergo'sht. Qumoq, qumli va qum-shag'alli tuproqlarda o'sadi. Gipsli va qumli cho'llarning qo'ng'ir va qum-shag'alli va taqirsimon tuproqlarida ko'proq tarqalgan. Boyalichning morfologiyasida 2 tur novdalarni ajratish mumkin: qisqargan vegetativ – uzunligi 20-40 sm. 3-4 tartibli shoxlarda o'sadi; 1-3 sm uzunlikdagi maxsus generativ novdalar – 5 tartibdagi shoxlarda o'sadi. Martdan noyabrgacha ko'karadi, aprel-mayda gullaydi, sentyabr-oktyabrda urug'

beradi. Har bir buta 1000 tagacha va undan ortiq urug' berish qobiliyatiga ega, 1000 ta urug'mevasining vazni 8,8 gr.

Boyalich cho'l zonasiga uchun muhim ozuqabop o'simlik. Yeyiluvchanligi ko'proq mavsumiy: qo'y-qo'zilar uni yoz va kuzda, tuyalar esa deyarli butun yil davomida iste'mol qiladi. Ozuqaviy qiymati quyidagicha: protein miqdori 6,4-4,7 %, yog'- 1,1-3,4, kletchatka - 29,9, kul - 13,1-19,5, AEM - 38,8-47,4%. 100 kg quruq xashagida bahorda-44, yozda- 45, -kuzda -38, qishda -33 ozuqa birligi va 1-3 kg yengil hazm bo'lувchan protein mavjud. Turli yillar va turli ekologik sharoitlarda har xil; getkardan 0,5 sentnerdan 8 sentnergacha o'zgarib turadi. Bir getkar yaylov maydonidagi zichligi 300 dan 3200 tupgacha yetadi; ekin sharoitidagi hosildorligi getkardan 2,5-12 sentner. Qizilqum (Maxmudov, 1998) Qarnabcho'l (Shamsutdinov, 1975), sharoitida uni madaniylashtirish tajribalari bajarilgan. Urug'lari vositasida ko'payadi, 25-30 yil yashaydi.

**Artemisia Diffusa Krasch. Ex Poljakov-Oq shuvoq.** Murakkabguldoshlar oilasiga mansub yarim buta, bo'yi 30-50 sm, ko'p yillik novdalari yog'ochlashgan, joriy yilgi novdalari oqish tusli, kuchli tuklangan, generativ novdalari yashil yoki qo'ng'ir-yashil. Barglari mayda, kuchli qirqilgan, 1000 ta urug'mevasining vazni 3,3 gr. Ildiz tizimining shakllanishi tuproq-grunt sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lib, turlicha shakllanadi: qumlarda 1 m va undan chuqurroq rivojlanadigan bo'lsa, gipsli cho'l muhitida asosan tuproqning yuza (30-60 sm) qismida tarqalgan. Markaziy Osiy cho'llarida juda keng tarqalgan tur. Turli mexanik tarkibli bo'z, qo'ng'ir- bo'z tuproqli ekologik muhitida zich va keng; adirlar, Qizilqum, Qoraqum, Ustyurt, Muyunqum, cho'llari va Mirzacho'l adirlarida nisbatan siyrakroq o'sadi.

Floristik tarkibiga boyligi va qalinligi jihatidan, shuvoqzorlar Qizilqum mintaqasida ko'proq uchraydi. Odatda, shuvoqzorlar keyreuk, boyalich, singren, iris, kavrak, cho'g'on, qo'ng'irbosh, ilak, rang, chalov, arpxon, yaltirbosh, qora shuvoq, tatir kabi boshqa turlar bilan aralash o'sadi. Mazkur turlar orasida oq shuvoq, albatta, o'simlik tup soni jihatidan ustivorlik qiladi. Umuman, shuvoqzorlar tarqalgan maydonlarning floristik tarkibi anchagina boy bo'lib, umumiyligi turlar miqdori 100-140 ga yetadi. Ulardan 7 tur butalar, 10- butachalar, 17- yarim butachalar, 28- tur ko'p yilliklar va 77 -turdan ortig'i bir yilliklar hisoblanadi. Shuvoqzorlarning zichligi gettariga 25-38 ming tupdan iborat bo'lishi qayd etilgan.

**Artemisia Turanica Krasch-** Qora shuvoq. Bo'yi 20-35 sm yarim butacha, kserofit. Qora shuvoqning tipik butalari yuqoriga qarab tik o'suvchi qoramtilr-binafsha rangli novdalardan iborat. Barglari yashil yoki qo'ng'ir-yashil. Uning bir yillik novdalari kuzga borib to'q jigarrang yoki qoramtilr rang tusini oladi. Gul to'plami -bo'sh tarqoq ro'vak. Savatchalari mayda, qizg'ish-qo'ng'ir rangli aylanasimon. Urug'chalari teskari tuxumsimon, yonbosh qirrali, 1000 ta urug'mevasining massasi 3,3 gr. Bu tur shuvoqning areali Qozog'iston, Qiziqum, Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Janubiy-G'arbiy Turkmanistonni qamrab olgan. Qora shuvoq aksariyat shag'alli-soz tuproqlar, qumli maydonlar atroflari, qum-shag'alli tuproqlar va tog'oldi maydonlarining toshli qoyaliklarida o'sadi.

Tuproq-grunt sharoitlariga qarab ildiz sistemasining shakllanishi turlicha: qumli tuproqlar sharoitida u 1 metr va undan ham chuqurroq ildiz otadi, gipsli tuproqlarda esa asosan tuproqning yuza, gips bo'limgan qatlamlarida joylashadi. Odatda u oq shuvoq bilan birgalikda tarqalgan. Yakka holda va bir turdan iborat shuvoqzorlar kamdan-kam hollarda uchraydi. Qizilqum sharoitida qora shuvoq fevral-martda ko'karadi. Jadal o'sish va ozuqa to'plash davri aprel-may oylariga to'g'ri keladi. Oq shuvoqqa o'xhash noyabrda urug'lari pishib yetiladi. 100 kg xashagida o'rtacha 31 ozuqa birligi bor.

Qora shuvoq ham cho'l zonasining muhim xashakbop o'simliklari jumlasiga kiradi. Uni chorva mollari asosan kuz-qish oylari xushko'rib yeydi. Shu mavsumda to'yimli ozuqa hisoblanadi. Urug' berish pallasi (noyabrning oxiri) da qora shuvoq xashagi tarkibida 8,1 % protein, 4,47 % yog', 31,5 % kletchatka va 46,6 % AEM mavjud. Mavsumlarga qarab uning ozuqa zahiralarini to'plash ko'rsatkichi gektaridan 1,5-3,0 sentnergacha o'zgarib turadi. Kuz mavsumida eng yuqori ozuqa zahirasi to'playdi.

**Artemisia Halophila Krasch-** Ermon shuvoq. Murakkabguldoshlar oilasiga mansub yarim buta, bo'yi 40-120 sm. O'simlikning tanasi ochiq kumushsimon rangli, qalin tukchali. Shuvoqlar turlari orasida, oq va qora shuvoqdan farq qilib, asosan o'rta darajada sho'rangan tuproqlar muhitida o'sadi. Tabiiy sharoitda unchilik keng tarqalmagan va yirik yaxlit maydonlar ham kamdan kam hollarda hosil qiladi. Tipik o'sish muhiti -yerosti suvlari yaqin yoki mo'tadil nam, sho'rxok maydonlar hisoblanadi. Ermon-shuvoqzorlar yakka holda o'smasdan boshqa tur galofitlar (sho'r ajriq, baliqko'z,

xaridandon, donasho'r kabi bir yillik turlar) bilan aralash o'sadi. Aynan ushbu turlarning tarqalish maydonlari ham sho'rxok yaylovlar hosildorligini oshirishda xizmat qiladi. Cho'l sharoitida ermon shuvoqning vegetatsiyasi nisbatan erta (yanvar-fevral) boshlanadi; aprel-mayda jadal o'sadi; butonizatsiya davri iyundan-sentyabrgacha davom etadi, sentyab-oktyabrda gullaydi; urug'lari noyabrning birinchi-ikkinchi o'n kunligida pishib yetiladi. Boshqa shuvoq turlari kabi ermon shuvoq mavsumiy kuz-qish yeyiladigan ozuqa hisoblanadi. Uning yeyiluvchaligi dastlabki kuzgi yog'ingarchilikdan keyin sezilarli oshadi. Tajribali cho'ponlarning kuzatishlari asosida ermon shuvoqni qo'y-qo'zilarni semirtiruvchi ozuqlar jumlasiga kiritish mumkin. Dag'al xashak sifatida tayyorlangan mazkur tur pichan sifatida ham foydali hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibi jihatidan boshqa shuvoqlarga o'xshash va ulardan keskin farq qilmaydi. Chunonchi, urug' berish pallasi (kuz) da xashagi tarkibida 8,5 % protein, 7,0 % oqsil, 3,4 % yog' va 35,6 % kletchatka saqlaydi. Jadal o'sish pallasida garchand xush ko'rib yeyilmasada xashagini kimyoviy tarkibi anchagina to'yimli. Chunonchi, protein miqdori 12 % dan yuqori. 100 kg xashagida yil mavsumlariga qarab 31-41 ozuqa birligi va 3,7-6,8 kg yengil hazm bo'luvchan oqsil mavjud. Nisbatan qulay tuproq namgarchiligi sharoitida tarqalganligi tufayli uning yillik hosildorlik ko'rsatgichlari ob-havo injiqqliklariga unchalik bog'liq emas. Tabiiy shuvoqzorlarning yillik hosildorligi o'simlik zichligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, gektaridan 6 sentnerdan 23,8 s/gacha yetishi mumkin. Ekin sharoitida bu tur 3-4 yildan boshlab muntazam yuqori (12-15 s/ga) hosil to'plash qobiliyatiga ega.

**Onobrychis Chorassanica** Bge.- Xuroson espartseti. Dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, bo'yi 30-100 sm. Sernovdali, sertukli, tez o'suvchan tur. Mevasi dukkak, urug'lari buyraksimon. Ildizi-o'q ildiz, dastlabki yiliyoq 1 metr va undan chuqurlikkacha rivojlanadi; tuganaklari tuproqning yuza (20-30 sm) qismida joylashadi. Nisbatan qisqa (5-6) umr ko'radi. Gul tupi - ko'pgulli, gullari ochiq sariq. Barcha morfobiologik va moslashish belgilari jihatidan bu turni aksariyat dashtlarga xos o'simliklar guruhiiga kiritish mumkin. Tog'oldi tekisliklari, tog' qiyaliklari, adirlarning soz, qumoq, shag'altoshli mexanik tarkibli tuproqlarida o'sadi. Asosiy tarqalish mintaqalari-Tyanshon, Pomir-Oloy, Balhash-pastligi va Kopet-Dog'. Xorijda Eron, Afg'onistonda uchraydi. O'simlik qoplami tarkibida

shuvoqlar, g'alladoshlar, tipchak, chalov va boshqa turlardan ham ustuvorlik qiladi. Muhim yaylovbop va pichanbop o'simlik. Barcha turdag'i uy hayvonlari espartsetni ko'kat holida zo'r ishtaha bilan yeydi.

Xashagi tarkibida 15-19 % protein, 1,5-2,0 % yog' va 35-36 % AEM saqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, ko'p jihatdan beda pichanidan qolishmaydi. Yosh beda ko'katini me'yordan ortiq istemol qilgan yirik shoxli mollar **timpanit** holatiga uchrasa, espartset ko'kati va pichani iste'mol qilgan mollar bundan istesno. Shuningdek qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli tur. Qulay tuproq-iqlim sharoitlarida parvarishlangan espartset gektaridan 15-18 s/ga xashak toplash xususiyatiga ega. Tadqiqotchi-introductorlar espartsetlarni chuqurroq va har tomonlama o'rgansalar foydadan holi emas.

**Salsola Gemmascens Pall.- Tatir.** Sho'radoshlar oilasiga mansub yarim butacha. Bo'yi 15-40 sm. Shoxsimon novdachalari kulrang. Bir yillik novdalari ochiq rangli qobiqchalar bilan qoplangan. Barglari navbatma-navbat joylashgan, qisqa ignasimon. Urug'larining rangi to'q qizil yoki sariq oltinsimon, qanotchali, 1000 ta urug'mevasining massasi 2,8 gr. Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston, Mo'g'ilistonda tarqalgan. Vegetatsion davri martdan-noyabrgacha davom etadi, iyun-avgustda gullaydi, oktyabr-noyabrda urug' beradi. Sho'rxoklar, taqirlar va ularning atroflarida, zinchashgan taqirsimon tuproqlarda o'sadi. Keng va ulkan maydonlar hosil qilmasdan aksariyat siyrak-siyrak tarqalgan. Keyreuk, cho'g'on bilan ham aralash holda o'sadi.

Tatir kuz-qish oylari yeyiluvchan yaylov o'simligi. Qo'y-qo'zilar, ayniqsa tuyalar uni xush ko'rib yeydi, yilqi va yirik shoxli mollar deyarli yemaydi. Urug' berish fazasida tayyorlangan tatir pichani tarkibida 8,2-8,8 % protein, 2,3-2,5% yog', 26,2-28,2% kul, 24,2-18,9 % kletchatka mavjud. 100 kg quruq xashagida 60 ozuqa birligi bor (Najmiddinov, 1993). Mikroelementlardan mis, molibden, kobalt mavjud. Kaliy, kaltsiy, natriy, xlor, magniy moddalariga boyligi bilan ajralib turadi. Eng yuqori ozuqa miqdorini kuz mavsumida to'playdi. Tabiiy tatirzorlarning ozuqa miqdori 0,5-3,0 s/ga o'zgarib turadi; ekin sharoitida 6-8 sentnergacha oshadi. Sho'rxok cho'lning muhim ozuqabop o'simliklari jumlasiga kiradi. Uni madaniylashtirish sohasida muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borilmoqda (Najmiddinov, 1993).

## Mustaqil topshiriq: Jadvalni to‘ldiring!

Nº	O‘simlik nomi	Botanik ta‘rifi, navlari va morfologiyasi	Ekologiyasi va fenologiyasi	Yaylovbopligi va to‘yimliligi	Hosildorligi va xo‘jalik ahamiyati
1	<i>Haloxylon Aphyllum</i>				
2	<i>Haloxylon Persicum</i>				
3	<i>Calligonum Caput</i>				
4	<i>Calligonum Setosum</i>				
5	<i>Calligonum Aphyllum</i>				
6	<i>Salsola Richteri</i>				
7	<i>Salsola Paletzkiana</i>				
8	<i>Atriplex Canescens</i>				
9	<i>Anabasis Salsa</i>				
10	<i>Salsola Orientalis</i>				
11	<i>Camphorosma Lessingi</i>				
12	<i>Halothanus Subaphyllus</i>				
13	<i>Kochia Prostrata</i>				
14	<i>Ceratoides Eversmanniana</i>				
15	<i>Astragalus Villosissimus</i>				
16	<i>Ephedra Strobilaceae</i>				
17	<i>Salsola Arbuscula</i>				
18	<i>Artemisia Diffusa</i>				
19	<i>Artemisia Turanica</i>				
20	<i>Artemisia Halophila</i>				
21	<i>Onobrychis Chorasanica</i>				
22	<i>Salsola Gemmascens</i>				

## Nazorat savollari

1. Butalar va yarim butalar ozuqaviy guruhining muhim biologik, fiziologik, morfologik va xo‘jalik xususiyatlarini ta‘riflab bering.
2. Izan qaysi muhim belgilari asosida “sahro bedasi” deb ta‘riflanadi?

3. Keyreuk va uning muhim xo'jalik va biologik xususiyatlarini tavsiflab bering.
4. Mazkur ozuqaviy guruh vakillarining qaysi turlari psammofitlarga kiritilgan va ularga xos muhim xususiyatlar ta'rifini keltiring.
5. Buta va yarim buta ozuqaviy guruhining yaylovlari holatini yaxshilashdagi mohiyati nimadan iborat?
6. Singrenni qisqacha ta'riflab bering.
7. Teresken, qandim va ularning ozuqaboplilik xususiyatlari.

#### **8-mavzuga doir test savollari**

1. Qora saksovulning lotincha nomi?
  - A. Haloxylon Aphyllum
  - B. Haloxylon Persicum Bunge
  - C. Calligonum Caput-Medusae Schrenk
  - D. Salsola Richteri
2. Oq saksovulning lotincha nomi?
  - A. Haloxylon Aphyllum
  - B. Haloxylon Persicum Bunge
  - C. Calligonum Caput-Medusae Schrenk
  - D. Salsola Richteri
3. Qizil qandimning lotincha nomi?
  - A. Haloxylon Aphyllum
  - B. Haloxylon Persicum Bunge
  - C. Calligonum Caput-Medusae Schrenk
  - D. Salsola Richteri
4. Rixter cherkezining lotincha nomi?
  - A. Haloxylon Aphyllum
  - B. Haloxylon Persicum Bunge
  - C. Calligonum Caput-Medusae Schrenk
  - D. Salsola Richteri
5. Qandim qaysi oilaga kiradi?
  - A. Torondoshlar
  - B. Do'kkakdoshlar
  - C. Sho'radoshlar
  - D. Hiloldoshlar
6. Qaysi o'simlik mamlakatimizga introduksiya qilingan?
  - A. Atriplex
  - B. Cherkez
  - C. Qandim

E. Keyreuk

7. Kamforosma qanday tuproqlarda yaxshi o'sadi?
  - A. Sho'r
  - B. Gipsli
  - C. Qumli
  - D. Taqir
8. Qaysi o'simlikning "Jayxun" navi yaratilgan?
  - A. Cho'g'on
  - B. Cherkez
  - C. Teresken
  - E. Keyreuk
9. Singren qaysi oilaga mansub?
  - A. Torondoshlar
  - B. Do'kkakdoshlar
  - D. Sho'radoshlar
  - E. Hiloldoshlar
10. Shuvoq qaysi oilaga mansub?
  - A. Torondoshlar
  - B. Do'kkakdoshlar
  - D. Sho'radoshlar
  - E. Hiloldoshlar

## 9-mashg'ulot. Bir yillik sho'ralar

**Mashg'ulotning maqsadi:** qoraqo'lchilik yaylovlarda tarqalgan asosiy bir yillik sho'ra o'tlar bilan tanishtirish va ularning qorako'lchilikdagi ahamiyati xususida asosiy tushunchalar berish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** bir yillik sho'ralarining gerbariy namunalari, urug'lari, o'simlik o'ramlari, tabiiy sharoitda sho'ralar aks ettirilgan rangli foto - rasmlar, sho'rangan tuproqlar morfologik tuzilishi, kimyoviy tarkibiga oid jadval yoki diogramma ma'lumotlari.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** tushuntirish, ko'rsatish, yozdirish va mustaqil ishslash. Mashg'ulotni O'zQCHEITI gallofit o'simlikshunoslik labaratoriyasida o'tkazish hamda ushbu institut tajriba uchaskasiga ekspeditsiya tashkil etish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Ma'lumki, cho'l hududlarining talaygini qismi turli darajada sho'rangan. Sho'rangan tuproqlar sharoitida o'sib, rivojlanish va urug' hosil qilishga moslashgan o'simlik guruhi gallofitlar ("galos"-sho'r, tuz; "fiton"-o'simlik) deyiladi.

Gallofitlar quyidagi moslashish, xususiyat va belgilari asosida sho'rangan tuproqlarda bemalol o'saveradi:

- tarkibida anchagina (30%) kul moddalari saqlaydi;
- to'qima suyuqligining kontsentratsiyasi juda yuqori va to'qimalarning osmotik bosimi ham juda baland bo'lib 100-150 atmosferaga yetadi;
- qurg'oqchilikka o'ta chidamli;
- tuproq suv zahiralaridan tejam-tergab foydalanishga moslashgan; botanik jihatdan ancha kambag'al va odatda 5-6 turdan iborat.

### **Halimocnemis villosa Kar. & Kir.- xavridon-buzoqbosh.**

Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, bo'yi 5-25 sm. Shirali sho'ra o't. Barglari chiziqli, uzunligi 4-5 sm, go'shtdor, zikh joylashgan tukchalar bilan qoplangan, 1000 ta urug'mevasining massasi 19,54 gr. Tipik o'sish joylari – sho'rxoklar, taqirlar va boshqa sho'rangan tuproqlar. O'sish davrida tarkibida ko'p miqdorda (35,3-36,2% atrofida) tuzlar mavjudligi sababli qo'y-qo'zilar xaridandonni deyarli yemaydi: kuz-qishda qo'ylar va tuyalar uni yaxshi yeydi; semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Urug' berish pallasida xaridandon pichani tarkibida 7,1% xo'l protein, 21,4% kletchatka, 0,9% yog', 34,0% AEM, 35,3% kul moddalari mavjud. Urug'lari proteinga (10,6%) ancha boy. 1 kg kuruq

xashagi tarkibidagi protein miqdori mavsumlar bo'yicha quyidagicha: yozda va kuzda - 30 va qishda 10 g. Yil mavsumlari bo'yicha xaridandonning to'yimlilik qiymati quyidagicha: yozda -47; kuzda - 36, qishda - 30 ozuqa birligi (100 kg xashak hisobidan). Apreldan oktyabrgacha ko'karadi; sentyabr- oktyabrdan urug' beradi. Sho'rangan yaylovlar va taqirlarning mahsuldarligini oshirishda **istiqbolli fitomeliorant**.

**Girgensonia Appositiflora ( Pall.) Fenzl.- |Sagan.** Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik quruq sho'ra, bo'yi 5 – 15 sm. Cho'l zonasining sho'rxok, shag'alli, kuchsiz sho'rangan tuproqlarida o'sadi. Yirik maydonlar hosil qilmaydi. Boshqa sho'ralar va turlar bilan aralash tarqalgan. Saganning qo'ylar va tuyalar tomonidan yeyiluvchanligi qoniqarli. Kuz va yoz oylari yaxshiroq yeyiladi. Gullash fazasida pichanining kimyoiy tarkibi; (% hisobida) quyidagicha: protein 14,2, kletchatka – 20,5 kul -13,4, AEM – 38,5%. 100 kg xashagida 47,4 ozuqa birligi va 8,6 kg yengil hazm bo'luvchi oqsil mavjud. Siyrak-siyrak o'sganligi sababli ozuqa hosildorligi unchalik yuqori bo'lmasdan, odatda, gektaridan 1 sentnerdan oshmaydi. Akariyat yoz-kuz oylari foydalilaniladigan ozuqa hisoblanadi.

**Gamanthus Gamocarpus (Mog.) Bunge.- Donasho'r.** Sho'radoshlar oilasiga mansub pakana bo'yli shirali sho'ra o't. Barglari eng pastkilaridan tashqari navbatma- navbat joylashgan, ipsimon, go'shtor, uzunligi 15-20 mm va eni 1-2 mm, pastki barglari yassi, bargning ustki qismi o'rasimon qayrilgan, barg asosi kengaygan, oxirida tikanchali. Guloldi barglari gullar va gulbarglardan uzunroq, 5-50 mm uzunlikda, qarama-qarshi joylashgan, asoslari o'zaro o'sgan, uchlari tikanchali. Gulbarglari to'q-kipriksimon, lantsetli, o'tkir, tepasi tikonchali, gulqo'rg'onidan qisqaroq. Aprelda maysalaydi, May-iyunda gullaydi. Chetdan shamol yordamida changlanuvchi o'simlik. Urug'lari oktyabrdan pishib yetiladi.

Taqirlar va turli darajada sho'rangan tuproqlarda o'sadi. Ildiz tizimi asosan tuproqning yuza ( 15-40 sm) qismida joylashgan. O'sish davrida tarkibida 44% gacha mineral tuzlar bo'lganligi sababli donasho'mni mollar deyarli yemaydi. Kuz-qish mavsumida (qochirish davrida) donasho'mni qo'ylar yaxshi yeydi; semirtiruvchi ozuqa hisoblanadi. Donasho'mning 100 kg quruq xashagida kuzda 34 ozuqa birligi va 3,5 kg yengil hazm bo'luvchan protein mavjud. Barglari va urug'lari tarkibidagi ozuqa moddalari miqdori tanalariga nisbatan ancha yuqori.

Urug'lari yordamida ko'payadi. Urug'larning sifati: to'liqligi 76-78%, unib chiquvchanlik qobiliyatini 8-9 oy davomida saqlay oladi.

**Agriophyllum Arenarium- |Qumarchik.** Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik sho'ra o't, bo'yi 20-100 sm. Poyasining ostidan ser novdalanadi, sertuk va tikanli. Barglari navbatma-navbat joylashgan, o'tkir skleromorf tipli tikanchali. Gullari zich, boshoqsimon tuganaklarda yig'ilgan. Ildiz tizimi qumlarning 1-1,5 m chuqurlikgacha bo'lgan qatlamlarida rivojlanadi. Aksariyat qumli cho'llarda (Qizilqum, Qoraqum, Muyunqum, Astraxon, Volga-Ural qumliklari) tarqalgan. Yaxlit maydonlar hosil qilmaydi, biroq boshqa turlar (butalar, yarim butalar, o'tlar) bilan birgalikda bemalol o'saveradi. O'simlik qalinligi ham boshqa turlarga nisbatan anchagina siyrak va qum tepalarning tepaliklari, qiyaliklari va tekisliklarida ham uchraydi. Vegetatsiyasi martda boshlanadi, aprel-mayda jadal o'sadi, iyunda gullaydi, urug'lari pishgach qurib qoladi.

Ozuqa to'plash ko'rsatkichlari unchalik yuqori bo'lmasdan (40-50 kg/ga) ayrim rivojlanishi qulay bo'lgan sharoit va yillardagina undan olinadigan pichan miqdori gektaridan 15-20 sentnergacha yetishi mumkin. Kumarchiqqa xos yana bir holat qayd qilib o'tmoq o'rni, u oziq-ovqat sifatida foydalanib kelinayotgan urug'lar hosil qiladi. Pishib yetilgan urug'lari mayda qovrilsa yeyiluvchanligi ancha xushtam va to'yimli hisoblanadi va mahalliy aholi onda-sonda delikates sifatida foydalanib keladi. Urug'laridan olinadigan yog'ning sifati kungabooqar urug'laridan olinadigan yog' sifatiga deyarli teng. Siyrak-siyrak tarqalganligi, asosan buzila boshlagan, o'simlik qoplami siyraklashgan maydonlarda tarqalganligi tufayli yaylov xo'jaligida muhim ahamiyat kasb eta olmaydi.

Qumarchiqni mollar ko'kat va quruq holida ham yeayeradi. Urug'lari eng to'yimli va muhim oziqa hisoblanadi. Qumlarni mustahkamlash tadbirlarida muhim **fitomeliorant** vazifasini o'tashi mumkin. Xashagining kimyoiyi tarkibi: protein-13,6 -23, kletchatka - 7,0-26, 2, yog'-9,1, AEM-69,4. Urug'larining to'yimliligi quyidagicha: oqsil-18%, yog'-5,7, uglevodlar-68,7%. 100 kg xashagi gullah pallasida 66,8 ozuqa birligi va 6,3 kg yengil hazm bo'ladigan protein saqlaydi.

**Salsola Sclerantha C.A.Mey.- seta.** Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik quruq sho'ra o't, bo'yi 30-60 sm, tanasi o'nsimon tuklangan. Markaziy Osiyo cho'llarida keng tarqalgan sho'ra; asosan o'rtacha sho'rangan tuproqlar, zichlashgan, qumli maydonlar, taqirlar atrofida

zichroq o'sadi. Ayrim qulay yillari va siyrak maydonlarda qarab yirikroq massivlar hosil qilib o'sishi mumkin. Martda maysalaydi, aprel-iyun oylari jadal rivojlanadi, avgust-sentyabrda urug' beradi.

Boshqa turdag'i sho'ra o'tlardan farq qilib, seta ko'kat holida ham, qurigandan keyin ham qoniqarli yeyilaveradi. Uni ayniqsa mayda shoxli mollar vegetatsiya davrida ham iste'mol qiladi, qo'y-qo'zilar uchun u yoz mavsumida vitaminli ozuqa hisoblanadi. Chunonchi, shu davrda ozuqasi tarkibida 8,4-2,8 mg % karotin mavjud. O'sish davriga qarab ozuqaning kimyoviy tarkibi o'zgaruvchan. Masalan, gullash davrigacha tarkibidagi kul miqdori 34,8 % ga yetsa, qishga borib u 8,8 % gacha kamayadi; kletchatka miqdori ham vegetatsiya davrida 14,6 % gacha yetsa, qo'rigach-7,5 -8,0 % gacha tushadi. Seta yoz masumida eng yuqori hosil toplash davriga kiradi; qalin maysazorlar tashkil etgan maydonlarda pichan tayyorlash imkoniyati mavjud; uning pichan hosildorligi o'rtacha 3-4 s/ga.

**Ceratocarpus Arenarius L.- Kamgox (ebelek).** Sho'radoshlar oilasiga mansub sharsimon, tikanli bir yillik sho'ra, bo'yi 5-35 sm. Barglari navbatma-navbat joylashgan, sertukli. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan sho'ralardan biri. Turli-tuman ekologik sharoitlarda tarqalgan. Tuproq tanlamaydi desa bo'ladi: u qumli, soz tuproqlar va sho'rangan maydonlar, yo'l yoqalari, eski shudgorda ham uchraydi. Ayniqsa inqirozga uchragan yaylov maydonlarida ko'proq tarqalgan. Ebelek-yaylov inqirozining **indikatori** hisoblanadi.

Erta bahorda unib chiqadi, aprelda shonalaydi, may-iyulda gullab urug' beradi, 1000 ta urug'mevasining vazni 4,7 gr, 1000 ta urug'ining vazni 2,3 gr. Shamol yordamida yengil uchuvchan bo'lib past tekisliklar, to'siqlarda to'planib qoladi. Barcha turdag'i mollar uchun qoniqarli ozuqa, ko'kat holida, urug'laganga qadar yeyiladi. Erta bahor va kuzda nisbatan qoniqarli yeyiladi. Kimyoviy tarkibi va to'yimliligi jihatidan qoniqarli yaylovbop turlar jumlasiga kiritish mumkin. Jumladan, uning pichani urug' berish pallasida quyidagi kimyoviy tarkibga ega: (%) protein- 11,7, yog'- 1,6, kletchatka- 26,5, kul- 11,9, AEM-48,1. Makroelementlardan kaliy (2,9%), kaltsiy- (0,6-1,4,) natriy-(0,5-1,1%) ga boy; karotin miqdori -12,3-36,7 mg/kg. Hosildorligi o'simlik zichligi, ob-havo, o'sish sharoitiga bog'liq bo'lib, anchagina o'zgaruvchan. Ayrim qulay yillarda uning ozuqa zahiralari ko'rsatgichi 3-5 s/ga va undan ham yuqori bo'lishi mumkin.

**Atriplex Nitens- Olabuta.** Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik sernovda tik o'suvchan o'simlik. Sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlarda bo'yi 1,5 metr va undan ham baland bo'lishi mumkin. Tabiiy holda ko'llar, botqoqliklarning qirg'oqlari, sernam maydonlar, tashlandiq sho'rxoklar va turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan, dehqonchilik qilinadigan maydonlarda o'sadi, martning oxiri-aprelning birinchi dekadasida unib chiqadi, may-iyunda shonalaydi, iyul-sentyabrgacha gullash pallasiga kiradi, noyabrdagi urug'lari pishib yetiladi.

Mayda shoxli mollar (qo'ylar, echkilar) olabutani asosan kuz-qish oylari qoniqarli iste'mol qiladi; aksariyat qurigandan keyin yejiluvchanligi yaxshilanadi; ko'kat holida ham uni yirik va mayda shoxli mollar qoniqarli yeydi. Silos tayyorlash uchun ham yaroqli. Pichanininig tarkibi urug'i pishish davrida quyidagicha: protein miqdori - 14,4%, yog'-3,0, AEM-36,5, kul -16 va kletchatka-30,1%. 100 g ko'katni tarkibida rivojlanish bosqichiga qarab 53-70 mg % C vitamini mavjud, 100 kg pichani tarkibida 40 ozuqa birligi saqlaydi. Tabiiy holda asosan qalin tarqalgan maydonlarda yuqori (6-9 s/ga) hosil to'playdi. Qizilqumning sho'rlangan maydonlarida parvarishlangan ola buta gektaridan 100 sentnergacha fitomassa to'playdi. Sho'rlangan cho'il yaylovlari holatina yaxshilashda istiqbolli **fitomeliorant**.

**Climacoptera Lanata (Pall.) Botsch-Baliqko'z.** Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik sho'ra o't, bo'yi 20-60 sm. Tanasi, novdalari kulrang sershira, urug'lari nisbatan yirik. Shirali bir yillik sho'ra o'tlar guruhining vakili. Taqir, taqirsimon, qo'ng'ir-bo'z tuproqlar turli darajada sho'rlangan zinchlashgan qumlar, sho'rxok maydonlar atrofida tarqoq-tarqoq o'sadi. Ekin sharoitida mart oyida o'nib chiqadi, shonalashi may, gullashi iyul-avgust, urug'lari oktyabr-noyabr oylari pishib yetiladi, 1000 ta urug'mevasining vazni 13,1 gr. Baliqko'zning o'sish davrida tarkibida ko'p miqdorda (52%) mineral tuzlar saqlanganligi sababli uni chorva mollari deyarli yemaydi, biroq; kuz-qish oylari davomida xush ko'rib yejiluvchi to'yimli ozuqa hisoblanadi. 100 kg quruq pichanida bahorda 23 ozuqa birligi va 5 kg yengil hazm bo'luvchan protein, yozda 47 kuzda 30 ozuqa birligi va 10 kg gacha yengil hazm bo'luvchan protein mavjud.

**Mustaqil topshiriq: Jadvalni to‘ldiring!**

Nº	O‘simlik nomi	Botanik ta‘rifi, navlari va morfologiyasi	Ekologiyasi va fenologiyasi	Yaylovbopligi va to‘yimliligi	Hosildorligi va xo‘jalik ahamiyati
1	Halimocnemis villosa				
2	Girgensonia Appositiflora				
3	Gamantus Gamacarpus				
4	Agriophyllum Arenarium				
5	Agrophyllum Latifolium				
6	Salsola Sclerantha				
7	Ceratocarpus Arenarius				
8	Atriplex Nitens				
9	Climacoptera Lanata				

**Nazorat savollari:**

1. Gallofitlar nima va ularga xos moslashuv xususiyatlari.
2. Bir yillik sho‘ra o‘tlarning qorako‘lchilikdagi ahamiyati va sho‘ra o‘tlarning yayovlarda foydalanish xususiyatlari.
3. Baliqko‘z va donasho‘r (ularga qisqacha tavsif bering).
4. Seta va uning asosiy biologik va xo‘jalik xususiyatlari.
5. Shirali va quruq sho‘ra o‘tlar va ularning bir-biridan farqlanuvchi asosiy biologik va xo‘jalik belgilarini bayon qiling.

**9-mavzuga doir test savollari**

1. Qaysi o‘simlik bir yillik sho‘ra o‘t hisoblanadi?
  - A. Oq qandim
  - B. Singren
  - C. Kamforosma
  - D. Xaridandon
2. Qumarchiq, sagan, donasho‘r qaysi o‘simliklar guruhiga kiradi?
  - Efemerlar
  - Efemeroидлар
  - Butalar
  - Bir yillik sho‘ra o‘tlar
3. Seta qanday o‘simliklar guruhiga kiradi?

- A. Efemerlar
  - B. Efemeroидлар
  - C. Butalar
  - E. Bir yillik sho'ra o'tlar
4. Qaysi o'simlik yaylov inqirozining indikatori hisoblanadi?
- A. Ebelek
  - B. Seta
  - D. Qumarchiq
  - E. Olabuta
5. Qaysi o'simlikdan mahalliy aholi delikotes sifatida foydalanadi?
- A. Ebelek
  - B. Seta
  - D. Qumarchiq
  - E. Olabuta
6. Qaysi o'simlik urug'idan olinadiga moy kungaboqar moyiga tenglashtiriladi?
- A. Ebelek
  - B. Seta
  - D. Qumarchiq
  - E. Olabuta
7. Qaysi o'simlikni hayvonlar o'suv davrida yemaydi?
- A. Baliqko'z
  - B. Olabuta
  - D. Qumarchiq
  - E. Ebelek
8. Qaysi o'simlik sharsimon ko'rinishga ega?
- A. Baliqko'z
  - B. Olabuta
  - D. Qumarchiq
  - E. Ebelek
9. Qaysi o'simlik fitomeliorant hisoblanadi?
- A. Baliqko'z
  - B. Sagan
  - D. Qumarchiq
  - E. Ebelek
10. Saganning bo'yи necha sm?
- A. 5-15
  - B. 20-50
  - D. 100-150
  - E. 30-60

## 10-mashg'ulot. Zaharli va zararli o'simliklar

**Mashg'ulotning maqsadi.** Cho'l va adir mintaqalari yaylovlarda uchraydigan zaharli, kam yeyiladigan va zararli tur o'simliklari bilan tanishtirish va ularga qarshi kurash chora-tadbirlar tizimini qo'llashni o'rgatish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Zaharli va zararli o'simliklar guruhiba oid gerbariyalar, maxsus albom, foto-suratlar, jadvallar, urug' namunalari, videoproyektor, animatsion va videolavhalar va h.k.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Talabalarni ozuqaviy guruuhlar bilan tanishtirish, ularning asosiy bioekologik va xo'jalik xossalarini o'rgatish, rasmini chizdirish, yozdirish va talabalarning mustaqil ishlashi asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Ekinzorlar, tabiiy yoki sun'iy yaylov va pichanzorlarda yana bir guruh o'simliklar ham uchraydiki, ular xo'jalik yuritishda bir talay noqulayliklarni yuzaga keltiradi.

Ular jumlasiga yaylov ozuqasi sifatining bузилиши, боғиладиган мollar sog'ligiga ziyon kelishi, chorvachilikdan olinadigan turli mahsulotlar sifatining bузилиши кabi holatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Hatto oz bo'lsa ham shunday holatlar ham uchraydiki, yaylovlarda saqlangan chorva mollarining kutilmaganda zaharlanishiga ham olib keladi; hatto ularning bir qismining nobud bo'lishiga ham sababchi bo'ldi.

**Zaharli o'simliklar** deganda o'z organlarida zaharli moddalar (alkalloidlar, glyukozidlar, organik kislotalar, efir moylar) saqlovchi va qishloq xo'jalik mollarining sog'ligiga ziyon keltiruvchi, hatto halok qiluvchi turlar nazarda tutiladi. Chunonchi, alkalloidlar – murakkab organik birikmalar bo'lib, odatda, uglerod, vodorod va azotdan tashkil topgan. O'simlik turlariga qarab alkalloidlar miqdori juda kam miqdordan tortib -3,5 % (kampirchopon)gacha bo'lishi mumkin. Ular o'simliklarning barcha qismlarida bo'lishi mumkin, aksariyat urug' va mevalarida (ko'knor) tanasi (xina daraxti), ildizlarida uchraydi. O'sish fazasiga qarab alkalloidlar miqdori ham o'zgaruvchan – vegetatsiya davrida barglarda, urug'lash fazasida-urug'lari, vegetatsiya so'ngida ildizlarda qayd qilinadi. Alkaloidlarning ta'sir doirasi ham har xil: jigar, qon-tomir, nerv sistemasiga ta'sir qiladi. O'simlik tarkibidagi zaharli moddalar o'simliklarning o'sish sharoiti, rivojlanish davrlari, yoshi, hamda tarqalishiga qarab o'zgarib turadi.

**Glyukozidlar** - tuzilishi jihatidan juda murakkab organik birikmalardir. Gdalyukozidlar uglevod va aglyukonlarga (qandsiz) qismlarga oson parchalanadi, ayniqsa ular, qaynatilganda, qizdirilganda, fermentlar ta'sir etganda osongina parchalanadi. Ular ko'pincha kristall, amorf birikmalardir.

**Saponinlar**- azotsiz moddalar bo'lib, qandli va qandsiz qismdan iborat. Saponinlarning xususiyatlardan biri shundaki, ularning suv critmalari chayqatilsa uzoq vaqt saqlanadigan ko'pik hosil qiladi.

**Efir moylari** - kimyoviy jihatdan turli-tuman birikmalardir. Gerpenlar aksariyat hollarda efir moylarining birdan - bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunonchi, efir moylar ninabarglilar (qarag'ay, archa), murakkabguldoshlar (shuvoqlar, bo'ymadaron, andiz) kabilarda ko'proq uchraydi.

**Kislotalar**- masalan, sianagen (kislota-sianogen), glyukozidlarning fermentlar ta'sirida parchalanish mahsuli hisoblanadi. O'simliklarda normal hayotiy jarayoni buzilgan holdagina sianid kislota hosil bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, sianid kislota o'ta sernam sharoitda hosil bo'lib, o'simliklar quriganda bu modda deyarli hosil bo'lmaydi. Oksalat kislota, nitrit kislotalar ham turlichalisa ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Fitotoksinlar**- oqsil xarakteridagi o'simlik moddalarini bo'lib, ular immunitetni mustahkamlashda foydali hisoblanadi. Ushbu guruhga kiruvchi yaylov begona o'tlari turli botanik oilalarga, hayotiy shakllarga mansub bo'lib, o'ziga xos biologik, ekologik xususiyatlarga ega. Ko'pincha ho'llligida quriganiga nisbatan havfli. Quritilgan o'simliklarda zaharli moddalarining miqdori hamda ta'sir etishi pasayib boradi. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, aksariyat tur zaharli o'simliklardan olinadigan zaharli moddalar oz miqdorda dori-darmonli xususiyatiga ega; shu boisdan ular turli tuman dori-darmonlar ishlab chiqarishda muhim xomash'yo vazifasini o'taydi.

Zaharli o'simliklarni yaxshi tanimaslik, ularning spetsifik tarqalish, rivojlanish xususiyatlarini bilmaslik yaylovlardan to'g'ri foydalanishda, ma'lum ma'noda, qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu guruhga kiruvchi yaylov begona o'tlari turli botanik oilalarga, hayotiy shakllarga mansub bo'lib, o'ziga xos biologik, ekologik xususiyatlariga ega. Bir vaqtning o'zida ularning aksariyati (isiriq - Peganum harmala) shifobaxshlik tabobatida keng qullanilib kelinmoqda.

**Ammodendron Conolly Bunge.- Qum akatsiyasi.**  
Dukkakdoshlar oilasiga mansub daraxt, bo'yisi 4-9 m, shoxlarining

uzunligi 1-3 m. Baraglari mayda, barg uchlari tikanli, binafsha rangli. Vegetativ novdalar o'suvchi, kam o'suvchi va pastdan o'suvchi turlardan iborat. Ildiz tizimi universal tipli, o'q ildizi 2-3 metr chuqurlikgacha rivojlansa, boshqa ildizlari 5-8 metr yonboshga tarqalgan. Gullari qoramitir-binafsharang. Qumli cho'lda tarqalgan. Aksariyat ko'chuvchan, o'ydim -qator qumlarda uchraydi. Qoraqum va Qizilqumning **endemigi**.

Yaylov inqirozi **indikatori** sifatida kuchli buzila boshlagan qum maydonlarda zichligi osha boradi. Urug'idan, martning o'rtasi-aprelda maysalaydi, katta yoshdagilari aprelda ko'karadi. Generativ fazasi 4-7 yoshda kuzatiladi. Vegetativ usul va urug'lari yordamida ko'payadi. Zaharli o'simliklar guruhiga kiritilgan. Yaylovlarda yeyiluvchaligi qoniqarli emas. Asosan qish mavsumida alkaloidlar miqdori parchalanib kamaygach, tuya va qo'ylar barglari, novdalarini qisman yeyishi mumkin. Ildizi rangboplik xususiyatiga ega, junni to'q sariq rangga bo'yashga yaroqli, yog'ochi mustahkam va qattiq. Gullah pallasida asal yig'uvchi tur hisoblanadi.

**Zaharlilik xususiyatlari.** Barglari, mevasi, ildizi tarkibida ammodendrin, paxikarpin kabi alkaloidlar bo'lganligi tufayli zaharli tur hisoblanadi. Oziqaboplrik jihatidan baholanadigan bo'lsa, qum akatsiyasi to'yimliligi past o'simlik. Jumladan, vegetatsiyasi so'ngida ozuqasi tarkibidagi protein miqdori 7,5% dan oshmaydi. Kletchatka miqdori 30%, AEM-54,4, kul-6,3%. Cho'l sharoitida manzarali o'simlik sifatida ham e'tiborga sazovor.

**Peganum Harmala- isiriq.** Tuyatovondoshlar oilasiga mansub, bo'yi 40-70 sm atrofidagi ko'p yillik o'tchil o'simlik. Cho'l, adir, tog' etaklarida joylashgan qishloqlar, eski qo'ralar, quduqlar atrofida, yo'l yoqalarida, inqirozga uchragan yaylovlarda ko'p o'sadi. Aprel oyining boshlaridan ko'kara boshlaydi, mayda gullaydi, urug'lari iyunda pishadi. Uni ko'kat holida chorva mollari kam yeyidi; qurigan novdalarini, urug'i, qishda qisman yeyiladi. Novdalarida (1,5-3,5 %), barglarida (2,2- 4,9 %), urug'larida (2,3-4,6 %), alkaloidlar miqdori turlicha. Unda garmalin, garmin, garmalol, vazitsin, peganin alkaloidlari mavjudligi aniqlangan. Isiriqning gullah davrida tayyorlangan pichani quyidagi kimyoviy tarkibga ega: protein – 24,1 %, yog' – 3,7 %, kul moddalari – 17,8 % , AEM – 30,7 %, kletchatka – 18,1 %. Isiriqdan tayyorlangan dori-darmonlar xalq tabobatida keng qo'llaniladi, urug'ida esa qizil va

jigar rang buyoqlar tayyorlanadigan moddalar bor, 1000 ta urug'ining vazni 2,5 gr.

**Trichodesma Incanum D.C.- |Kampirchopon.**

Govzabonguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, bo'yi 1 metrgacha yetadi; yonboshga ham ancha kuchli rivojlanadigan o't, kuchli shoxlangan. Barglari tanasida juft-juft bo'lib joylashadi, ovalsimon yoki nashtar shaklida, uchi o'tkir. Barg va novdalari oqish tukchalar bilan zikh qoplagan. Gullari yirik (2-2,5 sm), asosan ko'kimtir tusli: Gultoj barglar keng ochilgan kosacha hosil qiladi. Urug'lari nisbatan yirik (6-10 mm), yassi, oval yoki yuraksimon 1000 dona urug'ining vazni 55-57 g. Aksariyat hollarda lalmi dehqonchilik hududlarida begona o't sifatida o'sadi. Asosiy tarqalgan tuproq tiplari ochiq va tipik bo'z tuproqlar hisoblanadi. Respublikamizdan tashqari Tojikiston, Qozog'iston tog' oldi va tog'li lalmi dehqonchilik hududlarida ham tarqalgan. Sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida ham paxta, bedazorlarda yoki poliz ekinlari, yo'l yoqalarida ham uchrashi mumkin. Tarqalish maydonlarida kampirchoponning zichligi turlicha bo'lib, har bir gektarda uning qalinligi 400 dan 550 tuppacha yetishi mumkin. Har bir tup o'simlik 150-2000 tagacha urug' bera oladi. Kampirchoponning zaharlilik xususiyatlari uning urug' tarkibida alkaloidlar - trixodesmin, inkanin (1,5-2,7%) borligi hisoblanadi. Shuningdek vegetativ qismlarda ham 1% gacha alkaloidlar mavjudligi aniqlangan.

Kampirchopon asab-qon tomir sistemasiga ta'sir qiluvchi zahar hisoblanadi. Zaharlanish holati ozuqa bilan oshqozon-ichak yo'llari orqali organizmga o'tgan holda kuzatiladi. Buning uchun mollarga yedirilgan xashak tarkibida uning miqdori vegetativ qismlar hisobidan 10-25 % va urug'lari hisobidan 0,05 % dan ko'p bo'limsligi lozim. Kampirchopondan zaharlanishni mavsumiy zaharlanishga misol sifatida ko'rsatish mumkin, mart-aprelda boshlanib, may-iyunda nihoyasiga yetishi mumkin. Kampirchopon trixodesmatozi yilqilar, qora mollar, cho'chqalar, qo'yilda uchraydi. Unga qarshi kurash choralariga birinchi navbatda, uni yo'qotishga qaratilmog'i lozim. Shu boisdan, karantin, agrotexnik (shudgor, o'toq, tor qatorlab ekish, tozalash) chora-tadbirlari qo'llaniladi. Asosiy tarqalish hududlarida vegetatsiyasi aprelning oxiri-mayning birinchi dekadasida boshlanadi; jadal rivojlanish davri may-iyun oylari hisoblanadi; iyulda gullaydi, urug'lari -avgustda pishib yetiladi.

**Ceratocephalus Falcata-Otashak** (uchma). Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub bir yillik sertuk o'simlik, bo'yi 5-7sm gacha. Barglari juda ingichka, panjasimon bo'lingan. Guloldi ikkilamchi, besh bargli, gultoj barglari sariq rangli. Mevalari o'roqsimon qiyshaygan, meva shoxchasi ilmoqli. Qumli va soz tuproqli cho'llarda tarqalgan. Yaylovlarda har yili paydo bo'lmasdan, ayrim rivoji ob-havo qulay yillarda qayd etiladi. Fevral-mart oylari unib chiqadi, martda gullaydi, aprelning o'rtalari – oxirida quriydi. Erta bahor seryog'in va havo harorati iliq kelgan yillari ancha go'rkirab rivojlansa, qurg'oqchil va salqin bahorda u o'simlik qoplamida deyarli sezilmaydi. Uning zaharliligi tarkibidagi protoanemin moddasiga bog'liq. Uchma eng yaxshi rivojlangan yillarda chorva mollari uchun eng xavfli davri gullah va urug'lash payti hisoblanadi. O'simlik qurigach uning zaharlilik xususiyati yo'qoladi, qurigach zararsizlanadi va bunday maydonlar mol boqishga yaroqli hisoblanadi. Yana shuni ham ta'kidlamoq joizki, chorva mollari uchmani alohida o'zini yemaydi. U boshqa turlar-odatda bir va ko'p yillik barra o'tlar bilan birga o'sganligi sababli ular bilan aralash yeylim qolishi mumkin.

Uchma yaylovlarda qo'zilatish kompaniyasi avjiga chiqqan davrda ayni rivojga chiqqanligi sababli ancha xavfli hisoblanadi. Qo'y-qo'zilarning uchmadan zaharlanganda zudlik bilan yaylovni almashnirish lozim. Cho'ponlar bahor oylari bu borada o'ta hushyor bo'lishlari va imkoniyati boricha uchma tarqalgan maydonlardan bu davrda foydalanimasliklari zarur.

**Phlomis Thapsoides Bge.- Quziqulooq.** Labguldoshlar oilsiga mansub, poyasi to'rt qirrali, barglari oddiy, poyasida qarama-qarshi joylashgan, yon barglari yo'q. Barglari barg qo'ltig'idan chiqadi, bittadan, ko'pincha ikkiga ajralgan gajakda bo'ladi. Ikki qarama-qarshi barg qo'ltig'idan chiqqan gullar o'zaro birlashadi, natijada doira tupgul vujudga keladi. Guli och-siyohrang, gulqo'rg'oni zigomorf, besh a'zoli. Kosachasi besh tishli, uzun tuklar bilan qoplangan, ba'zan ikki labli, ustki labi uch bargchali, ostkisi ikki bargchali bo'ladi. Gultoji odatda ikki labli, ostkisi uch tojbargli, ustkisi ikki tojbargli. Otaligi to'rtta, yonidagi ikkitasi oldindagi ikkita otalikdan uzunroq yoki ikkita bo'lib qolganlari reduktsiyalanadi. Otalik iplari gultoji nayiga birikkian. Onaligi ikki meva bargli, tugunchasi ustki ikki uyali, har bir uya ikki urug'kurtakli. Har qaysi urug'kurtak orasida juda barvaqt to'siq hosil

bo'ladi. Natijada tuguncha to'rt bo'lakchaga ajraladi. Guldagi otaliklar onalikka nisbatan tezroq yetiladi.

Mevasi bir urug'li to'rtta yong'oqchasimon mevachalarga ajraladi yoki urug'kurtakning hammasining taraqqiy etmasligi natijasida 3-1 yong'oqchasimon mevachaga bo'linadi. Urug'i qariyb endospermisiz. Murtagi to'g'ri. Tugunchasining tagida doira bo'lib joylashgan shiradoni bor. Shamol va hasharotlar yordamida changlanadi. Quziquloq ko'p yillik o't, bo'yi 20-60 sm, barglari cho'ziq ko'rinishda-nashtarsimon, yaproqlarining usti xira yasil, osti oq tusli, may-avgust oyalarida gullab urug'laydi. Adir va tog' zonasida o'sadi. Efir moylariga boyligi tufayli, uni ko'p iste'mol qilgan chorvaning zaharlanishi kuzatildi. Ayniqsa, efir moylari o'simlikning gullagan paytida ko'p miqdorda hosil bo'ladi.

**Psoralea Drupacea- Oq quray.** Dukkakdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 0,5-2,0 m ko'p yillik o'tchil o'simlik. Barglari oddiy yoki uchlamchi, yopishqoq. Gullari mayda, oqish, binafsha rangli. Aksariyat adirlarda o'sadi. Bir xil maydonlarda o'simliklar qoplamida asosiy tur bo'lib, **manzarali** o'simlik hisoblanadi. Mart oyida ko'karadi, mayiyunda gullaydi, urug'lari sentyabrdagi pishadi. Gullarini hisobga olmaganda, u ko'kat holida yaylovlarda deyarli yeyilmaydi; kuzda yerga to'kilgan barg va urug'lari yeyiladi. Oq qurayda urug'lash davrida drupatsin alkaloidi mavjud. Uni egan ona qo'ylar qisir qoladi, qo'chqorlarda esa urug'donlarning massasi pasayishi va spermatogenez jarayonini buzadi. Shu sababli yilning bu davrida oq qurayli yaylovlarda mol boqish tavsiya etilmaydi. Oq quray – muhim shifobaxsh, efir moy beruvchi, asalarichilikda foydalaniladigan o'simlik; ildiz va dukkaklaridan pes kasalligi (vitiligo) ni davolashda ishlataladigan psoralen moddasi olinadi.

**Taeniametherum Crinitum Nevski- Qiltiq.** G'alladoshlar oilasiga mansub, efemer; bo'yi 20-40 sm. Barglari chiziqli, ingichka. Boshog'i uzun (7-12 sm) qilqonli; o'simlik qurishi bilan qiltiqlari dag'allashib yaylovida boqiladigan mollarga katta zarar keltirishi mumkin. Soz, qumli, shag'al toshli tuproqlarda ko'poq uchraydi. Jadal ko'karish davri – mart-may oylari; boshqqlari iyunning oxirida pishadi. Qiltiq maysa holatida yaxshi yeyiladi. Uning zararli qiltiqli boshqqlari quriganidan boshlab namoyon bo'la boshlaydi va junga yopishishi sababli uning sifatiga ziyon keltiradi; qishloq xo'jalik mollarinng ko'zлari, og'iz atrofi va og'iz bo'shliqlarini yallig'lantirib, tanasida yaralar paydo qiladi. O'z vaqtida uning oldi olinib zarur chora-tadbirlar ko'rilmasa, yaralangan

joylar qurtlab ziyon darajasi yana ham kuchayishi mumkin. Boshoqlari pishib yetilgan pallada qiltiq o'suvchi yaylovlari mol boqishga mutlaqo yaroqsiz. Tarkibida qiltiq bo'lgan pichanlardan foydalanish ham hayvonlarga ziyon keltirish ehtimolidan uzoq emas. Qiltiqqa qarshi kurash choralaridan biri bunday maydonlarda ular urug'langunga qadar o'rib olinishlari zarur.

**Hordeum Leporinum Link-|Qilqon.** Bo'yи 20-40 sm li g'alladoshlar oilasiga mansub, bir yillik (efemer) o'simlik. Barglari lansetsimon-chiziqli, uzun. Qishloq xo'jalik hayvonlarining zaharli o'simliklardan zaharlanishining o'ziga xos bir talay tashqi va ichki belgilari borki, ularni ham yaxshi bilmoq lozim. Albatta, bunday belgilar turli-tuman va bir-biriga o'xshashliklari ham anchagina. Shu belgidan klinik simptomlardan tashqari potologoanatomik tekshirish ma'lumotlari ham qo'llaniladi. Shuningdek, boshqa mavjud tahlillar, anomnez ma'lumotlardan ham foydalanish qabul qilingan.

Umuman, hayvonlarning zaharli o'simliklardan zaharlanishida quyidagi holatlar e'tiborga olinadi:

1. Hayvonlar o'simliklardan zaharlanganda avvalgi kuni kasallik belgilari sezilmasdan tamomila sog'lom bo'lib, ertalabga borib og'ir kasallik belgilari sezilib, hatto halok bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holat odatda, bir guruh hayvonlardagina kuzatilib, bu o'simliklarni is'temol qilmagan boshqa guruh mutlaqo sog'lom bo'lishi mumkin.

2. Hayvonlarning zaharli o'simliklardan zaharlanishi yalpi tus olib bir xildagi klinik belgalar va patologoanatomik o'zgarishlar qayd qilinadi.

3. Kasallik boshqa guruhlarga yuqmasligi va yaylov maydoni o'zgartirilganda kasallikning tarqalishi tezda to'xtaydi.

Zaharlanish belgilari aksariyat, o'tkir yoki surunkali kechishi mumkin: nerv va yurak-tomir sistemasiga ta'sir qiluvchi zaharlardan hayvonlar bir necha soatda kasallanib halok bo'lishi mumkin. Zaharlanishning surunkali shaklida kasallanish haftalab, hatto oy lab davom etishi mumkin. Masalan, ozuqa tarkibida oz miqdorda ko'kmara, kampirchopon bo'lgan taqdirda shunday holat kuzatiladi.

**Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!**

Nº	O'simlik nomi	Botanik ta'rif va morfologiyasi	Ekologiyasi va fenologiyasi	Zaharliligi va zararliligi
1	Ammodendron Conolly			
2	Peganum Harmala			
3	Trichodesma Incanum			
4	Ceratocephalus Falcata			
5	Phlomis Thapsoides			
6	Pseralea Drupacea			
7	Taeniatherum Crinitum			
8	Hordeum Leporinum			

**Nazorat uchun savollar**

1. Zaharli o'simliklar zararli o'simliklardan qanday farqlanadi?
2. Isiriq qaysi ozuqaviy guruhga kiradi va uning qisqacha tavsifini bayon qiling?
3. Zaharli o'simliklarning qaysi organlari xavfli hisoblanadi? Ushbu masalani batavsilroq bayon qilib bering?
4. Nima sababdan cho'l yaylovlarda qishloq xo'jalik hayvonlarining zaharlanish holatlari kam uchraydi?

**10 mavzuga doir test savollari**

1. Zaharli o'simliklarning zahari qaysi fazasida nomoyon bo'ladi?
  - A. Unib chiqish
  - B .Gullash
  - C. Vegetatsiya davri davomida
  - D. To'g'ri javob yo'q
2. Isiriq qanday o'simlik?
  - A. Zaharli o'simlik
  - B. Zararli o'simlik
  - C. Ozuqabop o'simlik
  - D. Barcha javob to'g'ri
3. Kampirchopon tarkibida qanday zaharli modda bor?
  - A. Alkoloid

- B. Gulyukozid  
D. Efer moyi  
E. Fitotoksin
4. Tarkibida zaharli moddalar alkoloid, glyukozid kabilarni saqlab chorva mollarini zaharlaydigan hatto ularning o'limiga sabab bo'ladigan o'tlarga nima deyiladi?
- A. Zaharli o'tlar  
B. Begona o'tlar  
D. Zararli o'tlar  
E. Yovvoyi o'tlar.
5. Zaharli o'simliklar vakillarini ko'rsating?
- A. Bangidevona, kampirchopon, ko'kmara, uchma  
B. Qo'ytikan, qiltiq, quyon arpa, taktak  
D. Dag'alkanop, jag'-jag', iloq, shamak  
E. Qo'ytikan, bangidevona, kampirchopon
6. Kampirchopon o'simligining tarkibida qanday zaharli alkoloidlar bor?
- A. Trixodesmin  
B. Geliotrin  
D. Laziokarpin  
E. Solanin
7. Ko'pchilik zaharli o'simliklar qaysi fazasida va qaysi organida zahar konsentrasiyasi yuqori bo'ladi.
- A. Gullash va mevalash fazalarida, gul va mevada  
B. Toplash  
D. Naychalash  
E. Pishish
8. Zaharli o'simliklarni vakillari qaysilar?
- A. Tuyaqorin, Qizg'aldoq, Bangidevona, Mingdevona, Kakra, Oq curay, Uchma, Kampirchopon, Ko'kmara.  
B. Sholi  
D. Beda  
E. Jo'xori
9. Tuyaqorinni yegan hayvonda qanday alomatlar yuz beradi?

- A. Jigari shishadi, ko'z va tishidagi shilliq pardalar sarg'ayadi, qornida suv to'planib qoladi, oyoqlari tirishib hushidan ketadi va o'ladi.
- B. Qorni og'riydi
- C. Suyagi sarg'ayadi
- D. Yuragi to'xtaydi
10. Qizg'aldoqni chorva mollari uchun xavfli davri qaysi?
- A. Uning gullagan payti hisoblanadi. Bu davrda uni yegan har qanday hayvon zaharlanadi.
- B. Unib chiqish
- C. Urug'ining bo'rtishi
- E. Shonalash
11. Zararli o'simlik vakillari?
- A. Qiltiq, Temirtikan, Sog'on, Quyonarpa,
- B. Arpa
- C. Bug'doy
- E. Suli
12. Tabiiy pichanzor va yaylovlarda yana qanday zararli o'tlar uchraydi?
- A. Sutlamalar, chaqamug', qilkon, bo'ritikan, qo'shoyoq kabi zararli o'tlar ham ko'p uchraydi.
- B. Sholi
- D. No'xat
- E. Soya
13. Bo'yi 15–60 sm, barglari ensiz, lentasimon, to'pguli zikh boshoq, ushbu ta'rif qaysi ekin uchun xos?
- A. Qiltiq
- B. Makkajo'xori
- D. Tariq
- E. Sholi
14. Qiltiq qaysi davrdan boshlab zararli hisoblanadi va nima uchun?
- A. Pishib yetilgach, tezda qurib qoladi.
- B. Unib chiqqan vaqt
- D. Barg hosil qilganda
- E. Gullaganda
15. Temirtikan qaysi oilaga mansub?

- A. Ayiqtovondoshlar
  - B. Burchoqdoshlar
  - C. Soyabondoshlar
  - D. Ra‘nodoshlar
16. Bo‘yi 10-60 santimetrga yetadigan, poyasi yotib o‘suvchi o‘t. Gulisariq bu qaysi zararli o‘simlik?
- A. Temirtikan
  - B. Sholi
  - C. Kampirchopon
  - D. Uchma
17. Temirtikan qaysi oylarda gullaydi?
- A. Aprel-may
  - B. Dekabr
  - C. Yanvar
  - D. Fevral
18. Chog‘on qaysi oilaga mansub?
- A. Sho‘radoshlar
  - B. Galladoshlar
  - C. Dukkakililar
  - D. Murakkabguldoshlar
19. Sog‘on yaylovlarda o‘t kam yillari u bilan oziqlangan mollar nima uchun ko‘plab halok bo‘lishi mumkin.
- A. Chunki sog‘on poyalari tez sinuvchan, bug‘inlarining bir tomoni uchli, uni mol yeganda kavsh qaytara olmaydi
  - B. Qorni yorilib ketadi
  - C. Qoni suyilib ketadi
  - D. Tishi sarg‘ayadi
20. Bo‘yi 15 – 40 sm, poyasi bo‘g‘in – bo‘g‘in, tirsakli, silliq. Barglari ensiz, to‘pguli boshoq holda, bu qaysi zararli o‘simlik.
- A. Quyonarpa
  - B. Kartoshka
  - C. Suli
  - D. Bug‘doy

## **11-mashg'ulot. Istiqbolli cho'l fitomeliorantlari va ularning introduksiyasi, seleksiyasi, urug'chilik sohasidagi ilm-fan yutuqlari (O'zQChEITI ga ekskursiya)**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Sohaning shakllanishi, rivoji va ravnaqida ilm-fanning o'mni, vazifalari va yutuqlari bilan batafsil tanishtirish, talabalarda qorako'lchilik faniga bo'lgan qiziqishni yanada orttirish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Mashg'ulot O'zQChEITI ga ekskursiya tariqasida olib boriladi. O'z ilmiy faoliyati (85 yildan ortiq) davomida va hozirgi kunda amalga oshirayotgan barcha yo'nalishlarga oid ilmiy asbob-anjomlar, laboratoriya jihozlari, qorako'l qo'y terilari. Mulyajlar, transekt, sekator, kvadrat ramkalar, gerabariy papkalari, gerbari turlari. Istiqbolli fitomeliorantlar bog'lamlari.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Talabalarni institutning majlislar zalida yig'ib uning tashkil etilishi, vazifalari, yo'nalishlari va erishgan yutuqlariga oid asosiy ma'lumotlar bayon qilish. Ushbu zalda namoyish etilayotgan planshetlarga e'tibor qaratish. Talabalarning barcha savollariga javob berish, institutning yaylovshunoslikka oid laboratoriya va bo'limlariga sayohat uyushtirish. Har bir ilmiy bo'lim rahbarlari yoki yetakchi ilmiy xodimlari o'z yo'nalishlari va erishgan yutuqlari borasida eshitish, qo'llaniladigan tadqiqot uslublari ustida ham qisman ma'lumotlar berish va jonli suhhbatlar uyshtirish, institut faoliyati bilan tanishish O'zQChEITI da mayjud muzeyni tamosha qilish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Respublikamiz shunday muhim geografik muhitda joylashganki, unda jazirama sahrolardan tortib baland tog' tizmalarigacha bo'lgan maydonlar mayjud. Biroq, qorako'lchilikning asosiy bazasini tashkil qiluvchi cho'l va adirlar zimmasiga respublika umumliy maydonining qariyib 52 % i to'g'ri keladi.

Har bir xo'jalik sohasini ilmiy asoslangan holdda yurgizish, ravnaq topishida respublikamiz chovrachiligining muhim, salmoqli yo'nalishi hisoblangan qorako'lchilikni ham rivojlantirishning ilmiy markazi, shtabi bo'lmog'i lozim. Shunday sharafli burchni ko'xna va hamisha navqiron hisoblangan qadimiy shahar Samarqandda joylashgan O'zQChEITI mana 85 yildan ortiq davr mobaynida bajarib kelmoqda. Hozirgi kunda qorako'l zotli qo'yarning yalpi miqdori 4,5 mln. boshdan ortiq bo'lib ular 102 ta qorako'lchilik shirkat va ko'p sonli fermer va

dehqon xo'jaliklarga birlashgan. Qorako'lchilik rang va rang-baranglikda o'ta boy bo'lib, 10 dan ortiq rang, 18 ranbaranglik va 4 tipdan tashkil topgan.

O'zbekiston qorako'lchilik va cho'llar ekologiyasi ITIning eng muhim vazifalari jumlasiga qorako'l zotli qo'ylnarning, echkilar va tuyachilikning seleksion-naslchilik ishlarni oqilona yuritish, cho'l va adir mintaqalari ozuqabop o'simliklarini o'rganish, cho'llar ekologik turg'unligini saqlash hisoblanadi.

Institutning faoliyati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Qorako'l qo'ylar, echkilar, tuyalar seleksiyasi, urchitilishi va naslchilik ishlari.
2. Qorako'lchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, qayta ishlash va soha iqtisodiyoti.
3. Qurg'oqchil sharoitda ozuqa yetishtirish va cho'llar ekologiyasi.
4. Ilmiy yutuqlar targ'iboti va joriy etilishi.

Institutning asosiy e'tibori, birinchi navbatda, yaylov chorvachiligi mahsulдорligini oshirish, yaylovlardan ekologik tabaqalashgan tartibda foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolarining yechimiga yo'naltirilgan. Qorako'l qo'yulari seleksiyasi, ularni urchitish, oziqlantirish va saqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi tadqiqotlar, zot ichidagi qimmatbaho rang va rang-baranglik hamda cho'l hududlarida 27 ta zavod tiplarini yaratish va zot genofondini yanada boyitishga asos bo'ldi. Qorako'l zotli qo'ylnarning morfobiologik xususiyatlarini aniqlash, qo'yular seleksiyasining usul va yo'llarini ishlab chiqish, ularni urchitish va ko'paytirish yo'nalishidagi tadqiqotlar, zot tarkibi, seleksiya-naslchilik ishlari tizimini takomillashtirish, mahsulotni standartlash hamda sertifikatsiyalashning ilmiy tamoyillarini ishlab chiqish imkonini yaratdi. Qorako'l qo'yularining ekologo-biologik xususiyatlarini o'rganish ularni parvarishlash mintaqalari tabiiy sharoitlarini hisobga olgan holda oziqlantirish biologiyasi va fiziologik holatini ilmiy asoslarini ishlab chiqishga zamin yaratdi.

Sohada qo'llaniladigan texnologik jarayonlar tahlili, qo'y-qo'zilarni to'yimli ozuqa aralashmalari bilan ta'minlash, qorako'l teri, go'sht, po'stin, jun va boshqa mahsulotlarni yetishtirishda qo'yularni to'yimli ozuqalar aralashmalari bilan oziqlantirish orqali ularning genetik salohiyatini to'laroq namoyon qilishga asos bo'ldi; og'ir mehnat

talab qiluvchi ishlarni mexanizatsiyalash va sohaning yanada rivojlantirish imkonini yaratmoqda. Qorako'l terilar va po'stinlarning tovar xususiyatlarini o'rganish asosida ularni dastlabki va qayta ishlash, saqlash va mahsulotlar tayyorlash texnologiyalari ishlab chiqilgan. Cho'l yaylovlari sharoitida bajarilgan ko'p yillik kuzatishlar, tadqiqotlar, yusushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar asosida yaylovlardan samarali foydalanishning ekologik muhofazalangan texnologiyalari yaratilgan. Yaylov ozuqbop o'simliklari, fitotsenozlarining ekologik, biologik, fiziologik xususiyatlarini o'rganish, fitotsenozlarning senotik va floristik jihatdan to'liqsizligini aniqlash, yaylovshunoslikda yangi yo'nalishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi va hozirgi kunda qurg'oqchil sharoitda ozuqa yetishtirish kabi yangi fan tarmog'i yuzaga keldi. Qurg'oqchil sharoitda ozuqa yetishtirish nisbatan yangi fan va soha yo'nalishi hisoblanib, tarkiban fitomelioratsiya, cho'l ozuqbop o'simliklari introduksiyasi, seleksiyasi, urug'chiligi kabi tarkibiy qismalaridan iborat.

Hozirgi kunda cho'l muhim ozuqbop o'simliklari genofondi 35 turga boytildi va 16 ta yuqori hosil beruvchi cho'l ozuqbop o'simliklarining navlari yaratildi. Mazkur navlar va istiqbolli fitomeliorantlardan foydalanib har bir cho'l ekologik tiplariga mos va turli mavsumlarda foydalanishga mo'ljallangan yaylov agrofitotsenozlari barpo etish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Mana bir necha yillardiki, institut tuyachilik va echkichilikni ham rivojlantirish sohasida yangi izlanishlar olib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning natijalari o'laroq tuyalarning yuqori mahsuldor podalari va mahalliy echkilarning go'sht-sut yo'nalishidagi suruvlari yaratildi. Qorako'lchilikni tashkil qilish va iqtisodiy samaradorligini tadqiq qilishdagи izlanishlar sohaning ixtisoslashuvi va koperatsiyalashuvi, joylashish, rivojlanish, istiqbollari, jadallahsuvi, rentabelligi masalalari o'rganilganligi oqibatida zarur tavsiya va takliflar tayyorlandi.

Institut jamoasi bir necha (IKARDA, LEAD, IFAD, BCHI, BOITI, QozQITI) xalqaro ilmiy markazlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Institut qorako'lchilik sohasiga yaqindan amaliy yordam berib kelmoqda: boniterlar, sun'iy urug'lantiruvchilar, tovarshunoslardan malakasini oshirishga oid har yilgi mashg'ulotlar tashkil qilinmoqda; sohaning 30 ta naslchilik zavodlari va xo'jaliklarida doimiy ilmiy-uslubiy, amaliy yordam ko'rsatilib kelinmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. O'zQChEITI nechanchi yilda tashkil topgan va u yerda qanday muzey mavjud?
2. O'zQChEITI qayerda joylashgan va bu institut nechta yo'nalish bo'yicha faoliyat olib boradi?
3. O'zQChEITI ning asosiy maqsad vazifalari nimalardan iborat? Institutning xalqaro markazlar bilan hamkorlik faoliyati.
4. O'zQChEITI da so'nggi yillarda olib borilgan istiqbolli loyihibar va ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risiga gapirib bering.
5. Qorako'lchilik xo'jaliklarini yaratishda O'zQChEITI ning roli?

## **12 mashg'ulot. Yaylov tiplari ozuqa zahiralarini aniqlash uslublari va ularga oid misollar yechish**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Qorako'lchilik yaylovlarida o'sadigan muhim ozuqabop turlarning ozuqa zahiralarini aniqlash uslublarini o'rgatish va talabalarda muayyan masalalar misolida uni aniqlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar** (mashg'ulotni bevosita muayyan cho'l yaylov tipi misolida o'tkazish o'rnlidir). Maxsus blankalar transekt, kvadrat ramkalar, sekator, xaltachalar, etiketkalar, gerbarii setka, kafedrada ishlab chiqilgan mavzuga oid boshqa ma'lumotlar, fotosuratlar).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Tanlangan muayyan yaylov tipi yoki bir necha yaylov variantlari misolida 2-4 ta talaba tanlanib ularga transektni to'g'ri o'rnatish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berish va nazorat qilib turish. Yaylov ozuqa zahirasini bevosita aniqlashga oid ishlarga kirishishdan oldin bir necha talaba yordamida tanlangan maydonda qayd etilgan ozuqabop o'simlik turlarini to'g'ri aniqlashga oid savol-javob qilish va talabalarni baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Yaylov xo'jaligini tashkil etish va yaylovlardan samarali foydalanishning muhim tarkibiy qismlari jumlasiga yaylov ozuqa zahiralari (miqdori va sifati) va ulardan foydalanish mavsumini aniqlash masalasi kiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, yaylov maydonidan samarali foydalanishning muhim sharti, unda mavjud ozuqa miqdorini va uning qanday ulushi boqiladigan hayvon turi hisobidan yeyiladigan qismini aniq hisoblashdan iborat. Shu boisdan ushbu mavzuni mukamal o'rgatishga o'ta jiddiy e'tibor berilmog'i lozim. Yaylovlarda hosildorlikni aniqlashga oid bajariladigan ishlar odatda 3 bosqichdan iborat bo'ladi: a) tayyorgarlik, b) dala ishlari, v) kameral ishlari. Aksariyat cho'l va adir yaylovlarida yaylov ozuqa zahiralarini aniqlashga qaratilgan dala ishlari 2 muddatda – bahor va kuzda amalga oshirish qabul qilingan.

Respublikamizda tabiiy yaylovlar aksariyat hollarda 1:5000 masshtabda (ya'ni 1 sm da 50 m) amalga oshirish qabul qilingan; ayrim yirik qumli massivlar va Ustyurtda geobotanik izlanishlar 1:10000 ham bajarilishi mumkin. O'qitish jarayoni bilan bog'liq mashg'ulotlarni alohida tanlangan maydon misolida va yuqoridaqilarga amal qilinmasdan o'tkazilishi mumkin. Yaylovlar o'simlik qoplamini

o'rganish aksariyat hollarda quyidagi maqsadlardan kelib chiqib amalga oshiriladi: muayyan xo'jalik, massiv, yaylov tipining holatini baholovchi sifat va miqdor ko'rsatkichlarini hisobga olish uchun maxsus geobotanik otryadlar barpo etiladi. Geobotanik otryadning tarkibi ishni bajarish bosqichiga qarab 2 (tayyorgarlik, kameral) nafardan 5 (dala bosqichi) nafargacha bo'lishi qabul qilingan. Geobotanik otryad tarkibida geobotanik, texnik, yollangan ishchilar va haydovchidan tashkil topgan bo'ladi. Eng muhim bosqich dala ishlari quyiidagi tartibda va ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- dala ishlarini tashkil qilish;
- dastlabki tekshirish;
- aniq marshrut bo'ylab tekshirish.

Dala ishlarini tashkil qilish bosqichida geobotanik otryadni tuzish, vaqtinchalik ishchilarni yollash, jixozlar, materiallarni tayyorlash va xo'jalik rahbarlari bilan bo'ladigan suhbatlardan iborat. Dastlabki tekshirishda o'simlik qoplami o'rganiladi va oldindan belgilangan harakat marshrutlariga aniqliklar kiritiladi va h.k. Aniq marshrutlar bo'ylab tekshirish davomida har bir yaylov variantlari aniqlanib ularning chegaralari xaritada belgilanadi:

- har bir yaylov varianti misolida o'simlik qoplami bayoni yoziladi;
- yaylov hosildorligini aniqlash maqsadida yeyiladigan ozuqa zahiralari hisob-kitob qilinadi;
- yuqorida bajarilgan barcha yumushlar, punktlari xaritada o'z aksini topadi.

Shuningdek mazkur yumushlar bilan bir qatorda har bir massiv yoki maydonдан foydalanish xususiyatlari, dag'al xashak tayyorlash joylari va usullari, yaylovlarda suv, shamol eroziysi mavjudligi, yaylov holatini yaxshilash ishlari mavjudligi yoki ularni amalga oshirish zarurligi va xo'jalik hodimlarilarining bu yumushlar borasidagi takliflari ham qilinib boriladi. Endi o'simlik qoplamini o'rganish blankasini to'ldirish masalasiga e'tiborni qarataylik (6-jadval).

Ta'kidlash lozimki, yaylovlar holatini tekshirish jarayonida eng muhim hujjatlar jumlasiga o'simlik qoplamini o'rganish blankasini to'ldirish muhim o'rinni egallaydi va bu masalaga o'ta jiddiy e'tibor qaratilmog'i lozim. Dala sharoitida yaylovlarda o'simliklarni qayd qilish va to'ldirish tartibiga oid blankalar namunasi 1-jadvalda keltirilgan. Ta'kidlash joizki, muayyan yaylov varianti, massivi, tipida qayd

etiladigan o'simliklar ro'yxatida o'simlikning nomi, o'sish balandligi, yoki ko'pligi (Drude shkalasi bo'yicha) hayotiy holati, fenologiyasi o'z aksini topadi (6-jadval).

O'simliklarni qayd qilish blankasi (qog'oz) №

1. Otryad
2. O'rganuvchi (F.I.Sh.)
3. Qayd qilish muddati
4. Maydon satxi
5. Geografik punkti
6. O'simlik hayotiy shakli
7. Transekt №
8. Qayd etilgan joy va maydonning topografiyasi
9. Ishlatilmaydigan maydon va ularning ulushi, %
10. Tuproq va maydon yuzasining tavsifi
11. Suv bilan ta'minlanishi
12. Yaylov tipi
13. O'simlik qoplaming umumiy holati
14. O'simlik qoplaming tasnifi va ularning nisbati
15. Kompleks elementlari bo'yicha landshaft o'simliklar
16. Begona, zararli, zaharli va yeyilmaydigan o'simliklar
17. Kompleks elementlari bo'yicha umumiy proaktiv qoplam
18. O'simliklar ro'yxati.
19. Qayd etilgan o'simlik qoplaming hozirgi foydalanish yo'nalishi
20. Qo'shimcha ma'lumotlar

6-Jadval

№	O'simlik nomi	Balandligi, sm	Oz ko'pligi	yoki	Hayotiy holati	Fenologiyasi

Qorako'ichilik yaylovlari hosildorligini aniqlashning umum qabul qilingan ikki usuli mavjud.

**1. Transekt usuli** – (to‘rt burchagida o‘tkir uchli qoziqlar bo‘lgan tarang tortilgan va ma‘lum satxdagi ( $100, 200, 800 \text{ m}^2$  va undan ortiq) maydonchaga shpagat tortilgan joy transekt deyiladi). Buta, yarim buta, yirik poyali o‘simglik turlari ozuqa zahiralarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Transekt tomonlarining uzunligi yaylov tipi, tekshiriladigan maydon, rel‘efi va h.k.larga qarab 50 metrdan 400-800 metrgacha, eni esa 2-4 metrgacha bo‘ladi. Demak, uzunligi 50 va eni 2 metr bo‘lgan transektning satxi  $100\text{m}^2$  ( $50\text{m} \times 2\text{m} = 100\text{m}^2$ ); tomonlari 400 va 2 m metr bo‘lgan transektning satxi  $800\text{m}^2$  ( $400 \text{ m} \times 2 \text{ m} = 800$ ) bo‘ladi. Transekt usulida yaylovlar hosildorligini aniqlash uchun quyidagi tartibda tekshirish va hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi (bu jarayon mashg‘ulot davomida bevosita namoyish qilinishi lozim).

Tanlangan yaylov maydoniga transekt o‘rnatalgach 2 kishidan iborat komanda transekt bo‘ylab biri ichkarida, ikkinchisi transekt tashqarisida asta-sekinlik bilan harakat qilib barcha turdag'i transekt oralig‘idagi buta va yarim butalarni yirik, o‘rta, kichik model tuplarga ajrata borib, ularning miqdorini transekt tashqarisidagi sheringiga aytib boradi; o‘z navbatida, ikkinchi kishi har bir tur va aytilgan sonlarni o‘nlik nuqtalar shaklida hisob daftariga (o‘rim blanskasiga) qayd qilib boradi. Transektdagi barcha turlar oxirigacha qayd qilib bo‘linib, hisob daftariga yozib bo‘lingach, boshqa bosqichdag'i ishga o‘tiladi – ya‘ni har bir botanik tur (masalan, shuvoq, keyreuk, cho‘g‘on, saksaul, singren va h.k.) dan model butalari (yirik, o‘rta, kichik) dan kamida 3 nafardan ozuqa namunalari sekator yordamida qirqilib chit xaltachalar yoki qog‘oz paketchalarga joylashtiriladi va bir vaqtning o‘zida ular maxsus blankalarda to‘ldirilgan hujjat (etiketka) bilan ta‘minlanadi. Har bir transektdan olingen ozuqa namunalari alohida – alohida belgilanishi lozim.

Dala ishlari davomida to‘plangan ozuqa namunalari kameral sharoitda me‘yorida quritiladi, texnik tarozilarda ( $0,1 \text{ g}$  aniqlikgacha) tortilgach har bir model tupning o‘rtacha ozuqa massasi hisob-kitob qilinadi (2 jadval). Endi har bir model tup ozuqa massasi dala sharoitida aniqlangan model tuplarning transektdagi miqdoriga ko‘paytirilib ularning transekt maydoniga (masalan  $100 \text{ m}^2$ ) teng fitomassasi hisoblanadi. Yeyiladigan ozuqa miqdorini aniqlash uchun har bir model tupning 3 mm dan yirik bo‘lmagan yillik novdalari, barglari, urug‘lari alohida ajratib olinib avvalgiga o‘xshash hisob-kitob ishlari bajariladi.

Bo‘yi baland (saksovul, cherkez, qandim) va qo‘y-qo‘zilar foydalanish noqulay bo‘lgan turlarning yeyiladigan ozuqa zahiralari hosildorligini hisoblaganda ularning 120 sm gacha balandlikdagi yillik novdalaridan namunalar olinib ular hisobidan o‘lchash ishlari amalga oshiriladi (7-jadval).

## 7-Jadval

Butalar kattaligi				
Yirik	O'rta	Mayda		
Butalar soni, dona	Model butaning massasi,g	Transektdagi hosil, kg	Butalar soni, dona	Butalar soni, dona
			Model butaning massasi,g	Transektdagi hosil, kg
				Butalar soni, dona
				Model butaning massasi,g
				Transektdagi hosil, kg
				Yalpi hosil ga/kg

**Maydonchalar uslubi:** asosan efemer va efemeroидli yaylov tipi. Shuningdek yarim buta-barra o'tli, buta-barra o'tli yaylovlarning o'tchil turlari qatlami hosilini aniqlashda qo'llaniladi. Bu usulning bajarilish tartibi quyidagicha: tomonlari  $0,71 \times 0,71$  ( $0,5 \text{ m}^2$ ) yoki  $1\text{m} \times 1\text{m} = 1\text{m}^2$  li to'g'ri to'rtburchak maydonchalar (yog'och ramkalar) tortilgan transekts ichidagi barcha o'tchil o'simliklar tuproq yuzasi qismidan yuqorisi sekator yoki boshqa qirquvchi asbob yordamida o'rib olinadi. Etiketkalanib, maxsus xaltachalarga joylashtiriladi. Ramkachalarni transektda joylashtirish qaytarmasi masalasiga kelsak hosildorligi aniqlashga mo'ljallangan yaylov variantining transektning uzunligiga qarab kamida 5-10 joyidan ma'lum oraliq qoldirilib amalga oshiriladi. Chunonchi, transektning uzunligi 50 metr bo'lgan taqdirda uning ichiga kamida 10 joyga ramkalar qo'yilib ozuqa namunalarini qirqib olishda ularni yoppasiga qirqmasdan balki alohida-alohida **dukkakdoshlar, g'alladoshlar, sho'ralar va turli o'tlar guruhlariga** ajratib namunalar olish maqsadga muvofiq. Bu usulda namunalar olinganda yaylovnинг umumhosildorlik ko'rsatkichidan tashqari uning to'yimlilik ko'rsatkichini ham aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Dala ishlari davomida to'plangan ozuqa namunalari quritilgach texnik tarozida tortilib dastavval 1m<sup>2</sup> maydondagi hosildorligi so'ngra 1 hektar maydondagi hosildorlik aniqlanadi. Shuvoq-barra o'tli yaylov tipida shuvoqlardan tashqari o'z ozuqa massasining ulushi, to'yimliligi jihatidan rang, qo'ng'irbosh, chitir kabi turlar dominant (ustivor) hisoblanganligi sababli ularni alohida-alohida aniqlash ham maqsadga muvofiq. Yilning muayyan bir faslida (aksariyat hollarda bahor, kuzda) aniqlangan hosildorlik ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan maxsus koefitsientlardan foydalanib ularning qolgan boshqa mavsumlardagi hosildorligini taxminan aniqlash mumkin (8-jadval).

#### 8-Jadval

#### **Qorako'chilik yaylovlari ozuqabop o'simliklarining yillik hosildorlik dinamikasi**

O'simliklar	Yil mavsumlari bo'ylab hosildorlik dinamikasi, %			
	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
	<i>Efemer va efemeroitdalar</i>			
Iloq	100/70	70/65	45/55	30/50
Rang	100/70	60/65	45/55	40/50
Qo'ng'irbosh	100/70	50/60	30/50	20/30
Arpaxon	100/70	50/65	30/50	20/50
Yaltirbosh	100/70	50/65	30/50	20/50
Chitir	100/80	30/30	15/40	10/50
Qashqa yo'ng'ichqa	100/80	10/30	0/0	0/0
Kavrak	100/50	70/50	50/50	25/50
Karrak	100/20	100/10	40/10	25/10
<i>Butalar va yarim butalar</i>				
Qora saksovul	40/0	100/0	80/30	45/45
Cherkez	70/5	100/5	30/30	15/40
Qandim	100/60	80/50	30/40	10/30
Keyruk	30/40	70/40	100/60	70/60
Cho'g'on	65/30	80/30	100/60	50/60
Singren	100/70	60/60	50/30	30/30
<i>Bir yillik sho'ra o'tlar</i>				
Seta	40/30	100/50	75/80	25/50
Donasho'r	20/0	80/0-5	100/70	50/70
Xaridandon	20/0	80/0-5	100/70	50/70
Baliqko'z	20/40	0/0	90/0	100/70
<i>Dag'at poyali o'simliklar</i>				
Yantoq	50/20	80/5	80/15	100/35
Selin	80/50	100/60	90/60	80/80
Iris	20/50	100/0	80/0	60/50
Kavul	70/70	80/60	100/70	90/60

Yalpi hosildorlik (sur'at), yeyiladigan zahira (mahraj).

**Yaylov hosildorligini (s/ga) mavsumlar bo'ylab hisoblash qaydnomasi**  
**Viloyat \_\_\_\_\_ Tuman \_\_\_\_\_ Xo'jalik nomi \_\_\_\_\_**

O'simliklarning yoki yaylov tipining nomi	Bahor	Yoz	Kuz	Qish

### Nazorat savollari

1. Qorako'chilik turli yaylov tiplari ozuqa zahiralarini aniqlashda qanday uslublar qo'llaniladi?
2. Butalar, yarim butalarning ozuqa zahiralarini aniqlashda qanday uslub qo'llaniladi? Uni amalda qo'llash texnikasini bayon qiling?
3. Transekt usuli nima va uni qaysi holatlarda qo'llash qabul qilingan?
4. Maydonchalar uslubi nima va undan qaysi holatlarda foydalilanadi? Ushbu uslubni amalda qo'llash texnikasini so'zlab bering va misollar yeching?

### 12-mavzuga doir test savollari

1. Yaylovlarda hosildorlikni aniqlashga oid bajariladigan ishlar odatda nechta bosqichdan iborat bo'ladi?
  - A. 3 bosqichdan
  - B. 2 bosqichdan
  - C. 5 bosqichdan
  - D. 4 bosqichdan
2. Aksariyat cho'l va adir yaylovlarida yaylov ozuqa zahiralarini aniqlashga qaratilgan dala ishlari 2 muddatda amalga oshiriladi. Qaysi muddatlarda?
  - A. Bahor va kuzda
  - B. Yozda va kuzda
  - C. Bahor va qishda
  - D. Kuzda va qishda
3. Transekt tomonlarining uzunligi va eni yaylov tipi, tekshiriladigan maydon, rel'efi va h.k.larga qarab necha metrdan necha metrgacha bo'ladi?
  - A. 50 metrdan 400-800 metrgacha, eni esa 2-4 metr gacha

- B. 100 metrdan 500-1000 metrgacha, eni esa 4-6 metr gacha  
D. 30 metrdan 200-400 metrgacha, eni esa 2-3 metr gacha  
E. 80 metrdan 300-600 metrgacha, eni esa 1-3 metr gacha
4. Yeyiladigan ozuqa miqdorini aniqlash uchun har bir model tupning necha mm dan yirik bo‘limgan yillik novdalari, barglari, urug‘lari alohida ajratib olinadi?
- A. 3 mm dan yirik bo‘limgan  
B. 5 mm dan yirik bo‘limgan  
D. 2 mm dan yirik bo‘limgan  
E. 6 mm dan yirik bo‘limgan
5. Bo‘yi baland (saksovul, cherkez, qandim) va qo‘y-qo‘zilar foydalanishi noqulay bo‘lgan turlarning yeyiladigan ozuqa zahiralari hosildorligini hisoblaganda ularning necha sm gacha balandlikdagi yillik novdalaridan namunalar olinib ular hisobidan o‘lhash ishlari amalga oshiriladi.
- A. 120 sm gacha balandlikdagi  
B. 150 sm gacha balandlikdagi  
D. 100 sm gacha balandlikdagi  
E. 50 sm gacha balandlikdagi
6. To‘rt burchagida o‘tkir uchli qoziqlar bo‘lgan tarang tortilgan va ma‘lum satxdagi (100, 200,800 m<sup>2</sup>) va undan ortiq) maydonchaga shpagat tortilgan joy nima deyiladi?
- A. Transekt usuli  
B. Geografik punkti  
C. Kompleks usuli  
D. Qo‘sishchicha usuli
7. Asosan efemer va efemeroидli yaylov tipi, shuningdek, yarim butabar o‘qli, buta-barra o‘qli yaylovlarning o‘tchil turlari qatlami hosilini aniqlashda qaysi uslub qo‘llaniladi.
- A. Maydonchalar uslubi  
B. Transekt uslub  
C. Fenologlar uslub  
D. Geografik uslub
8. Hosildorlikni aniqlashga mo‘ljallangan yaylov variantining transektning uzunligiga qarab kamida nechta joyidan ma‘lum oraliq qoldirilib amalga oshiriladi.
- A. 5-10 joyidan  
B. 3-5 joyidan

- D. 10-15 joyidan  
E. 15-20 joyidan
9. Dala ishlari davomida to'plangan ozuqa namunalari quritilgach, texnik tarozida tortilib dastavval qancha maydondagi hosildorligi, so'ngra qancha maydondagi hosildorlik aniqlanadi.
- A. Dastavval  $1 \text{ m}^2$ , so'ngra 1 hektar  
B. Dastavval  $10 \text{ m}^2$ , so'ngra 10 hektar  
C. Dastavval  $0,5 \text{ m}^2$ , so'ngra 0,5 hektar  
D. Dastavval  $5 \text{ m}^2$ , so'ngra 1,5 hektar
10. O'z ozuqa massasining ulushi, to'yimliligi jihatidan qaysi turlar dominant (ustivor) hisoblanganligi sababli ularni alohida-alohida aniqlash zarur?
- A. Rang, qo'ng'irbosh, chitir  
B. Arpaxon, Yaltirbosh, Kavrak  
C. Cho'g'on, Singren, Qandim  
D. Cherkez, Karrak, Donasho'r

### 13-mashg'ulot. Yaylovlар fitomelioratsiyasida qо'llaniladigan istiqbolli o'simlik turlarining assortimenti

**Mashg'ulotning maqsadi:** qorako'lchilik yaylovlарida tarqalgan asosiy istiqbolli fitomeliorantlar bilan tanishtirish va ularning qorako'lchilikdagi ahamiyati, yaylov ekologik tiplarining meliorativ holatini yaxshilashdagi ahamiyati xususida asosiy tushunchalar berish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Cho'l yaylovlari istiqbolli fitomeliorantlarining gerbariy namunalari, urug'lari, o'simlik o'ramlari, tabiiy sharoitda fitomeliorantlar aks ettirilgan rangli foto - rasmlar, asosiy ekoiplari, tuproq qoplaming morfologik tuzilishi, kimyoviy tarkibiga oid jadval yoki diogramma ma'lumotlari.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** Yaylovlар fitomelioratsiyasida qо'llaniladigan istiqbolli o'simlik turlarining assortimenti mavzusini tushuntirish, rangli rasmlarini ko'rsatish, yozdirish va talabalarni mustaqil ishslashlari asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Ma'lumki, cho'l hududlarining talaygini qismi meliorativ holati juda yomon. Qumli tuproqlar sharoitida o'sib, rivojlanish va urug' hosil qilishga moslashgan o'simlik guruhiga psammofitlar ("psammos"-qum; "fiton"-o'simlik) deyiladi. Yaylovlarning meliorativ holatini yaxshilovchi o'simlilarga fitomeliorantlar deyiladi. Fitomelioratsiya (*fiton-o'simlik, melioratsiya-yaxshilash*, ya'ni, o'simliklar vositasida yaxshilash) yaylovshunoslikda nisbatan yangi, istiqbolli yo'nalish bo'lib, tabiiy yaylovlar mahsuldarligini oshirish chora-tadbirlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar tizimidan iborat.

Hozirgi kunda qorako'lchilik hududlarining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib ularning hosildorligini keskin oshirishga qaratilgan agrotexnik chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Ularning fitomeliorativ mohiyatini foydalanish mavsumlariga qarab bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- adirlarda kuzgi-qishki yaylovlar barpo etish;
- ixotazorlar barpo etish;
- turli mavsumlarda foydalanishga mo'ljallangan yaylov agrofitsenozlari barpo etish;
- ixotazorlar+meliorativ ekinzorlar barpo etish;
- tabiatni muhofaza qilish asosida yaylovlar hosildorligini oshirish.

*Adirlarda kuzgi-qishki yaylovlar barpo etishning* mohiyati va zarurligi shundaki, ular nisbatan yuqori mahsulli, aksariyat hollarda anchagini to'yimli turlardan tashkil topgan bo'lsa ham, tarkibida yarim butalarning bo'lmasligi yoki kamchilligi sababli kuz-qish oylari mollarni yaylovda boqish borasida talaygina qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Adir yaylovlargacha xos ushbu nuqsonni bartaraf etish maqsadida, birinchi navbatta, inqirozga uchragan, ya'ni o'simlik qoplamida qo'ziqulq, oqqa'ray, isiriq kabi begona o'tlar ustuvorlik qilgan hududlar, aholi punktlariga yaqin maydonlar ajratiladi.

*Cho'l hududlarida ixotazorlar barpo etishning* mohiyati shundaki, ular cho'llarga xos kuchli shamollarning esish tezligini pasaytiradi, qishda qor to'planishini ta'minlab, tuproqda nam zahiralarining uzoqroq saqlanishiga erishiladi. Yaylov o'simliklarining o'sish, rivojlanish sharoitlari yaxshilanganligi oqibatida ularning hosildorligi 1,5-2 barobar oshadi. Qora saksovulning o'zi ham kuz-qish oylari davomida qo'y-qo'zilar, tuyalar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Ixotazorlar qulay tuproq-iqlim sharoitlarida, yirik butalar o'smagan yaylov maydonlarida barpo etilishi maqsadga muvofiq. Bunday maqsadlar uchun yengil mexanik tarkibli bo'z, qo'ng'ir-bo'z, qumoq tuproqli yaylov maydonlari tanlanadi.

*Turli mavsumlarda yaylovlardan foydalanish imkonini beruvchi yaylov agrofitotsenozlari barpo etishning ahamiyati* shundaki, har bir cho'l ekologik tiplarining o'ziga xos tuproq-iqlim, o'simlik qoplamlari xususiyatlarini hisobga olib turli hayotiy shakllar (butalar, yarim butalar, o'tchil turlar) aralashmasidan iborat yaylov agrofitotsenozlari barpo etiladi. Yangi ekin maydonlarining dastlabki afzalligi shundaki, ularning ko'p yarusli (qavatli) va yilning deyarli barcha mavsumlarida ham ko'kat holda saqlanuvchi turlardan tashkil topganligi sababli yilning zarur mavsumida foydalanish imkonini beradi; ob-havo noqulay kelgan yillar sharoitida ham xashak hosildorligi nisbatan barqaror saqlanib turadi. Har bir ekologik sharoitlarga mos yaylov agrofitotsenozalarini barpo etilganda butalar, yarim butalar, o'tchil turlarning turli nisbatdagi urug' aralashmasi qo'llaniladi; eng muhimmi, agrofitotsenozlar tarkibida bahor, yoz, kuz va qish oylari yeyiladigan o'simliklar mavjudligi sababli ulardan shu mavsumlarning birida foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

*Cho'l turli ekologik tiplariga xos fitomeliorantlar va ularning hayotiy shakllar bo'ylab taqsimlanishi.*

Fitomelioratsiya yaylovshunoslik sohasidagi nisbatan yangi va istiqbolli yo'nalish bo'lib tabiiy yaylovlar mahsuldorligini oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Fitomelioratsiyaning so'ngi yillar mobaynidagi yutuqlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

*Tabiatni muhofaza qilish asosida Qizilqum cho'li yaylovlari mahsuldorligini oshirish texnologiyasi.* Mazkur texnologiyaning mohiyati shundaki, an'anaviy texnologiyadan printsipial farqlanib tadbir bajarilganda, dastavval, tabiiy o'simlik qoplami qariyb 34-51,5 % nobud qilinmasdan saqlanib qoldiriladi. Eng muhimi, bir yo'la 4 texnologik operatsiya (ishlov berish, urug'lar ekilishi va tuproqqa qadalishi, molalash) bajarilishi yonilg'i-moy, mehnat sarfi harajatlarini keskin tejash imkonini beradi. Qisman ishlov berilgan mintaqalarda tabiiy turlar saqlanibgina qolmasdan balki, ob-havo noqulay kelib ekinlar qoniqarli rivojlanmay qolgan taqdirda ham tuproq eroziyasi sodir bo'lishini ancha pasaytiradi. Shunday qilib, tuproqlarga ishlov berish, ekin ekish, chora-tadbirlari ishlab chiqildi, ular tuproqning kimyoiy, mexanik tarkibini, suv rejimini yaxshilanligi tufayli unda parvarishlanadigan o'simliklarning yashovchanligini oshirish imkonini bermoqda va shamol eroziyasini oldini olmoqda.

O'ta qurg'oqchil hisoblangan cho'l hududlari yaylovlar mahsuldorligini oshirishning muvoffaqiyati bir talay ekologik shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Ular jumlasiga, birinchi navbatda, tuproq tiplari, o'simlik qoplami, yog'ingarchilik miqdori va uning bug'lanishi, grunt suvlarining joylashish chuqurligi va h.k. hisoblanadi. Qurg'oqchil mintaqalar sharoitida fitomeliorativ rayonlashtirish nuqtai nazaridan 3 chuqur ekologik shart-sharoitni ajratish mumkin:

**1. Nisbatan yetarli atmosfera namligi** - yillik yog'in miqdori 250 mm dan yuqori va bug'lanish 1600 mm. Barcha fitomeliorantlarning dastlabki (1-2) davr nisbatan yaxshi yoki qoniqarli.

**2. Nisbatan qoniqarli atmosfera namligi** - yillik yog'in miqdori 100-250 mm va bug'lanish ko'rsatkichi 2300 mm. Kserofil turlar maysalarining boshlang'ich davr (1-2) yil yashovchanligi qoniqarli.

**3. Qoniqarsiz atmosfera namligi** - yillik yog'in miqdori 100 mm atrofida yoki past; bug'lanish 2800 mmdan yuqori, maysalar yashovchanligi faqat tuproqqa ishlov berilgandagina qoniqarli hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan yaylovlarni yaxshilash masalasiga yondoshadigan bo'lsak, O'zbekiston cho'l hududlarining faqat 30 % ni fitomelioratsiya uchun nisbatan qulay hisoblanadi. Shu o'rinda yana bir

o'ta muhim masalaga diqqat-e'tiborni qaratmoq lozim. Bu istiqbolli fitomeliorantlarni to'g'ri tanlash hisoblanadi.

Cho'l yaylovlari holatini yaxshilash maqsadida Markaziy Osiyo cho'llarida 29 botanik oilaga tegishli 259 tur o'simlik sinovdan o'tkazilgan. Ularning yarmidan ko'prog'i 7 botanik oilaga taalluqli: g'alladoshlar 75 tur, sho'radoshlar 40, dukkakdoshlar 29, krestguldoshlilar 25, murakkabguldoshlar 17, soyabonguldoshlar 10 tur va qolgan 22 oilaga 50 tur to'g'ri keladi (Shamsutdinov 1973). Hayotiy shakllarga qarab sinalgan o'simliklar quyidagicha taqsimlanadi: daraxt va butalar 45 tur, yarim butalar 25, ko'p yillik o'tlar 68, bir yilliklar 115 tur.

Ular orasida istiqbolilar deb quyidagilar aniqlangan: daraxtlar 2 tur, butalar-8 tur, yarim butalar 11, ko'p yilliklar 8, bir yilliklar 9 tur. Qizilqum cho'li uchun istiqbolli fitomeliorantlar quyidagicha taqsimlanadi: butalar-4, yarim butalar-15, ko'p yillik o'tlar-5, bir yillik o'tlar-6 tur. Qumli cho'llar uchun oq va qora saksovul, cho'go'n, cherkezlar, qandim turlari (4-tur), teresken, izen, mavzoleyta, paxtabosh, erkak o't, uchma; gipsli cho'llar uchun qora saksovul, keyreuk, cho'g'on, izen, tetir, ermon shuvoq, baliqko'z, qo'ng'irbosh, chitirlar istiqbolli fitomeliorantlar hisoblanadi (10-11-jadvallar).

#### 10-Jadval

**O'zbekiston qurg'oqchil mintaqalari tabiiy yaylovlari holatini yaxshilashda qo'llaniladigan istiqbolli fitomeliorantlar (Botanika IIChM va O'zQChEITI ma'lumotlari)**

Fitomeliorantlar		Hayotiy shakli	Ekologik guruhi
Lotincha	O'zbekcha	3	4
1. <i>Haloxylon aphyllum</i> (Minkw.) Iljin	Qora saksovul	Daraxtsimon buta	Giperkserofit
2. <i>Haloxylon persicum</i> Bunge	Oq saksovul	Buta	Eukserofit
3. <i>Calligonum caput medusae</i> Shrenk	Qizil qandim	Daraxtsimon buta	Eukserofit
4. <i>Calligonum setosum</i> Litv.	Qandim (chakich)	Buta	Eukserofit
5. <i>Calligonum aphyllum</i> (Pall.) Garke	Daraxtsimon qandim	Buta	Eukserofit
6. <i>S richteri</i> Karel.	Cherkez	Buta	Giperkserofit
7. <i>Salsola Paletzkiana</i> Karel.	Paletskiy cherkezi	Buta	Giperkserofit
8. <i>Salsola arbuscula</i> Pall.	Boyalich	Buta	Giperkserofit

9. <i>Salsola gemascens</i> Pall.	Tetir	Yarim buta	Giperkserofit
10. <i>Salsola orientalis</i> S.G.Gmel.	Keyreuk	Yarim buta	Giperkserofit
11. <i>Salsola paulsenii</i> Litv.	Tuya qorin	Bir yillik	Giperkserofit
12. <i>Climacoptera lanata</i> (Pall.) Botsch	Baliq ko'z	Bir yillik	Giperkserofit
13. <i>Kraschennikovvia ewersmanniana</i> (stscheegl. Ex Losinsk Grub.)	Teresken	Yarim buta	Eukserofit
14. <i>K. ceratoides</i> (L.) Gucldenst.	Teresken	Yarim buta	Eukserofit
15. <i>Halothamnus suba phyllus</i> (C.A.Mey.) Botsch.	Chogon	Yarim buta	Giperkserofit
16. <i>Camphorosma Lessingii</i> Litv.	Kam forosma	Yarim buta	Eukserofit
17. <i>Kochia prostrata</i> subsp. <i>Virescens</i> (Fenzl.) Pratov	Izen (qumli)	Yarim buta	Eukserofit
18. <i>K. prostrarata</i> subsp. <i>Grisea</i> Pratov	Izen (toshloq)	Yarim buta	Eukserofit
19. <i>Astragalus unifoliolatus</i> Bunge	Singren	Yarim buta	Giperkserofit
20. <i>Astragalus villosimus</i> Bunge	Singren	Yarim buta	Giperkserofit
21. <i>Alhagi pseudalhagi</i> (Bieb.) Decv.	Yantooq	Ko'p yillik o't	Giperkserofit
22. <i>Artemisia turanica</i> H.Krasch.	Qora shuvoq	Yarim butacha	Giperkserofit
23. <i>Artemisia diffusa</i> H.Krasch.	Oq shuvoq	Yarim buta	Teroiriokserofit
24. <i>Artemisia sogdiana</i> Bunge.	Sug'diona shuvog'i	Yarim buta	Teroiriokserofit
25. <i>Artemisia ferganensis</i>	Farg'ona shuvog'i	Yarim buta	Teroiriokserofit
26. <i>Gramba amabitis</i> Butk. et Majtnn		Ko'p yillik o't	Kseromezofit
27. <i>Onobrychis choroosanica</i> Bunge	Xuroson espartseti	Ko'p yillik o't	Kseromezofit
28. <i>Hordeum buitbosum</i> L.		Ko'p yillik o't	Kseromezofit
29. <i>Agropyron cristatum</i>	Erkak o't	Ko'p yillik o't	Kseromezofit
30. <i>Poa bulbosa</i>	Qung'irbosh	Ko'p yillik o't	Mezofit
31. <i>Isatis bous sieriana</i> Bchb.f	Usma	Bir yillik	Mezofit

**11-Jadval**

**Asosiy istiqbolli buta va yarim buta fitomeliorantlarning cho'l sharoitida moslashish xususiyatlari**

Ko'rsatkichlar	Hayotiy shakllar		
	Butalar	Yarim butalar	O'tlar
O'simlik bo'yisi, m	2,5-3,0	0,5-1,2	0,3-0,6
Vegetatsiya davri	Bahor-yoz	Bahor-yoz	Bahor-yoz
Barglarining yozgi qurishi, %	15-20	35-70	-
Ildiz tizimi, m	4-14	3,5-5	2-2,5
To'qimalardagi suv miqdori, %	55-87	42-80	56-79
Eng yuqori kunlik suv defitsiti, %	12-22	58-63	21-27
Kunlik osmotik bosimi, atm	17-43	65-67	5-19
Issiqlikka chidamliligi, C°	59,5-62,8	52-56	50-51
O'rtacha hosildoriligi, s/ga	13-15	18-22	8-10
Foydalanish mavsumi	kuz-qish	yoz-kuz-qish	Bahor-yoz

**12-Jadval**

**Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!**

Qumli cho'l fitomeliorant lari	Gipsli cho'l fitomeliorant lari	Sho'rshok cho'l fitomeliorant lari	Tog', tog'oldi va adir yaylovlari fitomeliorant lari	Madaniylashtirilgan fitomeliorantlar

**Nazorat savollari**

1. Qurg'oqchil yaylov tiplari asosiy istiqbolli fitomeliorantlariga qanday o'simliklar misol bo'ladi?
2. Butalar, yarim butalardan iborat bo'lgan istiqbolli fitomeliorantlarning bioekologik va xo'jalik xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.
3. Qurg'oqchil mintaqalar sharoitida fitomeliorativ rayonlashtirish nuqtai nazaridan ekologik shart-sharoit to'g'risida ma'lumot bering.

4. Asosiy istiqbolli buta va yarim buta fitomeliorantlarning cho'l sharoitida moslashish xususiyatlari

### 13-mavzuga doir test savollari

- Qumli cho'l yaylovlarini mahsuldarligini oshirishda qo'llaniladigan istiqbolli fitomeliorantni ko'rsating?
  - Qora saksavul
  - Oq saksavul
  - D.Lola qizg'aldoq
  - E.Yantoq
- Ixotazorlar barpo etishning meliorativ va ekologik ahamiyatini bayon qiling?
  - Yaylov hosilini oshiradi, qumlarni ko'chishdan saqlaydi.
  - Yaylov hosilini oshiradi.
  - Qumlarni ko'chishdan saqlaydi.
  - To'gri javob yo'q.
- Qumli cho'llar mahsuldarligini oshirishda qo'llaniladigan ozuqabop turlar qaysilar?
  - Qora saksovul, iloq, izen
  - Arpaxon
  - Oq saksovul
  - Erkak o't
- Quyida keltirilgan qaysi o'simliklar dag'al poyali ozuqabop o'simliklar guruhiiga kiradi?
  - Karrak, yantoq, sho'rajiriq
  - Seta, sagan, qumarchiq
  - Jag'-jag', lola qizgaldoq, yaltir bosh
  - Qo'ngirbosh, chitir, arpaxon
- Yantoq o'simligi qaysi oilaga kiradi?
  - Dukkakdoshlar
  - Gulhayridoshlar
  - Ituzumdoshlar
  - Qovoqdoshlar.
- Fitomelioratsiya so'zining ma'nosi nima?
  - fiton-o'simlik, melioratsiya-yaxshilash
  - fiton-o'simlik, melioratsiya-yaratish
  - fiton-o'simlik, melioratsiya-sug'orish
  - fiton-o'simlik, melioratsiya-yangilash

7. Yaylovlар yer shari quruqlik qismining necha foizini 1 ishg'ol etadi?

- A. 25
- B. 45
- C. 15
- D. 30

8. So'ngi 35-40 yil davomida yaylov o'simliklari soni va hajmi kamayib, necha foiz maydon degradatsiyaga uchragan?

- A. 78
- B. 50
- C. 45
- D. 30

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yaylovlар to'g'risida» gi qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2019 yil 21 mayda
- B. 2020 yil 10 aprelda
- C. 2021 yil 26 martda
- D. 2018 yil 12 avgustda

10. Yaylov yerlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, bog'-uzumzor, o'rmon-mevali daraxtlarni necha mln gektarga barpo etish mumkinligi asoslangan?

- A. 2 mln 621 ming hektar
- B. 3 mln 126 ming hektar
- C. 1 mln 956 ming hektar
- D. 4 mln 108 ming hektar

## **14-mashg'ulot. Urug'larni ekish me'yorlarini bilish, amalda qo'llash**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Qorako'lchilik yaylovlari holatini tubdan yaxshilashda istiqbolli hisoblangan fitomeliorantlar urug'laridan to'g'ri va samarali foydalanishni o'rgatish va shu sohada zarur ko'nikmalarni shakllantirish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Istiqbolli fitomeliorantlarning urug' namunalari, texnik tarozilar, yaylovlar holatini yaxshilashga oid tavsiyalar, jadvallar, maxsus zarur ma'lumotlar, fotosuratlar, videoproyektor, animatsion va videolavhalar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Cho'l yaylovlari holatini yaxshilashda istiqbolli deb qabul qilingan fitomeliorantlar (rasmlar yoki kinofilm vositasida) ni butalar, yarim butalar va o'tchil turlarga ajratgan holda tanishtirish, konspekt qildirish, asosiy fitomeliorantlar rasmini chizdirish, talabalarni mustaqil jadvalni to'ldirishlari asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Endigi kunda yaylov maydonlari tartibsiz foydalaniishi oqibatida, turli darajada inqirozga uchraganligi sababli ularni yuzaki va tubdan yaxshilash uslublari qo'llanilib kelinmoqda.

Yuqori malakali mutaxassislar (zootexnik-seleksioner, agronom-yaylovshunoslar) hozirgi kunda yaylovlar holatini yaxshilash bilan bog'liq turkum masalalarni amaliy jihatdan mukammal bilishi kerak. Yaylovlar holatini yaxshilashning bevosita zarur ko'nikmalari borki, hozirgi talaba ularni mukammal o'rganib, o'z ish faoliyati davomida to'g'ri foydalana bilishi talab qilinadi. Ular jumlasiga istiqbolli fitomeliorantlar urug'larini tanishi, urug'larning xo'jalik yaroqligi (tozaligi, laboratoriya, dala unuvchanligi), urug' me'yorlarini, har bir hayotiy shaklning yaylov agrofitotsenozini barpo etishdagi ulushini hisob-kitob qilish usullarini bilishi kiradi.

Dehqonchilikning boshqa sohalaridan keskin farq qilib, yaylovlar fitomeliratsiyasida qo'llaniladigan istiqbolli o'simlik turlari o'z tabiatini jihatidan yovvoyi o'simliklarga yaqinligi tufayli urug'larning ekin sifatlari nisbatan past hisoblanadi. Chunonchi, bug'doy, g'o'za kabi madaniy ekinlar urug'larining unib chiquvechanligi 95-98% atrofida bo'lsa, aksariyat istiqbolli fitomeliorantlar urug'larning unuvchanlik ko'rsatkichlari qulay gidrotermik sharoitlarda ham 30-45% dan oshmaydi. Shu boisdan, ko'pchilik sho'radoshlar oilasiga mansub

istiqbolli fitomeliorantlarning xo'jalik yaroqlilik ko'rsatkichlari anchagina past. Dastavval, yaylovlar holatini yaxshilashda qo'llaniladigan har bir fitomeliorant urug'larining xo'jalik yaroqlilik ko'rsatkichini bilmox zarur.

Istiqbolli fitomeliorantlar urug'larining xo'jalik yaroqliligi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$X = \frac{A \cdot B}{100}$$

bunda:  $X$  – istiqbolli fitomeliorantlar urug'larining xo'jalik yaroqliligi, %;

$A$  – urug'ning tozaligi, %;

$B$  – urug'ning laboratoriya unuvchanligi, %.

**Misol:** Qora saksovul ixotozorlari barpo etish uchun tayyorlangan urug'ning tozaligi 55 % va laboratoriya unuvchanligi 60 % bo'lsa uning xo'jalik yaroqliligi qanday aniqlanadi va gektariga necha kilogramm urug' sarf qilinadi?

Mazkur ko'rsakichlarga ega urug' partiyasining xo'jalik yaroqligini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan formuladan foydalanamiz:

$$X = \frac{A \cdot B}{100} = \frac{55 \cdot 60}{100} = \frac{330}{100} = 33\%$$

Tavsiyalar, instruktiv qo'llanmalar va boshqa manbalarda tavsiya etiladigan urug' sarfi 100% lik xo'jalik yaroqliligini nazarda tutilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, endi haqiqiy urug' sarfi me'yорини hisoblab chiqarish talab qilinadi.

$$\begin{array}{ll} 5 \text{ kg/ga} - & 100\% \\ X - & 33\% \\ X = \frac{33 \cdot 5}{100} = \frac{165}{100} = 16.5 \text{ kg} \end{array}$$

Demak, har bir gektarga sarflanadigan urug' me'yori 5 kg bo'lsa xo'jalik yaroqliligi 33% bo'lgan urug' dan 5 kg emas balki 16,5 kg urug' sarflanishi lozim.

### 13-Jadval

Istiqbolli fitomeliorantlarning xo'jalik yaroqliligi va ekin sisatlariga qarab ularning urug' ekish me'yorlari. Shamsutdinov, Ibragimov, Maxmudov va boshqalar, (1982) ma'lumotlari.

O'simlik nomi	Urug' sifati klassi	Laboratoriya unuvchanligi, %	Tozaligi, %	Xo'jalik yaroqliligi, %	Urug' sarfi me'yori, kg/ga
Oq saksovul	1 2	80 70	70	56 49	9,0

Paletskiy va Rixter cherkezi	1 2	70 60	70	49 42	20,4 23,8
Cho'g'on	1 2	50 40	60	30 24	27 33
Keyreuk	1 2	70 60	50	35 30	17 20
Qumli izen	1 2	60 70	50	35 30	14,3 16,6
Toshloq izen	1 2	70 60	40	28 24	10,7 12,5
Shuvoq	1 2	70 60	20	14 12	3,6 4,2
Kamforosma	1 2	70 60	40	28 24	10,7 12,5
Qandim	1	85	92	78,2	28,3

Yaylovlar holatini yaxshilash texnologiyalarini joriy etishda yakka holda barpo etiladigan bir xil ekinga nisbatan turli hayotiy shakllar (butalar, yarim butalar, o'tlar) dan iborat yaylov agrofitotsenozlari ham ekologik, ham xo'jalik jihatidan samaraliroq ekanligidan dalolat bermoqda. Demak, aynan turli hayotiy shakllardan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozlari barpo etishga oid hisob-kitoblarni ham bilmoq o'ta zarur.

Yaylov agrofitotsenozlari barpo etish uchun quyidagilarni bilish tavsiya etiladi: ekologik sharoit, xo'jalik, tuman uchun tavsiya etiladigan fitomiliorantlar turlari, ularning ulushi yoki fitotsenozdagi nisbati. Demak, urug' sarfi masalalarini aniq bilish zarur. Shu o'rinda o'ta muhim bo'lgan bir masala- har bir fitomeliorant hayotiy shakli va turining ulushini aniqlashga oid hisob-kitoblarni amalga oshirishni bilish muhim. Jumladan, yaylov agrofitotsenozi tarkibidagi har bir turning ulushini ushbu formula asosida amalga oshiriladi:

$$X = \frac{E_m \cdot K}{X_{ya}}$$

bunda: X- yaylov agrofitotsenozi tarkibidagi har bir turning ulushi;  $E_m$ - yakka holdagi har bir turning urug' sarfi me'yori, kg;

K - agrofitotsenozdagi ulushi, %;

$X_{ya}$ - urug'ning xo'jalik yaroqliligi, %.

**Misol:** Tarkibi 25% buta (qora saksovul) + 60% yarim buta (izen 20% + keyreuk 20% + teresken 20%): o'tlar+ 15% (10% qo'ng'rbosh + 5% paxtabosh) dan iborat yaylov agrofitotsenozi barpo etish talab qilinmoqda. Yaylov agrofitotsenozlari barpo etishga oid har bir turning ulushi asosida bir

gektar maydonga sarflanadigan urug' sarfi hisob-kitoblarini amalga oshiring.

**Misolning yechimi:** Dastavval, yuqorida keltirilgan formula asosida har bir turning yakka holdagi ekilgandangi urug' me'yori topiladi. Jumladan, yaylov agrofitotsenozi qumli bo'lmagan ekologik sharoitda barpo etilsa, bir gektar maydonda quyidagicha urug' sarfi mavjud bo'lardi: qora saksovul -5, izen-4, keyreuk-6, teresken -8, qo'ng'rbosh-3, paxtabosh-6 kg/ga. Har bir tur urug' partiyasining xo'jalik yaroqliligi undagi sertifikat ma'lumotlari asosida aniqlanadi:

Ular quyidagicha: saksovul - 33 %, izen-24 %, keyreuk-30 %, teresken-25 %, qo'ng'rbosh-40 %, paxtabosh-50 %.

Ushbu raqamlarni formulaga qo'yilsa quyidagicha tus oladi (izen misolida)

$$X = \frac{4 \cdot 20}{24} = \frac{80}{24} = 3,4 \text{ kg}$$

Shu tartibda har bir turning ekiladigan jami urug' sarfi birin-ketin hisob qilib chiqiladi. Namuna sifatida butun yil davomida foydalanishga mo'ljallangan va turli nisbatdagi butalar (qora saksovul),+ yarim butalar (izen, keyreuk)+ o'tlar (qo'ng'rbosh) dan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozini barpo etishda sarflanadigan urug' sarfi, turlarning ulushi misol tariqasida 14-jadvalda keltirilmoqda.

#### 14-Jadval

**Yil davomida foydalanishga mo'ljalangan turli hayotiy shaklardan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozi barpo etishda urug' sarfi va turlar ulushini hisoblashga oid misol**

Yaylov agrofitotsenozi tipi	Hayotiy shakli va o'simlik turi	Turlarning ulushi, %	Sifat klassi asosida urug'ning xo'jalik yaroqliligi	Sifat klassi asosida sarflanadigan urug' me'yori, kg/ga
<b>Butalar</b>				
Butun yil davomida foydalanadigan	Qora saksovul	20	1 / 28 2 / 24	3,6 4,2
<b>Yarim butalar</b>				
	Keyreuk	30	35 30	4,5 5,1
	Izen	35	28 24	3,8 4,4
<b>O'tlar</b>				
	Qo'ng'rbosh	15	42 36	1,1 1,3

**Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!**

Nº	Istiqbolli fitomeliorantlar	Hayotiy shakllari	Xo'jalik yaroqliligi	Urug' ekish me'yori

**Nazorat savollari:**

- Qorako'lchilik yaylovlari holatini yaxshilashda qanday o'simlik turlari istiqbolli hisoblanadi? Ularni hayotiy shakllari bo'ylab bayon qiling.
- Urug'larning xo'jalik yaroqligi deganda nimani tushunasiz?
- Urug'larning xo'jalik yaroqligi qanday aniqlanadi? Muayyan fitomeliorant misolida uni aniqlash tartibi va formulasini bayon qiling.
- Yaylovlar holatini yaxshilashda istiqbolli fitomeliorantlarning urug' sarfi qanday aniqlanadi?
- Yaylov agrofitotsenozi barpo etilganda har bir turning ulushini qanday aniqlash mumkin? Uni aniqlash formulasini keltiring va izohlab bering.
- Tarkibi 25% buta, 60% yarim buta va 15% o'tchil turlardan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozini barpo etish uchun bir hektar maydonga sarflanadigan urug'lar sarfi hisob-kitoblarini amalga oshiring va izohlab bering.

**14-mavzuga doir test savollari**

- Madaniy ekinlar urug'inining unuvchanligi necha foiz % bo'ladi?
  - 95-98 %
  - 30-45 %
  - 10-20 %
  - 65-70 %
- Yaylov o'simliklari urug'inining unuvchanligi necha foiz % ?
  - 95-98 %
  - 30-45 %
  - 10-20 %
  - 65-70 %

3. Yaylov o'simliklari urug'ining ekish me'yori nimalarga bog'liq?

- A. Xo'jalik yaroqligiga
- B. Urug' unuvchanligiga
- C. Urug' tozaligiga
- D. Barcha javoblar to'g'ri

4. Saksovul urug'ining ekish me'yori necha kg/ga?

- A. 5
- B. 4
- C. 6
- D. 3

5. Izen urug'ining ekish me'yori necha kg/ga?

- A. 5
- B. 4
- C. 6
- D. 3

6. Keyreuk urug'ining ekish me'yori necha kg/ga?

- A. 5
- B. 4
- C. 6
- D. 3

7. Qo'ng'rbosh urug'ining ekish me'yori necha kg/ga?

- A. 5
- B. 4
- C. 6
- D. 3

8. Agar saksovulning laboratoriya unuvchanligi 80 %, tozaligi 70 % bo'lsa, xo'jalik yaroqliligi necha foizni tashkil etadi?

- A. 56
- B. 49
- C. 35
- D. 24

9. Keyreukning xo'jalik yaroqliligi 30 % bo'lsa, urug' ekish me'yori qanchaga teng bo'ladi?

- A. 17
- B. 20
- C. 3,6
- D. 10,7

10. Tarkibida 25 % buta, 60 % yarim buta va 15 % o'tchil turlardan tashkil topgan yaylov agrofitotsenozini barpo etish uchun 1 Ga maydonga necha kilogram o'tchil o'simlik turlarining urug'i sarf bo'ladi?

- A. 0,45
- B. 1,25
- C. 3,6
- D. 10,7

## 15-mashg'ulot. Cho'lida ozuqa yetishtirish fanining yo'nalishlari

**Mashg'ulotlar maqsadi:** Cho'lida ozuqa yetishtirish fanining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, bu fanlarning rivojlanish tarixiga nazar solish, bu yo'nalishlarning kelib chiqishi to'g'risida bayon qilish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Cho'lida ozuqa yetishtirish fani yo'nalishlari aks etgan sxema chizmasi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Cho'lida ozuqa yetishtirish fani yo'nalishlari sxemasida aks etgan har bir asosiy yo'nalish to'g'risida fikr yuritish va uni "Yaylovshunoslik va yaylovlar melioratsiyasi" fani bilan bog'lash, mashg'ulotda "Baliq skeleti" pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Mashg'ulotni cho'lida ozuqa yetishtirish fani yo'nalishlari aks etgan sxema asosida birin-ketin yoritish, har bir yo'nalishning kelib chiqish sababi va qisqacha rivojlanish tarixi xususida, bu borada faoliyat olib borgan olimlar, tajriba stantsiyalari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, ularning fan rivojlanishiga qo'shgan hissalarini to'g'risida bayon etish va yozdirish.

O'tgan asrning 50-nchi yillardan e'tiboran Markaziy Osiyo hududida cho'l va adir yaylovlarni o'rganish, yaylovlar mahsuldorligini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan diqqat-e'tibor yangi pog'onaga ko'tarildi. Qishloq xo'jaligi va biologiya fani namoyondalarining ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borgan izlanishlarining natijasi o'laroq bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasi va ilm-fan yo'nalishining **qurg'oqchil muhit sharoitlarida ozuqa yetishtirish** kabi yangi tarmog'i vujudga keldi va mustaqil fan sifatida agronomiya, o'tloqchilik, ekologiya, fitotsenologiya, botanika, zahirashunoslik, introduksiya va o'simliklar seleksiyasi fanlari majmuasini qamrab oldi.

Qurg'oqchil muhit sharoitida ozuqa yetishtirishning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari sifatida *cho'l yaylovlardan samarali foydalanish, introduksiya, cho'l ozuqbop turlari seleksiyasi, urug'chiligi; yaylovlar fitomelioratsiyasi; yerosti suv zahiralaridan foydalanish asosida ozuqa yetishtirish* kabi yo'nalishlardan tashkil topgan.

Mazkur yo'nalishlar orasida eng muhim hisoblangan cho'l yaylovlari fitomelioratsiyasining shakllanish tarixiga alohida to'xtalib o'tish o'rinni. Bizga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar tahlili cho'l hududlari

yaylovlari yaxshilashga oid dastlabki ilmiy izlanishlarni 2 ilmiy muassasa vakillari- sobiq O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) va O'zbekiston qorako'lchilik va cho'llar ekologiyasi ITI olimlari o'tgan asrning 30- yillaridan e'tiboran amalgaliga oshira boshlashgan. Milliy universitet olimlari (prof. I.I. Granitov va akad. E.P.Korovin rahbarligida) Sho'rko'l va Oyoqog'itma tajriba maydonlarida ish boshlashgan bo'lsalar, O'zQCHEITI olimlari Kattaqo'rg'on tajriba stantsiyasi maydonlarida cho'l sharoitiga mos keladigan ozuqabop turlarni sinash tajribalarini amalgaliga oshirganlar. Qurg'oqchil sharoitda o'sa oladigan turlarning bioekologiyasiga oid ma'lumotlarning kamchilligi, tadqiqotchilarda mazkur ekologik muhitga oid bilimlarning yetarli emasligi, tasodif turlarni sinalganligi, umuman, emperik yondoshishlar bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, dastlabki natijalarni yetarli darajada muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Lekin, ularning ahamiyati shundaki, kelajakda to'g'riroq yo'l tanlashga imkoniyat berdi. O'tgan asrning 40- yillariga yaqin davrdan e'tiboran, sobiq Butunittifoq qorako'lchilik instituti qoshidagi Muborak, Nishon, Nurota, Ulus qorako'lchilik xo'jaliklari yaylovlarda statsionar tadqiqotlar kengaytirildi. 50- yillarga kelib tadqiqotlar dasturi va izlanishlar geografiyasi yanada kengaydi va yangi pog'onaga ko'tarildi. Endi tadqiqotlar yo'naliishida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Botanika ilmiy ishlab chiqarish markazi (sobiq Botanika instituti) olimlari prof. V.A.Burigin rahbarligida asos solingan tadqiqotlar, izlanishlar samaradorligini yangi pog'onaga ko'tarib soha yo'naliishing istiqbolligini yaqqol isbotladilar.

Ilmiy muassasalardan tashqari, cho'l hududlarida qum ko'chishini oldini olish va unga qarshi kurash chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadida ko'chma qumlarни mustahkamlovchi partiya va stantsiyalar ham faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Qizilqum cho'li sharoitida faoliyat ko'rsatgan shunday partiyalar orasida Shofirkon qumlarini mustahkamlash partiyasining natijalari tarix sahifasidan tegishli o'rinni ko'pchilik mutaxassislar yaxshi bilishadi.

Partiyaning diqqatga e'tiborli xizmati shundaki, u 100 km dan uzunroq "Buxoro yashil qalqonini" barpo etib, qo'shni sug'oriladigan maydonlarni qum bosimi xavfidan halos qilibgina qolmasdan, mazkur maydonlardan olinadigan hosildorlikni ham ancha oshirdi. Cho'l sharoitida bajarilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlarda aksariyat efemer (arpaxon, yaltirbosh, espartset) turlar sinalganligi, tuproqqa ishlov

bermasdan urug' sephilganligi sababli tadqiqotlardan ko'zda tutilgan samaraga erishilmadi.

**Topshiriq:** "Baliq skeleti" pedagogik texnologiyasi asosida ikkita kichik guruhlarga ajraling va birinchi guruh bakiqning yuqorigi qismiga, ikkinchi guruh esa baliqning pastki qismiga "Cho'lda ozuqa yetishtirish" fanining yo'nalishlarini yozing.



#### **Nazorat savollari:**

1. Cho'lda ozuqa yetishtirish fanining asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
2. Qurg'oqchil muhit sharoitlarida ozuqa yetishtirish fanining predmeti, maqsadi va vazifalarin nimalardan iborat?
3. Qurg'oqchil muhit sharoitlarida ozuqa yetishtirish yo'nalishini rivojlantirish uchun tashkil etilgan tajriba stantsiyalari to'g'risida gapirib bering.
4. Qorako'chilik xo'jaliklarini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi olimlar, nufuzli xalqaro va mahalliy ilmiy tekashirish institutlari faoliyati to'g'risida ma'lumot bering.

#### **15-mavzuga doir test savollari**

1. Seleksiya fani nimani o'rganadi ?  
A. Yaylov o'simliklarining yangi navlarini  
B. Yaylov o'simliklarining turlarini  
D. Yaylov o'simliklarini rayonlashtirishni  
E. Yaylov o'simliklari urug'chiligini
2. Botanika fani nimani o'rganadi ?  
A. Yaylov o'simliklarining yangi navlarini  
B. Yaylov o'simliklarining turlarini  
D. Yaylov o'simliklarini rayonlashtirishni  
E. Yaylov o'simliklari urug'chiligini
3. Introduksiya fani nimani o'rganadi ?  
A. Yaylov o'simliklarining yangi navlarini  
B. Yaylov o'simliklarining turlarini  
D. Yaylov o'simliklarini rayonlashtirishni  
E. Yaylov o'simliklari urug'chiligini

4. Urug'chilik fani nimani o'rganadi ?  
A. Yaylov o'simliklarining yangi navlarini  
B. Yaylov o'simliklarining turlarini  
D. Yaylov o'simliklarini rayonlashtirishni  
E. Yaylov o'simliklari urug'chiligini
5. Fitomelioratsiya so'zining ma'nosi nima?  
A. O'simlik turlarini o'rganish  
B. O'simlik yordamida yaxshilash  
D. O'simlik turlarini ko'paytirish  
E. O'simliklarni sug'orish
6. "Buxoro yashil qalqoni" qaysi tashkilot tomonidan tashkil etilgan?  
A. O'z QChEITI  
B. O'z Milliy universiteti  
D. O'z FA  
E. Quqlarni mustahkamlovchi partiya
7. Qorako'lchilik xo'jaliklari mavjud bo'lgan tumanlarni aniqlang  
A. Muborak  
B. Nishon  
D. Nurota  
E. Barchasi to'g'ri
8. Akademik Burigin qayerda faoliyat olib borgan?  
A. O'z QChEITI  
B. O'z Milliy universiteti  
D. O'z FA  
E. Quqlarni mustahkamlovchi partiya
9. Professor Granitov va akademik Korovin qayerda faoliyat olib borishgan?  
A. O'z QChEITI  
B. O'z Milliy universiteti  
D. O'z FA  
E. Quqlarni mustahkamlovchi partiya
10. Qurg'oqchil muhit sharoitda ozuqa yetishtirish masalalari bilan qaysi soha shug'ullanadi?  
A. Yaylovshunoslik  
B. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish  
D. O'simliklar selektsiyasi, urug'chiligi va introduksiyasi  
E. Geobotanika va gidrologiya

## **16-mashg'ulot. Madaniy yaylovlар barpo etishning texnologik asoslari**

**Mashg'ulotlar maqsadi:** Madaniy yaylovlар barpo etishning texnologik asoslарini yaratish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Madaniy yaylovlар barpo etishning texnologik asoslарini yoritishga xizmat qiladigan fotosuratlar, rangli jadvallar, video lavhalar, texnologik maketlar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Madaniy yaylovlар barpo etishning texnologik asoslарini yaratish borasida - olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlat, tadqiqot natijalari, bunday texnologiyalarning yaratilishi zamon talablariga mos bo'lishi, uning davr talabi va hayotiy zarurat ekanligi, texnologik xaritalar, rangli jadvallar, fotosuratlar, slayd-shouular yordamida bayon etish, "Sharshara" pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Har bir yaylov tipiga alohida -alohida madaniy yaylovlар barpo etish texnologiyasi tuzib chiqiladi. Bunda turli xil yaylov tipiga mos agrotexnik tadbirlar o'tkazilib, ular bir-biridan foydalilanidagan qishloq xo'jalik texnikalari bilan tubdan farq qiladi.

**Cho'l va sahro mintaqalarida yaylovlар barpo qilish texnologiyasi.** Cho'l va sahro mintaqalarida shamol eroziyasi va qum ko'chishini oldini olish hamda qarshi kurash tadbirlari o'tkazilib bo'lingandan keyin ixotazor polosalari oralig'ida yaylovlар barpo qilinadi. Yaylovlар barpo qilishda tuproq turlari, mexanik tarkibi, suv-fizik va boshqa xossalari hisobga olingan holda bir nechta agrotexnik tadbirlar o'tkaziladi. Bunday tadbirlarga yerni shudgorlash, diskalash, boronalash, kultivatsiya, qum tutgich va nam to'plagich tadbirlari, egat olish, o'simlik turlarini tanlash, ekish va boshqalar kiradi.

Cho'l va sahro mintaqalarida asosan sur-qo'ng'ir, sur-qo'ng'ir gipsli, qum va qumloq, taqir va taqirli, sho'rxoksimon va sho'rxok tuproqlar keng tarqalgan. Bu tuproqlarning mexanik tarkibi qatlamlari bo'yicha turlicha va ularning suv-fizik xossalari o'ta noqulay hisoblanadi. Bunday tuproqlarni melioratsiya qilishda, ya'ni suv -fizik, agrokimiyoviy xossalarni yaxshilashda va tuproqning tuz rejimlarni tartibga tushirishda yerga ishlov berishning ahamiyati juda katta. Shamsutdinov Z.Sh. va boshqa olimlar Qarnob cho'li sharoitida yerni

shudgorlash natijasida to‘planadigan namlik miqdori va sarflashini o‘rgandilar (16-jadval).

16-Jadval

**Shudgorlangan va tabiiy o‘t qoplamiga ega bo‘lgan yerlarda tuproq namligi zahirasi (120 sm qatlamida m<sup>3</sup>/ga)**

Variant	Aniqlangan muddati									
	1 XI	6 XII	17-I	17-II	17-III	18- IV	16- V	13-VI	17-VII	15-IX
Sbuvoq efemerli o‘tloq	214,5	480,4	923,6	1193,9	1055,1	1272,1	822,1	560,4	406,4	360,3
Shudgorlangan yer	486,4	799,2	1377,4	1512,8	1485,0	1893,3	1821,5	1574,1	1255,5	1018,2
Farqi	+271,9	+318,8	+453,8	+319,4	+430,0	+612,1	+999,4	+1013,7	+849,1	+657,9

Keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Qarnab cho‘li sharoitida yil davomida shudgorlangan yerning 120 sm qatlamida shudgorlanmagan tabiiy shuvoq-efemer o‘t qoplamiga ega bo‘lgan yerga nisbatan 271,9 m<sup>3</sup>/ga dan (noyabr oyida) 1013,7 m<sup>3</sup>/ga (iyun oyida) gacha namlik zahirasi ko‘p to‘plangan va bu namlikning 80 % o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilgan. Shuningdek, shudgorlangan yerning 0-20 sm qatlamida umumiy azot miqdori 60 % ga, harakatgan azot miqdori esa 10 % ga oshgan. Yerga ishlov berish natijasida tuproqning fizik xossalari ham bir muncha yaxshilangan, natijada o‘simliklar urug‘ini to‘liq unib chiqishi, o‘sishi, rivojlanishi va mo‘l hosil berishi ta‘minlangan.

Lekin shudgorlash hamma joylarda ham samara beravermaydi, ayniqsa, sahro mintaqalaridagi sur-qo‘ng‘ir tuproqlar tarkibidagi har xil chuqurlikda va turli qatlamlarda gips va karbonatli qatlam mavjud bo‘lgan sharoitlarda. Bu qatlamlar juda unumsiz, suv-fizik xossalari o‘ta noqulay, shuning uchun ularni yuza qatlam tuproqlari bilan aralashib ketishiga yo‘l qo‘ylmaslik talab qilinadi. Agar chuqur shudgor qilib yerning yuzasi gipsli, karbonatli yoki sho‘r jinsli qatlamlar bilan aralashib ketsa, o‘simlik urug‘lari unib chiqmaydi yoki qisman unib chiqadi, unib chiqqan o‘simliklar ham nimjon bo‘lib yaxshi o‘sib, rivojlanmaydi. Shuning uchun bunday yerlarni haydash chuqurligi 15 sm dan 18-20 sm gacha bo‘lishi kerak.

Qum va qumloq tuproqlar, ko‘chishga moyil, ostki qismi gipsli, karbonatli va sho‘r jinsli qatlamlar yer yuzasiga juda yaqin (15 sm) joylashgan yerlarda o‘simliklar urug‘ini ekishdan oldin faqat 8-15 sm chuqurlikda boronalash yoki diskalash tadbirlari o‘tkaziladi. Gipsli yoki

karbonatli qatlamlar yerning yuzasida tarqalgan sharoitlarda qum tutish egatlari olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qum tutgich egatlari ikki korpusli plug bilan 30-35 sm chuqurlikda va oralig'idagi masofa 50 sm dan olinadi. Bunday egatlarning har gektar maydonida I.F.Mamatov va boshqalarning ma'lumoti bo'yicha 25 t dan 160 t gacha qum to'planadi. Qum to'plangan egatlarda tuproqning suv-fizik xususiyatlari nisbatan qulay bo'lib, o'simliklar uchun yaxshi sharoit vujudga keladi. Bundan tashqari egatlarga qum bilan birga o'simlik urug'lari ham uchib kelib to'planadi va qulay sharoit vujudga kelishi bilan ular unib chiqadi. Xatskaya M.G. ning ma'lumotlari bo'yicha, Qizilqumning janubi g'arbiy qismida qum to'sish egatlari samaradorligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalarini ko'rsatishicha, yaylov uzunligi bo'yicha 600 dan 23130 donagacha esemer o't urug'lari to'planishi aniqlangan, qum to'plash egatlari bo'limgan variantda esa 10-350 dona urug' to'plangan xolos. Qum va qumloq tuproqlarda yaylovlar barpo qilish uchun o'simliklar urug'i ishlov berilmagan yer yuzasiga ekiladi va yengil borona bosiladi.

Chunki, bunday yerlarga chuqur ishlov berish tuproq eroziyasini kuchayishiga va namlikni tez bug'lanib ketishiga olib keladi. Kuchli zichlashgan, sho'rланмаган, тақир ва тақирли sur-qo'ng'ir tuproqlarni shudgorlash chuqurligi 18-20 bo'lgani ma'qul. Yaylovlar barpo qilish uchun dastlab, yerni ekishga tayyorlash tadbirlari o'tkaziladi, bunda yerning nishabligi tuproqning unumdorligi, unumdar qatlamning qalinligi va chimloqlik darajasi hisobga olinadi. Qiyaligi  $10^{\circ}$  gacha bo'lgan kam chimloqlik, unumdorligi past yerlar oddiy plug bilan nishablikka nisbatan ko'ndalang shudgor qilinadi.

Qalin chimloqlarni shudgor qilishdan oldin diskali borona yoki frezrlar bilan ishlov beriladi. Toshloq bo'limgan yerlami otvalsiz plug bilan yoki maxsus PND-4-30, PGP-340A pluglari bilan shudgor qilinadi, shudgordan keyin esa diskali borona yoki frezr bilan ishlov beriladi. Shudgorlash chuqurligi bir ga yerda 20-22 sm, diskalash 10-12 sm, frezrlash 12-15 sm bo'lishi kerak.

Yerning qiyaligi  $10^{\circ}$  C dan katta bo'lgan yerdalarda shudgorlash polosalar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda polosalar kengligi 3,15 m, polosalar, orasidagi masofa ham 3,15 m bo'ladi. Eroziya kuzatilmaydigan yerdalarda shudgorlash va yerga ishlov berish muddati kuz oylari, eroziyaga moyil yerdalarda (qiyaliga  $10^{\circ}$  dan katta bo'lgan yerdalarda) esa bahor oylari hisoblanadi.

Tayyor bolgan yerga bahorda 2 tadan 6 tagacha o't turlari aralash holda ekiladi. Tabiiy namlik yetarlicha bo'ladigan hududlarda qatorlab sochma usulda, namlik kam bo'ladigan hududlarda esa keng qatorlab ekiladi. Tog', tog' oldi va adir mintaqalarida tabiiy yaylovlar tarkibida madaniy yaylovlar barpo qilish texnologiyalari 10, 11-jadvallarda keltirilgan. Yangi texnologiyalarni joriy qilish natijasida yaylovlarning hosildorligi eski texnologiyaga nisbatan 2-3 barobar oshadi (17-jadval).

**17-Jadval**

**Tog' va tog' oldi yaylovlarini agromelioratsiya qilish texnologiyasi**

Nº	Tadbirlar	Qo'llaniladigan mashina va traktorlar	Agrotexnika talablari va o'tkazish muddatlari
1	Yerni ekishga tayyorlash (shudgor)	DT-75 traktori PLN-4-35 plugi	Kuzda yerning qiyaligiga nisbatan ko'ndalang polosalar bo'yab shudgorlash, polosa kengligi 3,15 m, polosalar orasidagi masofa ham 3,15 m, shudgor chuqurligi 22-25 sm
2	Boronlash	BZSS-1	Ekishdan oldin ikki marta bosiladi
3	Ekish	SZT-3-6	Kuzda qatorlab ekiladi, qator orasi 15 sm
4	Ekiladigan o't turlari va ekish me'yori		Espartset - 75 kg/ga, Oqso'xta - 10 kg/ga, Beda - 12 kg/ga aralash holda ekiladi Ekish chuqurligi 1-1,5 sm
5	O'g'itlash	RTT-4,2 yoki samolyot AN-2	Korbamid 90 kg/ga (sof holda) Aprel oyida
6	Chorvani suv bilan ta'minlash		Suv manbai - soylar yoki buloqlar, maxsus suvloqlar barpo qilinadi

**18-jadval**

**Adir yaylovlarini agromelioratsiya qilish texnologiyasi**

Tadbirlar	Qo'llaniladigan mashina va traktorlar	Agrotexnik tadbirlar va o'tkazish muddatlari
	1 yil	
Shudgorlash	PN-5-35	May oyining oxiri, iyun oyining boshida shudgorlash chuqurligi 25-28 sm (bo'sh shudgor sifatida)
Boronlash	BZSS-1	Shudgordan keyin
O'g'itlash	RTT-4,2	Erta bahorda azotli (60 kg/ga) va fosforli (45 kg/ga sof holda)o'g'itlarni solish


Qayta shudgorlash	PN-5-35	Erta bahorda o'g'itlar berilgandan keyin
Boronalash	BZSS-1	Shudgordan keyin shu zahotiyog, 2 marta
Ekish	SPT-3,6	Erta bahorda, tuproq namligi cheklangan nam sig'imiga nisbatan 60 % dan kam bo'Imaganda, qatorlab ekish
O't turlari va ekish me'yori		Beda 4 kg/ga, esparset (10 kg/ga), erkak o't (8 kg/ga) aralash holda ekiladi
	<i>Keyingi yillari</i>	
O'g'itlash	RTT-4,2	Erta bahorda har yili 45 kg/ga sof holda superfosfat va har 4 yilda bir marta karbonit 60 kg/ga sof holda
Boronalash	BZSS-1	O'g'it sepilganda keyin 2 marta

19-Jadval

**Tabiiy yaylovlarini melioratsiya qilish natijasida hosilning ko'payishi**

Mintaqalar	Yaylovlarini melioratsiya qilish natijasida hosilning ko'payishi	
	Tabiiy holda	Melioratsiya qilingandan keyin
Tog' va tog' oldi mintaqasi	9,0	25,1
Adir mintaqasi	2,0	12,3

**Topshiriq:** "Sharshara" pedtexnologiyasi asosida kichik-kichik guruhlarga bo'linib, yozuv taxtasiga sharshara rasmini chizing va unga har bir yaylov mintaqasida olib boriladigan agrotexnik tadbirlarni birin-ketin tartib bilan yozing.



**Nazorat savollari:**

- Cho'l va sahro mintaqalarida yaylovlar barpo qilish texnologiyasi nimalarda iborat?

2. Shudgorlangan va tabiiy o't qoplamiga ega bo'lgan yerlarda tuproq namligi zahirasini qaysi olim o'rgangan?
3. Tog' va tog' oldi yaylovlarini agromelioratsiya qilish texnologiyasini gapiring
4. Adir yaylovlarini agromelioratsiya qilish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi?
5. Tabiiy yaylovlarni melioratsiya qilish natijasida hosildorlik qanday ozgaradi?

#### **16-mavzuga doir test savollari**

1. Cho'l va sahro mintaqalarida yaylovlar barpo qilishda qanday tadbirlar amalga oshiriladi?
  - A. Shudgorlash, diskalash, boronalash
  - B. Kultivatsiyalash, chizellash
  - C. Qum tutgich, nam to'plagich tadbirlari, fitomeliorantlar ekish
  - D. Sug'orish, kasallik va zararkunandalarga qarshi-kurash
2. Cho'l va sahro mintaqalarida qanday tuproq tiplari uchraydi?
  - A. Och tusli bo'z tuproq
  - B. Tipik bo'z tuproq
  - C. To'q tusli bo'z tuproq
  - D. So'r-qo'ng'ir gipsli tuproq
3. Qarnab cho'li misolida shudgorlash natijasida tuproqda nam to'planishi va sarflanishini qaysi olim o'rgangan?
  - A. Shamsutdinov
  - B. Mamatov
  - C. Nachevova
  - D. Granitov
4. Nam toplovchi tadbirlarga qaysilari misol boladi?
  - A. Shudgorlash
  - B. Boronolash
  - C. Diskalsh
  - D. Barchasi to'g'ri
5. Qanday tuproqlarda haydash chuqurligi 15-18 sm dan oshmasligi lozim?
  - A. Taqirli
  - B. So'r-qo'ng'ir
  - C. Gipsli
  - D. Barchasi to'g'ri

6. Qum tutgich egatlar nima maqsadda olinadi?
- A. Qum toplash
  - B. Nam toplash
  - D. Urug' toplash
  - E. Barchasi tog'ri
7. Yerni ekishga tayyorlashda nimalar e'tiborga olinadi?
- A. Yerning nishabligi
  - B. Yerning unumdorligi
  - D. Yerning chimloqligi
  - E. Barchasi tog'ri
8. Qalin chimloqlarni shudgor qilishdan oldin qanday tadbir o'tkaziladi?
- A. Diskali borona yoki frezr bilan ishlov berish
  - B. Kultivatsiyalash
  - D. Chizellash
  - E. Mola bosish
9. Qiyaligi  $10^0$  dan yuqori bo'lgan yerlar qanday shudgor qilinishi lozim?
- A. Polosalar bilan
  - B. Tor qatorlab
  - D. Keng qatorlab
  - E. Qo'sh qatorlab
10. Eroziyaga moyil yerlar qachon shudgor qilinadi?
- A. Kuz
  - B. Qish
  - D. Bahor
  - E. Yoz

## 17-mashg'ulot. Yaylovlar sig'imini aniqlash. bahor, yoz, kuz mavsumlarida foydalilaniladigan yaylovlar maydonini hisoblash tartibi

**Mashg'ulot maqsadi:** Qorako'lchilik yaylovlari misolida yaylov sig'imi va uni aniqlashga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar.** Yaylov tiplari manzaralariga oid foto suratlar, yaylov mavsumlarining davomiyligi, har bir bosh qo'yning ozuqaga bo'lgan sutkalik ehtiyoji, yil mavsumlari bo'y lab asosiy ozuqabop yaylov o'simliklarining yillik ozuqa zahiralari dinamikasini aks ettiruvchi jadval va grafiklar va h.k.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Yaylov sig'imi tushunchasini bayon qilish, uning qorako'lchikdag'i xususiyatlariga alohida urg'u berish. Jumladan, yaylovlar hosildorligining, ozuqa zahiralari to'yimliligining yil mavsumlari bo'y lab bahordan qishga qadar keskin o'zgarishini, bu ko'rsatkichlarning sezilarli o'zgarishini qayd qilib o'tish, yaylov sig'imi aniqlovchi formulalar va har bir mavsum uchun talab qilinadigan yaylov maydonini hisoblashga oid formulalar, yaylov sig'imi aniqlash tartibini yozuv taxtasiga birin-ketin yozib tushuntirish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Har bir hozirgi talaba kelajakda ishlab chiqarishga yo'llanma olgach, yaylovlardan foydalinish masalalari bilan bevosita shug'ullanishi, bu sohada rahbarlik qilishini nazarga tutsak, mavzuning qanchalik muhim ekanligi o'z -o'zidan ravshan bo'ladi.

Aynan yaylovlardan samarali foydalinish tizimida yaylov sig'imi tushunchasi o'ta muhim hisoblanadi.

**Umuman, yaylov sig'imi deganda ma'lum hayvon turiga (jumladan, qorako'l zotli qo'ylarga) mansub uy hayvonlari sonini yaylovda ma'lum muddatda ozuqa bilan ta'minlay olish imkoniyatiga aytildi.**

Yaylov sig'imi aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$A = \frac{B}{S \cdot D}$$

bunda: A- yaylov sig'imi, bosh; B-yeyiladigan ozuqa hosildorligi, kg/ga; S-sutkalik ehtiyoji, kg; D- yaylov mavsumi davomiyligi, kunlar.

Aytaylik, Eshqobil cho'ponga buta-efemerli yaylov tipi ijara ga berilgan bo'lsa u o'z ixtiyoridagi qo'y-qo'zilarni yil davomida boqish va

ulardan talofat ko'rmasdan sifatli mahsulot olishi uchun qanday yo'l tutishi lozim?

- birinchidan, mazkur fermer unga ajratilgan yaylov maydoni aniq bo'lsa yil davomida boqiladigan qo'y sonini aniqlashi lozim:

$$N = \frac{A}{B}$$

bunda: N – yalpi qo'y soni, bosh; A – unga ajratilgan yaylov maydonida mavjud yeyiladigan ozuqa miqdori, kg; B – bir bosh qo'yning ozuqaga bo'lган о'rtacha yillik ehtiyoji, kg.

Shu o'rinda yaylovlardan uzoq muddat foydalanishning muhim shartlaridan biri har bir fermerga ajratiladigan yaylov maydonlari, imkon doirasida yilning barcha mavsumlarida foydalanishga qulay bo'lishini esdan chiqarmaslik lozim. Tajribali va bilimdon fermer yana bir masala – yaylovlarning hosildorligini yil mavsumlari bo'y lab o'zgarishi, demak, o'zining yaylov ozuqasiga bo'lган ehtiyojini ham aniq hisobga olish masalasini bilishi lozimligini ta'kidlamoqchimiz.

Fermerning (cho'ponning) ozuqaga bo'lган ehtiyoji qo'ylar suruvi tarkibi va boshqa turdag'i (echkilar, tuyalar, otlar va h.k.) mollarning mavjudligini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bunday hisob-kitoblarni bajarganda podadagi har bir tuya, echki, otning ozuqaga bo'lган ehtiyojini odatda 6 bosh qo'yning ehtiyojiga teng deb hisoblash qabul qilingan.

### Bahor mavsumida foydalilaniladigan yaylov maydonini hisoblash tartibi.

Ma'lumki, bahorda bir bosh qo'yning ozuqaga bo'lган sutkalik ehtiyoji o'rtacha 3 kg. Fermerning 600 bosh qo'yi mavjud bo'lsa va yaylov hosildorligi gektaridan 400 kg bo'lган taqdirda u o'z qo'y-qo'zilarini bahor (90 kun) mavsumi davomida boqishi uchun qancha yaylov maydoni zarur bo'ladi?

**Misolning yechimi:** Zarur bo'lган maydon (S) ni topish uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

A- 3 kg; B-600 bosh; S -90 kun; X -400 kg

$$S = \frac{A \cdot B \cdot S}{X} = \frac{3 \cdot 600 \cdot 90}{400} = \frac{162000}{400} = 405 ga$$

**Yoz mavsumida foydalilaniladigan yaylov maydonini hisoblash tartibi.** Huddi shu miqdordagi qo'ylarni yoz mavsumida yaylovda boqish uchun zarur bo'lган maydon quyidagicha hisoblanadi:

$$S_2 = \frac{2,5 kg \cdot 600 bosh \cdot 138 kun}{300 kg} = \frac{207000}{300} = 690 ga$$

**Kuz mavsumida foydalaniladigan yaylov maydonini hisoblash tartibi.** Zarur kuzgi yaylovlar maydonini hisoblash uchun quyidagi hisob-kitob amalga oshiriladi:

$$S_3 = \frac{2,5kg \cdot 600bosh \cdot 81kun}{250kg} = 486ga$$

**Qish mavsumida foydalaniladigan yaylov maydonini hisoblash tartibi.** Qishlov mavsumini o'tkazish uchun zarur bo'lgan yaylov maydonini aniqlash ham yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi:

$$S_4 = \frac{3kg \cdot 600bosh \cdot 58kun}{200kg} = 522ga$$

#### Nazorat savollari:

1. Yaylov sig'imi nima va u qanday aniqlanadi?
2. Hosildorligi 3 sentner bo'lgan yayloving bahor mavsumi davomida qancha mol boqish imkoniyati mavjudligi qanday aniqlanadi?
3. Ozuqa hosildorligi 2 s/ga bo'lgan maydonda qish mavsumi davomida necha bosh qo'y saqlash mumkin?
4. Har bir muayyan mavsumga oid yaylov sig'imi aniqlash formulalarini keltiring va ularni izohlab bering.
5. Bir bosh qo'yni 1 yil davomida yaylovda boqish uchun qancha ozuqa massasi yoki birligi talab qilinadi?
6. Ozuqa hosildorligi 3 sentner bo'lgan yaylovda kuzda qancha mol boqish mumkinligini hisoblab bering.

#### 17-mavzuga doir test savollari

1. Yaylov sig'imi nima?  
A. Yaylov o'simliklarining hosildorligi  
B. Yaylovlar maydoni  
D. Yaylovlarda mol boqish davomiyligi  
E. Yaylovlarda ma'lum hayvonni ozuqa bilan ta'minlash muddati
2. Har bir tuyaning ozuqaga bo'lgan ehtiyoji necha bosh qo'yning ehtiyojiga teng?  
A. 2  
B. 3  
D. 5  
E. 6
3. Har bir otning ozuqaga bo'lgan ehtiyoji necha bosh qo'yning ehtiyojiga teng?

- A. 2
- B. 3
- D. 5
- E. 6

4. Bahorda yaylovda mol boqish muddati necha kunga teng?

- A. 90
- B. 128
- D. 81
- E. 58

5. Yozda yaylovda mol boqish muddati necha kunga teng?

- A. 90
- B. 128
- D. 81
- E. 58

6. Kuzda yaylovda mol boqish muddati necha kunga teng?

- A. 90
- B. 128
- D. 81
- E. 58

7. Qishda yaylovda mol boqish muddati necha kunga teng?

- A. 90
- B. 128
- D. 81
- E. 58

8. Har bir qo'yning sutkalik ozuqaga bo'lgan ehtiyoji necha kg ni tashkil etadi?

- A. 2
- B. 3
- D. 6
- E. 10

9. Bahorda yaylovlar hosildorligi o'rtacha necha kg. ga teng?

- A. 400
- B. 300
- D. 250
- E. 200

10. Yozda yaylovlar hosildorligi o'rtacha necha kg. ga teng?

- A. 400
- B. 300

D. 250

E. 200

11. Kuzda yaylovlar hosildorligi o‘rtacha necha kg. ga teng?

A. 400

B. 300

D. 250

E. 200

12. Qishda yaylovlar hosildorligi o‘rtacha necha kg ga teng?

A. 400

B. 300

D. 250

E. 200

## 18 -mashg'ulot. Yaylov o't turlarini o'rganish

**Mashg'ulot maqsadi:** Yaylov o't turlarini o'rganish, har bir yaylov tipiga xos o'simlik vakillarini tanish, ularning botanik tavsiyi, tarqalish areali, yaylovbopligi, bioekologik va xo'jalik xossalalarini bilish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Turli xil yaylov tipida tarqalgan o'simlik namunalari, gerbariyilar, rangli jadvallar va fotosuratlar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Dastavval har bir yaylov tipi to'g'risidagi bilimlarni takrorlab olish, so'ngra har bir yaylov tipiga xos o'simlik vakillarining nomlari, lotincha nomi, oilasi, morfologiyasi, biologiyasi, ekologiyasi, yetishtirish texnologiyasi, navlari, vatani, hosildorligi to'g'risida ma'lumot berish. So'ngra o'simlik namunalarini talabalarga tarqatish va mustaqil topshiriqni bajarish asosida talabalarni baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Har bir yaylov tipida alohida –alohida o'simlik turlari tarqalgan bo'lib, ularning xususiyatlari bilan yaqindan tanishish turli xil yaylovlarning meliorativ holatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Yaylovlarning asosiy ahamiyati.** Yaylovlarning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Yaylovlarda erkin holda boqilgan chorva mollarining mahsuldarligi turg'un holda boqilgan mollar mahsuldarliga nisbatan 20-25 % yuqori bo'ladi.
2. Mahsulotning tannarxi 30-40 % ga kamayadi.
3. Chorva mollarining yaylovlarda boqish 180-280 kunni tashkil qilganligi uchun bu davrda o'tni o'rish, tashish, mollarga tarqatish, nushxo'rd va go'ng tozalash, sug'orish ishlarini o'tkazish talab qilinmaydi.
4. Sog'in sigirlarda uchraydigan "Mastit" kasalligi yaylovlarda boqilgan mollarda uchramaydi.
5. Chorva mollarining nasli yaxshilanib boradi (100 bosh sigirdan 95- 98 bosh sog'lom buzoq olinadi).
6. Go'sht, sut, jun va teri mahsulotlarining sifati keskin yaxshilanadi.
7. Yaylovlarda boqilgan chorva mollari vitaminli ko'k ozuqa bilan uzoq muddat ta'minlangan bo'ladi.

**Yaylov o'simliklarining ekologik-meliorativ ahamiyati:**

1. Yaylovlarda efemer, efemeroit, yarim buta va butalarning birgalikda mavjudligi tuproqning shamol va suv eroziyasidan himoya qiladi.

Shuningdek, qum ko'chishini, tuproqni uchirib chang -to'zon ko'tarilishini oldini olib, atmosfera havosini ifloslanishini bartaraf qiladi.

2. Atmosfera yog'inlarini yerga sekin-asta singishini ta'minlab, tuproqda namlik zahirasini vujudga keltiradi va uni fizik bug'lanishdan saqlaydi. Sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan yerkarda ko'p yillik o'tlar, butalar va daraxtlar biologik zovur vazifasini bajarib, tuproqda sodir bo'ladigan sho'rланish va botqoqlanish jarayonini kamaytiradi.

O'zbekiston Davlat yer loyihalashtirish instituti yaylovlarni quyidagi guruhlarga bo'lishni tavsiya qilgan:

1. Tog' - tog' va baland tog' yaylovlari.
2. Adir - tog' oldi adirlar, baland va quyi adirlar.
3. Cho'l (tekislik) - qum cho'llar, gipsli cho'llar, sho'rxok cho'llar va baland cho'llar.
4. To'qaylar (sohil) - daryo sohillari.

Ma'lumki, O'zbekiston tog'lari O'rta Osiyodagi Tyan-Shan va Oloy tog' tizmalarinig davomidir. Tyan-Shan tizmasiga Qorajon tog', Ugam, Pskom, Sandalash, Chotqol va Qurama tog'lari kiradi, ularning o'rtacha dengiz sathidan balandligi 2500- 3000 m.

Oloy tizmalariga Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'lari kiradi. Turkiston tog' tizmasi Farg'ona vodiysidagi Ko'ksuv, Chumqor va Morguzar tog'larini hamda Nurota (Gubdintog', Oqtog', Qoratog') tog'larini o'z ichiga oladi. Turkiston tog' tizmalarining balandligi dengiz sathidan 3000-4000 m balandlikdadir. Zarafshon tog' tizmasiga Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari kiradi, ularning dengiz sathidan balandligi 800-1200 m dir.

Hisor tog' tizmasi janubiy-g'arb tomondan Hazrati Sulton, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Ko'hitang, Surxontog' va Bobotog' tizmalaridan tashkil topgan. Bu tog'larning dengiz sathidan balandligi 2000-3700 m. Yuqorida keltirilgan tog' tizmalari respublikamiz g'arbiga borgan sari pasayib, adirlar va tekisliklar bilan qo'shiladi. Barcha tog' tizmalarining qo'yli qismlari adirlardan, adirlarning quyi qismlari esa tekisliklardan iborat bo'ladi.

Respublikamizning tekislik mintaqasiga Farg'ona, Chirchiq, Ohangaron, Mirzachoい, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Amudaryo deltası, Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt, Nurota, Qarnab va boshqa tekisliklar kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan mintaqalar chorvachilik uchun asosiy ozuqa manbai bo'lgan tabiiy yaylovlardir. O'zbekiston Respublikasi hududida tog' yaylovlari 1459 ming ga,adir yaylovlari 17 min ga, tekislik yaylovlari esa 20 min gektardan oshiq. Bu tabiiy yaylovlar bir-biridan iqlim, gidrologik, rel'yef, o'simliklar qoplami vegetatsiya davri va yaylov davrining davomiyligi bilan farqlanadi. Tog' mintaqasi yaylovlarining o'simliklar qoplami joylashish balandligiga bog'liq holda bo'ladi. Baland tog' yaylovlarda asosan boshoqdoshlar oilasiga mansub o'simlik turlari uchraydi. Bundan tashqari tog' mintaqasida turli o'tloq o'simliklari: oqso'xta, timofeyevka, suvbug'doyiq, dalachoyi, qizil sebarga, sigir quyruq, osoka, o'tloq qo'ng'irboshi, astragal, kavul, tipchak, perey, espartset, efemerlar, shuvoqlar uchraydi. Tog' yaylovlarining hosildorligi 6-25 s/ga ni tashkil etadi.



A



B

**Rasm 1. A. Arid zonasida ozuqa ekinlarining urug'ini CKA-2,1 ekish seyalkasi; B. Saksovul urug'larini CCM-1 mashinasi yordamida yig'ishtirib olish.**


Adir yaylovlarining quyi qismlarida asosan efemeroидлар (yashil rangli o'tlar, qo'ng'irbosh, kovrak) va efemerlar (boychechak, chuchmoma, no'xatak, cho'g'on, lola, itgunafsha, lolaqizg'aldoq, yovoyyi arpa) guruhiga mansub o'tlar o'sadi. Yaylovlarning o'rta qismlarida asosan efemerlar (qo'ng'irbosh, yaltirbosh, qizg'aldoq, isiriq) va ko'p yillik o'simliklardan oqquray, karrak, yaltirbosh tarqalgan. Adir yaylovlarining yuqori qismlarida bug'doyiq, taktak, yaltirbosh o'simliklari ko'proq uchraydi. Adir yaylovlarining shimoliy qismlarida shuvoq, ebalak, qo'ziquloqlar o'sadi.

Tekislik mintaqasida joyning rel'yefi, tuproqning namlanish chuqurligi va sho'rланish tartibiga ko'ra o'simlik turlari ham har xil bo'ladi. Cho'l mintaqasining iqlimi juda quruq va issiq bo'lganligi uchun

o'simliklar qoplaming asosiy qismini ildizlari juda taraqqiy etgan, chuqur qatlamlarga kirib boruvchi butalar va yarim butalar tashkil qiladi, shuningdek, ularning ostida efemeroidlar va efemerlar tarqalgan. Cho'l mintaqasi o'simliklari o'z xususiyatlariga ko'ra, qumli cho'l o'simliklari, gilli cho'l o'simliklari va gipsli sho'rxokli o'simliklar toifalariga bo'lnadi. Qumli cho'llarda efemer va efemeroidlar ko'proq uchraydi, ulardan eng muhimlari iloq, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, soyabonlilar (kovrak), butalar (boyalich), buyurg'un, tadir, juzg'un yoki qandim, qum akatsiyasi, cherkez, oq saksovul.

Gipsli va gilli cho'llarda ham efemerlar va efemeroidlar bo'lib, ular bilan aralash holda shuvoq-sho'rali o'simliklar keng tarqalgan. O'tloq - allyuvial to'qay tuproqlari ko'proq daryo qirg'oqlari va kichik orollarda tarqaganligi uchun bu yerlarda to'qay daraxtlar, butalar va boshqa o'tlar ko'p uchraydi. Shuning uchun bu tuproqlar tarkibida ozuqa moddalari juda ko'p (gumus 1,5-2,5 %, umumiy azot 0,118-0,395 %, umumiy fosfor 0,096-0,134 %, umumiy kaliy 1,86-2,86 %).

**Topshiriq:** "Nilufar gul" pedtexnologiyasi asosida kichik-kichik guruhlarga bo'lining vayozuv taxtasiga to'rtta nilufar guli rasmini chizing. Har bir guruh a'zolari muayyan yaylov turini tanlab, nilufar gul yaproqlarini shu yaylov tipiga xos o'simlik turi bilan to'ldiring.



#### Nazorat savollari:

1. Yaylovlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi roli?
2. Yaylov o'simliklarining ekologik-meliorativ ahamiyati nimalardan iborat?
3. Tog' va baland tog' yaylovlari o'simliklariga misillor keltiring.
4. Adir yaylovlari o'simliklariga misillor keltiring
5. Cho'l yaylovlari o'simliklariga misillor keltiring.
6. To'qaylar (sohil) - daryo sohillari tabiiy iqlim sharoiti va o'simlik qoplami to'g'risida ma'lumot bering.

### **18-mavzuga doir test savollari**

1. Yaylovlarning asosiy ahamiyati nimalardan iborat?
  - A. Turg'un holda boqilgan chorvaga nisbatan 20-25 % mahsuldorligi yuqori
  - B. Mahsulot tan-narxi 30-40 % kam
  - C. Sog'in sigirlarda uchraydigan mastit kasalligi uchramaydi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. Yaylovlarning asosiy ahamiyati?
  - A. Naslchilik yaxshilanadi
  - B. Go'sht, sut, jun va teri sifati oshadi
  - C. Vitaminli ozuqa bilan uzoq vaqt ta'minlanadi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
3. Biologik zovur vazifasini yaylovlarda nima bajaradi?
  - A. O'simliklar
  - B. Qumlar
  - C. Chorva mollari
  - D. Yomg'ir suvlari
4. Fitomeliorantlarning vazifasi?
  - A. Qum ko'chishidan saqlaydi
  - B. Atmosfera havosini tozalaydi
  - C. Tuproqda nam zahirasini to'playdi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
5. Yaylov tiplari necha xil bo'ladi?
  - A. 1
  - B. 2
  - C. 3
  - D. 4
6. O'zbekiston Respublikasida tog' yaylovlaring maydoni necha mln Ga?
  - A. 17,2
  - B. 2,8
  - C. 0,7
  - D. 0,3
7. O'zbekiston Respublikasida adir yaylovlaring maydoni necha mln Ga?
  - A. 17,2
  - B. 2,8
  - C. 0,7

- E. 0,3
8. O‘zbekiston Respublikasida cho‘l yaylovlarining maydoni necha mln Ga?
- A. 17,2  
B. 2,8  
D. 0,7  
E. 0,3
9. O‘zbekiston Respublikasida to‘qay yaylovlarining maydoni necha mln Ga?
- A. 17,2  
B. 2,8  
D. 0,7  
E. 0,3
10. Tog‘ yaylovlarida o‘sadigan o‘simliklar asosan qaysi oilaga mansub?
- A. G‘alladoshlar  
B. Dukkakdoshlar  
D. Sho‘radoshlar  
E. Murakkabguldoshlar

## 19-mashg'ulot. Yayılovlar hosildorligi va yuklamasini aniqlash

**Mashg'ulot maqsadi:** Yayılovlar hosildorligi va yuklamasini aniqlash usullari bilan tanishtirish, yaylovlar hosildorligini va yuklamasini aniqlashga doir masalalar ishslash.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Yayılovlar hosildorligi va yuklamasini aniqlashda zarur bo'ladigan yaylovlar haqiqiy hosildorligi, chorva mollarining turlari bo'yicha sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi va yaylovdan yil mavsumlari bo'yicha foydalanish davomiyligini tasvirlovchi rangli jadvallar, sxemalar, fotosuratlar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** O'qituvchi tomonidan yaylov tiplari bo'yicha yaylov haqiqiy hosildorligi to'g'risida va ularni aniqlash bo'yicha ma'lumot berish, chorva mollarining sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi to'g'risida tushuncha berish, yaylov yuklamasi hisoblab topilishi o'rgatish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Har bir yaylov tipining yaylov yuklamasi yaylovlarning haqiqiy hosildorligi va chorva mollarining turiga bog'liq. Yaylovlarning haqiqiy hosildorligi qancha yuqori bo'lsa, yaylov yuklamasi ham shuncha yuqori bo'ladi va kichik yaylov maydonida ko'proq chorva boqish imkoniyati tug'iladi.

Yaylov o'tlarining hosildorligini uzlusiz aniqlab borishning katta amaliy ahamiyati bor. Chunki yaylov hosildorligi yildan yilga oshib borilganda, u yuqori samarali bo'la oladi. Yaylov o'tlarining hosildorligi 2 ga bo'linadi: umumiyligi va haqiqiy hosildorlik. Umumiyligi yaylov o'tlarining hosildorligini aniqlashda  $1-10 \text{ m}^2$  gacha maydonchalar ajratib olinadi va har bir yaylov maydonchalarining takrorlanishi 10 dan kam bo'lmasisligi kerak. Har bir maydonchadagi o'tlar 3-4 sm qoldirib o'rib olinadi va tarozda tortiladi. Uning ho'l massasi aniqlanadi, shu olingen massa ochiq havoda quritiladi. To'liq quritilgandan keyin tarozida tortib uning quriq massasi aniqlanadi.

Butalarning hosildorligini aniqlashda esa faqat bir yillik novdalari hisobga olinadi. Haqiqiy hosildorlikni aniqlashda chorva mollarining yaylovdagi o'tlarning iste'mol qilish darajasi hisobga olinadi. Yaylov o'tlarning iste'mol qilinmaydigan qismi 15-20 % bo'lгanda ular yuqori sifatlari yaylovlar deyiladi:

20-25 % - yaxshi yaylov;

25-30 % - o'rtacha yaylov;

40-45 % - sifatsiz yaylov.

## **Yaylovlarda chorva mollarining boqilish vuklamasini aniqlash.**

Buning uchun yaylov va pichanzorlarning haqiqiy hosildorligi, har bir chorva molining turlari bo'yicha sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi va yaylovlardan foydalanish davri ma'lum bo'lishi kerak.

### **20-Jadval**

#### **Chorva mollarining turlari bo'yicha sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi**

Nº	Chorva turi	Sutkalik ozuqaga bo'lgan talab, kg
1	Sog'in sigirlar	40-75
2	G'unajinlar	30-40
3	Buzoqlar (1 yoshgacha)	15-25
4	Qo'y va echkilar	3-6
5	Qo'zi va uloqlar	2-3
6	Cho'chqalar	10-15
7	Otlar	30-40

Respublikamiz hududida yaylovlardan foydalanishning davomiyligi mintaqalar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan:

Tog' mintaqasida 180-200 kun, adir va sohil mintaqalarida 240-260 kun, tekislik 260-300 kun. Masalan, yaylovning haqiqiy hosildorligi 200 s/ga, yaylovdan foydalanishning davomiyligi 200 kun, bir bosh sigir uchun 50 kg/sut ko'k massa kerak bo'lsa, butun yaylovdan foydalanish davomida bir bosh sigirga  $50 \times 200 = 10\,000$  kg yoki 100 s ozuqa kerak bo'ladi. Bunda yaylov yuklamasi quyidagicha topiladi:

$$Yu = Hh : Th$$

Bunda: Yu - yaylov yuklamasi, bosh/ga.

Hh- haqiqiy yaylov hosildorligi, s/ga.

Th- bir bosh sigirga talab qilingan ozuqa, s.

$Yu=200 : 100 = 2$  bosh/ga. Demak, bir bosh sigir uchun 0,5 hektar yaylov zarur ekan.

### **21-Jadval**

#### **Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!**

Nº	Chorva turi	Sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi, kg	Yaylov hosildorligi 10 ts/ga bo'lsa, yaylov yuklamasini aniqlang
1	Sog'in sigirlar	60	
2	G'unajinlar	37	
3	Buzoqlar (1 yoshgacha)	21	
4	Qo'y va echkilar	5	
5	Qo'zi va uloqlar	3	
6	Cho'chqalar	13	
7	Otlar	34	

### **Nazorat savollari:**

1. Yaylovlар hosildorligi qanday usullar yordamida aniqlanadi?
2. Yaylovlар hosildorligi va yaylovlardan foydalanish davomiyligi nimalarga bo'g'liq?
3. Yaylov yuklamasi qaysi formula yordamida hisoblanadi?
4. Butalarning hosildorligini aniqlash usuli to'g'risida gapirib bering.

### **19-mavzuga doir test savollari**

5. Yaylov o'simliklarining hosildorligi necha xil bo'ladi?  
A. 1  
B. 2  
C. 3  
D. 4
2. Butalarning hosildorligini hisoblashda nimalar inobatga olinadi?  
A. Ildizi, poyasi, shox-shabbasi  
B. Shox-shabbasi va barglari  
C. Urug'i va mevasi  
E. Bir yillik novdasi
3. Chorva mollari iste'mol qiladigan o'simlik hosildorligi nima deyiladi?  
A. Haqiqiy  
B. Umumiy  
D. Biologik  
E. O'rtacha
4. O'rtacha yaylovlarda yaylov o'tlarining iste'mol qilinmaydigan qismi necha % bo'ladi?  
A. 15-20 %  
B. 20-25 %  
D. 25-30 %  
E. 40-45 %
5. Yaylov yuklamasi qanday omillarga bog'liq?  
A. Yaylov va pichanzorlarning umumiy hosildorligiga  
B. Yaylov va pichanzorlarning haqiqiy hosildorligiga  
D. Yaylov va pichanzorlarning biologik hosildorligiga  
E. Yaylov va pichanzorlarning o'rtacha hosildorligiga
6. Sog'in sigirlarning sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi necha kg?  
A. 40-75  
B. 3-6  
D. 15-25

E. 2-3

7. Qo'y va echkilarning sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi necha kg?

A. 40-75

B. 3-6

D. 15-25

E. 2-3

8. Qo'zi va uloqlarning sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi necha kg?

A. 40-75

B. 3-6

D. 15-25

E. 2-3

9. Yaylovlarning hosildorligi 200 ts/ga, 1 bosh sigir uchun sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi 50 kg bo'lsa, 1 mavsumda 1 bosh sigir uchun qancha ozuqa kerak bo'ladi?

A. 40 kg

B. 40 ts

D. 100 kg

E. 100 ts

10. Yaylovlarning haqiqiy hosildorligi 200 ts/ga bo'lsa 1 bosh sigir uchun qancha yaylov maydoni kerak?

A. 2 Ga

B. 1 Ga

D. 0,5 Ga

E. 10 Ga

## **20-mashg'ulot. Yaylovlar holati va inqiroz belgilarini aniqlash usullari**

**Mashg'ulot maqsadi:** Yaylovlar holati va inqiroz belgilarini aniqlash usullari, inqirozni oldini olish yo'llari va yaylovlar inqiroziga qarshi kurash chora-tadbirlarini o'rgatish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Yaylovlar inqirozini tasvirlab beruvchi rangli fotosur'atlar, jadvallar, video lavhalar, video roliklar, yaylovlar holati va inqirozni keltirib chiqaruvchi sabablar ko'rsatilgan sxema va diogrammalar va hk

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Yaylovlar holati va inqirozini keltirib chiqaruvchi sabablarni ochib berish, yaylovlar inqirozini oldini olish yo'l-yo'riqlari, yaylovlar holatini yaxshilovchi istiqbolli texnologiyalar, yaylovlar inqiroziga qarshi-kurash choralarini to'g'risida ma'lumot berish, yaylovlar inqirozini aniqlashni o'rgatish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, ularning holatini yomanlashtirib, yaylovlar inqiroziga olib keladi. Inqiroz belgilari tezda ko'zga tashlanmaydi va o'simlik qoplaming o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi; bunda yaylov mahsulorligini oshiradigan o'simlik turlari kamayib, zararli va zaharli o'simlik turlari ko'payadi.

Ma'lumki, yaylovlar tabiatning beba ho in'omi hisoblanadi. Jumladan, respublikamizda qorako'lchilikda foydalanib kelinayotgan yaylovlar maydoni 17,5 mln. gektarni egallaydi. Biroq, yaylovlardan ham ma'lum bir tartib, qoidalarga amal qilib foydalanishni, yilning ayrim zarur davrlarida ularga dam berishni, ularning tabiiy hosildorligini saqlab qolishga yoki oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini qo'llashni, doimiy nazorat va e'tibor qilishni taqzoza etadi. Aks holda inson faoliyatining salbiy oqibati tufayli tabiiy yaylovlar inqirozi sodir bo'ladi.

Tabiiy yaylovlar o'simliklar qoplamida kuzatiladigan o'zgarishlar odatda 2 guruhg'a bo'linadi: 1) tashqi omil; 2) ichki omil.

1) *Tashqi omillar* (o'zgarishlar) tashqaridan ta'sir etuvchi sabablar orqali sodir bo'ladi. Unga asosan inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'sir kiritiladi; bunday ta'sirlarga, birinchi navbatda, mol boqish, o'simlik qoplamidan turli hayotiy ehtiyojlar uchun foydalanish misol bo'ladi.

2) *Ichki omillarga* o'simlik qoplaming bir-biriga bo'lgan ta'siri natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni misol qilish mumkin. Masalan, suv va mineral resurslar uchun efemer-efemeroидlar va boshqa hayotiy shakllar orasida sezilarli raqobat mavjud. Bu holat ayniqsa erta bahor aynan efemer turlarning o'ta jadal o'sishi va rivojlanishi davrida kuchli namayon bo'ladi.

Yaylovlardada mol boqishning o'simliklar qatlamiga ta'siri: dastavval, mol boqish to'g'ridan-to'g'ri tuproqqa va tuproq orqali o'simliklar qatlamiga ta'sir qiladi. Uning mexanizmi qisqacha quyidagicha; mol tuyog'ining ta'sirida, dastavval, tuproqning ustki qismi biroz zichlashadi; borib-borib esa yuza qatlam buzilib qoladi. 1 m balandlikdan uchi o'tkir metall parchasi o'simlik qoplami yaxshi taraqqiy etgan o'tloqda tashlab ko'rildiganda u o'simliklar qatlami yaxshi rivojlangan maydonda 32 mm, siyrak maydonchada 24 mm chiqurlikka yetgan holos. Yaylovlardan tartibsiz foydalananishning eng salbiy tomoni shundaki, undagi o'simliklar qatlami siyraklashib, turlar miqdori kamayib qoladi. Tuproqning ustki yuzasi quyosh nurlari ta'siridan ko'proq qizishi natijasida undagi suv zapaslari nisbatan jadalroq kamaya boradi. Bularning barchasi ikkilamchi ta'sir hisoblanadi.

Bulardan tashqari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar o'simliklar qatlamiga to'g'ridan-to'g'ri ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ildizi hali yetarli darajada taraqqiy etmagan yosh o'simliklarni hayvonlar ildizi bilan yilib olishi yoki payxon qilishi oqibatida ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Natijada, bu hol surunkali davom etaversa o'simliklar miqdori siyraklashib qolishi, ayniqsa, yuqori to'yimli ozuqlar miqdori va hosili kamayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, bir xil yaylov maydonlarida to'yimli, o'simliklar turlarini juda kam miqdorda uchratish mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, ularning kam miqdordagi yoki yaxshi rivojlanmasligi o'simliklarning o'sishi sharoitlarining ularning talablari darajasida emasligidan dalolat beradi. Demak, bunday turlarning o'sish sharoitlari tegishli tadbirlar vositasida yaxshilansa, ularning yaxshiroq o'sib yuqori hosil toplashiga imkoniyat tug'iladi.

Kuzatishlar, tabiiy o'tloqlarda tarqalgan o'simliklar urug'larining tuproqdagi zahiralari juda katta raqamlar bilan, masalan, qorako'chilik yaylovlarining har bir m<sup>2</sup> da prof. I.S.Amelin ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, yaylov tiplariga qarab 11-21 ming dona urug' zapasi mavjudligini qayd qilish mumkin. Shunga o'xshash

ma'lumotlarni prof. N.T.Nechaeva Turkmaniston cho'l yaylovlari misolida ham keltiradi. Biroq, shunisi ham ayonki, insонning ongi aralashuviziz va boshqaruvisiz, bu ulkan zahiralar qoniqarli unib chiqib yaylovlardagi o'simliklar sonini oshirish mushkul. Demak, yaylovlardan unumli va samarali foydalanish, chorvachilikni qoniqarli darajada ozuqa bilan ta'minlash maqsadida eng muhim tadbirlar jumlasiga ularning hosildorligini oshirish masalalari ham kiritilishi lozim.

Ma'lumki, respublikamizda chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan qorako'chilik cho'l va adir maydonlaridan foydalanishga asoslangan soha hisoblanadi. Qorako'chilik yaylovlardan foydalanish eng arzon hisoblanadi, unga sarflanadigan umumiy harajatlar miqdori 10-15 % dan oshmaydi. Biroq, cho'l va adir mintaqasida joylashgan yaylov tiplarining o'ziga xos bir talay nuqsonlari ham mavjud, albatta. Ular jumlasiga, dastavval, cho'l yaylovları hosildorligining o'ta pastligi (1,5-3,0 s/ga) va ozuqabop turlar miqdorining nisbatan kamchiliginini ta'kidlash lozim.

Ob-havo qulay kelgan yillarda o'rta yillarga nisbatan 2 barobar ko'proq hosil olinsa, noqulay kelgan yillarda bu ko'rsatgich 3-5 barobar pasayib ketadi. Har 10 yil davomida bu ko'rsatgichlarni o'zaro taqqoslasak 3 yil hosilli, 4 yil o'rta hosilli yil va 3 yil kam hosilli yil bo'lishi qayd etilgan. Ilgari ta'kidlaganimizdek, yaylov hosildorligi va ozuqaning to'yimliliqi yillar bo'ylabgina emas, balki, yil mavsumlari bo'ylab ham o'zgarishi kuzatiladi. Chunonchi, bahorga nisbatan qish mavsumida yaylovlarining hosildorligi 2,5 barobar pasaysa, ozuqa tarkibidagi protein miqdori erta bahordagi 20 % dan qishga borib 5-7 % gacha tushib ketadi.

N.L.Morozov (1980) ma'lumotlari asosida 100 kg yaylov pichani tarkibida erta bahorda 80-90 ozuqa birligi mavjud bo'lsa, qishda 18,3 ozuqa birligini tashkil etadi. Yaylovlardan tartibsiz, noto'g'ri foydalanganlik oqibatida, ulardag'i buta va yarim butalarning o'tinlik va boshqa turmush ehtiyojlari uchun chopib olinayotganligi oqibatida o'simlik qatlami zichligi siyraklashmoqda, hosildorligi esa pasayib bormoqda. Mazkur maydonlar aholi punktlari, sug'orish inshootlari (quduqlar) atrofida ayniqsa juda ko'p uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, yaylov maydonlari toboro inqirozga uchrab bormoqda. Xush, yaylov inqirozi deganda nima tushuniladi?

*Yaylov inqirozi deb* me'yoridan oshirib, mol boqish oqibatida tabiiy yaylov o'simlik qoplamida sezilarli o'zgarish sodir bo'lib, yaylov hosildorligining pasayishiga, turlar miqdorining kamayishiga aytildi.

Yaylov inqirozi, nuqlol mol boqish hisobidan sodir bo'lmasdan, balki talaygina boshqa omillar hisobidan ham kuzatiladi. Chunonchi, yaylov inqirozini keltirib chiqaruvchi barcha sabablarning 87 % i inson faoliyati bilan bevosita bog'liq va qolgan 13 %-gina tabiiy jarayonlar hisobidan sodir bo'ladi. Eng yuqori inqiroz (qariyib 44 %) o'simlik qoplaming o'zgarishi bilan belgilansa, 11,2 %-i deflyasiya (qum ko'chishi), 8,7 %-sho'rланish, 5,5 %-suv eroziyasi va 2,1 %-texnogen omillar hisobidan sodir bo'lmoqda. Quduqlar atrofining buzilishi hisobidan bo'ladigan inqiroz qariyib 22 % -ni tashkil etadi.

Yaylov inqirozi birdaniga va juda tez sodir bo'luvchi hodisa emas. U asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich yuzaga kelishi mumkin. Yaylov inqirozi bosqichlarini 4 shartli guruhga ajratsa bo'ladi: kuchsiz, o'rta, kuchli va o'ta kuchli. Bular orasida kuchsiz bosqich unchalik ko'zga ilg'anmay va tashqi belgilari hisobidan kam sezilarli bo'lsa, o'ta kuchli bosqichda yaqqol belgilari bilan ajralib turadi va nazoratga nisbatan turlar miqdori 6,5-13 barovar kamayadi.

#### 22-Jadval

Buta-efemerli yaylov tipining inqiroz bosqichlari va inqiroz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Buzilmagan (shartli)	Inqiroz bosqichlari			
		Kuchsiz	O'rta	Kuchli	O'ta kuchli
Turlar soni, dona/ga	40	28-35	20-25	10-17	3-6
O'simliklar qoplami, %	45-40	35-30	25-20	10-5	2-1
Iloqning 1 m <sup>2</sup> dagi miqdori, dona	300-350	200-250	120-150	50-30	9-10

#### 23-Jadval

Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!

Inqiroz sabablari


### **Nazorat savollari:**

1. Yaylovlar inqirozining belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Yaylovlar inqirozini kelitirib chiqaradigan omillar va sabablar?
3. Yaylov inqirozini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar?

### **20-mavzuga doir test savollari**

1. Respublikamizda qorako‘lchilikda foydalanib kelinayotgan yaylovlar maydoni?
  - A. 21,3 mln Ga
  - B. 17,5 mln Ga
  - C. 10,7 mln Ga
  - D. 4,2 mln Ga
2. Yaylovlarni inqirozga olib keladigan omillar necha xil bo‘ladi?
  - A. 1 xil
  - B. 2 xil
  - C. 3 xil
  - D. 4 xil
3. Mol boqish yaylov inqirozining qanday omili hisoblanadi?
  - A. Ichki
  - B. Tashqi
  - C. Ichki va tashqi
  - D. To‘g‘ri javob yo‘q
4. Deflyatsiya nima?
  - A. O‘simlik bargining qurishi
  - B. Butun o‘simlikning qurishi
  - C. Qum ko‘chishi
  - D. Qor ko‘chishi
5. Yaylov inqirozining necha foizi inson faoliyati bilan bog‘liq?
  - A. 100 % i
  - B. 87 % i
  - C. 50 % i
  - D. 25 % i
6. O‘simlik qoplaming o‘zgarishi bilan bog‘liq inqiroz necha foizni tashkil etadi?
  - A. 44
  - B. 11,2
  - C. 8,7
  - D. 5,5

7. Deflyatsiya bilan bog'liq inqiroz necha foizni tashkil etadi?
- A. 44
  - B. 11,2
  - D. 8,7
  - E. 5,5
8. Sho'rланish bilan bog'liq inqiroz necha foizni tashkil etadi?
- A. 44
  - B. 11,2
  - D. 8,7
  - E. 5,5
9. Texnogen omillarga nimalar kiradi?
- A. Suv eroziyasi
  - B. Qum ko'chishi
  - D. Og'ir metallar
  - E. Alkoloidlar
10. O'ta kuchli inqirozga uchragan yaylovlarda iloqning  $1\text{ m}^2$  dagi miqdori qancha?
- A. 15-20
  - B. 3-6
  - D. 9-10
  - E. 16-17

## **21-mashg'ulot. Cho'l va adir yaylovlardan samarali foydalanish asoslari**

**Mashg'ulot maqsadi:** Cho'l va adir yaylovlardan samarali foydalanishda tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalarini ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qiluvchi yaylovlardan holatini yaxshilash texnologiyalari bilan tanishtirish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalarini, tabiatni muhofaza qiluvchi yaylovlardan holatini yaxshilash texnologiyalariga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, sxemalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Cho'l va adir yaylovlardan samarali foydalanishda tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalarini ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qiluvchi yaylovlardan holatini yaxshilash texnologiyalarini to'g'risida bayon qilish, asosiy tushunchalarni yozdirish, "Aqliy hujum" pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Cho'l va adir yaylovlardan samarali foydalanishda tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish, cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalarini ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qiluvchi yaylovlardan holatini yaxshilash texnologiyalarini yaylovlardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Cho'l hududlarida uzoq muddat faoliyat ko'rsatgan bir talay olimlarning (E.P.Korovin, M.G.Popov, V.A.Burigin, Q.Z. Zokirov, I.I.Granitov, O.X.Xasanov, L.S.Gaevskaya, Z.Sh. Shamsutdinov va boshqalar) ta'kidlashlaricha, endigi kunda cho'l hududlari o'simlik qoplamidagi inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida talaygina buta va yarim buta turlar yo'qolib ketgan. Bunday o'zgarishlarning sodir bo'lishida tuproq-iqlim omillari bilan o'simliklar orasidagi munosabatlari asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, o'simlik tarkibi, uning floristik tuzilishining o'zgarishi, mol boqish, o'simlik turlarining turli ehtiyojlarni qondirish maqsadida nobud qilib yuborilishi, haydash va yong'inlar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ikkala omilning

birgalikda ta'siri natijasida o'simlik qoplami tarkibida efemeroid va efemeroid-shuvoqli, guruhlarning ustivorligiga olib kelgan bo'lsa, adirlar sharoitida shuvoqzorlarning butunlay yo'qolib ketishiga sababchi bo'lgan.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, cho'l yaylovlaring tabiiy-tarixiy va inson faoliyatini ta'sirida hozirgi kunda ularning floristik (turlarning) jihatdan ham, senotik (o'simlik birlashmalari) jihatdan ham kambag'alashishiga olib kelgan. Yana ham soddarroq qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi cho'l hududlarida mavjud o'simlik qoplamida bir talay turlar kamchil bo'lib, ularning urug'lari unib chiqishi uchun qulay shart-sharoit barpo etilgan taqdirdagina ular bemalol qayta tiklanishi va o'sa olishi mumkin.

Cho'l o'simliklarining urug'larini tuproqqa ishlov berib yoki ishlov bermasdan ham sepilsa, ular yaxshigina unib chiqib, bunday yaylov maydonlarini anchagina boyitmoqda. Bu yo'nalishdagagi tadqiqotlar akad. N.T.Nechaeva (1958) bajargan tajribalarida dastlab tasdiqlangan edi. Bu borada tadqiqotchilar yana ham oldinlab ketib efemeroidli va shuvoq-efemeroidli o'simlik qoplamlarining sinuzial tarkibini tahlil qilib ko'rghanlarida ular haqiqatdan ham mavjud moddiy zahiralardan to'liq foydalanmay kelayotganlarini aniqlashga muvaffaq bo'ladilar. Chunonchi, adirlarga xos efemeroidli guruhlar tuproq yuzasining 0-15 sm va tuproqda 0-60 sm chuqurlikda bo'lgan bo'shliqni; shuvoq efemerli sharoitda esa 0-35 va 0-90 sm bo'shliqni egallashlari aniqlandi. (Shamsuddinov, 1973)

Huddi shunday ekologik sharoitlarga butalar (saksovul, cherkez, cho'g'on) va yarim butalar (keyreuk, izen) ekib sinalganda ularning juda yaxshi rivojlangan ildiz sistemasi va boshqa qulay biologik xususiyatlari tufayli tuproqning chuqurroq va kengroq qatlamlaridagi suv, mineral resurslardan to'liqroq foydalanishini ko'rsatdi. (Z.Sh Shamsutdinov, O.X Xasanov, M.M Maxmudov, I.O Ibragimov va boshqalar).

Istiqbolli buta va yarim buta fitomeliorantlar quyidagi bioekologik xossalari jihatidan boshqa turlardan ajralib turadi:

- yashovchanligi nisbatan yuqori;
- jadal o'sish va rivojlanish xususiyatiga ega;
- urug' berish pallasiga erta va jadal kirishishi;
- ildiz tizimining chuqur va jadal rivojlanishi;
- nisbatan ancha mo'lroq fitomassa toplash qobiliyati;
- tuproqdagagi nam zahiralaridan tejab-tergab foydalanishi.

Chunonchi, efemer, efemeroit va bir yillik sho'ra o'tlarning ildiz sistemasi yuza va kam rivojlangan bo'lib va asosan yog'in-sochinlar hisobidan foydalana oladigan bo'lsa, buta va yarim butalar tuproqning chuqr qatlamlari va yonboshiga ham kuchli rivojlangan ildiz sistemasiga ega. Mazkur turlarning ildizlari birinchi yiliyoq tuproqqa 1,8-2,5 metr chuqurlikkacha rivojlanib, 5- yilga borib 8-12 metr chuqurlikka yetadi. Jumladan, qora saksovulning ildiz sistemasi turli tuproq-iqlim sharoitida birinchi yiliyoq 1,5-2 metr gacha yetsa, beshinchi yili 8,2-12 metr va 10- yilga borib 16 metrgacha yetadi. Shunday qilib, buta va yarim butalar nafaqat atmosfera yog'inlari hisobidagi namlikdan, balki, kondensatsion va kapilyar-ko'tariluvchi, grunt suvlari hisobidan ham foydalana oladi.

Suv zahiralaridan tejab-tergab foydalanishga moslashgan: chunonchi, istiqbolli fitomeliorantlarning sutkalik transpiratsiya intensivligi vegetatsiyasining boshlanishida ancha baland (1105-680 mg/soat) bo'lsa, tuproqda nam zahiralari kamayishi bilan keskin pasayib o'z fiziologik faoliyatini bemalol davom ettiraveradi. Istiqbolli fitomeliorantlar o'ta qurg'oqchil sharoitda ham qoniqarli ozuqa zahiralari toplash qobiliyatiga ega.

*Tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish.* Ma'lumki, qorako'l zotli qo'ylar ozuqaga bo'lgan ehtiyojining qariyib 95% ini tabiiy o'tloqlar hisobidan qondiradi. Shu boisdan sohaning hozirgi holati ham, ravnaqi ham asosan tabiiy o'tloqlarning ozuqa zahiralari bilan bevosita bog'liq. Shuni ham ta'kidlamoq joizki, tabiiy yaylovlardan uzoq muddat va samarali foydalanishning muhim omili bo'lib har bir yaylov variantini tashkil qiluvchi ozuqbop turlarning negizida ularning urug'lari yoki vegetativ usulda qayta tiklanish jarayoni yotadi. Har yilgi optimal qayta tiklanish jarayoni aksariyat cho'l ozuqbop turlarda bir yilda to'planadigan ozuqa zahiralarining 65-75% dan oshmagan qismidan foydalanilgan taqdirdagina sodir bo'lishi aniqlangan.

Yaylovshunoslik sohasidagi e'tiborli yutuqlar jumlasiga turli yaylov tiplari uchun yaylovlardan almashlab foydalanish sxemalari ishlab chiqilganligini va ularga asoslanib asosan bahorgi va yozgi maydonlarda har 5 yilda bir marta almashlab mol boqish tavsiya etilganligini ta'kidlash mumkin. Bu yo'nalishdagagi muhim natijalar jumlasiga yaylovlar holatini fitotsenotik va xo'jalik belgilari asosida baholash hamda inqiroz darajalarini aniqlash prinsiplarining ishlab

chiqilganligidir. Hozirgi kunda tabiiy yaylovlardan foydalanishga oid tadqiqotlarda yana bir istiqbolli yo'nalish-turli yaylov tiplariga xos yaylov kadastrlarini ishlab chiqib joriy etilishidir.

*Cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalarini ishlab chiqish.* Qizilqum, Qarnabcho'l, Nurota, Nishon adirlarining o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ularning mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslari va amaliy chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda va bu borada doimiy faoliyat ko'rsatuvchi 6 ta dala tajriba maydonlari mavjud. Tajriba maydonlarida kompleks tadqiqotlar bajarilib, jumladan, turli o'simlik qoplamlarining botanik tarkibi, tuzilishi, ozuqa zahiralarining to'planish dinamikasi o'rganilmoqda.

Cho'l yaylovlari fitomelioratsiyasi sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda so'nggi 10-15 yil orasida qorako'chilikning yirik hududi hisoblangan Qizilqum cho'liga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, Qizilqum o'ziga xos va turli-tuman tabiatli hudud hisoblanadi. Hududning aksariyat maydonlari qumli va gipsli cho'llarga to'g'ri keladi. O'z navbatida, bu ekologik tiplarda fitomeliorativ tadbirlar tizimini amalga oshirish ham o'ziga xoslikni e'tiborga olgan holda yondashishni talab qiladi.

Umuman, cho'l yaylovlari fitomelioratsiyasi sohasida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

- ixotazorlar;
- adirlarda kuzgi-qishgi yaylovlar;
- turli ekologik cho'llar sharoitiga mos yaylov agrofitosenozlari barpo etish texnologiyalari ishlab chiqildi:

**Topshiriq:** "Aqliy hujum" pedtexnologiyasiga asosan o'z fikringizni hoh u to'g'ri bo'lsin, hoh u noto'g'ri bo'lsin, to'xtamasdan yozib boring va aytib bering.

#### **Nazorat savollari:**

1. Istiqbolli buta va yarim buta fitomeliorantlar bioekologik xossalari nimalardan iborat?
2. Tabiiy ozuqa zahiralarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. Cho'l yaylovlari holatini yaxshilashning ilmiy asoslari va texnologiyalariga nimalar misol bo'la oladi?

4. Tabiatni muhofaza qiluvchi yaylovlar holatini yaxshilash texnologiyalari to‘g‘risida gapirib bering.

### **21-mavzuga doir test savollari**

1. Qaysi o‘simlik guruhlari cho‘l sharoiti uchun eng istiqbolli fitomeliorantlar bo‘lib xizmat qiladi?
  - Afemer va efemeroидlar
  - Dag‘al poyali o‘simliklar
  - Buta va yarim butalar
  - Bir yillik sho‘ra o‘tlar
2. Butalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.
  - Saksovul, cherkez, qandim
  - Keyreuk, izen, cho‘g‘on
  - Kamfarosma, boyalich, buyurg‘un
  - Shuvoq, tatir, seta
3. Buta va yarim butalarning ildiz sistemasi birinchi yili necha sm chuqurlikka kirib boradi?
  - 0,3-0,5
  - 3,8-5,1
  - 1,8-2,5
  - 8,2-12,0
4. Buta va yarim butalarning ildiz sistemasi ikkinchi yili necha sm chuqurlikka kirib boradi?
  - 0,3-0,5
  - 3,8-5,1
  - 1,8-2,5
  - 8,2-12,0
5. Buta va yarim butalar qanday suvdan qanday suvdan foydalana oladilar?
  - Atmosfera yog‘inlari
  - Kondensatsion kapillyar suvlari
  - Grunt suvlari
  - Barchasi to‘g‘ri
6. Qaysi o‘simlik guruhlari qurg‘oqchil sharoitlarda ham qoniqarli ozuqa to‘plash qobiliyatiga ega?
  - Efemer va efemeroидlar
  - Dag‘al poyali o‘simliklar
  - Buta va yarim butalar

- E. Bir yillik sho'ra o'tlar
7. O'zbekistondagi eng yirik cho'l?
- A. Qarnab cho'l
  - B. Mirza cho'l
  - C. Qizilqum cho'li
  - D. Qoraqum cho'li
8. Qorako'l zotli qo'yalar ozuqaga bo'lgan ehtiyojining necha foizini tabiiy o'tloqlar hisobiga qondiradi?
- A. 100 %
  - B. 95 %
  - C. 75 %
  - D. 50 %
9. Universal tripli ildiz sistemasiga ta'rif bering.
- A. O'q ildiz kuchli rivojlangan
  - B. Popuk ildiz kuchli rivojlangan
  - C. Yon ildiz kuchli rivojlangan
  - D. Havo ildizlari kuchli rivojlangan
10. O'simliklarning mezokserofit turlari guruhini ko'rsating.
- A. Efemer va efemeroitlar
  - B. Dag'al poyali o'simliklar
  - C. Buta va yarim butalar
  - D. Bir yillik sho'ra o'tlar

## **22-mashg‘ulot. Cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanish va ularga qo‘yiladigan talablar**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Cho‘l va adir yaylovlaridan samarali foydalanishda cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanish va ularga qo‘yiladigan talablar bilan tanishish.

**O‘quv va ko‘rgazmali qurollar:** Cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanish va ularga qo‘yiladigan talablarga oid rangli fotosur‘atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi va metodikasi.** Cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanish va ularga qo‘yiladigan talablarni yoritishda har bir mavsumga quyiladigan talablar, har bir mavsumning bajaradigan vazifalari (kuz, qish, bahor va yoz) to‘g‘risida jadvallar, slayd shoular yordamida tushuncha berish, va yozdirish, talabalarni qizirtirgan savollariga javob berish, mashg‘ulotda “Bumerang” pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg‘ulotning mazmuni.** Cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanishda har bir mavsumga quyiladigan talablar va har bir mavsumning bajaradigan vazifalari mavjud. Cho‘l yaylovlaridan mavsumiy foydalanishda chorva mollarining ehtiyoji, soni, yoshi va turiga qarab yaylov tipini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishlov qorako‘lchilikda eng qiyin, murakkab, ma‘sulyatli davr. Qo‘y-qo‘zilar ko‘p miqdorda energiya sarflashi sababli ularning energiya manbai hisoblangan ozuqaga bo‘lgan talabi ancha oshadi. Biroq, bu davrda yaylovlardagi o‘simlik turlarining vegetatsiyasi tugaganligi oqibatida ularning to‘yimliliqi ham, ozuqa zahiralari ham ancha past bo‘ladi. Shu boisdan qishlovni chiqimsiz, muvaffaqiyatlil o‘tkazish uchun azal-azaldan kafolatlangan ozuqa zahiralari (straxovoy zapas) tayyorlanib kelinadi; qo‘srimcha ozuqa sotib olinadi va h.k. Qishlovni yaxshi o‘tkazishning yana bir muhim sharti-bu yaylov maydonini to‘g‘ri tanlash hisoblanadi. Markaziy Osiyo, shu jumladan, respublikamiz iqlimi sharoitida qumli cho‘l yaylovlari **buta-efemerli** yaylovlardan qishlov uchun eng yaxshi yaylovlardan hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, yaylov o‘simlik qoplamida baland bo‘yli butalar, yarim butalar, ayniqsa, shuvoqlar bo‘lishi zarur. Albatta, aynan shu belgi asosida qishlovlik yaylov tanlash ham unchalik to‘g‘ri emas. Ikkinci omil -bu tuproq tipi va uning mexanik tarkibi ham

muhim o'rin egallaydi. Aytaylik, qishlov uchun soz tuproqli tekis maydonlar tanlanganda salbiy tomoni shundaki, u yerda yomg'ir suvlar to'planib va sovuq davrda muzlab sirg'anoq hosil qilishi mumkin. Rel'efi past-baland, notejis bo'lgan qumli, qumoq maydonlarda esa bunday hol kamroq kuzatiladi yoki deyarli kuzatilmaydi. Qishlovni tashkil qilishdagi yana bir muhim xolat-bu yog'in-sochinli, izg'irin sovuq davrda qo'y-qo'zilarni ishonchli maxsus inshootlar-qo'tonlar, kosharlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Kosharlar mahalliy yoki keltirilgan materiallardan, teplyak (issiqxonalar) qamish, mahalliy butalar yoki boshqa o'simliklardan quriladi.

Qishlov davri uchun muhim masalalardan biri qo'y-qo'zilarni doimiy sug'orish hisoblanadi. Qishda boshqa mavsumlarga nisbatan qo'ylar kamroq, sug'oriladigan bo'lsa ham, bu masala doim diqqat-e'tibor markazida bo'lmosg'i lozim. Qishlov muvaffaqiyatli, betalafot chiqishi uchun yig'ilgan dag'al poyali xashaklar o'z vaqtida qishlov maydonlariga tashilib, maxsus maydalaniib, yedirishga qulay holga keltirib qo'yilishi lozim. Yana bir holat-qishlov joylari xo'jalik boshqaruv-idora yoki boshqa yirik avtomobil yo'llari bilan bog'langan bo'lishi ham muhim.

*Bahor* 1) qo'zilatish, 2) qo'zilarni parvarishlash, 3) teri olish, 4) qirqim, 5) sut sog'ish kabi muhim jarayonlar bajariladigan davr. Bahorgi mavsum uchun erta rivojlanadigan va mo'l ko'kat beruvchi yaylovlar zarur. Yayloving rel'efi ham tekis yoki yengil qiya bo'lmosg'i zarur, chunki cho'pon uchun qo'zilash jarayonini kuzatish va nazorat qilish qulay bo'lishi kerak. Qo'zilatish kompaniyasi uchun, birinchi navbatda, efemer va efemeroildlardan iborat adir maydonlari tanlanadi. Rel'efi tekis, efemerlarga boy buta va yarim buta o'tli maydonlar ham qo'zilatsh (to'l) uchun yaroqli hisoblanadi. Biroq, bahorgi yaylovlar sifatida o'simlik tarkibida sho'ra o'tlar ustivorlik qiluvchi maydonlar yaroqli emas, va bunday maydonlar qochirish kompaniyasi uchun saqlanishi ma'qul.

Nuql efemerli o'tlardan tashkil topgan maydonlar bahorgi yaylovlar sifatida tanlansa, qish sovuqroq kelib, qor ko'proq bo'lib, bahor esa kechikib boshlansa, qo'ylarni ozuqa bilan qoniqarli ta'minlay olmasligi ham mumkin. Shu boisdan, tarkibida quruq holda bo'lsa ham, yarim buta turlardan iborat yer maydonlari bo'lishi maqsadga muvofiq. Bahorda qo'ylarni sug'orishga mo'ljallangan SUV chuchuk bo'lishi zarur. Qo'zilatish o'tkaziladigan maydonlarda chuchuk suvli quduqlar

bo'Imagan taqdirda yomg'ir, qor suvlaridan foydalanish lozim. Qo'zilatish joylarida mayin xashak, konsentratlar, beda pichani ham bo'lishi zarur. Inshootlardan telyaklar, kosharlar va boshqa boshpanalar bo'lishi o'ta zarur.

**Yoz (letovka)** davrida qo'zilarni sog'lom o'stirish, semirtirish, sog'aytirish, kasalliklardan tozalash, otbivka (ajratish) kabi tadbirlar bajariladi. Yaxshi natijalarga yoz uchun 2 holatda erishiladi; a) yaylov maydonlari to'g'ri tanlansa; b) suv bilan yetarli ta'minlansa. Chunonchi, qo'ylarni yaylovda semirtirganda yaylov o'simlik qoplaming tarkibi va uning holati muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, aksariyat hollarda qorako'lchilik yaylovlarda yoz oylari ko'kat ozuqa deyarli yo'q yoki juda kam bo'ladi. Yoz mavsumida qorako'l zotli qo'ylar uchun quruq holdagi efemerlar-iloq, rang, qo'ng'irbosh, bir yillik dukkakdoshlar, onda-sonda erkak o't asosiy ozuqa manbai sanaladi.

Qumli maydonlarda yoz mavsumi uchun ko'karib turuvchi qandimlar, singren va boshqa kamroq yeyiluvchan bir xil butalar ham hisoblanadi. Umuman, yoz mavsumi uchun o'simlik qoplamida efemer o'tli maydonlar mavjudligi o'ta zarur. Buning sababi-aynan efemerlar qurigan holda «xas», ko'kat holida ham butun yil davomida yaxshi iste'mol qilinadi. Rel'ef jihatdan biroz qiya, o'nqir-cho'nqir maydonlar tanlangani maqsadga muvofiq; tuproq qoplami jihatidan soz, lyoss tuproqlar tanlangani ma'qul. Qum tuproqlar yuqoridaqilardan kuchliroq qizishi sababli tanlanmaganligi ma'qulroq; shuningdek, qumli maydonlarda mollar kanallardan ko'proq azob chekishini ham unutmaslik lozim.

**Yoz davrida** mol boqish texnikasiga ham yaxshi e'tibor berilsa, qo'ylarni semirtirish va yaylovni buzilishdan saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir o'ta muhim holat, yoz oylari qo'ylarning suvga bo'lgan talabi o'ta kuchayadi; shu sababli, qo'ylar yozda "uch oyog'i bilan suvda, bir oyog'i bilan o'tda turadi" degan ibora bor. Yoz payti me'yordan kamroq suv bilan ta'minlash kamroq ozuqa bermaslikdan ham havfliroq; suvsizlik o'pka kasalliklariga sababchi bo'ladi. Qo'ylar yozda bir kunda ikki marta-ertalab va yaylovda tarqalishidan oldin kunduzgi damdan keyin suv ichadi. Chuchuk suvdan to'yib ichishi lozim. Yoz uchun qalin, butali yaylovlar ham tavsiya etilmaydi; kam harakatdagi, qizigan havo qo'y-qo'zilarni ko'proq chanqatadi; ular o'tlashdan qoladi, qiynaladi.

*Kuzgi yaylovga bo‘lgan talablar.* Kuzdagi muhim tadbir bu qochirish kompaniyasini to‘g‘ri tashkil etilishi hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, ona qo‘ylarning semizlik va qo‘chqorlarning holati bilan belgilanadi. Demak, qochirish kompaniyasi davrida boshdan oxirigacha, ona qo‘ylar avval yedirilmagan, toza o‘tlatish maydonlari bilan ta‘minlangan bo‘lishi zarur. Kuzgi yaylov sifatida yarim shirali yoki shirali sho‘ra o‘tli yaylovlar hisoblanadi. Cho‘ponlarning ko‘p yillik tajribalari aynan tarkibida sho‘ra o‘tlar mo‘l bo‘lgan maydonlarda boqilgan ona qo‘ylar yaxshi qochib, semizligini oshirib ko‘proq egiz berishi tasdiqlangan. Albatta, ratsion nuqul sho‘ra o‘tlardan iborat bo‘lishi ham noto‘g‘ri. Bu davrda iste’mol qilinadigan ozuqalarning kamida yarmi (50%) chuchuk ozuqlar-shuvoq, efemerlarning qoldiqlari, yantoq va boshqa turlar bo‘lmog‘i lozim.

Demak, yaylov tiplari orasida kuzgi yaylovlar sifatida foydalanish uchun shuvoq-sho‘ra o‘tli, shuvoq-efemerli, saksovul-iloqli yaylovlar eng ma‘qul hisoblanadi. Sug‘oriladigan suvning sifati chuchukdan o‘rtal sho‘rlangan darajaga qadar bo‘lmog‘i lozim. Mavsum boshida har kuni, oxirlarida esa kun ora sug‘orilsa ham bo‘ladi. Kuzda kunduzi va tungi boqish qo‘llaniladi. Otar tongda qo‘zg‘atilib soat 10-11 gacha boqiladi; so‘ngra 1,5-2,5 soat quduq atrofida dam berilib yana yaylovga haydaladi. Qorong‘i tushishi bilan yana 2-3 soat dam berilgach, butun tun yana boqiladi va tong yorishishidan oldin 1,5-2,5 soat dam beriladi.

**Topshiriq:** “Bumerang” pedtexnologiyasi bo‘yicha, qorako‘lchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jalik a‘zolari sifatida rol o‘ynab, yil mavsumlarida olib borilishi lozim bo‘lgan ishlari to‘g‘risida gapirib bering.

#### **Nazorat savollari:**

1. Cho‘l yaylovlardan mavsumiy foydalanish tartiblari qanday amalga oshirilishi lozim?
2. Har bir mavsumga quyiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Cho‘l yaylovlardan mavsumiy foydalanishda chorva mollarining ehtiyoji, soni, yoshi va turi?

#### **22-mavzuga doir test savollari**

1. Qo‘zilatish qaysi mavsumda va qaysi yaylov tipida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq?
- A. Bahorgi (efemerli) yaylovlarda  
B. Bahorgi-yozgi yaylovlarda

- D. Efemerli, sho'ra o'tli yaylovlardan  
E. Yarim buta, buta-o'tli yaylovlardan  
    2. Qochirish tadbiri qaysi yaylov tipida o'tkaziladi?  
A. Bahorgi (efemerli) yaylovlardan  
B. Bahorgi-yozgi yaylovlardan  
D. Efemerli, sho'ra o'tli yaylovlardan  
E. Yarim buta, buta-o'tli yaylovlardan  
    3. Qishlov qaysi yaylov tipida o'tkaziladi?  
A. Bahorgi (efemerli) yaylovlardan  
B. Bahorgi-yozgi yaylovlardan  
D. Efemerli, sho'ra o'tli yaylovlardan  
E. Yarim buta, buta-o'tli yaylovlardan  
4. Qo'zilarni parvarishlash qaysi yaylov tipida o'tkaziladi?  
A. Bahorgi (efemerli) yaylovlardan  
B. Bahorgi-yozgi yaylovlardan  
D. Efemerli, sho'ra o'tli yaylovlardan  
E. Yarim buta, buta-o'tli yaylovlardan  
5. Kafolatlangan ozuqa zahirasi yoki "straxovoy zapas" nima maqsadda amalga oshiriladi?  
A. Qo'zilatish  
B. Qo'zilarni parvarishlash  
D. Qochirish  
E. Qishlov  
6. Teri olish qaysi mavsumda amalga oshiriladi?  
A. Kuz  
B. Qish  
D. Yoz  
E. Bahor  
7. Ajratish (otbivka) tadbiri qaysi mavsumda amalga oshiriladi?  
A. Kuz  
B. Qish  
D. Yoz  
E. Bahor  
8. Qanday yaylov tipida boqilgan ona qo'ylarning egiz berishi tasdiqlangan?  
A. Efemerli  
B. Butali  
D. Shuvoqli

E. Sho'ra o'tli

9. Kunduzgi va tungi boqish qaysi mavsumda amalga oshiriladi?

A. Kuz

B. Qish

D. Yoz

E. Bahor

10. Qaysi mavsumda sug'oriladigan suvning sifati chuchukdan o'rta sho'rangan darajada bo'lishi lozim?

A. Kuz

B. Qish

D. Yoz

E. Bahor

## **23-mashg'ulot. Cho'l yaylovlardan foydalanishning progressiv texnologiyasi**

**Mashg'ulot maqsadi:** Cho'l yaylovlardan foydalanishning progressiv texnologiyalari bilan tanishish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Cho'l yaylovlardan foydalanishning progressiv texnologiyalariga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, slayd-shoular, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Cho'l yaylovlardan foydalanishning progressiv texnologiyalari kelib chiqish sababi, tarixi, bu borada amalga oshirilgan ishlar, loyihalar to'g'risida bayon etish, zagonlar maydonini aniqlash usulini yozuv taxtasiga yozib o'rgatish, mavzuga doir misol va masalalar ishslash, talabalarni mustaqil topshiriqni bajarishi asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Cho'l yaylovlardan foydalanishning progressiv texnologiyalari, yaylovlardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishda dolzarb bo'lib turgan masalalarni hal etishda yordam beradi. Bunda zagonlarning soni va maydonini hisoblab toppish nihoyatda muhimdir.

Qorako'lchilikni yanada ravnaq toptirish va undan olinadigan mahsulotlar sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri bu oziqa bazasini yanada yaxshilash va yaylovlardan oqilona foydalanishni takomillashtirish hisoblanadi. Jumladan, qorako'lchilikda qo'rilgan madaniy yaylovlar barpo etish sohaning mahsuldorligini oshiribgina qolmasdan, balki, qo'l mehnati unumdarligini oshiruvchi, mexanizatsiya jarayonini qo'llash, mehnat unumdarligini keskin oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini ham beradi. Yiriklashtirilgan brigadalar usulida mol boqish qorako'lchilikni sanoat usuliga ko'chirish tomon yaqinlashtiradi.

O'tgan asrning 70- yillaridan e'tiboran O'zQCHEITI xodimlari tomonidan Samarqand viloyatining Nurobod tumani Qarnab naslchilik zavodi (hozirgi R.Jahongirov nomli shirkat xo'jaligi) shuvoq-efemerli yaylovlari ishlab chiqilib, dastlab 6800 ga maydonda, keyinchalik 32 ming gektardan ortiqroq maydonda sinovdan o'tkazildi. Bu madaniy yaylovlar, cho'l yaylovlardan foydalanishning yangi progressiv texnologiyalariga misol bo'la oladi.

Texnologiyaning mohiyati shundaki, u sim to'siqlar bilan qo'rilgan zagonlardan (24) iborat bo'lib, yaylovlarda suv ta'minoti, suv o'tkazuvchi tizim vositasida skvajinadan olinadi. Har bir zagonning umumiyligi sathi 265 gektardan kam emas. Ushbu zagonlarda boqiladigan qo'y-qo'zilar miqdori 4000 boshdan ortiq bo'lib, yiriklashtirilgan otarlar shaklida mol boqish tashkil etilgan. Yangi texnologiyaning eng muhim tomoni shundaki, unda yaylov maydonlaridan foydalanishning yaylov almashinuvi printsiplariga amal qilib vaqt-vaqt bilan (mavsumlar va yillar bo'ylab) dam berish va mahsulorligini oshiruvchi fitomeliorativ chora-tadbirlar tizimi qo'llanilib boriladi.

Cho'l hududlari uchun asosan yirik zagonli yaylovlardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunonchi, shuvoq-efemerli yaylovlardan foydalanishda uni 2 dalali 6 mol boqish zagonlariga ajratib, bir yil davomida 2 martadan qorako'lchilikda qabul qilingan kalendor muddatlarda mol boqiladi.

Har bir zagonda mol boqish bosh soni va muddatlarini quyidagi formula asosida hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi:

$$D = \frac{M \cdot H}{A \cdot S}$$

*D* – zagonda mol boqish davomiyligi, kunlar;

*M* – zagon maydoni, ga;

*H* – ozuqa zahirasining hosildorligi, kg/ga;

*A* – zagondagi mol soni, bosh;

*S* – 1 bosh qo'yning sutkalik oziqa ist'emol qilish normasi, kg

Har bir zagonda necha kun mol boqib, yaylovga ziyon yetkazmagan bo'lishi mumkin?

Ushbu savolga javobni quyidagi misol vositasida toppish mumkin. Aytaylik, 135 ga shuvoq-efemerli maydondagi yaylovda bahorning birinchi davrida 1000 bosh qo'y boqilmoqda. Bu davrda, odatda yeyiladigan ozuqa zahirasining miqdori bo'yicha mol boqilsa, foydalanishga mo'ljallangan muddat ushbu zagonda 13 kunga teng bo'ladi:

$$D = \frac{133 \cdot 300}{1000 \cdot 3} = 13 \text{ kun}$$

Yana bir muhim masala – har bir foydalanish mavsum uchun zarur bo'lgan yaylov maydonini hisoblashdir.

Uni quyidagi formuladan foydalanib hisoblab chiqish mumkin.

$$X = \frac{S \cdot K}{D \cdot U}$$

Bunda; *X* – maydon, ga;

*S* – 1 bosh qo‘yning ozuqaga bo‘lgan sutkalik ehtiyoji, kg (quruq xashak);

*K* – umumiy mol soni, bosh;

*D* – mol boqish muddati, kunlar;

*U* – yeyiladigan quruq ozuqa zahirasi, kg/ga

#### 24-Jadval

Mustaqil topshiriq: Jadvalni to‘ldirin!

Nº	Chorva turi	Sutkalik ozuqaga bo‘lgan talabi, kg	Yayloving haqiqiy hosildorligi, 20 s/ga, zagon maydoni 100 Ga bo‘lsa, ushbu zagonda 100 bosh chorva boqish davomiyligini aniqlang
1	Sog‘in sigirlar	60	
2	G‘unajinlar	37	
3	Buzoqlar (1 yoshgacha)	21	
4	Qo‘y va echkilar	5	
5	Qo‘zi va uloqlar	3	
6	Cho‘chqalar	13	

#### Nazorat savollari:

1. Cho‘l yaylovlaridan foydalanishning progressiv texnologiyalari nimaga asoslangan?
2. Zagonlar soni va maydonini hisoblash formulasi?
3. Zagonlarda mol boqish davomiyligini hisoblash formulasi?

#### 23-mavzuga doir test savollari

1. Cho‘l yaylovlaridan foydalanishning progressiv texnologiyalari?  
A. Nishon  
B. Nurobod  
D. Nurota  
E. Qarnabcho‘l
2. Cho‘l yaylovlarida qo‘llaniladigan progressiv texnologiyalar nimalarga asoslangan?  
A. Zagonlarga  
B. Otgonlarga  
D. Kosharlarga  
E. Teplyaklarga
3. Sim to‘sqli zagonlar umumiy sathi o‘rtacha necha Ga bo‘lishi kerak?  
A. 10-50 Ga  
B. 50-100 Ga  
D. 200-300 Ga  
E. 1000-2000 Ga

4. Qo'llaniladigan yangi texnologiyalarning muhim tomoni nimalardan iborat?
- A. Yaylovlar almashinuviga rioya etishda
  - B. Q/x hayvonlarining yoshiga qarab boqishda
  - C. Q/x hayvonlarining turiga qarab boqishda
  - D. Q/x hayvonlarining soniga qarab boqishda
5. Zagonda mol boqish davomiyligi nimalarga bog'liq?
- A. Zagon maydoniga
  - B. Yaylovlardagi ozuqa zahirasiga
  - C. Sutkalik ozuqaga bo'lgan talabiga
  - D. Barchasi to'g'ri
6. 135 Ga shuvoq-efemerli maydonda 1000 bosh qo'y boqilmoqda. Zagonda mol boqish davomiyligini aniqlang.
- A. 35 kun
  - B. 50 kun
  - C. 13 kun
  - D. 7 kun
7. 250 Ga shuvoq-efemerli yaylovlarda 50 bosh sog'in sigirlar zagonda qancha muddat boqilishi mumkin?
- A. 30 kun
  - B. 70 kun
  - C. 15 kun
  - D. 25 kun
8. Zagon uchun ajratilgan yaylov sathi nimalarga bog'liq?
- A. Umumiy mol soniga, mol boqish muddatiga
  - B. Yaylovlardagi ozuqa zahirasiga
  - C. Chorvaning sutkalik ozuqaga bo'lgan talabiga
  - D. Barchasi to'g'ri
9. Cho'l hududlari uchun qanday zagonlardan foydalanish samarali hisoblanadi?
- A. Yirik
  - B. O'rta
  - C. Kichik
  - D. Mukammal
10. Cho'l yaylovlaridan foydalanish progressiv texnologiyalarining afzalliklari?
- A. Qo'l mehnati unumdorligini oshiradi
  - B. Mahsulot tan narxini kamaytiradi
  - C. Qorako'lchilikni sanoat darajasiga olib chiqadi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri

## **24-25 mashg'ulotlar. Cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari. Qumli cho'l hududlari yaylovlari holatini yaxshilash xususiyatlari**

**Mashg'ulotlar maqsadi:** Cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari hamda qumli cho'l hududlari yaylovlari holatini yaxshilash xususiyatlari yoritish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari hamda qumli cho'l hududlari yaylovlari holatini yaxshilash xususiyatlari yoritishga doir rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, slayd-shouilar, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari hamda qumli cho'l hududlari yaylovlari holatini yaxshilash xususiyatlari mavzuga doir jadvallar vositasida yoritish va yozdirish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish, "Chorraha" pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari hamda qumli cho'l hududlari yaylovlari holatini yaxshilash xususiyatlari yaylovlarda agrofitotsenozlarni barpo qilish bilan chambarchas bog'liq.

Ma'lumki, respublikamizning eng yirik qumli cho'l regioni Qizilqum hisoblanadi. Uning 60% dan ortiqroq qismi qumli cho'llardan iborat. Qizilqumning boshqa cho'l hududlaridan farqi shundaki, unda yillik yog'in miqdori o'ta past (110-130 mm), tuproq va o'simlik qoplami esa xilma-xil. Shu boisdan, bu region uchun yaylovlari mahsuldarligini yaxshilash maqsadida yer maydonlarini tanlash, shuningdek, yaxshilash usuli-tubdan yoki yuzaki yaxshilash chora-tadbirlarini qo'llash ham o'ta muhim hisoblanadi. Yaylov maydonlarini tanlash geobotanik, tuproq, gidrogeologik ma'lumotlarni o'r ganish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, kuchli inqirozga uchragan quduqlarga yaqin yaylov maydonlarini yaxshilash uchun ajratish lozim.

Qumli cho'l sharoitida shamol eroziyasining oldini olish uchun yaxshilanadigan yaylov maydonlariga mahsus ishlov berilmaydi; tuproq yuzasi zichlashgan maydonlarda shudgorlashning o'miga tuproq yuzasi mintaqachalar holida 10-12 sm chuqurlikgacha diskalanadi. Qo'y qiyi, gil va superfosfatning teng nisbatdagi aralashmasiga fitomeliorantlar urug'i

aralashtirilib sepilgan maydonlardan qoniqarli maysalar olinib, ularning yashovchanlik ko'rsatkichi ham ancha yuqori bo'ladi. Tuproq yuzasi nam yoki qorning ustiga urug' sepilgan maydonlarda ham yaxshi samara olinadi. So'ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar qumli yaylovlar hosildorligini yaxshilashda oldindan ko'chatlar yetishtirilib so'ngra ularni ekish texnologiyasini qo'llash ham yaxshi samara berishini ko'rsatmoqda. (Maxmudov va boshqalar, 2006)


Saksovul urug'ini ekishning eng qulay muddati- yanvar-fevral; izen, cho'g'onlar uchun - dekabr-fevral va o'tchil turlar uchun noyabr-fevral hisoblanadi. Yaxshi qalinlikdagi ekinzorlar olish uchun quyidagi urug' ekish me'yorlari qo'llaniladi: yarim butalar (izen, cho'g'on, teresken) uchun 15-20 kg/ga, o'tchil turlar (baliqko'z, paxtabosh, usma) 6-8 kg/ga, butalar uchun (saksovullar, qandimlar, cherkezlar) 10-18 kg/ga.

Qumli cho'l yaylovlari mahsuldarligini yaxshilash chora-tadbirlari, aksariyat hollarda, qo'l kuchi yoki mahalliy moslamalar yordamida amalga oshiriladi. Rel'efi nisbatan tekis qum tepaliklar oralig'idagi tekis maydonlarni fitomelioratsiyalashda SUT-47, SZT-3.6, AS-2 agregatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi va mehnat unumdarligi keskin oshadi. Qumli cho'l sharoitida saksovullar, izen urug'lari 2-3 sm, undan yirikroq urug'lar (cho'g'on, cherkez, qandim) esa 3-4 sm chuqurlikka ko'miladi. Ma'lum chuqurlikka ko'milgan urug'larni qushlar, qurt-qumursqlar, shamol yordamida nobud bo'lishidan saqlab qolishidan tashqari, ularning unib chiqishi uchun ham qulayroq shart-sharoit yaratiladi.

Qumli cho'l yaylovlarini **tubdan yaxshilaganda** butalar, yarim butalar va o'tchil turlar aralashmasidan iborat yaylov agrofitosenozlari barpo etiladi. Bunday aralashmada butalarning (oq saksovul, cherkez, qandimlar) ulushi 20-25%, yarim butalar (izen, teresken, cho'g'on, mavzoleyta) -45-50% va o'tchil turlar (paxtabosh, baliq ko'z, usma, qumarchik) 25-35% bo'lishi maqsadga muvofiq. Ixotazorlar + meliorativ ekinlar barpo etishning mohiyati shundaki, bunda ikki tadbir - ixotazor bilan yaylov agrofitosenozlari bir xil yaylov massivida birqalikda amalga oshiriladi. Yakka holda ixotazorlar barpo etishdan uning texnologik farqi va afzalligi shundaki, dastavval, yaylovlardan foydalanish imkoniyati kengaysa, ikkinchidan, uning fitomeliorativ mohiyati ham ancha samarali bo'ladi. Ixotazorlarni yarim buta turlar bilan aralash holda yoki navbatma-navbat joylashtirilganda, yaylov maydonining mikro-iqlimi biroz bo'lsa ham yaxshilanishi bilan bir qatorda fitomeliorantlardan foydalanish mavsumlari ancha kengayadi.


**Tuproqqa ishlov berish.** Hozirgi kunda cho'l yaylovlarni yaxshilashda yaylovlarni yalpi haydamasdan balki mintaqachali (polosal) ishlov berish tavsiya etiladi. Tuproqqa polosalni ishlov berilganda bo'z va qo'ng'ir-bo'z tuproqlar sharoitida ular 18-20 sm, adirlarda esa 22-25 smgacha shudgor qilinadi. Shudgor qilishning eng qulay muddatlarini noyabr-dekabr oylari hisoblanadi. Aynan shu davrda kuzgi yog'ingarchiliklardan keyin tuproqning yuza qismi ancha yumshaydi va namli bo'ladi. Haydalgan mintaqachalar bir vaqtning o'zida borona qilinishi maqsadga muvofiq.

**Mintaqalarni joylashtirish.** O'simlik qoplami yaxshi rivojlangan yaylovlarda shudgor qilinadigan mintaqachalarning kengligi har 12 m, siyrak rivojlangan va inqirozga kuchli uchragan maydonlarda esa 24 metrgacha kenglikda joylashtirilgani ma'qul. Mintaqachalar yo'nalishi esuvchi shamollarga perpendikulyar joylashtiriladi (rasm 2). Qora saksovul ixotazorlari barpo etilganda ishlov beriladigan mintaqanining kengligi 25 metrdan oshmasdan, orada ishlov berilmaydigan tabiiy yaylovnинг oralig'i 250-300 metrnini tashkil etadi (rasm 2). 25 metrlik mintaqaga yoppasiga shudgor qilinmasdan, balki, ikki chegarasi va o'rtasidan 2,8 metr kenglikda shudgorlanib, ular orasida ishlanmagan 8,3 metrlik tabiiy yaylov qoldiriladi va shunday qilib, shudgorlanadigan mintaqachanening ulushi 33,6% dan oshmaydi. Ishlov berilmaydigan mintaqalar tabiiy turlar urug'lari hisobidan qayta tiklana boshlaydi.



Rasm 2. Yaylov agrositotsenozlarini joylashtirish sxemalari:

- O'simlik qoplami yaxshi rivojlangan maydonlarda;
- O'simlik qoplami siyrak maydonlarda.



Rasm 3. Ixotazorlar barpo etish sxemasi, Qarnab cho'l sharoitida.

**Urug‘ ekish muddatlari.** Cho‘l va adirlarning o‘ta injiq iqlim sharoitida urug‘larni optimal muddatlarda ekish juda muhim hisoblanadi. Ko‘p yillik kuzatishlar va tajriba ishlari cho‘l sharoitida istiqbolli fitomeliorantlar urug‘larini ekish muddatlari deb qish (dekabrfevral) oyлari aniqlangan. Ekish uchun ishlatiladigan fitomeliorantlar urug‘lari o‘z sifat ko‘rsatkichi bo‘ylab bir va ikkinchi klassga loyiq bo‘lishi lozim; 3 klassga tegishli urug‘lardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

**Urug‘ ekish me‘yorlari.** Qorako‘lchilik yaylovlari mahsuldarligini oshirishda qo‘llaniladigan fitomeliorantlarning urug‘laridan shunday miqdorda foydalanish lozimki, undan me‘yordan ortiq sarflanmasin va ekilgan urug‘ miqdori (me‘yori) ekin zichligini ta‘minlagan bo‘lsin. Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida quyidagi urug‘ ekish me‘yorini qo‘llash tavsiya etiladi: qora saksovul - 4-5 kg/ga, cho‘g‘on -8-10 kg/ga, izen - 3-4 kg/ga, keyreuk - 6-7 kg/ga, shuvoq -0.5-1 kg/ga. Bu me‘yorlar 100% lik xo‘jalik yaroqliligiga ega bo‘lgan urug‘lar hisobidan keltirilmoqda. Biroq, cho‘l o‘simliklarining xo‘jalik yaroqliligi aksariyat hollarda 100% lik sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmasligi ayon.

**Qumli cho‘l hududlari yaylovlar holatini yaxshilash xususiyatlari.** Respublikamizning shuvoq-efemerli, adir yaylovlari holatini tubdan yaxshilovchi ixotazxorlar, turli mavsumlarda foydalanishga mo‘ljallangan yaylov agrofitotsenozlari, adirlarda kuzgi-qishki yaylovlar barpo etish texnologiyalari ishlab chiqilib qo‘llanilib kelinmoqda. O‘zbekistonning qumli bo‘lmagan cho‘l hududlarining inqirozga uchragan va yirik butalar o‘smagan yaylov maydonlarida qora saksovul, cherkez, cho‘g‘on aralashmalaridan iborat ixotazorlar barpo etish borasida yaxshigina tajriba to‘plangan. Ixotazorlar barpo etishda qumli cho‘llarga o‘xshash bevosita urug‘ qadash yoki ko‘chatlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, urug‘ ekish me‘yori qora saksovul urug‘larining sifat ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Har bir gектар ishlov berilgan mintaqachalarga 1-2 klassli qora saksovul urug‘idan 9-10,5 kg, cherkez urug‘idan 25-31 kg sarflansa yaxshi samara olinishi kafolatlanadi.

Ko‘chatlardan foydalanilganda esa muayyan sharoitga qarab maxsus ishlov berilmagan maydonning har 5-8 metriga 1 donadan ko‘chat sarflanib qatorlar oralig‘i ham shu kenglikda belgilanadi.

Ko'chatlar dalaga fevral-martdan kechiktirilmasdan 35-40 sm chuqurlikka o'tqaziladi. Bunda ko'chat o'tqazuvchi maxsus mexanizmlar yoki qo'l kuchi qo'llaniladi. Standart talabga javob beruvchi ko'chatlar (saksovul, cherkezlar, qandimlar) ning bo'y 25 sm, ildiz bo'g'zining eni 3-4 mm va ildizining uzunligi 35-40 sm dan kam bo'lmasligi lozim. Qumli bo'Imagan muhitda qorako'lchilik holatini tubdan yaxshilashning muhim va samarali usuli-yaylov ekinzorlari (agrofitotsenozlari) barpo etish hisoblanadi. Uning afzalligi shundaki, maxsus fitomeliorantlar tarkibini aniqlash vositasida mavsumiy (bahorgi-yozgi, kuzgi-qishki va yil davomida) foydalanishga mo'ljallangan maydonlar barpo etish imkoniyati mavjud.

**Kuzgi –qishki yaylovlari** shuvoq, quyrovuq, qora saksovul, izen va bir yillik sho'ra o'tlar aralashmasidan, adirlarning inqirozga uchrab, qo'ziqulqoq, adrespan, oqquray o'suvchi maydonlarida barpo etiladi.

Yaxshilanishi lozim bo'lgan yaylov maydonlari mintaqalari shaklida o'simlik qoplaming zichligiga qarab turli kenglikda haydalib oraliqda huddi shunday kenglikda haydalmagan maydonlar qoldiriladi. Shudgorlash 22-25 sm chuqurlikda kuz-qish oylari bajariladi. Urug' ekish ham shu mavsumda amalga oshirilsa qoniqarli zichlikda maysalar olishga erishiladi. O'z QCHEITI da so'nggi 5-10 yil davomida olib borilgan izlanishlar natijasida cho'l yaylovlari holatini yaxshilash texnologiyalari mukammalashtirilib samarali yangi tadbirlar bilan to'ldirildi yoki yangilari ishlab chiqildi. Ular jumlasiga oldindan parvarishlanib yaylovlargacha o'tqaziladigan ko'chatlar yetishtirish texnologiyasi, urug'larni tuproqqa qadashdan oldin ularni nishlatib ekish texnologiyalarini ko'rsatish mumkin. Hosildorligi yaxshilangan yaylov massivlaridan uzoq muddat va samarali foydalanishning ham o'ziga xos tartib-qoidalariga amal qilingandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. jumladan, qumli va gipsli cho'llar sharoitida holati yaxshilangan maydonlar 2-3 nchi yilning kuzidan e'tiboran, foydalana boshlash maqsadga muvofiq. Yaxshilangan yaylovlari vaqtiga-vaqtiga bilan qo'shimcha parvarishga muhtoj. Chunonchi, maxsus ilmiy kuzatishlar tuproq yuzasi zichlashib qolgan maydonlarda yengil boronalar vositasida yumshatib tadbirlari amalga oshirilgan taqdirda yangi turlarning rivoji uchun qulay sharoit yuzagi kelishi oqibatida yaylovnning hosildorligi qo'shimcha 2-3 sentnerga oshishini ko'rsatmoqda.

Tubdan va yuzaki yaxshilanadigan yaylovlardaga amalga oshiriladigan muhim chora-tadbirlari jumlasiga zararkunanda va

kasalliklarga qarshi kurash usullari va zarur hollarda qo'llaniladigan agrotexnik chora-tadbirlar tizimi kiradi. Ko'p yillik kuzatish natijalari yaylovlар holati yaxshilanganligining ayniqsa, dastlabki yilda qo'llaniladigan fitomeliorantlarning maysa va nihollari tilla qo'ng'iz, uzun tumshuq, qora qo'ng'iz (3 turi) hisobidan kuchli ziyon ko'rishi oqibatida anchagina siyraklashib va oziqa zahiralaringin sezilarli kamayishiga olib kelishidan dalolat bermoqda. Shu boisdan o'z vaqtida kurash choralar qo'llanilmasa yosh ekinzorlar kuchli nobud qilinib yuborilishi havfi ham yuzaga keladi.

Cho'l ekologik sharoitida ko'proq uchrab, yaylov oziqabop turlari va fitomelioratlarga sezilarli zarar keltiruvchi kasalliklar jumlasiga *un shudring* va *zang* (rjavchina) kasalliklarini ko'rsatish lozim. Ular yaylovlар holatini yaxshilashda istiqbolli hisoblangan qora, oq saksovul, cho'g'on, teresken, quyrovuq kabi fitomeliorantlarning yosh nihollari va katta yoshdagi ekinzorlarga ma'lum darajada ziyon keltiradi. Yaylov ozuqabop o'simliklari zarakunandalariga qarshi kurash choralarining samarali davri lichinkalik davri va shu boisdan aynan shu davrda bajarilgan tadbirlar tegishli samara beradi.

**Topshiriq:** "Chorraha" pedtexnologiyasidan foydalanib, cho'l hududlari yaylovlari hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari bo'yicha amalga oshirish ta'qiqlangan, tayyorgarlik ko'riliishi lozim bo'lgan ishlar va bajarilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida bayon qiling.



#### Nazorat savollari:

1. Cho'l mintaqalarining har bir zonal tiplariga oid yaylovlar holatini yaxshilash texnologiyalarini bayon qiling.
2. Qorako'chilik yaylovlari holatini yaxshilash natijasida qanday maqsadlarga erishiladi? Ularni sanab bering.
3. Cho'l yaylovlari holatini yaxshilashda fitomeliorantlar qanday tanlanadi va ularning asosiy biologik va xo'jalik belgilarini ta'riflab bering.

4. Qumli cho'l hududlari yaylovlar holatini yaxshilash xususiyatlari nimalarga asoslangan?

5. Kuzgi -qishki yaylovlar barpo etish texnologiyasi to'g'risida so'zlab bering.

#### 24-25-mavzularga doir test savollari

1. Qaysi yaylov tipida yillik yog'in miqdori o'ta past bo'lishiga qaramay tuproq va o'simlik qoplami xilma-xildir?

A. Tog'

B. Adir

C. Cho'l

E. To'qay

2. Yaylovlар mahsulдорligining yaxshilash usulini tanlashda nimalar e'tiborga olinadi?

A. Hududning geomorfologik sharoitlari va rel'efi

B. Qumlarning mustahkamlik darajasi

D. Inqiroz darajasi

E. Barcha javoblar to'g'ri

3. Agrofitotsenoz nima?

A. Yaylov holatini yaxshilash uchun ekilgan o'simliklar

B. Yaylovlarda o'sadigan o'simlik turlari

D. Yaylovlarda o'sadigan o'simlik soni

E. Yaylovlarda o'sadigan o'simlik yoshi

4. Quduqlar atrofi tepali, qumlar yarim mustahkamlangan, o'simlik qoplami siyrak maydonlarda yaylovlar holatini yaxshilashning qanday turi qo'llaniladi?

A. Tubdan

B. Yuzaki

D. Obdon

E. Mukammal

5. Fitomeliorantlarning urug'i nimaga aralashtirilib ekilsa yuqori samaradorlikka erishiladi?

A. Qo'y qiyiga

B. Superfosfatga

D. Gilga

E. Barcha javoblar to'g'ri

6. Saksavul urug'ini ekishning eng qulay muddati?

A. Yanvar-fevral

B. Dekabr-fevral

- D. Noyabr-fevral  
E. Mart aprel
7. Izen urug‘ini ekishning eng qulay muddati?
- A. Yanvar-fevral  
B. Dekabr-fevral  
D. Noyabr-fevral  
E. Mart aprel
8. O‘tchil o‘simlik turlari urug‘ini ekishning eng qulay muddati?
- A. Yanvar-fevral  
B. Dekabr-fevral  
D. Noyabr-fevral  
E. Mart aprel
9. Qum cho‘l yaylovlarini tubdan yaxshilaganda, butalar ulushi qancha bo‘lishi kerak?
- A. 20-25  
B. 45-50  
D. 25-35  
E. To‘g‘ri javib yo‘q
10. Qum cho‘l yaylovlarini tubdan yaxshilaganda yarim butalar ulushi qancha bo‘lishi kerak?
- A. 20-25  
B. 45-50  
D. 25-35  
E. To‘g‘ri javib yo‘q
11. Qum cho‘l yaylovlarini tubdan yaxshilaganda o‘tchil o‘simlik turlarining ulushi qancha bo‘lishi kerak?
- A. 20-25  
B. 45-50  
D. 25-35  
E. To‘g‘ri javib yo‘q
12. Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida saksovulning ekish me‘yori qancha bo‘lishi kerak?
- A. 4-5  
B. 8-10  
D. 3-4  
E. 6-7
13. Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida cho‘g‘onning ekish me‘yori qancha bo‘lishi kerak?

- A. 4-5
- B. 8-10
- C. 3-4
- D. 6-7

14. Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida izenning ekish me'yorini qancha bo'lishi kerak?

- A. 4-5
- B. 8-10
- C. 3-4
- D. 6-7

15. Shuvoq-efemerli yaylovlar sharoitida keyreukning ekish me'yorini qancha bo'lishi kerak?

- A. 4-5
- B. 8-10
- C. 3-4
- D. 6-7

16. Istiqbolli fitomeliorantlarning urug'ini ekishning eng qulay muddati?

- A. Bahor
- B. Yoz
- C. Kuz
- D. Qish

17. Qaysi olim qumli yaylovlar hosildorligini yaxshilashda ko'chatlar usuli yaxshi samara berishini tadqiq qilgan?

- A. Maxmudov
- B. Shamsutdinov
- C. Nacheeva
- D. Granitov

18. Qora saksovul ixotazorlari barpo etishda ishlov beriladigan mintaqal kengligi necha m dan oshmasligi lozim?

- A. 25
- B. 250-300
- C. 2,8
- D. 8,3

19. Standart talabga javob beradigan buta ko'chatlarining ildiz uzunligi necha sm bo'lishi kerak?

- A. 25
- B. 5-6

D. 35-40

E. 8,3

20. Maxsus ishlov berilmagan maydonlarda har necha m da 1 ta ko'chat ekish belgilangan?

A. 5-8

B. 18-20

D. 35-40

E. 2-3

21. Cho'l ekologik sharoitidagi fitomeliorantlarning nihollik paytida qanday kasalliklar bilan zararlanishi kuzatiladi?

A. Un-shudring, zang

B. Klyastesporioz, antroknoz

D. Xloroz, gammoz

E. Fitoftoroz, rak kasalliklari

## **26-mashg'ulot. Turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga ta'siri**

**Mashg'ulot maqsadi:** Turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga ta'siri, uning sababi va oqibati, turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga salbiy ta'sirini oldini olish chora tadbirlari to'g'risida tushuncha berish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga ta'siri, uning sababi va oqibati, turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga salbiy ta'sirini namoyish etadigan rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalalar, videoroliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga ta'siri, uning sababi va oqibati, turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga salbiy ta'sirini jadvallar vositasida yoritish va yozdirish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish. "Veer yelpig'ichi" pedtexnologiyasidan foydalanish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Yaylovlardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalar orasida mol boqishning o'simlik qoplampiga qay darajada ta'sir qilish masalasini bilish va unga amal qilish muhim hisoblanadi. Aynan mol boqishning yaylovdagi o'simlik qoplampiga ta'sirini bilmay turib, ulardan to'g'ri foydalanishni tashkil qilish mumkin emas. Turli rejimda mol boqishning yaylovlari o'simlik qoplampiga ta'siri masalasiga to'g'ri yondashish va nazorat qilish uchun, oldin muayyan yaylov tipi o'simlik qoplaming holati, floristik tarkibi va hosildorligini aniqlash lozim. Ko'p yillik ma'lumotlar asosida o'simlik qoplamida sodir bo'luvchi holat 3 omil asosida:

- mol boqish intensivligi;
- mol boqishning me'yordan kamayishi;
- mol boqishning nuqul to'xtatilib qo'yilganligi bilan belgilanishi aniqlanib turlicha bo'lishi qayd etilgan.

Mol boqish me'yordan oshirib bajarilsa, yaylov o'simlik qoplamida sezilarli o'zgarish ro'y berib, yaylov inqiroziga olib keladi. Biroq, bunday o'zgarish birdaniga yuzaga chiqmasdan, talay ketma-ketliklar, bosqichlar, o'simliklar almashinuvni orqali sodir bo'ladi. Yaylovda uzoqroq muddat (3-4 yildan ortiq) mol boqilmay turilganda ham o'simliklar qoplamida o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ladi. Uzoq

muddat mol boqilmay qo'yilgan maydonlarda cho'l moxi *Tortula desertorum* paydo bo'lib, o'simliklar qoplaming rivoji uchun muhit yomonlashib qolganligida darak beradi.

Mollar yaylovda boqilganda o'simlik qoplamiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Bunda 2 asosiy yo'nalishni ajratish lozim; 1) to'g'ridan-to'g'ri o'simlikka bo'lgan ta'sir; 2) tuproqqa va u orqali o'simliklarga bo'lgan ta'sir. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir bo'lganda o'simlik (ayniqsa yosh) yilib olinganda sodir bo'ladi. Qisqa muddatdagi ko'p martalik yulinishlar o'simliklardagi zapas ozuqa moddalarining kamayib ketishiga olib keladi va bu jarayon surunkali va uzoq muddat davom etsa o'simlik nobud bo'lishi mumkin. Ayniqsa, birinchi navbatda yaxshi yeyiladigan o'simlik turlari miqdori kamayib qoladi. O'simliklar qoplamiga bo'lgan ta'sirning oshishi ko'p yillik turlarning bir yilliklar bilan almashina borishida kuzatiladi.

*Mol boqshining qumli yaylovlarga ta'siri.* Yaxshi mustahkamlanmagan qumli yaylovlar noto'g'ri mol boqishdan buzilib, ko'chuvchan qumlargaga aylanib qolishi mumkin. Bu hol o'simliklarning, demak, yayloving ham ekologik rejimini butunlay o'zgartirib yuboradi. Buzilish ayniqsa quduqlar atrofida jadalroq kechadi. Quduqlardan uzoqlashgan sari buzilish darajasi biroz kamayib boradi. Odatda, har bir quduqdan bir mavsumda 1000-1500 bosh qo'y suv ichadi. Har kuni suvga keluvchi poda tuproqda ma'lum izlar qatorini qoldiradi. Shu sababli qumning yuza qismi yumshay boshlaydi va yengil ko'chuvchan bo'lib qolishi mumkin. Tuproqning bir talay xususiyatlari, jumladan, havo, suv o'tkazuvchanlik va suv bug'latish xususiyatlari keskin o'zgara boradi. Bu o'zgarishlar undagi o'simliklar uchun noqulay bo'lganligi sababli o'simliklar miqdorining kamayib qolishi yoki yo'qolib ketishiga sababchi bo'ladi.

O'simliklar guruhlari o'zgarib borishi, quyidagi tartibda sodir bo'lishi mumkin: 1) quduqlarga yaqin maydonlarda odatda, yirik butasimon guruhlar ustuvorlik qiladi; 2) butalar zichligi kamaya boshlaydi; 3) iloq ham siyraklashib, orada o'simliklarsiz yalong'och qumlar paydo bo'la boshlaydi; 4) ko'p hollarda bir yillik efemerlar yoki selin uchrab turadi.

Quduqlar atrofi va ularga yaqin maydonlarda o'simliklarni ayniqsa buta va yarim butalarni tirikchilik ehtiyojlari uchun chopib olinishi yaylov o'simlik qoplaming buzilishini yanada keskinlashtiradi. Yaylovda mol tuyog'i me'yordan oshgan sari o'simliklar qoplamidagi asosiy ozuqabop o'simliklar miqdori kamayib boradi, o'simliklar qoplamidagi hayotiy

shakllar miqdori va nisbati ham keskin o'zgaradi. Inqirozga uchramagan tabiiy yaylovlarning hosildorligi 2,5-3 s/gani tashkil etgan bo'lsa, o'simlik qoplami buzilgan maydonchalarning hosildorligi 1s/ga dan oshmaydi yoki kamida 3 baravar pasayadi. Surunkali (4-10 yil davomida) me'yordan oshirib mol boqish unumli buta-efemerli yaylovlarni qum barxanlariga aylantirib qo'yishi mumkin (rasm-4).



Rasm 4. Inqirozga uchragan qumli yaylov manzarasi, Qizilqum.

*Shuvoq-barra o'tli yaylov larga mol boqishning ta'siri.* Bu jarayon tuproqning mexanik tarkibiga qarab turlicha kechishi mumkin. Chunonchi, tuproq yuzasi qumli bo'z tuproqlarda boqiladigan mollar tuyoqlarining ta'siridan tuproq yuzasi yengil parchalaniib, dastavval, yarim ko'chuvchan, keyinroq esa ko'chuvchan qum to'plamlari bilan almashinishi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida o'simlik qoplamiga ham salbiy ta'sir qilib, buta efemerli yaylovlarda kuzatiladigan manzaraga yaqin o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keladi.

Mol boqish me'yordan oshirilgan qumli bo'z tuproqlarda, dastavval, tuproqning yuza qismi ancha yumshaydi. Bu, o'z navbatida, qumli cho'llarga xos o'simlik turlarining paydo bo'lganligidan dalolat beradi- shuvoqlar o'mini singren, qandimlar egallay boshlaydi, cho'g'onning soni osha boshlaydi; ba'zan kovul va erkak o'tlar ham qayd etiladi, bir yillik efemerlarning miqdori osha boshlaydi. Yangi qayd etilgan turlarning ozuqa hosildorligi oldingilarga nisbatan biroz yuqori bo'lishi mumkin. Bunday manzara quduqdan 1,5-2 km uzoqlikda joylashgan maydonlarda yaqqolroq kuzatilishi mumkin. Biroq, quduqqa yaqin yaylov maydonlarining inqiroz darajasi sezilarli kuchaya boshlaydi; bevosita quduq atrofida esa qum to'plamchalari hosil bo'lishi kuzatiladi; o'simlik qoplami muhim turi - shuvoq siyraklashib yoki yo'qolib borishi yaqqol kuzatiladi. Shuningdek, rang, qo'ng'irbosh ham o'ta siyraklashib qoladi. Buzilgan qumli maydonlarning asosiy o'simlik qoplami endi aksariyat qumli yaylov larga xos turlar bilan almashinadi (25-jadval).

**Shuvoq-barra o'tli yaylovlarda turli rejimda mol boqilganda sodir bo'luvchi  
o'zgarishlar**

Mol boqish darajasi	O'simlik qoplami	Yeyiladigan ozuqa zahirasi, s/ga
Mol boqish yetarli emas yoki boqilmaydi	Moh, bir yillik sho'ralar, rang, qo'ng'rbosh	0,5-1,0
Meyorida mol boqish	Shuvoq, rang, qo'ng'rbosh, bir yillik efemerlar	2,0-2,5
Meyordan biroz oshirib mol boqish	Shuvoq, singren, efemerlar: rang, qo'ng'rboshning holati biroz zaiflashgan	2,0-2,5
Meyordan kuchli oshirib mol boqish	Singren, isfent, efemerlar, shuvoq	0,5-3,0
Me'yordan o'ta oshirib mol boqish	Isfent, efemerlar	0,5

Me'yordan biroz oshirib mol boqish yaylov hosildorligining keskin pasayishiga olib kelmaydi; lekin o'ta kuchli me'yordan oshirib mol boqish to'yimli, yaxshi hosil beruvchi turlarning hamda kam yeyiluvchan, yaylov begona o'ti hisoblanuvchi isfentning (adraspan) ko'payishiga olib keladi; yaylov hosildorligi oldingi bosqichga nisbatan 2 barobar kamayadi.

*Efemerli yaylovlarda* ham me'yordan oshirib mol boqilganda o'ziga xos o'simliklar tarkibi almashinuvni vujudga keladi; yaylovnинг son va sifat ko'rsatkichi o'zgaradi (26-jadval).

**Turli rejimda foydalanish sharoitida efemerli yaylovlар o'simlik qoplaming o'zgarishi**

Mol boqish darajasi	O'simlik qoplami	Yaylov hosildorligi, s/ga
Mol boqish yetarli emas yoki boqilmaydi	Mox, lishayniklar maydonning aksariyat qismini egallagan, rang, qo'ng'rbosh, efemerlar siyraklashgan	1 s/ga dan past
Me'yorda mol boqish	Rang, qo'ng'rbosh, no'xatak, astragal, yaltirkosh, efemerlar	2-10
Me'yordan biroz oshirib mol boqish	Rang, qo'ng'rbosh, iris, qo'ziquloq	2-6
Me'yordan kuchli oshirib mol boqish	Efemerlar, qo'ng'rbosh, karrak, oq quray	2-3
Me'yordan o'ta oshirib mol boqish	Efemerlar, bahorgi efemerlar, qiltiq qilqon, qo'ziquloq va boshqalar, begona turlar.	Qiltiq, qilqonlar boshqolaganga qadar yaylovdan foydalilanadi

Me'yordan oshirib mol boqilganda efemerli yaylovlarda asosiy o'simliklar o'rniqa qo'ziquq, burgan, qiltiq kabi zararli o'simliklar vujudga keladi, yayloving xo'jalik ahamiyati keskin pasayib ketadi.

**Topshiriq:** "Veer yelpig'ichi" pedtexnologiyasiga binoan mavzuga muammoli yondashing, "Veer yelpig'ichi" sxemasi bo'yicha masalaning yechimini toping.



#### Nazorat savollari:

1. Yaylovlarda mol boqish intensivligi va me'yordan kamayishi qanday oqibatlarga olib keladi?
2. Mol boqshining qumli yaylovlarga ta'sirini tasvirlab bering.
3. Shuvoq-barra o'tli yaylovlarga mol boqishning ta'siri qanday namoyon bo'ladi?

#### 26-mavzuga doir test savollari

1. Uzoq muddat mol boqilmay qo'yilganda yaylovlarda qaysi o'simlik paydo bo'ladi?
  - A. Tortula desertorum
  - B. Poa Bulbosa
  - C. Popaver pavorium
  - E. Salsola richteri
2. Yaylovlarning floristik tarkibiga nima ta'sir ko'rsatadi?
  - A. Mol boqishning intensivligi
  - B. Mol boqishning me'yordan kamayishi
  - D. Mol boqishning to'xtalib quyilishi
  - E. Barcha javoblar to'g'ri
3. O'simlik qoplamicidagi o'zgarishlar nimalarda namoyon bo'ladi?
  - A. Ko'p yillik turlarning 1 yillik turlarga o'zgarishida
  - B. Ko'p yillik turlarning 2 yillik turlarga o'zgarishida
  - D. 1 yillik turlarning ko'p yillik turlarga o'zgarishida
  - E. 2 yillik turlarning ko'p yillik turlarga o'zgarishida
4. Uzoq vaqt mol boqish qumli yaylovlarda nimalarga olib keladi?
  - A. Deflyatsiyaga
  - B. Degumufikatsiyaga

- D. Degradatsiyaga  
E. Desikatsiyaga
5. Me'yordan oshirib mol boqishning shuvoq-barra o'tli yaylov larga ta'siri?
- A. Shuvoq- singren bilan almashadi  
B. Shuvoq- qandim bilan almashadi  
D. Shuvoq- cho'g'on bilan almashadi  
E. Barcha javoblar to'g'ri
6. Yaylov inqirozida qanday o'simlik guruhining miqdori keskin kamayib ketadi?
- A. Efemerlarning  
B. Butalarning  
D. Yarim butalarning  
E. Sho'ra o'tlarning
7. Shuvoq -barra o'tli yaylov larda yetarli darajada mol boqilmaganda ozuqaviy zahira necha s/ga ni tashkil etadi?
- A. 0,5-1,0  
B. 2,0-2,5  
D. 0,5-3,0  
E. 0,5
8. Shuvoq -barra o'tli yaylov larda yetarli darajada mol boqilganda ozuqaviy zahira necha s/ga ni tashkil etadi?
- A. 0,5-1,0  
B. 2,0-2,5  
D. 0,5-3,0  
E. 0,5
9. Shuvoq -barra o'tli yaylov larda me'yordan oshirib mol boqilganda ozuqaviy zahira necha s/ga ni tashkil etadi?
- A. 0,5-1,0  
B. 2,0-2,5  
D. 0,5-3,0  
E. 0,5
10. Shuvoq -barra o'tli yaylov larda me'yordan o'ta oshirib mol boqilganda ozuqaviy zahira necha s/ga ni tashkil etadi?
- A. 0,5-1,0  
B. 2,0-2,5  
D. 0,5-3,0  
E. 0,5

## 27-mashg'ulot. Tabiiy yaylovlар holatini yuzaki yaxshilash tizimi

**Mashg'ulot maqsadi:** Tabiiy yaylovlар holatini yaxshilash usullari va tabiiy yaylovlар holatini yuzaki yaxshilash tizimi to'g'risida tushuncha berish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Tabiiy yaylovlар holatini yaxshilash usullari va tabiiy yaylovlар holatini yuzaki yaxshilash tizimiga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, video lavhalar, video roliklar, slayd-shoullar, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Tabiiy yaylovlар holatini yaxshilash usullari va tabiiy yaylovlар holatini yuzaki yaxshilash tizimini jadvallar vositasida yoritish va yozdirish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish, talabalarni mustaqil topshiriqni bajarishi asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Tabiiy yaylovlар holatini yuzaki yaxshilashda yaylov o'simlik qoplami sezilarli darajada saqlab qolinadi va tez samara beradigan tadbirlar amalga oshiriladi.

Tabiiy yaylov va pichanzorlarni meliorativ holatini yaxshilashdan maqsad chorva mollarini mo'l ozuqa bilan ta'minlashda tabiiy o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va sifatlari mo'l hosil olishi uchun mo'tadil sharoit yaratib borishdir.

Tabiiy yaylov pichanzorlarni melioratsiya qilish 2 ga bo'linadi:

1. Tabiiy yaylov va pichanzorlarni yuza yaxshilash tadbirlari.
2. Tabiiy yaylov va pichanzorlarni tubdan yaxshilash tadbirlari.

Yuza yaxshilash tadbirlari yaylov va pichanzorlarni joriy, ya'ni foydalinish davomida ularning ayrimlari o'zlashtirilib boriladi. Bunda katta harajat va uzoq muddat talab qilinadigan tadbirlar o'tkazilmaydi, aksincha, tez samara beradigan tadbirlar amalga oshiriladi.

Tubdan yaxshilash tadbirlarida esa tabiiy yaylov va pichanzorlarni tubdan melioratsiya qilinadi, ya'ni ularda juda katta hajmda maxsus loyiha asosida qator meliorativ tadbirlar o'tkaziladi.

Yaylovlarni yuza yaxshilash tadbirlari quyidagilardan iborat:

1. Madaniy texnik tadbirlari.
2. Tuproqda namlikni saqlash tadbirlari.
3. Agrotexnik tadbirlari.

**Madaniy texnik tadbirlari:** tabiiy yaylov va pichanzorlar tarkibida o'suvchi chorva mollar tomonidan iste'mol qilinmaydigan butalar va

yarim butalardan, qurigan daraxt va shoxlardan, xarsang toshlardan, turli sanoat va madaniy chiqindilardan tozalash. Ular chorva mollarini boqishda pichanzorlarni o'tlarni o'rib olishga halaqt beradi.

**Yaylovlardni butalardan tozalash.** Chova mollari tomonidan iste'mol qilinmaydigan butalardan tozalash muhim ahamiyatga ega. Butalar turkumiga ildiz bo'g'zidagi poya diametri 6 sm gacha, bo'yisi esa 3 m bo'lgan o'simliklar kiradi.

Yaylovlardan butalarning qalinligi 4 guruhga bo'linadi:


- 1) juda kam 10 foizgacha maydonni egallagan;
- 2) kam 10-30 foiz;
- 3) o'rtacha 30-60 foiz;
- 4) qalin 60 foiz.

Yaylov va pichanzorlarni butazorlardan tozalash ishlari birinchi navbatda, tekis va kichik nishabli yerlarda amalga oshirilishi kerak. 25-30°C eroziyaga moyil yerlarda butalarni kesish taqiqlanadi, agar kesish zaruriyat tug'ilgan bo'lsa, u holda butazorlar polosalar bo'yicha tozalanadi.


Yaylovlardan tozalash ishlari 3 usulda amalga oshiriladi:

1. Qo'l qurollari yordamida tozalash.
2. Maxsus texnikalar bilan tozalash.
3. Kimyoiy usullar bilan tozalash.

Qo'l qurollari bilan tozalash ishlari butazorlar kam tarqalgan kichik maydonlarda, texnikalar yurishi qiyin bo'lgan joylarda bajariladi. Bunda butalar ildizi bilan kovlab olinadi. Maxsus texnikalar bilan butalarni kesish ishlari D-174 V, KAR-1,2 markali kesgich qurollari yordamida amalga oshiriladi. D-174 V kesgich quroli S-100 traktoriga moslashtirilgan bo'lib, 3,5 m kenglikka ega, KAR-1,2 markali kesgich quroli esa DT-57 yoki DT-75 traktoriga osma holda o'rnatilgan bo'lib, kesgich qurolining diametri 120 sm.



Rasm 5. Butalarni kesuvchi  
KAR-1,2 mashinasi;




Rasm 6.  
Butalarni yig'ishtirib olish mashina.

Butalarni kesish ishlari dalaning tashqi tomonidan ichki tomoniga qarab aylanma holda yoki dalaning bir chetidan boshlab kichik bo'laklar bo'yicha amalga oshiriladi.

Kesilgan shoxlarni yig'ishtirib olish uchun maxsus grabeldan foydalaniladi. Bu grabel DT-75 traktorining oldi tomoniga o'rnatilgan (6-rasm) bo'lib, kesilgan shoxlarni qator uyumlar holda to'playdi. To'plangan shoxlar yaylovlardan tashqariga aravalari yordamida tashiladi.

Butalari kesilgan maydonlarni ildiz va ildiz poyalardan tozalash uchun maxsus 3 burchakli og'ir borona qo'llaniladi (7-8-rasmlar).



Rasm 7. Ildiz va poyalarni tozalovchi osma borona.



Rasm 8. Ildiz va poyalarni tozalovchi tirkamali borona.

Boronalar ishlari ikki marta o'tkaziladi: dastlab dalaning uzunasi bo'ylab keyin esa ko'ndalangiga yurgiziladi. Butazorlardan tozalanayotgan maydonlarda daraxtlar bo'lsa, ularni ham ildizi bilan olib tashlash zarur. Buning uchun DT-75 yoki C—100 traktor buldozerlaridan foydalaniladi.

Bunda buldozer kuragi bilan daraxtning yer yuzidan bir metr balandligiga kuchli zarba beriladi, natijada daraxt egilib ildizlari ochiladi, keyin buldozer kuragini daraxt ildizining tub qismiga botirib uni sug'urib chiqaradi.

Buta va daraxtlardan tozalangan maydonlarga mavjud o'tlarning holatiga qarab yerga ishlov berish va o'tlarni ekish belgilanadi. Agar tozalangan maydonlarda o'tlar qoplami yetarlicha saqlangan bo'lsa, u holda faqat butalar kesib olingan yerlarga ishlov berilib o't ekiladi. Agarda tabiiy o't qoplamlari juda siyrak bo'lsa, u holda yerlarga bo'g'inlab ishlov berilib, o't urug'lari ekiladi.

**Kimyoiy usullar bilan tozalash.** Yaylov va pichanzorlarda o'suvchi butalarga qarshi efirlar va tuzlar eritmalaridan foydalaniladi. Bu eritmalar arboritsidlar ham deb yuritiladi. Hozirgi paytda asosan butil

efiri aminli va natriyli tuzlar (2.4—dixlorfenoksid uksus kislotasi, 2.4.5—traxlorfenoksid uksus kislotasi) qo'llaniladi.

Butil efiri jigarrang moysimon suyuqlik, tarkibida 40-50 % ta'sir qiluvchi modda bo'lib suv yoki dizel yoqilg'isi bilan aralash holda ishlatiladi. Me'yori - 3-5 kg/ga, preparat 100 l suvgaga aralashtiriladi. Alyumin tuzi suyuqlik bo'lib, tarkibida 40-50 % ta'sir qiluvchi modda bo'ladi. Sarf me'yori - 3-6 kg/ga, preparat 100 litr suvgaga aralashtiriladi. Natriy tuzi tarkibida 65-70 % ta'sir qiluvchi modda bo'lib, suv bilan aralashgan holda ishlatiladi. Bu preparatning sarf me'yori 4-5 kg/ga bo'lib, 150-200 litr suvgaga eritilib sepiladi. Bu preparatlar o'simlikning bargi va poyalari orqali so'rilib butun organizmlarga tarqaladi va ularda sodir bo'ladigan fotosintez va modda almashinish jarayonlarini buzadi. Natijada sekin-asta qurib qoladi.

Butil efiri butalarga eng tez ta'sir qiluvchi preparat hisoblanadi, qolgan preparatlar esa sekin ta'sir etadi. Yuqorida keltirilgan preparatlarning qo'llash muddati 1-marta bahorda, ya'ni o'simliklarda to'liq barg paydo bo'lganda havo harorati +20° C dan past bo'lgan davrda sepish kerak. Shamol va yog'ingarchilik bo'lib turgan davrlarda preparatni sepish taqiqlanadi. Preparatlarni ikkinchi marta sepish may oyining oxirida o'tkaziladi. Butalar to'liq qurib bo'lgandan keyin ular grabellar yordamida yig'ishtirib olinadi.

**Yaylov va pichanzorlarni toshlardan tozalash.** Tog', tog' oldi, to'qay-yaylov va pichanzorlarda yer va qor ko'chish, sel oqimi natijasida ko'plab har xil olchamdagagi toshlar to'planib qoladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bir hektar yaylovda 50 m<sup>3</sup> va 100 m<sup>3</sup> gacha tosh to'planishi aniqlangan. Yaylov va pichanzorlarni toshlar bilan qoplanganlik darajasi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Kuchsiz - 5-20 m<sup>3</sup>/ga

O'rtacha - 20-50 m<sup>3</sup>/ga

Kuchli - 50-100 m<sup>3</sup>/ga

Juda kuchli - 100 m<sup>3</sup>/ga

Toshlar katta kichikligi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

Kichik - diametri 0,3 m


O'rtacha - diametri 0,3-0,6 m

Katta - diametri 0,6-1 metr

Yerning xarsang toshlari diametri 1 metr. Toshlar yer yuzasida tuproq bilan yarim ko'milgan va to'liq ko'milgan holda bo'ladi. Yaylov

va pichanzorlarni toshlardan tozalash tadbirlari maxsus mashinalar yordamida har xil usullar bilan amalga oshiriladi.


Katta va yirik xarsang toshlar maxsus tosh tergich KR-6 (9-rasm) va universal tosh tergich, bo'yiga va ko'ndalanglarni tozalagich D-695 mashinalari yordamida kovlab terib olinadi, maxsus aravachalar yordamida daladan tashqariga olib chiqiladi (10-rasm).



**Rasm 9. KR-6 markali mashina**

Yirik xarsang toshlar esa zanjirlarga bog'lanib traktorlar bilan tortib daladan tashqariga chiqariladi.

Kichik va o'rta diametrli toshlar UKP-0,6 (universal kamneuborochnaya, pritsepnaya) mashinasi bilan terib olinadi hamda uning pritsepi yordamida daladan tashqariga olib chiqiladi (11-rasm).



**Rasm 10. Tosh tashigich aravacha**

**Rasm 11. Katta toshlarni zanjir bilan chiqarish**

Yaylov va picanzorlarni o'rtacha va katta toshlardan mexanizmlar yordamida tozalash tadbirlari va quruq bo'lgan davrlarda yoz va kuz oylarida o'tkaziladi. Toshlar bilan kuchsiz va o'rtacha qoplangan hamda toshlarning o'lchami 0,3 metrdan kichik bo'lgan joylarda ularning qo'l kuchi bilan ham terib olish mumkin.

**Tuproqda namlikni saqlash tadbirlari.** O'zbekistonning barcha mintaqalaridagi tabiiy yaylov va pichanzorlardagi o'simliklar atmosfera yog'inlari hisobiga o'sib rivojlanadi. Atmosfera yong'inlari mintaqalar bo'yicha har xil miqdorda bo'lib, eng kam miqdori sahro mintaqalariga, (100-120 mm/yil) eng ko'p miqdori esa tog', tog' oldi mintaqalariga (350-600 mm) tushadi.

Ishlov berilgan tuproqlarda nam uzoq saqlanadi, bug‘lanish keskin kamayadi. Yaylov va pichanzorlarda tuproqdagi namlikni saqlash maqsadida boronalash, diskalash, yumshatish, tilmalash kabi tadbirlar o‘tkaziladi. Tog‘ oldi va adir mintaqalarida qiyaligi  $20^{\circ}$  C bo‘lgan yerlarda boronalash, diskalash, chuqr yumshatish va tilmalash tadbirlari yerning qiyaligiga nisbatan ko‘ndalang o‘tkazilishi kerak. Chuqr yumshatgich va tilmalash tadbirlari yog‘ingarchilik davri tugaganidan keyin kuzda o‘tkazilishi ma‘qul.

Tekislik mintaqalarida boronalash va diskalash tadbirlari erta bahorda o‘tkaziladi. Tekislik mintaqalarida va quyi adirlarda namlikni ko‘paytirish uchun egatlар olinadi. Buning uchun dastlab yumshatiladi, keyin esa kengligi 60-120 sm, chuqurligi 20-25 sm bo‘lgan egatlар olinadi. Yumshatish va egat olish tadbirlari kuzgi yosingarchilik boshlanishi bilan amalga oshiriladi. Olingan egatlarda qishki va bahorgi qor-yomg‘ir suvlari to‘planib, yerga singib tuproqda namlik zahirasi ko‘payadi, bu esa o‘simliklar urug‘ini unib chiqishini va me‘yorida o‘sib rivojlanishini ta‘minlaydi.

27-Jadval

**Tuproq namligini saqlash tadbirlari**

Tadbir turi	Tuproqning mexanik tarkibi va o‘simlikning holati, o‘tkazish muddati	Ishlov berish chuqurligi, sm	Ish qurollari	Traktor markasi	O‘tkaziladigan tadbir natijasida hosilning ko‘payishi, %
Boronalash (bir tomonlama)	Tog‘ oldi, adir nishabligi 20 % gacha yengil va o‘rtा mexanik tarkibli, o‘simliklar qoplamи kam, yog‘ingarchilik davri tugagandan keyin	8-10	ZBP-0,6A	MTZ-80	20-30
Boronalash (bir tomonlama)	Tog‘ oldi, adir nishabligi 20 % gacha mexanik tarkibi yuqoridagidek, o‘simliklar qoplamи o‘rtacha, chimlangan, erta bahorda	8-10	ZBP-0,6A	MTZ-80 T-150	20-30

	va yog‘ingarchilik tugagandan keyin				
Boronlash (ikki tomonlama)	Tekislik mintaqasi tuproq qatlami kam, qumoq, yengil va o‘rtा mexanik tarkibli	5-6	ZBP 0,6A	MTZ-80 T-150	15-20
Diskalash (ikki tomonlama)	Tog‘ oldi, tuproq qatlami qalin bo‘lgan yengil va o‘rtа tarkibli tuproqlarda 2-3 yilda 1 marta	10-15	BDT-3 BDT-7	T-150 K-701	15-20
Kultivatsiya (yuza yumshatish) polosalar bo‘yicha	Tog‘ oldi va to‘qay, o‘rtа va og‘ir mexanik tarkibli, chimzor, 4 yilda 1 marta	15 18	KPS-4 ChKU- 4	T-150 MTZ- 80	20-30
Chuqur yumshatish	Tekislik sho‘rxok va taqir yerdarda har yili kuzda	35-45	RS-1,5 GR-2,7	T-150 K-701	25-30
Tilmalash (shelevaniya) va boronalash	Eroziyaga uchramagan tog‘ oldi, adir va tekisliklarda tilmalash oralig‘i 70-120 sm har 4 yilda 1 marta, tilmalashdan keyin boronalash	45-70	ShN-2- 140	T-150 K-701	35-40

**Agrotexnik tadbirlar.** Agrotexnik tadbirlar barcha mintaqalardagi yaylov va pichanzorlarda o‘tkazilib, ular quyidagilardan iborat:

1. Yaylov o‘tlarini ekish uchun yerni tayyorlash.
2. Yaylov va picianzorlarda kamayib ketgan o‘simlik urug‘larini ekish.
3. Mineral va organik o‘g‘itlar bilan oziqlantirish.
4. Begona va zaharli o‘tlarga qarshi kurash.

Yaylov o‘tlarini ekish uzoq yillar davomida uzlusiz foydalanish, suv va shamol eroziyasi, sel oqimi, sho‘rlanish va botqoqlanish ta‘sirida ularning ayrim bo‘laklarida yoki butun qismida o‘tlar kamayib ketadi,

ba'zan to'liq yo'qolib, yerlar tosh bo'lib qoladi. Bunday yerkarda butalardan va toshlardan tozalangan yaylovlarda yerni ekishga tayyorlash tadbirlari o'tkaziladi. Yerni ekishga tayyorlash **shudgorlash**, **discalash**, **boronalash**, **mola bosish** tadbirlaridan iborat bo'liadi.



Rasm 12. Butazorlarni shudgorlovchi  
2 korpusli PKB2-54 markali plug



Rasm 13.  
Og'ir diskali borona BN-2,2

Yerni shudgorlashdan oldin yaylovlardagi mayjud chuqurliklar va kichik bo'laklar buldozer yordamida tekislanadi. Chimli yerni shudgor qilish uchun P-5-35 m, PN-4-35, PKB-2-54 markali pluglardan foydalaniladi. Bu pluglar DT-75 traktorlariga tirkalib ishlataladi (12-rasm). Ularning korpuslariga chim qirqarlar o'rnatilgan bo'lib, chuqurligi 24 sm gacha bo'ladi. Shudgorlash kuzda zagon usulida (40-60 metr kenglikda) yoki aylanma holda amalga oshiriladi. Shudgor chuqurligi 25-35 sm dan iborat bo'lishi kerak.

Yer shudgorlangandan keyin o't ildizlarini va chimni maydalash uchun dastlab diskli keyin esa oddiy borona qilinadi (12, 13-rasmlar). Tuproqning mexanik tarkibi yengil qum, qumloq bo'lgan yerkarda shudgor qilinmasdan faqat yumshatish va mola bosish tadbirlari o'tkaziladi. Tayyor bo'lgan yerga yaylov o'tlarning urug'lari ekiladi.

**Yaylov o'tlarini mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish.** O'zbekistonning barcha mintaqalaridagi yaylovlarning tuproqlari tabiiy azot, fosfor va kaliy hamda gumus bilan yetarlicha ta'minlanmagan. Shuning uchun yaylovlarni mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish ijobjiy natija beradi. Yaylov va pichanzorlarga azotli o'g'itlardan ammiak eritmasi, alyuminiy sulfat, fosforli o'g'itlardan superfosfat, kaliyli o'g'itlardan esa kaliy xlorid berish mumkin. Mineral o'g'itlar berish me'yorlari yaylovnning dengiz sathidan balandligiga, tabiiy namlik bilan ta'minlanish darajasiga, joyning rel'yefiga, o'simliklarning tarkibiga va yaylovlardan foydalanish usullariga bog'liq bo'ladi.

O'simliklaraing mineral o'g'itlar bo'yicha talabi tekislik mintaqasidan tog' mintaqasi tomon borgan sari, ya'ni dengiz sathidan balandligi oshgan sari kamayib boradi. Mineral o'g'itlar tabiiy namlik bilan kam ta'minlangan joyning qiyaligi 100 dan katta bo'lgan janubiy

va sharqiy yonbag'irlarda, kichik qiyalik va tekis yerlarga nisbatan yuqori samara beradi. Yaylovlardacha va pichanzorlarda tarkibida g'allasimon o'tlar ko'p bo'lgan sharoitlarda azotli o'g'itlar, dukkakli o'simliklar ko'p bo'lgan yerdarda esa fosforli va kaliyli o'g'itlar nisbatan ko'p talab qilinadi. Mineral o'g'itlarning (NPK) o'zaro nisbatlari yaylov va pichanzorlarda o't turlariga bog'liq holda quyidagicha bo'lishi aniqlangan:

G'allasimon-dukkakli, g'allasimon-turli, o'tli yaylov va pichanzorlarda 1:0,5:0,3; g'allasimon o'tli yaylov va pichanzorlarda 1:0,3:0,2; dukkakli-g'allasimon yaylov va pichanzorlarda 1:1,5:1 yoki 1:1:0,5 nisbatda bo'lishi kerak.

Tabiiy yaylov va pichanzorlarni o'g'itlash me'yordagi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D = \frac{100V - PKK}{Kus}$$

Bunda: D-mineral o'g'itlar me'yori (fizik tuk hisobida);

V-rejalarshirilgan hosil bilan oziqa elementlarining olib chiqib ketilishi, kg/ga;

P -tuproq tarkibida o'simliklar uchun zarur bo'lgan shakldagi moddalarning miqdori, kg/ga.

Kk-tuproq tarkibidagi oziq moddalardan o'simliklarning foydalanish koeffitsienti, %;

Ku -o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarni o'simliklar tomonidan foydalanish koeffitsienti, %;

S -o'g'itlar tarkibida ta'sir qiluvchi modda miqdori, %.

Tabiiy yaylov va pichanzorlarni mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishning yaylov tiplariga, namlik bilan ta'minlanish darajasiga va o'simlik qoplamiga bog'liqligi quyidagi jadvalda keltirilgan:

#### 28-Jadval

Tabiiy yaylov va pichanzorlarga mineral o'g'itlar qo'llash me'yordari (sof holda, kg/ga)

Mintaqalar	Tuproqning namlanish darajasi	O'simlik turlari	Azotli	Fosforli	Kaliyli
Past tog' va adirlar	Ta'minlangan	G'allasimonlar, boshqa turli o'tlar Dukkaklilar g'allasimonlar, boshqa turli o'tlar	60-90 30	40-60 60-90	30 40

	Kam ta'minlangan	G'allasimonlar, boshqa turli o'tlar Dukkaklilar g'allasimonlar, boshqa turli o'tlar	60-90 30	40-60 30-40	30 30
Tog'	Ta'minlangan	G'allasimonlar, boshqa turli o'tlar Dukkaklilar g'allasimonlar, boshqa turli o'tlar	60-90 30	40-60 60-90	30 30
	Kam ta'-minlangan	G'allasimonlar, boshqa turli o'tlar g'allasimonlar boshqa turli o'tlar	30-45 30	30-40 30-40	30 30
Baland tog' yaylovlari	Ta'minlangan	G'allasimonlar, boshqa turli o'tlar Boshqa turli o'tlar g'allasimonlar	45-60 30-45	30-40 30-40	30 30
To'qay	Ta'minlangan	Turli o'tlar, g'allasimonlar	60-90	60	

Tabiiy yaylov va pichanzorlarga mineral o'g'itlar har 2-3 yilda bir marta berilishi kerak. Fosforli va kaliyli o'g'itlar asosan kuz va qish oylarining boshlarida, azotli o'g'itlar esa erta bahorda beriladi. Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilgan yaylov va pichanzorlarda tabiiy namlik bilan ta'minlanish miqdoriga qarab 20-50 s/ga quruq pichan hosil olish mumkin.

**Begona o'tlarga qarshi kurash choralari.** Yaylov va pichanzorlarda o'suvchi begona zaharli va zararli o'tlarning ko'payib ketilishini oldini olish tadbirlari:

1. Tarqalishning oldini olish tadbirlari.
2. Qarshi kurash tadbirlari.

Oldini olish tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- 1) yaylov va pichanzorlardan tashqari hududlarda o'suvchi begona zaharli va zararli o'tlarning urug'i pishib yetilmasdan o'rib tashlash;

- 2) yaylov va pichanzorlarga ekiladigan o'simliklarning urug'larni begona zaharli va zararli o'tlar urug'laridan tozalash;
- 3) yaylovlarda chorva mol turlarini navbat bilan boqish (masalan, yirik shoxli mollar yaylovlardagi ayrim o't turlarini, qo'ylar, echkilar, otlar boshqa bir o't turlarini iste'mol qiladi, natijada begona o'tlar keskin kamayishiga olib keladi);
- 4) yaylov va pichanzorlarda o'zaro navbat bilan foydali yaylov o't turlarini pichan uchun o'rib olish.

Yaylovlarda chorva mollar sonining me'yordidan ortiqcha boqilishi, sernam davrlarda mollarni boqish, tuproq eroziyasi kabilari ham yaylov o'tlarining kamayishiga, begona o'tlarning ko'payishiga sababchi bo'ladi.

**Qarshi kurash tadbirlari.** Ular ham 2 ga bo'linadi:

- 1) agrotexnik kurash choralar;
- 2) kimyoviy kurash choralar.

Agrotexnik kurash choralar quyidagilardan iborat: yaylov va pichanzorlarda begona, zaharli va zararli o'tlar kam tarqalgan yerlarda ularni qo'l kuchi bilan chopib tashlash; begona, zaharli va zararli o't turlari ko'p tarqalib ketgan yaylov va pichanzorlarda ularni bir mavsumda 2 marta o'rib olish (bunda erta bahorgi o'simliklar birinchi marta shoxlanish va shonalash davrida, ikkinchi marta yoz oyida, ya'ni kechki o'tlar shoxlanish va shonalash davriga kirganda o'rib olinadi); yaylov va pichanzorlarni o'g'itlash boronalash, diskalash yo'li bilan qimmatli ozuqabop o'simliklarga sharoit yaratib, ularni begona o'tlarga nisbatan faol o'sishini ta'minlash; o'simliklari kamaygan yaylov va pichanzorlarda qimmatli ozuqabop o'simlik urug'larini ekish.

**Kimyoviy kurash choralar.** Yaylov va pichanzorlardagi begona, zaharli va zararli begona o'tlarga qarshi tanlab ta'sir qiladigan gerbitsitlar qo'llaniladi. Bunday gerbitsitlarga natriy va ammiakli tuzlar hamda efir fenoksid uksus kislota (2,4-D, 2M- 4X) lar kiradi. Ushbu gerbitsitlar asosan 2 pallali o'simliklarga kuchli ta'sir ko'rsatadi, g'allasimon o'simliklarga esa kuchli ta'sir ko'satmaydi. G'allasimon begona zaharli va zararli o'tlarga qarshi ko'proq sistemali yoki kontaktli ta'sir qiluvchi gerbitsitlardan foydalananiladi (dalapon, region va boshqalar).

- E. 5 ta
8. Respublikamizning eng yirik qumli cho'l regioni qanday nomlanadi?
- A. Qizilqum
  - B. Nurota
  - C. Yozyovon
  - D. Nishon
9. Eng yirik qumli cho'l Qizilqumming necha % dan ortiqroq qismi qumli cho'llardan iborat?
- A. 60 % dan
  - B. 80 % dan
  - C. 50 % dan
  - D. 20 % dan
10. Qumli yaylovlarni yuzaki yaxshilashda 2 masala nazarda tutiladi:  
Bular qaysilar?
- A. 1 – dan: yaylovning ozuqa zahirasi oshadi; 2- dan, ozuqa sifati (to'yimliligi) yaxshilanadi.
  - B. 1 – dan: yaylovlarini o'g'itlash osonlashadi: 2- dan: muhitning kompleks sharoitlari egallanadi.
  - C. 1 – dan: mavsumiy rivojlanish ritmi: 2- dan: foydalangandan keyingi qayta tiklanish qobiliyati yaxshilanadi.
  - E. 1 – dan: sifatiy o'zgarishlar ko'zda tutiladi: 2- dan: ozuqa massasi bilan qiyoslanadi.

## 28-mashg'ulot. Qorako'chilik yaylovlari tubdan yaxshilash usullari

**Mashg'ulot maqsadi:** Tabiiy yaylovlari holatini yaxshilash usullari va qorako'chilik yaylovlari tubdan yaxshilash tizimi to'g'risida tushuncha berish.


**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Tabiiy yaylovlari holatini yaxshilash usullari va qorako'chilik yaylovlari tubdan yaxshilash tizimiga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Tabiiy yaylovlari holatini yaxshilash usullari va qorako'chilik yaylovlari tubdan yaxshilash tizimi jadvallar vositasida yoritish va yozdirib borish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish, mustaqil topshiriqni bajarish asosida talabalarni baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Qorako'chilik yaylovlari tubdan yaxshilashda juda katta hajmda maxsus loyiha asosida qator meliorativ tadbirlar o'tkaziladi.

Tabiiy yaylov va pichanzorlarni suv, shamol eroziyalaridan, sel oqimidan, yerni ko'chishi, surilishi, qum ko'chishi, yaylovlarning sho'rланishi, botqoqlanishi kabi salbiy oqibatlardan himoya qilish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, respublikamiz hududi bo'yicha mo'tadil ekologik muhitni vujudga keltirishda asosiy omil hisoblanadi.

**Suv eroziyasiga qarshi kurash tadbirlarini rejalashtirish.** Tog', tog' oldi va adir mintaqalarida har bir suv yig'ish havzasida uchun alohida suv eroziyasiga qarshi kurashish, yaylov va pichanzorlar uchun alohida ishlab chiqilgan.



14-rasm. Suv yig'ish havzasida eroziya hududlarining joylashish tizimi:

P3-Suv ayirgich oldi hududi. S3 -To'siq oldi hududi. G3-Gidrografik hudud. Dr-O'zani vuviladigan hudud. Br-Qirg'oqlari yuviladigan hudud. L-Kichik jiarliklar. A-To'siq oldi hududning tepe qismi. B-Shu hududning quyi qismi.

Eroziyaga uchragan suv yig'ish havzalarini quyidagi 3 kichik hududlarga bo'lish mumkin:

1. Suv ayirgich oldi hududi.
2. To'siq oldi hududi.
3. Gidrografik hudud.

Eroziyaga uchragan suv yig'ish havzasida gidrografik hudud maydoni o'rtacha 15 % ni, to'siq oldi hududi 30-35 % ni, suv ayirgich oldi hududi esa 50 % maydonni ishg'ol qiladi. Gidrografik hududga jarlik, to'siq va jar vodiysi hamda uning ichidagi jilg'a kiradi (qiyaligi 0,15). To'siq oldi hududiga ikki tomondan gidrografik hudud tutashgan bo'lib, (qiyaligi 0,05-0,15) shu joylardan tuproq yuvilishi vujudga keladi. Suv ayirgich oldi hududning qiyaligi 0,05 bo'lib, tuproqning yuvilish jarayoni sust bo'ladi, lekin suv oqimi shu hududda vujudga keladi, quyi hududlarda eroziya jarayonini kuchaytirishga sababchi bo'ladi. Bu hududlar qishloq xo'jaligining turli sohalarida foydalaniladi. Masalan, suv ayirgich oldi hududlarida lalmi dehqonchilik qilish va yaylov sifatida foydalanish mumkin. To'siq oldi hududlarini yaylov va pichanzor sifatida foydalanish mumkin. Gidrografik hududlarda esa qalin o'rmon ixota daraxtlari bo'ladi va qisman pichanzorlar barpo qilish mumkin. Jilg'aning quyi qismida, ya'ni cho'kindilar to'planadigan yerlarda tolning barcha turlari ekiladi. Yuqorida keltirilgan hududlaming har birida alohida suv eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari qo'llaniladi.

**Tog' va adir yaylovlarida suv eroziyasi, sel oqimi va yerning ko'chishini oldini oiish hamda yaylovlar barpo qilish texnologiyasi.** Tog', tog' oldi va adir mintaqalarida sodir bo'ladigan suv eroziyasi, sel oqimi, yer ko'chish jarayonlarini oldini olish va qarshi kurashish choralar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Agroo'rmon melioratsiya tadbirlari.
2. Gidrotexnik tadbirlar.
3. Agromeliorativ tadbirlar.

**Agroo'rmon melioratsiya tadbirlari.** Bunda turli daraxtlar ishtirokida yerning qiyaligi bo'yicha suv oqimini rostlovchi ixota o'rmonzorlari, yuvilib ketayotgan jarlik va jilg'alarni hamda yer ko'chish yoki surilishni himoya qiluvchi ixota o'rmonzorlar barpo qilinadi. Buning uchun joyning sharoitiga qarab quyidagi daraxt turlari tanlab ekiladi:

Baland tog' yaylovlarida, ya'ni dengiz sathidan 2000-3000 m balandliklarda asosan, archa turkumiga mansub nina bargli daraxtlar

mojevenik turlari, turkiston archasi, zarafshon archasi, saur archasi, turkiston qayini, butalardan esa pista, bodom va boshqalarni ekish mumkin. Dengiz sathidan 1500-2000 m balandliklarda joylashgan tog' yaylovlarida agar, eman, chinor, shumtol; mevali daraxtlardan yong'oq, olma, nok, o'rik, xandon pista, shirin bodom, tog' olchasi; butalardan skumpiya, sumax, marjondaraxt va boshqalarni ekish mumkin.

Tog' oldi va adir yaylovlarini himoya qilish uchun (dengiz sathidan 700-1500 m) esa qayrag'och, o'rik, jiyda, na'matak, bodom va pista daraxtlarini ekish tavsiya qilinadi. Baland tog', tog' va tog' oldi, adir yaylovlarida o'rmon ixota

daraxtlari yerning qiyaliklarda polosalar bo'ylab joylashtiriladi. O'rmon ixota daraxtlarini polosalar bo'ylab joylashtirish uchun dastlab pog'onalar (terrasalar) vujudga keltiriladi. Pog'onalar qiyaliklar bo'ylab o'zanning kattaligi (umumiy suv yig'ish maydoni) jooning nishabligiga bog'liq bo'ladi. Bunda yig'ilib kelinadigan suvning sati pog'ona ko'tarmasining qirrasidan doimo 10-15 sm pastda bo'lishi hamda to'plangan suv yerga shimilib va pog'ona uzunligi bo'yicha taqsimlanib ketishi kerak. Pog'onalar orasidagi masofalar yonbag'irning qiyaligiga va tuproq turining tarkibiga bog'liq holda quyidagicha bo'lishi kerak.

### 31-Jadval

Pog'onalar kengligi, m

Joyning qiyaligi	Tuproq tarkibi	
	O'rtal va og'ir	Yengil
0,02	38	50
0,03	30	41
0,04	27	38
0,05	26	35
0,06	25	30
0,08	24	26
0,10	20	24
0,12	18	22

Qiyaligi 0,02-0,12 m bo'lgan yerlarda nishabli pog'onalar, qiyaligi 0,12-0,25 m gacha bo'lgan yerlarda yotiq va qiyaligi 0,25 m dan katta bo'lgan yerlarda ariqli pog'onalar olinadi.


### 32-Jadval

Pog'onalardagi ixota o'rmonzorlar oraliq'idagi masofalar


Qiyaliklar gradusi	Nishablik	Oraliqdagi masofa, m
2-4	0,03-0,07	350-400
4-7	0,07-0,12	250-350
>7	>0,12	150-250



15-rasm. Qiyaligi  $15^{\circ}$  bo'lgan yerlarda o'rmon daraxtlari, suv to'sar ariqlar, yaylov-pichanzorlarni joylashtirish tizimi.



16-rasm. Pog'ona turlari:  
A—nishabli pog'ona; B -yotiq pog'ona; D -ariqli pog'ona.



17-rasm. Jilg'a va jarliklarni himoya qilish.

Pog'onalarga 2 qatordan 6 qatorgacha daraxtlar o'tqaziladi, daraxtlarni joylashtirishda chet tomonlariga butalar o'rtasiga esa baland bo'yli daraxtlar ekiladi.

Ixota polosalari orasidagi masofalarga ishvlov berilib, ko'p yillik o't aralashmalaridan yaylovlar birga hosil qilinadi (15-rasm).

Jar va jilg'alarni yuvilib ketishdan himoya qilish uchun maxsus agroo'rmon tadbirlari o'tkaziladi. Buning uchun jilg'a va jarliklarning old qismidan 4-5 m, qirg'oqlaridan esa har 5-10 m masofada yarim aylanma shaklidagi ariq va marzalar bilan o'rav olinadi. Marzalar va ariqlar suv oqimi tezligini pasaytirib maxsus inshootlar orqali jilg'aga tushiriladi (17-rasm).

Marzalar va ariqlar bo'ylab tez o'suvchi daraxt va butalar ekiladi. Qatordagi daraxtlar orasidagi masofa 0,4-1 m, qatorlar orasidagi masofa esa 0,8-1,5 m bo'ladi.

**Gidrotexnik tadbirlar.** Tog' va tog' oldi mintaqalaridagi yaylovlarni suv eroziyasidan, jilg'a, jarliklarni ko'payib borishidan va yerning ko'chishi, surilishidan himoya qilish maqsadida gidrotexnik inshootlar barpo qilinadi. Gidrotexnik inshootlar *suv oqimini yutuvchi, suvni oqizib yuboruvchi, suv tutuvchi, suv tezligini kamaytiruvchi inshootlarga* bo'linadi. Suv oqimini yutuvchi (raspiliteli stoka) inshootlar o'rmon daraxtlari bo'limgan, yer yuzasida o'simlik qoplami kam bo'lib eroziya kuchaygan tik qiyalik yerlarda qo'llaniladi.

Suv oqimini yutuvchi kanavalar oqim yo‘nalishiga nisbatan 45° da olinadi, bunda zovur chuqurligi 0,4-0,6 m, marza balandliklari 0,3-0,5 m, uzunligi 10-40 m bo‘ladi. Bunday suv yutuvchi to‘silalar yerning nishabligi bo‘yicha har 50-100 m da barpo qilinadi. Ular DT - 75, S-80, S-100 traktorlariga tirkalgan plantajli bir korpusli plug bilan amalgalashiriladi. Suv oqizib yuboruvchi inshootlar tik qiyaliklarda vujudga kelgan suv oqimini to‘sib qoluvchi va oqimni suv yig‘ishtirgich inshootlariga yoki suv o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan jinsli yerlarga oqizib yuborish uchun xizmat qiladi.


Suv oqizib yuboruvchi inshootlarni barpo qilishda, dastlab nishabligi, 0,003-0,005 bo‘lgan va kengligi 4-8 m bo‘lgan supalar (terrassalar) olinadi, supaning o‘rtasidan uch burchakli yoki trapetsiya shaklida kanava olinadi. Kanavalarning chuqurligi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan oqim miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Suv oqizib yuboruvchi inshootlarning har birining uzunligi 200-300 m bo‘lishi kerak.

Suv tutuvchi inshootlar asosan jilg‘a va jarliklarni kengayishidan himoya qilish uchun foydalaniladi. Ular jilg‘alarning oldi tomonida yoki ikki jilg‘alar o‘rtasida barpo qilinadi.

Suv tutuvchi inshootlardan keladigan suv havzasiga va yerning nishabligiga bog‘liq bo‘ladi. Yerning nishabligi 2° -6° oqim vujudga kelishi maydoni 5-20 hektar bo‘lgan yerlarda qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan samara beradi. Suv tutuvchi inshootlarning chuqurligi 0,8-3 m, kengligi 2,5 m, uzunligi 200-500 m bo‘ladi.


Kuchli jala quyishi, qor va muzliklarning jadal erishi natijasida yerning surilishidan, ko‘chishidan himoya qilish uchun ham qiyaliklarda suv hajmini kamaytirish maqsadida suv tutuvchi marza va kanavalar qaziladi. Suv tutuvchi inshootlarning qiyaligiga ko‘ndalang holda olinib, ularning birinchi qatori jarlik, jilg‘a yoki yerning ko‘chish xavfi bo‘lgan joydan 10-15 m tepalikdan olinadi, keyingilari esa yerning qiyaligiga, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan suv oqimiga va rejalashtirilgan suvni tutish miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Jilg‘alar o‘zani yuvilib ketishdan himoya qilish uchun suv tezligini kamaytiruvchi inshootlar barpo qilinadi. Bu inshootlar katta jilg‘alarda beton, tosh, yog‘och materiallaridan qilinadi. Kichik jilg‘alarda esa tol yoki terak navlaridan yasalgan qoziq to‘silardan foydalaniladi.



18-rasm. Suv tutqich kanava va marzaning ko‘ndalang kesimi.

**19-rasm. Jarlik o'zani  
bo'ylab to'siqlarni joylashtirish  
tizimi.**



To'siqlar jilg'aning o'zani bo'ylab joylashtiriladi, to'siqlar orasidagi masofalar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Z = \frac{h}{i},$$

Bunda: Z - to'siqlar orasidagi masofa, m;

h - to'siq balandligi, m;

i - jilg'aning nishabligi.

**Agromeliorativ tadbirlar.** Yaylov va pichanzorlarning rel'yefi va qiyaligini hisobga olgan holda, suv oqimini tutish, tuproqda namlik zahirasini ko'paytirish va uzoq muddat saqlash uchun bir qator yerga ishlov berish tadbirlari o'tkaziladi.

Morgan F.T. (33-jadval) va boshqa olimlarning tadqiqotlari bo'yicha har xil qiyalik yerlarda haydov turlari tuproqning yuvilishiga turlicha ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

**33-Jadval**

**Har xil qiyalik yerlarda haydov turlarining tuproq yuvilishiga ta'siri**

Haydash usuli	Tuproqning yuvilishi					
	Yuvilish chuhurligi, mm			Yuvilib ketishi, t/га		
	4°C	6°C	8°C	4°C	6°C	8°C
1. Tekis (oddiy) haydash	5,8	15,6	18,7	1,6	11,8	23,6
2. Pushta qilib haydash	3,4	14,6	17,0	1,1	11,0	17,0
3. Chuqur haydash	2,9	14,2	16,1	0,6	6,2	14,2
4. Buramali haydash	0,0	18,7	16,5	0,0	13,6	21,6
5. Har 10 m da tilmali haydash	0,8	12,7	15,8	0,6	1,8	8,0
6. Uyalatib haydash	0,0	12,7	12,9	0,0	7,4	11,0

Pushta hosil qilib haydash usuli qiyaligi 0,04 bo'lgan yerlarda yaxshi natijani beradi. Bunda oddiy haydov plugining oxirgi korpusiga uzaytirilgan otvol KV-1 o'rmatiladi. Bu ish quroli har 1,4 metrda 20 sm balandlikda marza (uvat) hosil qilib suv oqimini to'sadi va yerga singishini ta'minlaydi. Uyalab, kalta egatlар hosil qilib haydash LOD-IO уяя hosil qiluvchi agregat yordamida amalga oshirilib, bu usul asosan murakkab qiyalik joylarda (0,04-0,10) qo'llaniladi. Bunda har bir getkar

maydonda 11-13 ming uya vujudga kelinib, ularda 300 m<sup>3</sup>/ga suvni ushlab qolish mumkin.

Shudgorning tolmalash usuli PN-4-35 plugiga bitta yoki ikkita yerni tilmalab ketadigan quroq o'rnatiladi. Bu qurollar yerni 70 sm chuqurlikda yoriqlar hosil qilib suvni to'planishiga imkon beradi. Bu tadbirni KPG - 250 agregat yordamida ham bajarish mumkin.

### 34-Jadval

#### Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!

Tog‘, tog‘ oldi va adir mintaqalarida o’tkaziladigan tadbirlari			
Agroo‘rmon tadbirlari	melioratsiya	Gidrotexnik tadbirlar	Agromeliorativ tadbirlar

#### Nazorat uchun savollar

1. Yerlami eroziyadan va sel oqimidan saqlash tadbirlariga nimalar kiradi?
2. Tog‘ va adir yaylovlarida suv eroziyasi, sel oqimi va yerning ko‘chishini oldini olish tadbirlari nimalardan iborat?
3. Agroo‘rmon melioratsiya tadbirlari to‘g‘risida so‘zlab bering.
4. Gidrotexnik tadbirlar o‘z ichiga qanday tadbirlarni oladi?
5. Agromeliorativ tadbirlar-chi?

#### 28-mavzuga doir test savollari

1. N.L.Morozov (1980) ma‘lumotlari asosida 100 kg yaylov pichani tarkibida erta bahorda qancha ozuqa birligi bo‘ladi va qishda qancha ozuqa birligiga tushib qoladi?
  - A. bahorda 80-90, qishda 18,3.
  - B. bahorda 30-40, qishda 27,3.
  - C. bahorda 50-60, qishda 10,3.
  - D. bahorda 20-30, qishda 33,3.
2. Yaylov inqirozini keltirib chiqaruvchi barcha sabablarni necha nafar, shuning necha %-i inson faoliyati bilan, necha %-gina tabiiy jarayonlar hisobidan sodir bo‘ladi?
  - A. 45 nafar, 87 % inson faoliyati, 13 % tabiiy jarayonlar
  - B. 40 nafar, 60 % inson faoliyati, 40 % tabiiy jarayonlar
  - C. 35 nafar, 50 % inson faoliyati, 50 % tabiiy jarayonlar

- E. 50 nafar, 70 % inson faoliyati, 30 % tabiiy jarayonlar
3. Yaylov inqirozi bosqichlarini nechta shartli guruhga ajratsa bo'ladi?
- A. 4 ta, (kuchsiz, o'rtta, kuchli va o'ta kuchli).
- B. 2 ta, (kuchsiz va kuchli.).
- C. 3 ta, (kuchsiz, o'rtta va kuchli.).
- E. To'g'ri javob yo'q
4. Cho'l yaylovlari holatini boyitish, xosildorligini oshirishni ko'zlab (Shamsutdinov, 1973), nechta botanik oilaga mansub necha turdan ortiq buta, yarim buta, bir yillik va ko'p yillik oziqabop o'simliklar sinovdan o'tkazildi?
- A. 29 ta botanik oilaga, 300 turdan ortiq.
- B. 20 ta botanik oilaga, 200 turdan ortiq.
- C. 25 ta botanik oilaga, 500 turdan ortiq.
- D. 15 ta botanik oilaga, 100 turdan ortiq.
5. Me'yordan oshirib, mol boqish oqibatida tabiiy yaylov o'simlik qoplamida sezilarli o'zgarish sodir bo'lib, yaylov hosildorligining pasayishiga, turlar miqdorining kamayishiga nima deyiladi?
- A. Yaylov inqirozi
- B. Yaylov strukturası
- C. Yaylovlardan almashlab foydalanish sxemalari
- E. Chegaralangan sug'oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanish
6. Cho'l va adir mintaqalari yaylovlari misolida hozirgi kunda necha % tabiiy yaylovlari turli darajada inqirozga uchragan?
- A. 41 %
- B. 35 %
- D. 60%
- E. 25 %
7. O'zQCHEITI olimlarining ijodiy izlanishlari natijasida qora saksovulning qaysi navi yaratildi?
- A. Nortuya
- B. Rohat
- D. Qorabosh.
- E. Bardoshli
8. O'zbekiston Davlat nav sinash inspeksiyasining reestriga kiritilgan va rayonlashtirilgan chogonning navini toping?
- A. Jayxun
- B. Qizilqum

D. Nurota

E. Jaydari 21

9. Eng yuqori inqiroz (44 %) qaysi omillar hisobidan sodir bo'lmoxda?

A. O'simlik qoplaming o'zgarishi hisobidan

B. Deflyasiya (qum ko'chishi) hisobidan

D. Sho'rlanish hisobidan

E. Suv eroziyasi hisobidan

10. O'zQCHEITI olimlari qaysi tajriba stansiyasi maydonlarida cho'l sharoitiga mos keladigan ozuqabop turlarni sinash tajribalarini amalga oshirganlar?

A. Kattaqo'rg'on tajriba stansiyasida

B. Sho'rko'l tajriba stansiyasida

D. Oqdaryo tajriba stansiyasida

E. Pastdarg'om tajriba stansiyasida

## 29-mashg'ulot. Yaylovlarning meliorativ holati va ularni baholash

**Mashg'ulot maqsadi:** Yaylovlarning meliorativ holati va ularni baholash tizimi bilan yaqindan tanishtirish, yaylovlar meliorativ holatini baholashni bilish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Yaylovlarning meliorativ holati va ularni baholash tizimi oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalari, videoroliklar, slayd-shoular, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Yaylovlarning meliorativ holati va ularni baholash tizimini jadvallar vositasida yoritish va yozdirib borish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Tog' va adir mintaqasi yaylovlarning meliorativ holatining buzilish sabablari, mavjud tabiiy noqulay omillar bilan bevosita bog'liq. Shunday noqulay tabiiy sharoitlarni mintaqalar bo'yicha taqsimlagan holda bilish, yaylovlar holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaylovlarning tabiiy noqulay sharoitlari ularning meliorativ holatini belgilaydi. Yaylovlarning meliorativ holatiga asosan suv va shamol eroziyasi, tuproqning ko'chishi, surilishi, qor ko'chishi, qum ko'chishi, tuproqning sho'rланishi va botqoqlanishi, sel oqimi, o'simliklar qoplami, yaylovlardan foydalanish darajasi katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, yaylovlar mintaqalar bo'yicha turli tabiiy sharoitlarga ega. Shuning uchun, yuqorida ko'rsatilgan noqulay omillar mintaqalar bo'yicha har xil tuproqda tarqalgan va ular yaylovlarning meliorativ holatiga ta'sir ko'rsatadi (35-jadval).

35-Jadval

Mintaqa	Mavjud tabiiy noqulay omillar
Tog'	Suv eroziyasi, yerning surilishi, yer va qor ko'chishi, sel oqimi.
Adir	Suv eroziyasi, qisman yeming sho'rланishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik.
Tekislik	Shamol eroziyasi, qum ko'chishi, yerning sho'rланishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik.
Sohil	Yerning botqoqlanish va sho'rланishi, sel oqimi.

**Tog' va adir mintaqasi yaylovlarning meliorativ holatining buzilish sabablari.** Suv eroziyasi tog' va adir mintaqalarida kuchli jala quyishi, qor va muzliklarni jadal erishi natijasida vujudga keladi. Suv

eroziyasi barcha mamlakatlarda keng tarqalgan bo‘lib qishloq xo‘jaligi yerlariga, yaylov va pichanzorlarga juda katta zarar yetkazadi.

Suv eroziyasi natijasida yer sharining quruqlik qismidan har yili 70 mlrd tonna qattiq material yuviladi, shundan Yevropada 840 mln tonna, Afrikada 21 mlrd tonna yuvilishi aniqlangan.

X.Bannetning ma‘lumotlariga ko‘ra, 150 yil mobaynida 100 mln hektar yaylov va haydaladigan yerlar eroziya ta‘sirida kuchli zararlangan 300 ming gektardan ortiq maydonda juda kuchli eroziya sodir bo‘lgan 20000 hektar yer yaroqsiz holatga aylangan, 40 mln hektar yerdasi esa gumus qatlaming yarmi yuvilib ketgan.

X.Bennetning tadqiqotlari bo‘yicha o‘simliklar qoplamiga va yerdan foydalanish darajasiga bog‘liq holda suv eroziyasi ta‘sirida tuproqning 18 sm qatlaming yuvilish tezligi o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida olingan ma‘lumotlar 25-jadvalda keltirilgan.

36-Jadval

Yerning qiyaligi	Tuproq turi	O‘simlik qoplami	Yuvilish vaqt,yil
10°C	og‘ir	Tabiiy qatlamdagisi o‘rmon	500 000
	qumoqli	Tabiiy o‘t qatlami	3225
	bo‘z	Almashlab ekish dalasi	70
	tuproq	G‘o‘za ekilgan dala	32
		Shudgor	15

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham tuproq eroziyasining barcha turlari keng tarqalgan. “O‘zdavyerloyiha” instituti tomonidan har xil eroziyalarga uchragan yer maydonlari aniqlangan.

37-Jadval

#### O‘zbekistonda eroziyaga uchragan yerlar, ga

Yer turlari	Jami maydon, ming/ga	Shu jumladan			
		Eroziyaga uchramagan yerlar	Suv eroziyasiga uchragan	Shamol eroziyasiga uchragan	Suv va shamol eroziyasiga uchragan
Sug‘oriladigan	3733	791	339	2262	341
Haydaladigan	3308	569	341	2057	341
Boshqa yerlar	425	212	-	213	-
Yaylovlar	23001	851	2346	18125	1679
Jami	30467	2423	3026	22657	2361

Ushbu ma‘lumotlar bo‘yicha O‘zbekistonning umumiyligi maydoniga nisbatan 28044 ming gektarni yoki 61 % yerdasi eroziya jarayoni sodir bo‘limoqda. Shundan suv eroziyasi tarqalgan maydonlar 3026 ming gektarni, shamol eroziyasi tarqalgan maydonlar 22657 ming gektarni,

suv va shamolning aralash ta'siridagi eroziya maydoni esa 2361 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha umumiy yaylovlardan maydonning 96 % i eroziyaga uchragan, shundan 18125 ming gektarida shamol eroziysi, 3026 ming gektarida suv eroziysi, 2361 ming gektarida esa shamol va suv eroziysi sodir bo'ladi. Suv ta'siridagi tuproq eroziysi joyning rel'yefiga, tuproq turiga, uning mexanik tarkibiga suv-fizik xossalari, unumdorligiga, namlik miqdoriga yaylovlardagi o'simliklar qoplamiga, yaylovlardan foydalanish darajasiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Suv eroziyalari makro va mezorel'yeflarda yerning nishabligi 0,01 dan katta bo'lgan yerlarda, janub, janubi-g'arbiy, janubi-sharqiy ekspozitsiyalardan tez vujudga keladi. Chunki bu yerlar quyosh ta'siridan tez qiziydi, namlik jadal bug'lanadi. Tuproqning mexanik tarkibi og'ir, strukturasiz, tarkibida gumus va ozuqa moddalari kam bo'lgan yerlarda eroziya kuchayadi. O'simliklar qoplami ko'p yillik chim o'tlardan (o'tloq qo'ng'irbosh, mastak, betaga va hokazolar) yarim butalardan va o'mmon daraxtlaridan tashkil topgan yerlarda eroziya kuzatilmaydi. Tog', tog' oldi va adir mintaqalarida sodir bo'ladigan suv eroziysi natijasida:

- Tabiiy yaylovlarda tuproqning yuvilish jarliklar va jilg'alarning ko'payishi sodir bo'ladi.
- Yaylov maydonlari qisqarib boradi va yaylovlardan foydalanish koeffitsienti kamayadi.
- Yayloving umumiy hosili kamayadi, chorva mollarini boqish sharoiti buziladi.
- Tabiiy pichanzorlarni o'rish va tashish uchun sarf harajatlar oshib ketadi, pichanzor maydonining bo'linib ketishi, tashish yo'llarining buzilishi, tosh uyumlarining paydo bo'lishi kabi jarayonlar vujudga keladi.
- Suv ta'sirida tuproq tarkibidagi barcha ozuqa moddalar (gumus, P, N, K, Ca, Mg, Na, K, C0<sub>3</sub> va boshqalar) yuvilib tuproq unumsiz holatga tushadi.
- Tuproqning ustki 30 sm qatlqidagi 1,0-0,25 mm zarrachalari 15- 18 martagacha kamayib ketadi, natijada uning strukturasi buziladi, suv-fizik xossalari o'simliklar uchun noqulay holatga tushadi.
- Suv havzalari ifloslanib, suvning sifati, ekologik holati buziladi.
- Atrofdagi suv omborlari va ko'llarning suv sig'imini har yili 6-7 % ga kamaytiradi.
- Daryo, soy, katta kanallar, sug'orish va kollektor zovur tarmoqlarini suv o'tkazish qobiliyatini pasaytiradi.

**Sel oqimi.** Tog‘, tog‘ oldi va adir mintaqalaridagi yaylovlarda bahor oylarida qisqa muddatda kuchli jala quyishi va havo haroratinining keskin ko‘tarilishi oqibatida qorlarning jadal erishi natijasida sel oqimi vujudga keladi.

O‘zbekistonda sel oqimi Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy va Toshkent viloyatlarining tog‘, tog‘ oldi va adir mintaqalarida kuzatiladi.

Seldor hududlar quyidagi 4 ta havzaga bo‘linadi:

1. Farg‘ona vodiysi havzasasi.
2. O‘rta Sirdaryo havzasasi.
3. Zarafshon havzasasi.
4. Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston havzasasi.

Farg‘ona vodiysi havzasiga Oloy, Turkiston, Chotqol va Qurama tog‘ tizmalarini bo‘yicha paydo bo‘lgan sellar kiradi.

O‘rta Sirdaryo havzasasi esa Chirchiq, Ohangaron kichik havzalari, Turkiston va Nurota tog‘ tizmalarining janubiy, Zarafshon tizmasining shimoliy yon bag‘irlarida paydo bo‘lgan sellarni o‘z ichiga oladi.

Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston sel havzasiga Qashqadaryo, Sherobod va Surxondaryo kichik havzalari kiradi.

Sel havzalari gidrografik tuzilishi, suv rejimi va sel hosil bo‘lishi xususiyatlari ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi: 1 —kichik daryolar, 2-tog‘ soylari, 3-kanallar.

### 38-Jadval

#### O‘zbekistonnig seldor hududlari

Sel havzalari	Jilg‘a va soylar soni	1870-1990 yillarda bo‘lgan sellar soni	Eng ko‘p seldor soylar
Farg‘ona vodiyy havzasasi	270	1491	Poshshoota, G‘avvasoy, Shohimardon, Chortoqsoy
O‘rta Sirdaryo	-	660	Chirchiq, Ohangaron daryolari Kattasoy, Suluqtasoy, Tomchisoy, Zominsoy, Sangzor, Forishsoy
Zarafshon	1200	966	Urgutsoy, Omonqo‘tonsoy, Oltinsoy, Maydonsoy, Tasmachisoy
Janubiy g‘arbiy O‘zbekiston	5300	470	G‘uzordaryo, Sheroboddaryo, To‘palangdaryo, Langarsoy, Boysunsoy

## Seldor daryo va soylar bo'yicha ma'lumot

Guruhlari	Dengiz sathidan balandligi, m	Uzunligi, km	Suv yig'ish havzası, kv/km	O'rtacha yillik suv sarfi, m <sup>3</sup> /s	Sel suvi sarfi, m <sup>3</sup> /s	Sel davri
1.Kichik daryolar	2000-2500	75-220	5300	2-50	200-5000	Aprel-may
2.Tog' soylari	700-1500	10-100	30-1500	0,02-2,0	100-4000	Mart-iyun
3.Kanallar	-	90-223	-	20-270	-	-

Nikolayev B.N. yaylovlarni tarkibida 100 g hazmlanuvchi oqsil tutgan shartli ozuqa birligiga qarab baholashni tavsiya etadi. Unga ko'ra yaylovlar quyidagi turlarga ajratiladi:

## 40-Jadval

No	Yaylovlarning ozuqaviy qiymati	Shartli ozuqa birligi	Baho ballari
1	Yuqori	1000-800	100-81
2	O'rtacha	800-610	80-61
3	Kam	600-410	60-41
4	Juda kam	400-210	40-21
5	Qoniqarsiz	200-20	20-2
6	Noqulay	<20	<2

Yaylovlarning ushbu bonitet ballarini hisoblashda, yaylov assosiatsiyalarini dastlab uning botanik tarkibiga qarab bohalash qabul qilingan. Bunda yaylovbopligi yuqori bo'lgan har bir o'simlik turi uchun 1 balldan beriladi, yaylovbopligi o'rtacha bo'lgan o'simlik turiga 0,6 ball va yaylovbopligi qoniqarsiz bo'lgan o'simlik turiga 0,2 balldan beriladi. Yaylovlarda uchraydigan zararli va zaharli o'simliklarning foiz miqdori hisoblab topilib, umumiy balldan ayirib tashlanadi hamda juda yaxshi o'simlik qoplamiga ega bo'lgan yaylovlar 80-100 ball bilan, yaxshi-60-80 ball bilan, o'rtacha-40-60 ball bilan, yomon-20-40 ball bilan, juda yomon-20 balldan past ball bilan baholanadi.

### Nazorat savollari:

1. Tog' va adir mintaqasi yaylovlarning meliorativ holatining buzilish sabablarini ko'rsatib bering.
2. Mintaqalar bo'y lab mavjud tabiiy noqulay omillarga nimalar kiradi?
3. O'zbekistonda eroziyaga uchragan yerlar necha % ni tashkil etadi?
4. O'zbekistonnig seldor hududlari to'g'risida ma'lumot bering.
5. Tog', tog' oldi va adir mintaqalarida sodir bo'ladigan suv eroziyasi oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkin?

### 29-mavzuga doir test savollari

1. Yaylovlarning meliorativ holati nimalarga bo'liq?
  - A. Suv va shamol eroziyasiga
  - B. Tuproqning ko'chishi va surilishiga
  - C. Qor ko'chishi va qum ko'chishiga
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. Yaylovlarning meliorativ holatini belgilaydigan tabiiy omillarga nimalar kiradi?
  - A. Tuproqning eroziyasi, sho'rlanishi va botqoqlanishi
  - B. Sel kelishi va jala quyishi
  - C. O'simlik qoplami
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
3. Tog' yaylovlarning meliorativ holatini belgilaydigan tabiiy noqulay sharoit?
  - A. Suv eroziyasi, yerning surilishi, yer va qor ko'chishi, sel oqimi
  - B. Suv eroziyasi, qisman yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik
  - C. Shamol eroziyasi, qum ko'chishi, yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi
  - D. Yerning botqoqlanishi va sho'rlanishi, sel oqimi
4. Adir yaylovlarning meliorativ holatini belgilaydigan tabiiy noqulay sharoit?
  - A. Suv eroziyasi, yerning surilishi, yer va qor ko'chishi, sel oqimi
  - B. Suv eroziyasi, qisman yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik
  - C. Shamol eroziyasi, qum ko'chishi, yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi
  - D. Yerning botqoqlanishi va sho'rlanishi, sel oqimi
5. Cho'l yaylovlarning meliorativ holatini belgilaydigan tabiiy noqulay sharoit?
  - A. Suv eroziyasi, yerning surilishi, yer va qor ko'chishi, sel oqimi

- B. Suv eroziyasi, qisman yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik
- D. Shamol eroziyasi, qum ko'chishi, yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi
- E. Yerning botqoqlanishi va sho'rlanishi, sel oqimi
6. To'qay yaylovlarining meliorativ holatini belgilaydigan tabiiy noqulay sharoit?
- A. Suv eroziyasi, yerning surilishi, yer va qor ko'chishi, sel oqimi
- B. Suv eroziyasi, qisman yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi, qurg'oqchilik
- D. Shamol eroziyasi, qum ko'chishi, yerning sho'rlanishi va botqoqlanishi
- E. Yerning botqoqlanishi va sho'rlanishi, sel oqimi
7. O'zbekiston sharoitida tuproqlar eroziyaning qaysi turiga ko'proq uchraydi?
- A. Suv eroziyasiga
- B. Shamol eroziyasiga
- D. To'g'ri javob yo'q
- E. Barcha javoblar to'g'ri
8. O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan yerlar?
- A. Sug'oriladigan
- B. Haydaladigan
- D. Yaylov yerlar
- E. Boshqa yerlar
9. Sel hosil bo'lish xususiyatiga ko'ra sel havzalari qanday turlarga bo'linadi?
- A. Kichik daryolar
- B. Tog' soylari
- D. Kanallar
- E. Barcha javoblar to'g'ri
10. O'rta Sirdaryo sel havzasidagi seldor soylar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
- A. Poshshoota, G'avvasoy, Shohimardon, Chortoqsoy
- B. Chichiq, Ohangaron daryolari, Kattasoy, Suluqtasoy, Tomchisoy, Zominsoy, Sanzor, Forishsoy
- D. Urgutsoy, Omonqo'tonsoy, Oltinsoy, Maydonsov, Tasmachisoy
- E. G'uzordaryo, Sheroboddaryo, To'palang daryo, Langarsov, Boysunsov

### **30-mashg'ulot. Sug'oriladigan madaniy yaylovlар o'simliklarini sug'orish tartiblarini aniqlash**

**Mashg'ulot maqsadi:** Sug'oriladigan madaniy yaylovlар o'simliklarini sug'orish tartiblarini aniqlashni bilish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Sug'oriladigan madaniy yaylovlар o'simliklarini sug'orish tartiblarini aniqlashga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, slayd-shouilar, sxemalar, texnologik xaritalar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Sug'oriladigan madaniy yaylovlар o'simliklarini sug'orish tartiblari mavzuga doir jadvallar vositasida yoritish va yozdirib borish. Mashg'ulot so'ngida mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish va talabalarni mustaqil topshiriqni bajarishi asosida baholash.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Sug'oriladigan madaniy yaylovlар o'simliklarini sug'orish tartiblarini aniqlashni bilish yaylovlardan to'g'ri foydalanishni belgilab beradi hamda yaylovlар holatining buzilishini oldini olib, tuproq eroziyasining sodir bo'lishidan himoya qiladi.

**Marzalarga yoki taxtalarga bo'lib sug'orish.** Bunda yerning nishabligi bo'yicha uzunasiga kengligi 7,2-8,4 m (ekish seyalkasini ikki marta yurish kengligi) bo'lgan marzalar (uvatlar) olinadi, marzalarning balandligi 25-35 sm, marzalar oralig'iga 3-4 sm dan 10-12 sm gacha suv beriladi. Bu usul asosan nishabligi 0,002-0,005 bo'lgan yerlarda qo'llaniladi.

**41-Jadval**

**Taxtalarning uzunligi va ularga beriladigan suv miqdori**

Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Kichik nishabli (0,002 dan kam)		O'rta nishabli (0,002- 0,005)		Katta nishabli (0,005- 0,01)	
	Uzunligi, m	Beriladigan suv, 1/s	Uzunligi, M	Beriladigan suv, 1/s	Uzunligi, m	Beriladigan suv, 1/s
Kam (5 sm/soat)	70-90	4-5	80-120	3-4	100-150	3
O'rtacha (5-10 sm/soat)	60-80	5-6	70-100	4-5	90-130	3-4
Yuqori (10-15 sm/soat)	50-70	6-7	60-80	5-6	80-100	4-5

**Yaylov o'simliklarini sug'orish me'yorlari.** Sug'oriladigan madaniy yaylovlargalarga suv xo'jaliklararo va xo'jalik sug'orish tarmoqlari orqali yetkazilib beriladi. O'qariqdan olingan suv yaylovlар bo'ylab

joylashtirilgan o'qariqlar esa dalalardagi egatlар yoki taxtalar orqali o'simliklarga yetkaziladi.

O'qariqlar joyning nishabligiga bog'liq holda 2 usulda olinadi: nishabligi katta adir mintaqasi yerlarida egatlarga nisbatan ko'ndalang, tekis yerlarda esa egatlarga nisbatan bo'ylama o'qariqlar olinadi. O'qariqlarning uzunligi va orasidagi masofalar joyining nishabligiga, tuproqning mexanik tarkibiga qarab 400-1200 m orasidagi masofalar esa 70-15 sm bo'ladi. O'qariqlar KZU-0,3 markali o'qariq olgich bilan olinadi.

**Yaylov o'tlarining sug'orish tartiblari.** Yuqorida qayd etilganidan yaylov o'tlarining 3-6 turi aralash holda ekiladi. Shuning uchun o'tlar aralashmasini tashkil qilishda o'simliklarning suvga bo'lgan talabi ham hisobga olinishi kerak. Qabul qilingan o't aralashmalarining suvga bo'lgan talabi bir-biriga mos keladi. Yaylov o'tlarining sug'orish tartibi (sug'orish soni, muddati va sug'orish me'yorlari) joyning iqlim, rel'yef, tuproq, gidrogeologik sharoitlariga va o'simliklarning biologik xususiyatlariiga, ko'chat qalinligi hamda o'suv fazalariga bog'liq bo'ladi. Shu omillarni hisobga olgan holda yaylov o'tlarining umumiy suvga bo'lgan talabi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ye = U * Z * K_g * g * K_t * i$$

Bunda:  $Ye$  - yaylov o'tlarining suvga bo'lgan umumiy talabi,  $m^3/ga$

$U$  - rejalahtirilgan hosil,  $s/ga$ ;

$Z$  - iqlim koeffitsienti;

$K_g * g$  - Gidrogeologik koeffitsent;

$K_t$  - o'simliklarning transperatsiya koeffitsienti (har bir o'simlik alohida);

$i$  - tuproqning unumdorlik koeffitsienti.

Ekinlarning suvga bo'lgan umumiy talabi aniqlangandan keyin, yaylov ekinlarining mavsumiy sug'orish me'yori aniqlanadi:

$$M = E - 10 * a * R - (W_b - W_o) - W_g$$

Bunda:  $M$  - yaylov ekinlarining mavsumiy sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

$Ye$  - ekinlarning suvga bo'lgan umumiy talabi,  $m^3/ga$ ;

$R$  - yaylovdan foydalanish davomida (mart - noyabr) tushgan atmosfera yog'lnlari, mm;

$a$  - yog'ingarchilikdan foydalanish koeffitsienti;

$W_b$  - o'suv davrining dastlabki payti tuproq namligining zahirasi,  $m^3/ga$ ;

$W_o$  - o'suv davri oxiridagi tuproq namligining zahirasi,  $m^3/ga$ ;  
 $W_2$  - o'suv davrida o'simliklarning sizot suvlaridan foydalanish darajasi,  $m^3/ga$ ;

Yaylov ekinlarining bir galgi sug'orish me'yori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$M = (A-V) * d * h + k$$

Bunda: M - bir galgi sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

A - tuproqning chegaraviy nam sig'imi, % da;

V - sug'orishdan oldingi hisobiy qatlamdag'i tuproq namligi, % da;

d - hisobiy qatlamdag'i tuproq zichligi,  $t/m^3$ ;

h - hisobiy qatlam qalnligi, sm (70-100 sm);

k - sug'orish davomida bug'lanish va oqovaga sarflash mumkin bo'lgan suv miqdori (10-15 %). Yaylov o'tlarining sug'orishdan oldingi tuproq namligi 75-80 % dan (tuproqning chegaraviy nam sig'imiiga nisbatan) kam bo'lmasligi kerak.

#### 42-Jadval

#### Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldiring!

Yaylov ekinlarining turlari	Yaylov o'tlarining suvg'a bo'lgan umumiy talabi, $m^3/ga$	Yaylov ekinlarining mavsumiy sug'orish me'yori, $m^3/ga$	Bir galgi sug'orish me'yori, $m^3/ga$

#### Nazorat savollari:

1. Marzalarga yoki taxtalarga bo'lib sug'orish qaysi paytda amalga oshiriladi?
2. Taxtalarning uzunligi va ularga beriladigan suv miqdori nimalarga qarab belgilanadi?.
3. Yaylov o'simliklarini sug'orish me'yorlari qaysi formula yordamida aniqlanadi?
4. Yaylov o'tlarining sug'orish tartibla nimalarga asosan o'rnatiladi?.
5. Yaylov ekinlarining bir galgi sug'orish me'yorini aniqlash formulasini yozing.

#### 30-mavzuga doir test savollari

1. Marzalarga yoki taxtalarga bo'lib sug'orish nishabligi necha gradus bo'lgan yerlarda amalga oshiriladi?
- A. 1-2  
B. 2-5  
D. 5-10  
E. 10<
2. Nishabligi kichik bo'lgan yerlarning gradusi nechaga teng bo'ladi?
- A. 1-2  
B. 2-5  
D. 5-10  
E. 10<
3. Nishabligi o'rtacha bo'lgan yerlarning gradusi nechaga teng bo'ladi?
- A. 1-2  
B. 2-5  
D. 5-10  
E. 10<
4. Nishabligi katta bo'lgan yerlarning gradusi nechaga teng bo'ladi?
- A. 1-2  
B. 2-5  
D. 5-10  
E. 10<
5. Nishabligiga qarab o'qariqlar necha usulda olinadi?
- A. Ko'ndalang  
B. Bo'ylama  
D. Ko'ndalang va bo'ylama  
E. To'g'ri javob yo'q
6. Nishabligi kichik, mexanik tarkibi og'ir bo'lgan yerlarda taxtalarning uzunligi necha metr qilib olinadi?
- A. 70-90  
B. 60-80  
D. 50-70  
E. 30-40
7. Nishabligi o'rtacha, mexanik tarkibi qumoq bo'lgan yerlarda taxtalarning uzunligi necha metr qilib olinadi?
- A. 80-120  
B. 70-100

D. 60-80

E. 40-50

8. Yaylov o'tlarining suvgaga bo'lgan umumiyligi talabi qaysi formula yordamida hisoblab topiladi?

A.  $Ye = U * Z * K_g * g * K_t i$

B.  $M = E - 10 * a * R - (W_b - W_o) - W_g$

D.  $M = (A - V) * d * h + k$

E.  $Z = \frac{h}{i}$

9. Yaylov ekinlarining mavsumiy sug'orish me'yori qaysi formula yordamida aniqlanadi?

A.  $Ye = U * Z * K_g * g * K_t i$

B.  $M = E - 10 * a * R - (W_b - W_o) - W_g$

D.  $M = (A - V) * d * h + k$

E.  $Z = \frac{h}{i}$

10. Bir galgi sug'orish me'yori qaysi formula yordamida topiladi?

A.  $Ye = U * Z * K_g * g * K_t i$

B.  $M = E - 10 * a * R - (W_b - W_o) - W_g$

D.  $M = (A - V) * d * h + k$

E.  $Z = \frac{h}{i}$

### **31-mashg‘ulot. Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlash**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlashni o‘rganish.

**O‘quv va ko‘rgazmali qurollar:** Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlashga oid rangli fotosur‘atlar, jadvallar, video lavhalar, video roliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar, suv hammomi, chinni kosachalar, analitik tarozi, distillangan suv va hk.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi va metodikasi.** Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlash mavzuga doir jadvallar vositasida yoritish, ishni bajarish tartibini yozdirish va bajarish. Mashg‘ulot so‘ngida olingan natijalarni tahlil qilish.

**Mashg‘ulotning mazmuni.** Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlash yaylovlardan to‘g‘ri foydalanishni belgilab beradi hamda yaylovlar holatining buzilishini oldini olib, tuproqni sho‘rlanishdan himoya qiladi.

Respublikamizning adir, tekislik va sohil mintaqalarida yer osti suvlarining havzalari mavjud bo‘lib, ularda katta miqdorda suv zahiralari vujudga keladi.

Bu suvlardan foydalanib sug‘oriladigan yaylov va pichanzorlar barpo qilish mumkin. Tabiiy sohil va tekislik yaylovlardan foydalanish davomiyligi 280-300 kunni tashkil etadi, qolgan 65-80 kun chorva mollari turg‘un holatda molxonalarda to‘plangan pichan zahiralari hisobiga boqiladi.

Lekin ko‘pchilik tabiiy yaylovlarda pichanzorlar yetarli bo‘limganligi uchun boshqa yerdan (200-300 km uzoqliklardan) pichanlar tashib keltiriladi, bunday holatda juda ko‘p qo‘sishimcha harajatlar qilinib, iqtisodiy jihatdan foyda bermaydi.

Shuning uchun bunday yaylovlarda yer osti suvlaridan foydalanib sug‘oriladigan pichanzorlar barpo qilish ijobji natija beradi. Yer osti suvlar turli chuqurliklarda joylashgan (100 m dan 800 m gacha) va har xil darajada minerallashgan (1 g/l dan 15-20 g/l gacha) bo‘ladi. Yer osti suvlarining minerallashganlik darjasasi 1-3 g/l bo‘lganda har qanday sharoitda va barcha ekinlarni sug‘orish uchun foydalaniladi, yer osti

suvlarining minerallashganlik darajasi 3-8 g/l bo'lgan yerlarda esa maxsus texnologiyalar asosida foydalanish mumkin.

Yer osti suvlarining minerallashganlik darajasi chinni kosachaga suv namunasidan olib, uni suv hammomida bug'latish va hosil bo'lgan quruq qoldiqni analitik tarozida tortish yordamida aniqlanadi. Minerallashgan suv tarkibidagi tuzlar tarkibi esa, dastlab sifat analizlari, so'ngra miqdor analizlari yordamida aniqlanadi (32-mavzuga qarang) va quyidagicha baholanadi:

43-Jadval

**Tuz miqdoriga ko'ra suvlar sifatini baholash**

№	Suvning sifati	SAR	Tuz miqdori, g/l	Shu jumladan zaharli tuzlar	
				g/l	%
1	Juda yaxshi	<5	<1,0	<0,1	<10
2	Yaxshi	6-10	2,0	0,4	20
3	Qoniqarli	11-15	5,0	1,8	35
4	Kam qoniqarli	16-20	8,0	4,0	50
5	Qoniqarsiz	>20	>8,0	>4,0	>50

Yer osti suvlaridan foydalanib sug'oriladigan pichanzorlar asosan chorva yerlariga yaqin joylarda va chorva mollarini sug'orish uchun barpo qilingan quduqlar atrofida tashkil qilinadi. Yer osti suvlaridan foydalanish uchun dastlab maxsus loyihalari tuziladi. Loyihada yer osti suvlarining joylashish chuqurligi, suv oqimi, bosimi, minerallashganlik darajasi, mavsumlar (bahor, yoz, kuz) bo'yicha suv zahirasi, quduq va boshqa suv olish inshootlarining harajatlari hamda boshqa omillar hisobga olinadi.

Suvlarning sug'orish uchun yaroqliligin A.M. Mojeyko va T.K. Vorotnik usulida aniqlash uchun  $(Na+K)*100:(Ca+Mg+Na+K)$  nisbat olinadi. Bu nisbat 65 % dan kam bo'lsa suv sug'orish uchun yaroqli hisoblanadi.

AQSh qishloq xo'jaligi departamenti tomonidan, sug'orish uchun suvning yayroqliligin aniqlash bo'yicha natriyli absorption nisbat (SAR) ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$SAR = \frac{Na + K}{Ca + Mg} : 2$$

Agar SAR <10 bo'lsa, sug'orish uchun suvning yayroqliligi yaxsi, 11-20 bo'lsa kam qoniqarli, 20 dan katta bo'lsa qoniqarsiz hisoblanadi.

O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti, chorvachilik ilmiy tadqiqot instituti va boshqa ilmiy tashkilotlar

olimlarining tadqiqotlari bo'yicha yer osti suvlarining zahiralariga bog'liq holda bitta quduq suvi bilan 8 gektardan 150 gektar maydongacha sug'oriladigan pichanzor barpo qilish va bunday pichanzorlardan 80-120 s/ga quruq massa hosilini yetishtirish mumkin ekan. Bu hosildorlik sug'orilmaydigan yerlardagi hosildorlikka nisbatan 30-40 barobar ko'pdir.

#### 44-Jadval

##### **Yer osti suvlaridan foydalanib sug'oriladigan yerlarda ekiladigan asosiy ekin turlari va ularni ekish me'yori**

O'simlik turlari	Transpiratsiya koeffsienti	Ekish me'yori, kg/ga		
		Chuchuk suv bilan sug'oriladigan yerlarda	Sho'r suv bilan sug'oriladigan yerlarda	
			5 g/l gacha	8 g/l gacha
Don uchun				
Arpa	310-530	180	220	250
Makkajo'xori	250-400	25	30	35
Pichan uchun				
Beda	850	18	22	25
Espartset	600-700	80	100	120
Bug'doyiq	500	16	20	22
jo'xori	280-370	20	25	30
Kuzgi javdar	500-800	160	200	240
Suli	600-800	150	180	220

#### **Nazorat savollari:**

1. Yaylovlarda foydalilanligan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlash tartibini gapirib bering.
2. Yaylovlarda foydalilanligan suvning sifati darjasini qanday aniqlanad?
3. Yer osti suvlaridan foydalanib sug'oriladigan yerlarda ekiladigan asosiy ekin turlarining ekish me'yori to'g'risida ma'lumot bering.

#### **31-mavzuga doir test savollari**

1. Yer osti suvlarining minerallashganlik darjasini necha gr/l bo'lsa har qanday ekinni sug'orish mumkin?
  - A. 1
  - B. 15-20
  - C. 1-3
  - D. 3-8

2. Maxsus texnologiyalar asosida sug'orish mumkin bo'lgan yer osti suvlarining minerallashganlik darajasi necha gr/l ga teng?
- A. 1
  - B. 15-20
  - D. 1-3
  - E. 3-8
3. Yer osti suvlaridan foydalanish nima asosida amalga oshiriladi?
- A. Maxsus loyixa
  - B. Maxsus dastur
  - D. Maxsus reja
  - E. Maxsus dalolatnomा
4. Yer osti suvlaridan foydalanib bir buloqdan qancha sug'oriladigan pichanzor barpo etish mumkin?
- A. 5-10 Ga
  - B. 8-150 Ga
  - D. 450-800 Ga
  - E. 750-1000 Ga
5. Yer osti suvlaridan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi?
- A. Sizot suvining chuqurligiga
  - B. Suv oqimi va bosimiga
  - D. Suvning minerallashganlik darajasiga
  - E. Barcha javoblar to'g'ri
6. Yer osti suvlari bilan sug'orilgan pichanzorlarning hosildorligi, sug'orilmaydigan pichanzorlarga nisbatan necha barobar yuqori bo'ladi?
- A. 5 barobar
  - B. 10 barobar
  - D. 25 barobar
  - E. 30-40 barobar
7. Yer osti suvlari yordamida barpo etilgan pichanzorlardan qancha quruq massa olish mumkin?
- A. 20-30 ts
  - B. 50-100 ts
  - D. 80-120 ts
  - E. 300 ts
8. Beda urug'ining chuchuk suv bilan sug'oriladigan yerlardagi ekish me'yori necha kg/ga ni tashkil etadi?
- A. 18

B. 22

D. 25

E. 30

9. Beda urug'ining minerallashganlik darajasi 5 g/l bo'lgan yer osti suvi bilan sug'orilgandagi ekish me'yori necha kg/ga ga teng?

A. 18

B. 22

D. 25

E. 30

10. Beda urug'ining minerallashganlik darajasi 8 g/l bo'lgan yer osti suvi bilan sug'orilgandagi ekish me'yori necha kg/ga ni tashkil etadi?

A. 18

B. 22

D. 25

E. 30

## **32-mashg'ulot. Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligin xlor ioni bo'yicha aniqlash**

**Mashg'ulot maqsadi:** Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligin xlor ioni bo'yicha aniqlashni o'rghanish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligin xlor ioni bo'yicha aniqlashga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalari, videoroliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar, suv hammomi, isitish pechi, quritish shkafi, chinni kosachalar, analitik tarozi, distillangan suv, kolba, silindr, reaktivlar, idikatorlar va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligin xlor ioni bo'yicha aniqlashni mavzuga doir jadvallar vositasida yoritish, ishni bajarish tartibi yozdirish va bajarish. Mashg'ulot so'ngida olingen natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligin xlor ioni bo'yicha aniqlash-yaylovlardan to'g'ri foydalanishni belgilab beradi hamda yaylovlardan inqirozini oldini olib, tuproqni sho'rланishdan himoya qiladi.

Turli xil manbaalarning suvlari – daryo, kul, quduq, zovur, yer osti suvlari va hokazolar o'zida ma'lum miqdorda erigan tuzlar aralashmasini saqlaydi. Bunday tuzlar aralashmasi 1 litr suvda bir-necha milligrammdan, yuz grammgacha bo'lishi mumkin. Suvda oson eriydigan bunday tuzlarning suv tarkibida yuqori miqdorda saqlanishi o'simliklarning normal o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa tuproqning oziqa, suv va tuz rejimlarining buzilishiga olib keladi.

Shuning uchun sug'orish uchun foydalaniladigan suvlardan foydalanishdan oldin, dastlab ularning sug'orish uchun yaroqliligi tekshirib ko'rildi. O'tkaziladigan agrokimyoiy analizlar natijasida ularning tarkibidagi tuzlar miqdori aniqlanadi.

**Analiz uchun suv namunasini olish.** Analiz uchun suv namunasini olish juda muhim jarayon hisoblanadi. Suvdan analiz olish uslubi shunday olib borilishi lozimki, unda namuna uchun olingan suv o‘zining dastlabki tarkibini saqlagan bo‘lishi hamda loyqalanmagan bo‘lishi lozim. Qalaversa analiz uchun olingan idishning tozalagiga ham jiddiy e‘tibor qaratish zarur. Idishning tiqinlari distillangan suvda qaynatib olinishi lozim. Rezina tiqinlari 1 % li soda eritmasida qaynatilib, so‘ngra 1 % li xlorid kislotasi eritmasida yuvib tashlanishi va bir necha marta distillangan suv bilan chayqab tashlanishi lozim. Namuna olinagan shisha idish va uning tiqani namuna olishdan oldin namuna suvi bilan kamida uch marta chayqatilib tashlanishi lozim. Namuna olingan shisha idish tiqini germetik mahkamlangan bo‘lishi lozim.

Idishga namuna olinayotgan paytda 10-15 ml joy qoldirish tavsiya etiladi. Sababi namuna qizdirilayotgan paytda bosim oshib ketishi mumkin. Agar namuna uzoq vaqt saqlanishi talab etilsa unga 1 litr suvg'a 2 ml hisobida xloroform qo‘silib konservatsiya qilinadi.

Oddiy analiz uchun suv namunasi 2 litrlik idishga olinadi hamda har bir namuna uchun ikki nusxada pasport tayyorlanadi. Pasportga ma‘lumotlar oddiy grafitli qalam bilan yoziladi. Bitta pasport namuna solingen idishga yopishtiriladi, ikkinchisi idish bo‘g‘ziga bog‘lab qo‘yiladi. Pasportda quyidagi ma‘lumotlar yozilishi lozim:

1. Namuna raqami va kim tomonidan olinganligi (F.I.SH.);
2. Namuna olingan manzil va sana;
3. Namuna uchun olingan suv manbai va uning chuqurligi;
4. Suv namunasi qaysi chuqurlikdan olinganligi;

Pasport ma‘lumotlari bir yo‘la laboratoriya jurnaliga ham kiritilib boriladi.

Agar suv namunasi quduqlardan olinadigan bo‘lsa, u quduqdagi suv 15 minut davomida nasos yordamida chiqarilib turilishi lozim. Agar quduqda nasos bo‘lmasa quduqning o‘rtasidan suv namunasi olinadi. Buning uchun shisha idish tiqiniga ip bog‘lab qo‘yiladi va shisha idish tiqin bilan berkitilgan holatda kerakli chuqurlikka tushiriladi, u yerda tiqin ipi tortiladi, idish kerakli suv namunasi bilan to‘lguncha ushlab turiladi va asta-sekinlik bilan yuqoriga tortib olinadi.

**Suv tarkibidagi tuzlarning sifat analizi.** Suv tarkibida tuzlarning miqdorini aniqlashdan oldin, dastlab bu suv tarkibida qanday tuzlar mavjud ekanligini aniqlash muhim. Agar sifat analizini o‘tkazish

davomida ma'lum bir tuz aniqlanmasa uning miqdori analizini o'tkazishning hojati qolmaydi.

Odatda sifat analizi xloridlarni, sulfatlari va karbonatlarni aniqlash uchun o'tkaziladi.

**Xlor ionini aniqlash.** Suv namunasidan probirkaga 10 ml olinadi va 4 tomchi **kumush nitrat** eritmasidan solinadi. Hosil bo'lgan loyqa va oq cho'kma xarakteristikasiga qarab xlor ionining miqdori taxminan aytildi (45-jadval).

45-Jadval

Cho'kma xarakteristikasi	Xlor ionining miqdori (1 litrda mg hisobida)
Kuchsiz loyqa	10 mg gacha
Kuchli loyqa	10-50
Vaqti bilan hosil bo'ladigan cho'kma	50-100
G'ovak cho'kma	100<

**Sulfat ionini aniqlash.** Suv namunasidan probirkaga 10 ml olinadi va 4 tomchi **baryi xlorid** eritmasidan solinadi. Hosil bo'lgan loyqa va oq cho'kma xarakteristikasiga qarab sulfat ionining miqdori taxminan aytildi (46-jadval).


46-Jadval

Cho'kma xarakteristikasi	Sulfat ionining miqdori (1 litrda mg hisobida)
Kuchsiz loyqa 5 min dan so'ng hosil bo'ladi	10 mg gacha
Kuchsiz loyqa 5 soniyadan so'ng hosil bo'ladi	10-100
Kuchli loyqa (sut rangi), keyin cho'kma	100-500
Tez cho'kma hosil bo'ladigan	500<

**Karbonat ionini aniqlash.** Konussimon kolbaga 25 ml suv namunasidan olinadi 2 tomchi **fenolftalein** indikatoridan solinadi. Pushti rangning hosil bo'lishi karbonat ionining borligidan dalolat beradi.

**Suv tarkibidagi tuzlarning miqdor analizi.** Suvning sifatiga va uning sug'orish uchun yaroqliligiga baho berishda asosiy e'tibor xloridlar, sulfatlari va karbonatlari miqdoriga qaratiladi. Tarkibida natriy saqlovchi tuzlar suvda oson eruvchan tuzlar bo'lib, o'simliklar uchun nihoyatda xavfli hisoblanadi. Bundan tashqari suvning vaqtinchalik va doimiy qattiqligini keltirib chiqaruvchi kalsiy va magniy ionlarini aniqlash ham juda muhim.

**Xlor ionini aniqlash.** Usulning mohiyati. Bu usul suvli so'rimni kaliy xromat ishtirokida kumush nitrat eritmasi yordamida titplashga asoslangan. Bu usulning mohiyati shundan iboratki hosil bo'lgan kumush xloridining eruvchanligi kumush xromat eruvchanligidan kichik ekanlidigadir.



**Ishning borish tartibi:** Analiz uchun olinadigan eritma hajmi quyidagicha aniqlanadi. 10 ml so'rimdan olib unga 5 % li kumush nitrat eritmasi ta'sir ettiriladi. Hosil bo'lgan oq cho'kmaning intensivligiga qarab analiz uchun olinadigan so'rim miqdori aniqlanadi.

So'rimdan ma'lum miqdorda olinib konussimon kolbaga solinadi, lakmus qog'ozi ishtirokida 0,01 n sulfat kislota eritmasi bilan neytrallanadi. Undan so'ng kolbaga 1 ml 10 % li kaliy bixromat ( $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ) eritmasidan solinib, 0,01 n kumush nitrat ( $\text{AgNO}_3$ ) eritmasi bilan sariq-qo'ng'ir rang hosil bo'lgunga qadar titrланади.

So'rim tarkibida xlor ioni juda kam miqdorda uchrasha "guvoh" eritma tayyorlab olinib solishtiriladi. Buning uchun huddi shunday konussimon kolbaga huddi shu miqdorda distillangan suv solinadi va unga 1 ml kaliy bixromat eritmasidan qo'shiladi.

Olingen natija quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$X = \frac{a * T * 0,00035 * 100}{n}$$

X-so'rimdagи xlor ionining miqdori, %;


a-titplash uchun sarf bo'lgan 0,01 n  $\text{AgNO}_3$  miqdori, ml;

T-titr uchun tuzatma;

0,00035-1ml 0,01 n  $\text{AgNO}_3$  eritmasidagi xlor ionining miqdori;

n-analiz uchun olingen eritma hajmi, ml.

**Sulfat ionini aniqlash:** Usulning mohiyati. Suvli so'rim tarkibidagi sulfat ionini aniqlash sulfat ionining bariy bilan birgalikda oq cho'kma hosil qilishiga asoslangan.



**Ishni bajarish tartibi:** Analiz uchun olinadigan so'rim hajmi sulfat ioni uchun o'tkaziladigan sifat analizi yordamida aniqlanadi. Buning uchun probirkaga 10 ml so'rimdan olinadi hamda HCl yordamida nordonlashtiriladi. Unga 1 ml  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan tomiziladi, yaxshilab chayqatilib qaynaguncha qizdiriladi. Hosil bo'lgan loyqa va cho'kmaning intensivligiga qarab namuna uchun so'rim miqdori belgilanadi:

- agar loyqa hosil bo'lmasa sulfat ionı mavjud emas;
- agar kuchsız loyqa hosil bo'lsa analiz uchun 50 ml olinadi;
- agar cho'kma hosil bo'lsa 5-20 ml so'rim olinadi;
- agar kuchli cho'kma hosil bo'lsa, 5-10 ml so'rimdan olinib 50 ml gacha distillangan suv bilan suyultiriladi.

So'rimdan 50 ml olinib 200 ml kimyoviy stakanga solinadi va 1-2 tomchi 10 % li xlorid kislotasi eritmasidan qo'shib nordonlshtiriladi va qaynaguncha qizdiriladi. Huddi shu stakanga 5 ml qaynoq BaCl<sub>2</sub> eritmasidan solinib qaynash 1 necha daqiqa davom ettiriladi. So'ngra stakan og'zi shisha bilan yopilib, 4 soatdan kam bo'limgan vaqt ichida issiq quritish shkafiga yoki suv hammomiga qo'yiladi.

Ostida cho'kmasi mavjud bo'lgan tiniq eritmaga yana bir marotoba bariy xlorid eritmasidan tomiziladi. Agar loyqa hosil bo'lsa yana bir necha millilitr bariy xlorid eritmasidan tomiziladi va bir necha soatga iliq joyda qoldiriladi.

Agar loyqa hosil bo'lmasa stakan ichidagi eritma filtrlanadi. Cho'kma ham filtrga o'tkaziladi va qaynoq xlorid kislotasi bilan nordonlashtirilgan distillangan suv bilan sulfat ionlari yo'qolguncha yuviladi. So'ngra cho'kmali filtr oldindan qizdirilgan chinni tigelga o'tkaziladi, quritish shkafida qiritiladi va mufel pechida 750°C da kulga aylantiriladi. So'ngra tigel mufel pechidan olinib eksikatorda sovutiladi va analitik tarozida tortiladi. Analiz aniqroq chiqishini ta'minlash maqsadida, mufel pechida kuydirishni qayta amalga oshirish maqsadga muvofig.

Olingen natijalar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = \frac{[a - (b + v)] \cdot 0,4114 \cdot 100}{n}$$

X-so'rimdagi sulfat ionining miqdori;

a-kuydirilgandan so'ng tigelning cho'kma bilan birgalikdagi massasi;

b-bo'sh tigelning massasi;

v-filtr qog'oz kulining massasi;

0,4114-1 gr BaSO<sub>4</sub> dagi sulfat ionining miqdori;

n-analiz uchun olingen so'rimning hajmi.


**Sulfat ionini chamalab aniqlash:** Probirkaga 5 ml suv namunasidan olinadi 1-2 tomchi 10 % li xlorid kislotasi eritmasi bilan nordonlashtiriladi va ustiga 1 ml 10 % li bariy xlorid eritmasidan qo'yiladi. Sulfat ionining mavjudligini loyqa yoki cho'kma hosil

bo‘lish tezligiga qarab quyidagi jadval asosida aniqlash mumkin (47-jadval).

47-Jadval

Cho‘kmaning yoki oq loyqaning hosil bo‘lishi	Sulfat ionining miqdori (1 l da gr hisobida)	Cho‘kmaning yoki oq loyqaning hosil bo‘lishi	Sulfat ionining miqdori (1 l da gr hisobida)
5 soniyadan so‘ng	120	45 soniyadan so‘ng	36
7 soniyadan so‘ng	96	1 daq so‘ng	30
10 soniyadan so‘ng	84	1 daq 25soniyadan so‘ng	24
15 soniyadan so‘ng	72	2 daq so‘ng	18
20 soniyadan so‘ng	60	5 daq so‘ng	12
30 soniyadan so‘ng	48		

**Bikarbonat ionlarini aniqlash.** Usulning mohiyati shunga asoslanganki, barcha bikarbonat tuzlari **kislotalar** bilan reaksiyaga kirishganda karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi:



Bu ionlarni aniqlash uchun metiloranj indikatori ishtirokida xlorid yoki sulfat kislota eritmasi bilan titrlash ishlari olib boriladi.

**Ishni bajarish tartibi:** Erlenmeyr kolbasiga 100 ml suv namunasidan solinadi, ustiga 1-2 ml metiloranj indikatoridan tomiziladi va 0,1 n xlorid yoki sulfat kislotalari eritmasi bilan sabzi rang hosil bo‘lgunga qadar titrlanadi.

Natijalar quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$X=a*T$$

X-bikarbonat ionlari miqdori, 1 l tadqiq qilinayotgan suv tarkibida ( $\text{mg}^*\text{ekv}$  hisobida);

a-100 ml suvdagi titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n xlorid kislotosi eritmasining miqdori (ml da);

T-kislota titriga tuzatma.

Agarda  $\text{HCO}_3^-$  miqdorini milligrammlarda ifodalamoqchi bo‘lsak natijani 61 ga ko‘paytirish talab etiladi.

**Kalsiy va magniy yig‘indisini aniqlash.** Suvning qattiqligini suv tarkibidagi kalsiy va magniy tuzlari belgilaydi. Vaqtinchalik va doimiy qattiqlik mavjud. Vaqtinchalik qattiqlikni kalsiy va magniy bikarbonatlari tashkil etadi. Doimiy qattiqlikni kalsiy va magniy sulfat

tuzlari keltirib chiqaradi. Vaqtinchalik va doimiy qattqlikning yig'indisi umumiyligi qattqlikni keltirib chiqaradi.

Umumiy qattqlikni aniqlash bizga quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

- 1) suvning umumiy minerallashganlik darajasini aniqlash imkonini beradi;
- 2) suv tarkibidagi natriyning miqdorini aniqlash imkonini beradi (suv namunasi tarkibidan to'g'ridan-to'g'ri natriyning miqdorini aniqlashning imkonini mavjud emas);
- 3) sug'oriladigan suvning qo'llaniladigan mineral o'g'itlarga ta'sirini oldindan bashorat qilish (ayniqsa fosforli o'g'itlarga ta'sirini);

Qo'yida biz kalsiy va magniy ionlarining yig'indisini trinolometrik usulda aniqlashni ko'rib chiqamiz.

**Usulning mohiyatini.** Huddi o'simlik kuli tarkibidan kalsiy va magniy ionlarini yig'indisini aniqlashdek olib boriladi.

**Izoh.** 1. Bu usul kalsiy va magniy ionlarining yig'indisi namuna tarkibida minimal darajada uchrasa (1 litrda 0,5 mg\*ekv) qo'llanilishi mumkin.

2. Temir, alyuminiy, marganets, mis va boshqa kationlarning bo'lishi bu analizning aniqligiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning konsentratsiyasi 1 litr namunada 1 gr dan oshadigan bo'lsa eritmaning rangi xira tortib aniqlikni yo'qotadi.

3. Marganets ionining ta'sirini kamaytirish maqsadida titrlanayotgan suv namunasiga gidroksilamin qo'shiladi, qaysiki analiz uchun halaqit beradigan marganets peroksidining hosil bo'lismiga to'sqinlik qiladi. Agarda marganetsning konsentratsiyasi kalsiy hamda magniy ionlarining konsentratsiyasidan yuqori bo'ladiqan bo'lsa, unda marganetsni temir bilan birgalikda yo'qotish tavsiyi etiladi.

4. Karbonat va bikarbonat ionlarining ko'p miqdorda saqlanishi ham suvning qattqligini aniqlashga halaqit beradi. Sababi, titrlashdan oldin eritmaga ishqor qo'shilishi oqibatida kalsiy va magniy karbonatlari hosil bo'ladi. Ular trilon bilan juda sekin reaksiyaga kirishadi.

**Suv tarkibida temir ioniga sifat analizi.** Probirkaga bertolle tuzining bir necha kristallaridan solinadi. Ustiga 0,1-0,2 ml (2-5 tomchi) xlorid kislotasi va 10 ml suv namunasidan qo'yiladi. So'ngra probirkaga yaxshilab chayyatilib, qaynaguncha qizdiriladi va sovutiladi. Ustiga 0,2 ml (4 tomchi) ammoniy yoki kaliy radonit solinib, eritma rangi yuqoridan pastga yoki yonboshdan qaraladi. Agarda eritma rangi o'zgarmasa suv tarkibida temir ionlari mavjud emas hamda kalsiy va magniy ionlarining yig'indisini aniqlashga kirishiladi.

Agar namunaga ammoniy yoki kaliy radonit eritmasi ta'sir ettilganda sarg'ish-pushti yoki och qizil rang paydo bo'lsa temir ionlarining borligidan dalolat beradi hamda analizni temir va marganetsni yo'qotganimizdan so'ng amalgalash oshirishimiz mumkin bo'ladi.

**Tarkibida temir va marganey mavjud bo'lmagan suvning qattiqligini aniqlash.**

**Ishni bajarish tartibi.** 250 ml lik konussimon kolbaga 50 ml suv namunasidan solamiz hamda 0,1 n xlorid kislotasi bilan neytrallaymiz. 0,1 n HCl miqdori bikarbonat ionini aniqlash uchun sarf bo'lgan miqdorga tengdir, faqat bu analiz uchun olingan namuna hajmiga qayta hisoblash talab etiladi. So'ngra kolbaga 5 ml bufer eritmasidan, 10 tomchi qora xromogen indikatoridan solinib, **qizil olcha rangidan binafsha rangga o'tgunga qadar** Trilon B bilan titrlash lozim. Trilon B ning ortiqcha qismi eritmaning rangini o'zgartirmaydi, shuning uchun eritma rangi o'zgarishi bilan titrlashni to'xtatishimiz lozim.

Analiz natijalari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X = a * b \frac{1000}{n}$$

X-kalsiy va magniyning yig'indisi (1 l da mg\*ekv);  
a-titrlash uchun sarf bo'lgan Trilon B ning miqdori (ml);  
b-Trilon B ning normalligi;  
n-analiz uchun olingan suvning hajmi (ml).

**Temir va marganets mavjud bo'lgan suvda avval ularni yo'qotib, so'ngra suvning qattiqligini aniqlash.**

**Ishni bajarish tartibi.** 100 ml suv namunasiga 3 gr NH<sub>4</sub>Cl solinadi va ammiak bilan metilqizil indikatori ishtirokida **sabzi rang** hosil bo'lgunga qadar neytrallanadi. So'ngra ustiga yana 3-4 tomchi ammiak tomiziladi.

Eritma 80°C gacha qizdiriladi, unga pushti rang hosil bo'lgunga qadar va bu rang 15 daqiqa ichida yo'qolmaguncha 0,1 n KMnO<sub>4</sub> eritmasidan solinadi. Hosil bo'lgan rangni yo'qotish maqsadida 1-2 ml etil spiritidan qo'shiladi va eritma 15 daqiqa 80°C haroratda cho'kma koagulyasiyalanmagunga qadar ushlab turiladi. Eritma cho'kma bilan birgalikda filtranadi va 4-5 marta issiq suvda yuviladi. Filtratga qora xromogen indikatori ishtirokida hamda qizil olcha rang hosil bo'lguncha ammiak qo'shiladi. Bu rang binafsha siyoh rangga o'tgunga qadar Trilon B bilan titrlanadi.

**Natriy miqdorinin hisob-kitob yo'li bilan aniqlash.** Agar analiz yuqori aniqlikda olib borilgan bo'lsa, undagi kationlar yig'indisi - anionlar yig'indisiga to'g'ri kelishi lozim. Natriydan tashqari barcha anion va kationlarning yig'indisini bilgan holda ular orasidagi farq orqali natriyning miqdorini aniqlash mumkin.

Qo'yida analiz natijalari asosida natriyning miqdorini aniqlaymiz (48-jadval).

**48-Jadval**

Kationlar	mg*ekv	Anionlar	mg*ekv
Sa <sup>++</sup>	5,5	SO <sub>4</sub> <sup>-</sup>	3,08
Mg <sup>++</sup>	7,3	Cl <sup>-</sup>	24,40
Yig'indi:	12,8	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	2,5
Yig'indi:			29,98
<b>Na ning miqdori</b> 29,98-12,8=17,18 mg*ekv			

Olingen natija natriy va kaliyning yig'indisiga to'g'ri keladi, lekin kaliyning miqdori tabiiy suv tarkibida kam miqdorda uchrashini hisobga olsak, natijani natriyga tegishli deb hisoblasak bo'ladi. Natriy va kaliy kationlaridan tashqari suv tarkibida boshqa kationlar ham mavjud. Lekin ularning miqdori juda kam bo'lganligi uchun ularni inobatga olmasak ham bo'ladi.

**Suvning sug'orish uchun yaroqliligi.** Suvning sug'orish uchun yaroqliliginin baholashda bir qator kompleks omillarga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Sug'orish suvlaringin qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri nafaqat uning mineralogik tarkibiga, balki tuproqning strukturasi va tarkibiga, sizot suvlaringin chuqurligiga, dalada drenaj zovurlarining mavjudligiga bog'liq. Sug'orish uchun foydalilaniladigan suvlarning kimyoviy analizi nafaqat suvning minerallashganlik darajasini aniqlashga balki, olib borilishi lozim bo'lgan agrotexnik tadbirlarni oldindan belgilab olish imkonini beradi.

Dastavval sug'oriladigan suvning mineralashganlik darajasiga e'tibor qaratiladi. Suvning mineralashganlik darajasiga qarab uni quyidagicha tavsiflash mumkin:

**49-Jadval**

1 litr suvda - suvda oson eriydigan tuzlar miqdori, mg	Sug'orish uchun yaroqliligi
400	A'lo
1000	Foydalilanilganda kompleks chora tadbirlar inobatga olinishi ko'zda tutiladi.
1000-3000	Tuproqni sho'rlantirish ehtimoli yuqori
4000-<	Tuproqni sho'rlantiradi.

Sug'orish uchun foydalaniladigan suvni baholashda uning nafaqat minerallashganlik darajasiga, balki qaysi tuzning ko'proq uchrashiga ham bog'liq. Sababi, har xil tuzlar o'simliklarga turlichayta'sir ko'rstdi. Eng havfli tuzlar bu natriyli tuzlar bo'lib, ular orasida natriy karbonat ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) eng zararlisi hisoblanadi.

Ayrim tuzlarning o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan tuproqlar uchun 1 litr suvdagi ruxsat etilgan miqdori  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  - 1 gr,  $\text{NaCl}$  - 2 gr,  $\text{NaSO}_4$  - 5 gr ni tashkil etadi.

Natriy karbonat tabiiy suv manbaalari tarkibida deyarli uchramaydi, gips saqlaydigan suv esa zararli emas.

#### 50-Jadval

Suvlarning sug'orish uchun xlor ioni bo'yicha yaroqliligi (g/l).

Nº	Minerallashganlikka ko'ra guruhlar	Xlor ioni
1	Chuchuk	0,15-0,30
2	Kam minerallashgan	0,20-0,50
3	O'rtacha minerallashgan	0,25-0,70
4	Kuchli minerallashgan	0,30-1,00
5	Namakob	>1,00

Suvlarning sug'orish uchun yaroqliligin xarakterlashda suv tarkibidagi natriy xlorid va natriy sulfat tuzlarining miqdori, ularning nisbati va ishqoriylik darajasi aniqlanadi (36-jadval).

#### 51-Jadval

Suvning ishqoriylik darajasini aniqlash formulalari

Ionlarning miqdori (mg*ekv)	Ishqoriylik darajasi K
$\text{Na}^+$ ionlari $\text{Cl}^-$ ionlariga nisbatan kam ( $r\text{Na}-r\text{Cl} \leq 0$ )	$K = \frac{288}{5+r\text{Cl}}$
Natriy xloridi mavjud	
$\text{Na}^+$ ionlari $\text{Cl}^-$ ionlariga nisbatan ko'p, lekin kuchli kislotalarning ionlariga nisbatan kam	
Natriy xlorid va natriy sulfati mavjud ( $0 \leq r\text{Na}-r\text{Cl} \leq r\text{SO}_4$ )	$K = \frac{288}{r\text{Na}+4+r\text{Cl}}$
Na <sup>+</sup> ionlari kuchli kislotalarning ionlariga nisbatan ko'p ( $r\text{Na}-(r\text{Cl}+r\text{SO}_4)$ $>0$ )	
Natriy xloridi, sulfati va karbonati mavjud	$K = \frac{288}{10+r\text{Na}-5+r\text{Cl}-9+r\text{SO}_4}$

Stebler suvining "ishqoriylik" koefisiyenti (K) bo'yicha sug'orish  
uchun yaroqliligi

Ishqoriylik koefisiyenti K	Baho	Umumiy xarakteristika
18	Yuqori darajada qoniqarli	Turli xil qo'shimcha tadbirlarni qo'llamasdan turib qo'llash mumkin
18-16	To'la qonli qoniqarli	G'ovak drenaj sistemasiga ega bo'lgan tuproqlarda qo'llash ishqoriy muhitning kuchayib borishiga olib keladi.
5,9-1,2	Kam yaroqli	Qo'shimcha va maxsus drenajlangan dalalarda qo'llash mumkin
<1,2	Yomon	Sug'orish uchun mutlaqo yaroqsiz

Masalan, suv tarkibida  $11,0 \text{ mg*ekv Na}^+$  va  $11,4 \text{ mg*ekv Cl}^-$  mavjud, u holda:

$$K = \frac{288}{5 * 11,4} = 5,05; \text{ Bu suv sug'orish uchun kam yaroqli.}$$

#### Nazorat savollari:

- Minerallashgan suvlarning yem-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligini xlor ioni bo'yicha aniqlash tartibini gapirib bering.
- Minerallashgan suv tarkibidagi sulfat ionini aniqlash qanday amalga oshiriladi?
- Minerallashgan suvning ishqoriyligini aniqlashni aytib bering.
- Suvning sug'orish uchun yaroqliligi qanday aniqlanadi?
- Minerallashgan suv tarkibidagi kationlarni aniqlash tartibini yoritib bering.
- Irrigatsiya suvlarining klassifikatsiyasi necha turga bo'linadi?

#### 32-mavzuga doir test savollari

- $\text{Cl}^-$  ioni qaysi reaktiv yordamida aniqlanadi?
  - $\text{AgNO}_3$
  - $\text{BaCl}_2$
  - Fenolftalein
  - $\text{NaOH}$
- $\text{SO}_4^{2-}$  ioni qaysi reaktiv yordamida aniqlanadi?
  - $\text{AgNO}_3$

- B.  $\text{BaCl}_2$
- D. Fenolftalein
- E. NaOH

3.  $\text{CO}_3^{2-}$  ioni qaysi reaktiv yordamida aniqlanadi?

- A.  $\text{AgNO}_3$
- B.  $\text{BaCl}_2$
- D. Fenolftalein
- E. NaOH

4.  $\text{HCO}_3^-$  ioni qaysi reaktiv yordamida aniqlanadi?

- A. Kislotalar
- B. Ishqorlar
- D. Oksidlar
- E. Tuzlar

5. Sug'oriladigan suvlar tarkibida qaysi tuzning bo'lishi eng havfli hisoblanadi?

- A. NaCl
- B.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$
- D.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$
- E.  $\text{NaNO}_3$

6. Sug'orish uchun a'lo suvlar tarkibida necha mg/l tuz bo'ladi?

- A. 400
- B. 1000
- D. 1000-3000
- E. 4000<

7. Foydalanilganda kompleks chora-tadbirlar o'tkazishni ko'zda tutadigan sug'orish suvlari tarkibida necha mg/l tuz bo'ladi?

- A. 400
- B. 1000
- D. 1000-3000
- E. 4000<

8. Tuproqni sho'rлantirish ehtimoli bor bo'lgan sug'orish suvlari tarkibida necha mg/l tuz bo'ladi?

- A. 400
- B. 1000
- D. 1000-3000
- E. 4000<

9. Tuproqni sho'rлantirishga olib keladigan sug'orish suvlari tarkibida necha mg/l tuz bo'ladi?

- A. 400
- B. 1000
- C. 1000-3000
- D. 4000<

10. Sug‘orish suvlarining ishqoriylik darajasi nimalarga bog‘liq?

- A. Tuzlarning miqdoriga
- B. Tuzlarning turlariga
- C. Tuzlarning nisbatiga
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

### **33-mashg'ulot. Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari**

**Mashg'ulot maqsadi:** Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari bilan tanishish.

**O'quv va ko'rgazmali qurollar:** Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlariga oid rangli fotosur'atlar, jadvallar, videolavhalar, videoeroliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar, zamonaviy sug'orish texnikasi, yangi rusumdag'i zamonaviy tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnikalari va hk.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi va metodikasi.** Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari zamonaviy sug'orish texnikasi, yangi rusumdag'i zamonaviy tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnikalari vositasida tushuntirish.

**Mashg'ulotning mazmuni.** Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari bilan tanishish, yaylovlarni avtomatlashtirish orqali yaylovlardan to'la qonli samarali foydalanish imkonini tug'diradi.

Yomg'irlatib sug'orish usulida suv maxsus (mashinalar) apparatlar yordamida ekinlarga yomg'ir tarzida purkab berilgan. Bu usul O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarda 1950-yildan boshlab qo'llanib kelinmoqda. Yomg'irlatib sug'orish usulini asosan sizot suvlari yaqin bo'lган yerlarda, ya'ni daryo sohillarida qo'llash tavsiya qilinadi. Sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda egat orqali sug'orish natijasida sizot suvlari ko'tarilib, tuproqning suv va havo tartibi keskin buziladi. Natijada yaylov o'tlari hosildorligi kamayadi. Shu oqibatning oldini olish maqsadida yomg'irlatib sug'orish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bu usul bilan boshqa yerlarni ham sug'orish mumkin, hatto kam sho'rangan va notekis yerlarda ham uni qo'llash ahamiyatlidir. Yomg'irlatib sug'orishda tuproqning qulay suv rejimi ta'minlanib, tuproq strukturasining buzilmasligiga olib keladi. Yomg'irlatib sug'orish usulining quyidagi **afzalliklari** bor:

1. Tuproq yuzasi bo'ylab va kerakli chuqurlikni bir tekis namlash mumkin.
2. Sug'orish ishlari to'liq mexanizatsiyalashtiriladi.
3. Vaqtinchalik sug'orish tarmoqlarini olish talab qilinmaydi.

- Egat orqali sug'orish usuliga qaraganda 30-40 % suv iqtisod qilinadi.
- Sug'oriladigan dalada mikroiqlim vujudga kelib, ekinlarning o'sishi va rivojlanishini tezlashadi, hosildorlik esa 10-20 % oshadi.
- O'simliklardagi chang va hashoratlarni yuvib, ularni gigiyenik holatini yaxshilaydi.

**Kamchiliklari:** 1. Ko'p metal va qo'shimcha energiya talab qiladi. 2. Malakali kadrlar tomonidan boshqariladi. 3. Shamol kuchli bo'ladigan mintaqalarda foydalanilmaydi.

**Yomg'irlatib sug'orish tizimlari.** Hozirgi kunda tabiiy va tashkiliy-xo'jalik sharoitlarga bog'liq holda ko'chmas, yarim ko'chma va ko'chma yomg'irlatib sug'orish tizimlari qo'llanilib kelinmoqda.

Ko'chmas yomg'irlatib sug'orish tizimlari magistral, taqsimlash va sug'orish qurilmalari, yomg'irlatish apparatlari o'matilgan gidrantlar va nasos stansiyalaridan iborat. Yomg'irlatish apparatlarining suv sarfi sekundiga 1-80 l ni tashkil etadi. Ushbu tizimni barpo etish uchun asosiy harajatlar ko'p talab etiladi.

Yarim ko'chmas yomg'irlatib sug'orish tizimlari keng miqiyosda qo'llanilib kelinmoqda. U ko'chmas sug'orish quvirlari yoki kanallar va nasos stansiyalaridan, ko'chma yomg'irlatib sug'orish mashinalari, agregatlari va qurilmalaridan iborat. Bunday tizimlarda ko'p tayanchli aylanma va ko'ndalang harakat qiluvchi mashinalar, yomg'rlatgich shleyflari, o'rtacha otar yomg'rlatgich qurilmardan foydalaniladi.

Ko'chma yomg'irlatib sug'orish tizimlari nisbatan kichik uchastkalarni sug'orishda qo'llaniladi. Bunda tizim elementlarining barchasi bir joyda to'liq ko'chirilib yuriladi. Oson qismlarga ajraladigan alyumin quvur va o'rtacha otar yomg'rlatgich apparatli qurilmardan foydalaniladi.


Suvni sochish masofasiga qarab yomg'rlatgich qurulmalari 3 ga bo'linadi:

- Suvni yaqin masofaga sochadigan - 10 metr (0,05-0,2 mPa).
- O'rta masofaga sochadigan - 30 metr (0,1-0,4 mPa).
- Uzoq masofaga sochadigan - 60 metr va undan ko'p (0,4 mPa<).

Yomg'irlatib sug'orish sifatini yomg'irlatish jadalligi (mm/min), yomg'ir tomchisining o'lchami (mm), dala bo'ylab yomg'irning bir tekis taqsimlanishi belgilaydi. Yomg'irlatish jadalligi bu-tuproq ustida ko'lmaq yoki suv oqimini keltirib chiqarmaydigan sug'orish me'yor bo'lib, u tuproq sharoiti, joyning nishabligi va o'simlik qoplamiga bog'liq ravishda belgilanadi:

## Ekinlarni sug'orishda yomg'irlatish jadalligi, mm/min

№	Tuproqlar	Nishablik			
		0-0,05	0,05-0,08	0,08-0,12	>0,12
1	Qumloq	0,85	0,85	0,64	0,42
2	Yengil qumoq	0,74	0,53	0,42	0,32
3	O'rtacha qumoq	0,42	0,34	0,25	0,17
4	Og'ir qumoq va soz	0,09	0,07	0,05	0,04




20-Rasm. Odatdagi va impulsli yomg'irlatib sug'orish sistemasi

Tuproqning zichligi va mexanik tarkibiga ko'ra yomg'ir tomchisining kattaligi va uning tezligi to'g'ri belgilashi talab qilinadi. Agar tuproq og'ir mexanik tarkibli bo'lsa, yomg'irlar kattaligi 1 mm, o'rtacha va yengil 1,5-2 mm qilib belgilanadi. Uning tezligi esa og'ir

tarkibli yerlarda 0,1-0,2 mm/min. O'rtacha tarkibli yerlarda 0,2-0,3 mm/min. Yengil tarkibli yerlarda 0,4-0,8 mm/min.

Yomg'irlatish muddati hamda tuproq va o'simliklarga ta'sir etishga ko'ra, odatdag'i va impulsli yomg'irlatib sug'orishga bo'linadi. Odatdag'i yomg'irlatib sug'orishda tuproqning 0,5-0,6 m qatlamida qulay suv zahirasi hosil qilish va mikroiqlimni yaxshilash maqsadida har 6-12 kunda sug'orib turiladi. Impulsli yomg'irlatib sug'orishda havo namligi taqchilligini kamaytirish maqsadida ekinlar har kuni harorat eng yuqori bo'lgan vaqtida (soat 12 dan 15 gacha) sug'orib turiladi.



**Topshiriq:** "Venn diagrammasi" pedtexnologiyasiga binoan kichik-kichik guruhlarga bo'lingan holda, yozuv taxtasiga Venn diagrammasini chizing va uning ichiga sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlarining yutuq va kamchiliklarini yozing.

#### Nazorat savollari:

1. Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish afzalliklari nimalardan iborat?
2. Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish kamchiliklarini sanab bering.
3. Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish tizimining zamонавиyy texnikalarini aytib bering.
4. Yomg'irlatib sug'orish texnikalarining ishslash printsiplari nimalardan iborat?

#### 33-mavzuga doir test savollari

1. Yomg'irlatib sug'orish usuli O'zbekistonga qachon kirib kelgan?  
A. 1920  
B. 1870  
C. 1950

E. 1991

2. Egatlab sug'orish usulining kamchiligi?

- A. Sizot suvlari ko'tariladi
- B. Tuproq sho'rланishini keltirib chiqaradi
- D. Suv eroziyasini keltirib chiqaradi

E. Barchasi to'g'ri

3. Yomg'irlatib sug'orish usulida necha % suv iqtisod qilinadi?

- A. 100 %
- B. 75 %
- D. 30-40%

E. Barchasi to'g'ri

4. Yomg'irlatib sug'orish usulining kamchiligi?

- A. Shamol kuchli bo'lган joylarda qo'llab bo'lmaydi
- B. Qo'shimcha energiya talab qiladi
- D. Malakali kadrlar tomonidan boshqariladi

E. Barchasi to'g'ri

5. Mexanik tarkibi og'ir bo'lган tuproqlarda yomg'irlarning kattaligi necha mm bo'lishi lozim?

- A. 0,5-0,7
- B. 1,0
- D. 1,5
- E. 2,0

6. Mexanik tarkibi o'rtacha bo'lган tuproqlarda yomg'irlarning kattaligi necha mm bo'lishi lozim?

- A. 0,5-0,7
- B. 1,0
- D. 1,5
- E. 2,0

7. Mexanik tarkibi yengil bo'lган tuproqlarda yomg'irlarning kattaligi necha mm bo'lishi lozim?

- A. 0,5-0,7
- B. 1,0
- D. 1,5
- E. 2,0

8. Mexanik tarkibi og'ir bo'lган tuproqlarda yomg'irlarning tezligi necha mm/min ga teng bo'lishi lozim?

- A. 0,1-0,2
- B. 0,2-0,3

- D. 0,4-0,8
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri
9. Mexanik tarkibi o‘rtacha bo‘lgan tuproqlarda yomg‘irlarning tezligi necha mm/min ga teng bo‘lishi lozim?
- A. 0,1-0,2
- B. 0,2-0,3
- C. 0,4-0,8
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri
10. Mexanik tarkibi yengil bo‘lgan tuproqlarda yomg‘irlarning tezligi necha mm/min ga teng bo‘lishi lozim?
- A. 0,1-0,2
- B. 0,2-0,3
- C. 0,4-0,8
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri

**34-35 mashg‘ulotlar. Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish. Yaylovarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini va kunlik portsiyalar ajratishni aniqlash**

**Mashg‘ulotlar maqsadi:** Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish va yaylovarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini hamda kunlik portsiyalar ajratishni aniqlash bilan tanishish.

**O‘quv va ko‘rgazmali qurollar:** Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish hamda yaylovarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini va kunlik portsiyalar ajratishni aniqlashga oid rangli fotosur‘atlar, jadvallar, videolavhalar, videoroliklar, slayd-shouular, sxemalar, texnologik xaritalar, chizg‘ich, oddiy qalam, o‘chirg‘ich, millimetrovka va hk.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi va metodikasi.** Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish. Yaylovarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini va kunlik portsiyalar ajratishni aniqlash, mavzuga doir jadvallar vositasida yoritilib borish, mavzuda oid misol va masalalar doskada ishlab tushuntirish, talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida ularni birin-ketin yozuv taxtasiga chaqirilib masalalar ishlatish, dars so‘ngida mavzu bo‘icha savol-javoblar o‘tkazish.

**Mashg‘ulotning mazmuni.** Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish hamda yaylovarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini va kunlik portsiyalar ajratishni aniqlash yaylovlar mahsulorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yaylov va pichanzorlardagi o‘tlarni me‘yorida o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlash va mol boqish soniga rioya qilish, ularning samaradorligini oshirib, o‘tarning botanik tarkibini yaxshilab boradi. Ammo yillar davomida yaylovlardan bir xil tartibda foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun yaylovlardan foydalanish yillar bo‘yicha o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak.

Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimi deb, bir va ko‘p yillar davomida yaylovlar samaradorligini uzlusiz oshirib boruvchi tadbirlar tizimiga aytildi. Bir yil davomida yaylovlarga ishlov berish va ulardan foydalanish tizimiga ***bir yillik yaylov almashinuvi*** deyiladi. Yillar davomida yaylovlarga ishlov berish va ulardan foydalanish tizimiga yaylovlarning to‘liq almashinish ***rotatsiyasi*** deyiladi hamda ulardan almashlab foydalanish tizimida quyidagilar asos qilib olinadi:

1. Yaylovlardan foydalanish muddati.
2. Foydalanish soni.
3. Mol boqish va yaylovgaga dam berishni o‘zaro bog‘lash.

#### 4. Mol boqish va pichanga o'rib olishni o'zaro bog'lash.

**54-Jadval**

**Sug'oriladigan madaniy yaylovlardan almashlab foydalanish tizimi**

Rotatsiya yillari	Yaylov bo'linmalar											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	IP	IP	IP	IP	IP	IP	IP	IP	P	P	P	
2	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	P	P	P	
3	P	P	P	Ya								
4	Yz	P	P	P	Ya							
5	Ya	Ya	P	P	P	Ya						
6	Ya	Ya	Ya	P	P	P	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya
7	Ya	Ya	Ya	Ya	P	P	P	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya
8	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	P	P	P	Ya	Ya	Ya	Ya
9	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	P	P	P	Ya	Ya	Ya
10	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	Ya	P	P	P	Ya	Ya

Bunda:

IP - yaylovga ishlov berish va pichan uchun o'rib olish.

Ya - yaylov.

P - pichan uchun o'rib olish.

Adir mintaqasidagi tabiiy yaylovlardan almashlab foydalanish ko'proq yillar bo'yicha quyidagicha amalga oshiriladi:

1-yil 3 marta o'tlar o'stirilib yaylov sifatida foydalanish.

2-yil apreldan sentabrgacha yaylov sifatida foydalanish, sentabr-oktabr oylarida o'tlarni qayta o'stirish.

3-yil apreldan iyulgacha yaylov sifatida foydalanish, iyul-avgust oylarida o'tlarni o'stirish va sentabr-oktabr oylarida mol boqish.

Tekislik mintaqasidagi tabiiy yaylovlarda o'simliklar guruhi asosan bahorda o'sib rivojlanadi, keyinchalik esa ular qurib qoladi. Bunday yaylovlarda bahor oylarida chorva mollari ko'p ozuqaga ega bo'ladi, yoz-kuz hatto qish oylarida esa qor kam bo'lganligi uchun quruq ozuqa bilan ta'minlangan. Shuning uchun sahro mintaqasidagi tabiiy yaylovlardan yil davomida foydalanish mumkin.

**Yaylovlarda qo'ralar (zagon) o'lchamini va kunlik porsiyalar ajratishni aniqlash.** Yaylovlardan samarali foydalanish uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Yaylovlarda chorva mollarining eng to'yimli va mahsulдорligini oshirish mumkin bo'lgan davrlarda boqish va o'rib olish.
2. Yaylovlarda imkonli boricha ko'proq chorva mollarini boqish.
3. Yaylov o'tlarining tarkibi, hosildorligi va ozuqa sifatini saqlash hamda ularni yildan yilga oshirib borish.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

1. Yaylov o'tlarining maqbul o'sish davri, yaylovlardan foydalanish muddati va foydalanish sonlarini aniqlash.
2. Yaylovlardan bir mavsum va ko'p yillar davomida foydalanish usullarini to'g'ri tanlash.
3. Yaylovlarni chorva mollarning turi va tarkibi bo'yicha jihozlash hamda ularda kunlik foydalanish tartiblariga amal qilish.
4. Yaylov va pichanzorlardan joriy foydalanish davomida amalga oshiriladigan tadbirlami o'tkazish.

Kattaroq yaylov va pichanzorlarning samaradorligi, o'tlarni o'stirish muddatlarini to'g'ri belgilashga bog'liq bo'ladi. Juda ko'p tadqiqotlar natijasiga ko'ra boshoqdoshlar oilasiga kiruvchi o'tlarning ozuqabop to'yimlilik davri, to'planish va naychalash, dukkakli va boshqa har xil o'tlar aralashmasining to'yimlilik davri esa gullash fazalariga to'g'ri kelar ekan. O'simliklarning o'suv fazalari iqlim, tuproq, gidrogeologik va o'simliklarning biologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi.

Yaylov o'tlarining yuqorida keltirilgan to'yimlilik fazasi 15-25 sm bo'lganda vujudga keladi va mol boqish yoki pichan uchun o'rib olish mumkin bo'ladi. Qadimdan uzlusiz foydalanib kelinayotgan yaylovlarda ko'pchilik o't turlarinng yoshi uzoq yillarga teng bo'lib, bunday yerlardagi o'tlarning uzunligi o'ttacha 25-35 sm bo'lganda chorva mollarini boqishga ruxsat etiladi. Yaylov o'tlarining takroriy o'sish davri o'simliklarning biologik xususiyatlariga, tuprog'ining unumdonrigiga va namlik darajasiga bog'liq holda kechadi. Ikkinchchi marta o'tlarning yetilishi 20-25 kundan keyin bo'ladi. Uchinchi va undan keyingi o'suv davrlari esa 30-40 kunda keladi. Umuman, respublikamizning adir mintaqalarida 2-3 marta, tog' mintaqalarida 3-5 marta, tekislik mintaqalarida 1-2 marta, sug'oriladigan madaniy yaylovlarda esa 5-6 martagacha o'tlarni me'yorida o'stirib chorva mollarini boqish mumkin.

Yaylovlarning chorva fermalaridan uzoq-yaqinligiga qarab ikkiga bo'linadi:

1. Chorva fermalari qoshidagi yaylovlar. Fermalardan 0,5-1 km masofada bo'lib, chorva mollarini kun davomida yaylovga haydar boriladi va fermaga qaytariladi.
2. Chorva fermalaridan uzoqdagi yaylovlar. Fermalardan 2 km va undan ko'p masofadagi yaylovlar, bunda chorva mollarini mavsumda fermalardan yaylovlarga ko'chiriladi va u yerda vaqtinchalik chorva fermalari tashkil qilinadi.

Yaylovlarda chorva mollarini boqish ikki usulda amalga oshiriladi:

1. Erkin yoki yoppasiga mol boqish.
2. O'ramlarga o'tar (zagon) bo'lib mol boqish.

Yoppasiga boqish usulida chorva mollari erkin holda tartibsiz boqiladi. O'ramlarga bo'lib boqish usulida esa yaylovlari bir qancha bo'laklarga bo'lib, ularda chorva mollari navbat bilan boqiladi. O'ramlar soni yaylovdagi o'simliklarning tarkibiga, ularning biologik xususiyatlariga, iqlim va rel'yef tuproq sharoitiga bog'liq bo'ladi hamda u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K = \frac{YaK_s}{RS}$$

Bunda: K - o'ramlar soni;

Ya - yaylovdan foydalanishning davomiyligi, kun;

Ks - tuzatish koeffitsienti (atmosfera yog'ingarchiligiga va tashkiliy ishlarga og'liq o'lib hisobiy o'ramlar maydoniga nisbatan haqiqiy o'rim maydoni 20-30 % ko'p bo'lishi kerak);

R - o'simliklarning o'rtacha o'suv davrining davomiyligi, kun;

S - yaylovdan foydalanish davrida o'simliklami o'stirish soni.

O'ramlarning maydoni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = mn/UK$$

Bunda: S - O'ramlarning maydoni, m<sup>2</sup>;

m - fermadagi chorva mollarining soni, bosh;

n - chorva mollarining kunlik ozuqa me'yori (ko'k massa yoki quruq holda), kg/bosh;

U - yayloving haqiqiy hosildorligi, s/ga;

K - o'tlarni iste'mol qilish koeffitsienti.

#### 55-Jadval

#### Mustaqil topshiriq: Jadvalni to'ldirin!

Nº	Chorva turi	Chorvaning sutkalik ozuqaga bo'lgan talabi, kg	Yayloving haqiqiy hosildorligi, 20 s/ga fermadagi chorva mollarining soni 100 bosh bo'lsa, o'ramlarning maydonini aniqlang
1	Sog'in sigirlar	60	
2	G'unajinlar	37	
3	Buzoqlar (1 yoshgacha)	21	
4	Qo'y va echkilar	5	
5	Qo'zi va uloqlar	3	
6	Cho'chqalar	13	

### **Nazorat savollari:**

1. Yaylovlardan samarali foydalanish uchun quyiladigan talablarni ayting.
2. Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimi. Bir yillik yaylov almashinuvi qanday amalga oshiriladi?
3. Rotatsiyasi deb nimaga aytildi?
4. Yaylovlarda qo‘ralar (zagon) o‘lchamini aniqlash tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Yaylovlarda kunlik porsiyalar ajratishni aniqlash tartibini gapirib bering.

### **34-35-mavzuga doir test savollari**

1. Rotatsiya deb nimaga aytildi?
  - A. 1 yil davomida yaylovlarga ishlov berish
  - B. 2 yil davomida yaylovlarga ishlov berish
  - C. Yillar davomida yaylovlarga ishlov berish
  - D. To‘g‘ri javob yo‘q
2. Yaylovlar almashinuvi deb nimaga aytildi?
  - A. 1 yil davomida yaylovlarga ishlov berish
  - B. 2 yil davomida yaylovlarga ishlov berish
  - C. Yillar davomida yaylovlarga ishlov berish
  - D. To‘g‘ri javob yo‘q
3. Adirlarda yaylovlardan almashlab foydalanish qanday tartibda amalga oshiriladi?
  - A. 1 yil 3 marta o‘t o‘stiriladi
  - B. 2 yil apreldan sentyabrgacha yaylov sifatida foydalaniadi
  - C. 3 yil aprel-iyun va sentyabr oktyabrda yaylov sifatida foydalaniadi
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
4. Qanday yaylov tipidan yil davomida foydalanish mumkin?
  - A. Cho‘l
  - B. Tog‘
  - C. Adir
  - D. To‘qay
5. Qadimdan foydalanim kelayotgan yaylovlarda o‘tlarning bo‘yi necha sm bo‘lganda mol boqish uchun ruxsat beriladi?
  - A. 15-25
  - B. 25-35
  - C. 5-10
  - D. 40-50
6. Adirda necha marta o‘t o‘stirib mol boqish mumkin?

A. 2-3

B. 3-5

D. 1-2

E. 5-6

7. Tog‘da necha marta o‘t o‘sirib mol boqish mumkin?

A. 2-3

B. 3-5

D. 1-2

E. 5-6

8. Cho‘lda necha marta o‘t o‘sirib mol boqish mumkin?

A. 2-3

B. 3-5

D. 1-2

E. 5-6

9. Sug‘oriladigan maydonlarda necha marta o‘t o‘sirib mol boqish mumkin?

A. 2-3

B. 3-5

D. 1-2

E. 5-6

10. Zagonlar soni qanday omillarga to‘g‘ri proporsional?

A. Yaylovlardan foydalanish davomiyligiga

B. O‘simlik o‘suv davrining davomiyligiga


D. O‘simliklarni o‘sirish soniga

E. Chorva mollarining soniga


## Yaylovlarda tarqalgan efemer va eferoid o'simliklar




Iloq



Qo'ng'irbosh




Chitir



Rang




Yaltirbosh




Arpaxon



Lolaqizg'aldoq



Qum piyoz



Jag'-jag'




Usma



Sassiq kovrak

## Yaylovlarda tarqalgan dag‘al poyali o‘simliklar




Sho'rajriq




Karrak



Erkak-o't



Yantoq



Urg'ochi selin



Chalov

## Buta va yarim buta o'simliklar



Qora saksovul



Oq saksovul



guli




Qizil qandim




Oq qandim



Daraxtsimon qandim




Rixter cherkezi



Paletskiy cherkezi




Atriplex




Buyurg'un




Novdasi




Keyreuk



Kamforosma



Cho'g'on



Izen




Teresken



urug'li novdasi



Qizilcha



Guli



Singren



Novdasi



Urug'liari




Boyalich



Novdasi



Shuvvoqzor



Qora shuvvoq



Ermon shuvvoq



Tatir


### Bir yillik sho'ralar



Xaridondan



Sagan



Donasho'r



Qumarchiq



Qumarchiq urug'i



Seta



Urug'langan novdasi



Ebelek




Ebelek tupi




Olabuta



Sveda yakka tupi



Sveda gullagan novdasi



Baliqko'z



Baliqko'zzor



Baliqko'z gullari

## Zaharli va zararli o'simliklar



Qum akatsiyasi



Guli



Isiriq



Kampirchopon



Guli



Otashak




Guli




Qo'ziquloq



Oq quray



Qilqon



Qiltiq

## Istiqbolli cho'l fitomeliorantlari



Qora saksovul



Oq saksovul



Qizil qandim



Paletskiy cherkezi




Boyalich




Tatar



Keyreuk




Baliqko'z



Cho'g'on



Izen



Singren



Teresken



Kamforosma



Oq shuvog



Yantoq



Xuroson espartseti



Erkak o't



Qo'ng'ir bosh



Usma

**Yaylov-cho'l o'simliklari meva va urug'lari**




**Shuvoq**



**Sassiq kovrak**




**Karrak**



**Usma**




**Buyurg'un**




**Olabuta**




**Ebelek meva va urug'larining geterokarpiyasi (heteros-turli xil, karpos-meva)**




**Teresken**




**Baliq ko'z**



**Xaridandon**




**Cho'g'on**



**Oq saksovul**




**Izen**



**Paletskiy cherkezi**



**Singren**



**Oq qandim**

**Qorako'chilik yaylovlarida uchraydigan asosiy o'simlik turlari**

O'zbekcha nomi	Ruscha nomi	Lotincha nomi
G'alladoshlar oilasi	Мятликовые	Poaceae
Qo'ng'rbosh	Мятлик луковичный	<i>Poa bulbosa L</i>
Yaltirbosh	Костер (Неравноцветник) кровельный	<i>Anisantha tectorum L</i>
Agraxon	Мортук восточный	<i>Eremopyrum orientale</i>
Sho'rajriq	Прибрежница солончаковая, акрык, чаир	<i>Aeluropus littoralis</i> (Gouan) Parl.
Erkak selin	Селин Карелина Аристида Карелина	<i>Aristida karelina</i>
Urg'ochi selin	Селин перистый	<i>Aristida pennata Trin</i>
Erkak o't	Житняк пустынный, ускоколосый	<i>Agropuron Desertorum</i> (Fisch ex Link.) Schult
Chalov	Ковыль Иоанна	<i>Stipa Hohenocakeriana</i> Trin, Et, Rupr.
Qiltiq	Лентоостник длинноволосый	<i>Taeniatherum crinitum</i> Nevski
Qilqon	Ячмень заячий	<i>Hordeum Leporinum</i> Link.
<b>Do'kkakdoshlar</b>	<b>Бобовые</b>	<b>Fabaceae</b>
Singren	Астрагал песчаный	<i>Astragalus ammotrophus</i> Bunge.
Yantoq	Верблюжья колючка обыкновенная	<i>Alhagi Pseudoalhagi</i>
Xuroson espartseti	Эспарцет Хурасанский	<i>Onobrychis</i> <i>Chorassanica Bge</i>
Qum Akatsiyasi	Песчаная акация Конолли	<i>Ammodendron conollyi</i> Bunge ex Boiss
Oq quray	Псоралея костянковая	<i>Psoralea drupacea</i> Bunge
<b>Murakkabguldoshlar</b>	<b>Сложноцветные</b>	<b>Asteraceae</b>
Karrak	Кузиния	<i>Cousinia resenosa</i>
Shuvoq	Полынь	<i>Artemisia diffusa</i>
<b>Hiloldoshlar</b>	<b>Осоковые</b>	<b>Cyperaceae</b>
Iloq	Осока вздутая	<i>Carex physodes</i> Bieb.
Rang, qorabosh	Осока пустынная	<i>Carex pachystylis</i> J. Gay
<b>Sho'radoshlar</b>	<b>Маревые</b>	<b>Chenopodiaceae</b>
Oq saksovul	Саксаул белый	<i>Haloxylon persicum</i> Bunge ex Boiss. Ex Buhse
Qora saksovul	Саксаул черный	<i>Haloxylon aphyllum</i>

Rixter cherkezi	Солянка Рихтера, Черкез	<i>Salsola richteri</i> (moq.) Kar. Et Litv.
Paletskiy cherkezi	Черкез Палецкого	<i>Salsola paletzkiana</i> Litv.
Keyreuk	Солянка корявая	<i>Salsola orientalis</i> S. G. Gmel
Cho'g'on	Галотамнус малолистный	<i>Halothamnus subaphyllus</i>
Seta	Солянка жёсткоцветковая	<i>Salsola sclerantha</i> C.A. Mey
Donasho't	Спайноцветник спайноплодный	<i>Gamanthus gamacarpus</i> (Moq.) Bunge
Xavridon	Галимокнемис длиннолистный	<i>Halimocnemis longifolia</i> Bunge
Baliqko'z	Климатоптера ферганская	<i>Climacoptera ferganica</i> (Drobow) Botsch
Qumarchiq	Кумарчик широколистный	<i>Agriophyllum latifolium</i> Fisch. & C.A. Mey
Tetir	Солянка почеконосная	<i>Salsola gemmascens</i> Pall.
Boyalich	Солянка древовидная	<i>Salsola arbuscula</i>
Qorabargo't (Sveda)	Сведа дуголистная	<i>Suaeda arcuata</i> Bunge
Atripleks	Атриплекс	<i>Atriplex canescens</i>
Buyurg'un	Ежовник солончаковый	<i>Anabasis salsa</i> (Ledeb)
Kamfarosma	Камфоросма Лессинга	<i>Camphorosma lessingii</i> Litv
Izen	Прутняк, кохия стеляющая	<i>Kochia Prostrate</i> (L) Schrad
Teresken	Терескен	<i>Ceratooides ewersmanniana</i>
Sagan	Гиргенсония супротивноцветковая Гиргензония супротивнолистная	<i>Girgensohnia oppositiflora</i> (Pall) Fenzl
Ebelek	Рогач сумчатый	<i>Ceratocarpus arenarius</i> L.
Olabuta	Лебеда стреловидная	<i>Atriplex nitens</i>
Krestguldoshlar (Karamdoshlar)	Крестоцветные	<i>Brassicaceae</i>
Chitir	Малкольмия Туркестанская	<i>Malcolmia Turkestanica</i> spp
Usma	Вайда выемчатая	<i>Sameraria Boissierana</i>
Jag'-jag'	Пастушья сумка	<i>Capsella vursa pastoris</i> (L) Medis

<b>Tuyatovondoshlar</b>	<b>Гармоловые</b>	<b>Peganaceae</b>
Isiriq	Гармала	<i>Peganum Harmala L.</i>
<b>Labguldoshlar</b>	<b>Губоцветные (Яснотковые)</b>	<b>Lamiaceae</b>
Qo'ziquuloq	Зопник	<i>Phlomis thapsoides Bge</i>
<b>Ayiqtovondoshlar</b>	<b>Лютниковые</b>	<b>Ranunculaceae</b>
Uchma	Рогоглазник	<i>Ceratocephalus falcatus</i>
<b>Govzabonguldoshlar</b>	<b>Бурачниковые</b>	<b>Boraginaceae</b>
Kampirchopon	Триходесма седая	<i>Trichodesma incanum D. C.</i>
<b>Torondoshlar</b>	<b>Гречишные</b>	<b>Polygonaceae</b>
Chakich	Кандым шетинистый	<i>Calligonum setosum</i>
Qizil qandim	Кандым голова Медузы	<i>Calligonum capit-medusae</i>
Oq qandim	Кандым шерстистоногий	<i>Callogonium eriopodum</i>
Darxtsimon qandim	Кандым безлистный	<i>Calligonum aphyllum</i>
<b>Ko'knordoshlar</b>	<b>Маковые</b>	<b>Papaveraceae</b>
Lola qizg'aldoq	Мак павлиний	<i>Papaver pavonium Schrenk</i>
<b>Piyozguldoshlar</b>	<b>Луковые</b>	<b>Alliaceae</b>
Qum piyoq	Лук песчаный	<i>Allium sobulosum Stev. Et. Bunge</i>
<b>Qizilchadoshlar</b>	<b>Хвойниковые</b>	<b>Ephedraceae</b>
Qizilcha	Хвойник крылатый	<i>Ephedra strobilacea Bunge</i>

**Atamalar lug'ati / Словарь терминов / Dictionary of terms**

O'zbekcha	Ruscha	Ingлизча
Adir yaylovlari	Адыровые пастбища	Piedmont pastures
Bir yillik sho'ralar	Однолетние солянки	Annual hedgepodes
Buta-barra o'tli yaylov tipi	Кустарнико-травяной тип пастбищ	Shrub-herbage type of pasture
Butalar	Кустарники	Shrubs
Cho'l yaylovlari	Пустынные пастбища	Desert pastures
Dag'al poyali o'simliklar	Грубостеблевые растения	Stiff-stemmed plants
Efemer va efemeroidli yaylov tipi	Эфемеро-эфемероидный тип патбищ	Ephemeral and ephemeroid types of pastures
Efemerlar	Эфемеры	Ephemeral plants
Efemeroidlar	Эфемероиды	Ephemeroid plants
Gipsli cho'l	Гипсовые пустыни	Gypsum pasture
Istoqbollki fitomeliorantlar	Перспективные фитомелиоранты	Promising phytomeliorants
Kunlik porsiyalar	Дневные проции	Daily portions
Madaniy yaylovlari	Культурные пастбища	Cultivated pastures
O'simlik ozuqa guruhlari	Группы кормовых растений	Fodder groups of plants
Progressiv texnologiyalar	Прогрессивные технологии	Advanced technologies
Qorako'lchilik yaylovlari	Каракулеводческие пастбища	Karakul pastures
Qumli cho'llar	Песчанные пустыни	Sandy desert pastures
Sho' ra o'tli yaylov tipi	Однолетне-солянковый тип	Annual hedgepodge type
Sug'oriladigan yaylovlari	Орошаляемые пастбища	Irrigated pastures
Sutkalik ozuqaga bo'lgan talab	Суточное потребление в корме	Daily intake in feed
Suvning minerallashganlik darajasi	Степень минерализации воды	Degree of mineralization of water
Suvning sug'orish uchun yaroqliligi	Пригодность воды для орошения	Suitability of water for irrigation
Tabiiy yaylovlari	Природные пастбища	Natural pastures
Tog' yaylovlari	Горные пастбища	Mountain pasture
To'qay yaylovlari	Тукайные пастбища	Foothills pasture
Urug' ekish me'yori	Норма высева семян	Seeding rates
Yarim buta-barra o'tli yaylov tipi	Полукустарниково-травяной тип пастбищ	Subshrub-herbage type of pasture
Yarim butalar	Полукустарники	Subshurubs

Yaylov holatini tubdan yaxshilash	Коренное улучшение	Fundamental improvement
Yaylov holatini yuzaki yaxshilash	Поверхностное улучшение	Superficial improvement
Yaylov inqirozi	Деградация пастбищ	Degradation of pastures
Yaylov tiplari	Типы пастбищ	Types of pastures
Yaylov yuklamasi	Нагрузка пастбищ	Load of pastures
Yaylovlar hosildorligi	Продуктивность пастбищ	Productivity of pastures
Yaylovlar melioratsiyasi	Мелиорация пастбищ	Amelioration of pastures
Yaylovlar sig'imi	Емкость пастбищ	Pasture capacity
Yaylovlarda almashlab foydalanish tizimi	Использование систем пастбищеоборотов	Pasture rotation systems
Yaylovlardan samarali foydalanish	Эффективное использование пастбищ	Efficient use of pastures
Yaylovshunoslik	Пастбищеводство	Pastoralism
Yem-xashak ekinlari	Кормовые растения	Fodder plants
Yomg'irlarib sug'orish	Дождевое орошение	Rain irrigation
Zaharli o'simliklar	Ядовитые растения	Poisonous plants
Zararli o'simliklar	Вредные растения	Harmful plants

## Fan bo'yicha glossari

**Yaylov**-o'simlik qoplamiga ega uy hayvonlarini boqish uchun mo'ljallangan maydon. Har bir yaylov tipi ma'lum botanik turlar va tarkibdan iborat o'simliklar guruhidan tashkil topgan bo'lib, mahsuldor holatda saqlanishi va foydalanishi lozim

**Pichanzor**-o'simlik qoplami ozuqa (pichan) tayyorlash uchun mo'ljallangan yer maydonlari tushuniladi. Ulardan, o'rni kelganda, yaylov sifatida ham foydalanish mumkin

**Yaylov** tipi-ozuqabop turlar va miqdor jihatdan ma'lum tarkibga ega yaylovlarga aytildi; har bir yaylov tipi o'ziga xos xususiyat va xossaga ega

**Assotsiatsiya**-yaylov o'simlik qoplami bo'lib, yaylovshunoslikda bu tushuncha birlamchi, dastlabki tushuncha hisoblanib, bu sohadagi tushunchalar ushbu atamani yaxshi bilish bilan belgilanadi. Assotsiatsiyalar o'z navbatida, formatsiyalarga birlashadi

**Formatsiya**-asosiy qavati ma'lum bir o'simlik (masalan, shuvoq) turidan tashkil topgan assotsiatsiyalarga aytildi

**O'simliklar tipi**-asosiy qavati bir xil tuzilishdagi o'simliklar turidan tashkil topgan formatsiyalarga aytildi

**O'simliklarning hayotiy shakllari-tashqi** muhitga moslashishi va muhitning kompleks sharoitlariga munosabati

**Daraxtlar**-ko'p yillik baland bo'yli o'simliklar bo'lib, tashqi ko'rinishi jihatdan aksariyat hollarda bitta yirik tanadan iborat, kuchli sershoxlangan o'simliklardir

**Butachalar** -tashqi ko'rinishi jihatdan butalarga o'xhash bo'lsa ham balandligi 0,5 metrdan oshmagan o'simliklardir

**Yarim butalar** - novdalarining pastki qismi yog'ochlashib ustki qismi esa har yili quriydig'an o'simliklar

**Ko'p yillik o'tlar** -tuproqdan yuza qismi o'z vegetatsiyasini tugatgach butunlay qurib qoldigan o'simliklar

**Efemerlar**-qisqa o'sish va rivojlanish davriga ega bir yillik o'simliklar

**Efemeroidlar** -qisqa o'sish, rivojlanish sikliga xos ko'p yillik o'simliklar

**Mox va lishayniklar** -zambrug' va suv o'tlarining simbiozidan iborat o'simliklar guruhi hisoblanadi. Ozuqaviy mohiyati jihatdan ular bizning yaylovlarimizda deyarli ahamiyatga ega emas

**O'simliklarning o'sishi-o'simliklar massasining va hajmining oshishidir**

**O'simliklarning rivojlanishi**-o'simliklarning sifatiy o'zgarishi (turli fazalar - ko'karish, maysalashdan boshlab urug' va mevalarning pishishigacha bo'lgan davrda sodir bo'ladigan o'zgarishlar)

**Cho'l-iqlimi** yoz oylarining anchagina issiqligi, deyarli yog'ingarchilik bo'imasligi, havo haroratining ko'tarilishi, jazirama (garsmel), ba'zan tinimsiz shamolarning mo'lligi, havoning nisbiy namligining pastligi bilan o'ziga xosdir

**Adirlar**-cho'llardan biroz yuqoriroq joylashgan maydonlar bo'lib, ularning dengiz sathidan balandligi 1200-1600 m gacha etadi va o'z navbatida pastki va yuqori mintaqalarga bo'linadi

**Gipsli cho'llar** - uchlamchi past tekisliklar, qadimiy tekisliklar va qoldiq past tog'lardan tashkil topgan maydonlar kiradi. Umuman, yurtimiz cho'l mintaqalarida gipsli cho'l salmoqli o'rinni egallaydi

**Galofitlar**-sho'rlangan tuproqlarda o'sib, rivojlanishga va urug' hosil qilishga moslashgan o'simliklar guruhi: "galos" - sho'r, tuz; "fiton" - o'simlik, ya'ni sho'rsevar o'simliklar

**Kserofitlar** (kseros-quruq, fiton-o'simlik)-qurg'oqchil iqlim sharoitida o'sishga moslashgan o'simliklardir

**Sukkulentalar** ("sukkulentus" - shirali, yog'li, yo'g'on)-shirali, go'shtdor tanali yoki bargli ko'p yillik o'simliklar bo'lib, mazkur organlarida suv zahiralari to'planadi

**Sklerofitlar** ("skleros"-qattiq, quruq; "fiton"-o'simlik)-tashqi ko'rinishi jihatidan sukkulentlarning mutlaqo teskarisi; novdalari nisbatan kam namlik, mexanik to'qimalaring yaxshi rivojlangan, qoplovchi to'qimalarning mo'lligi oqibatida sklerofitlarning barglari ancha qalin, qattiq va ancha ko'p suv sarflagan taqdirda ham turgor holatini saqlab qoladi va uzoq vaqt so'limasdan saqlanib turadi

**Gidrofitlar.** (gidros-suv, fiton -o'simlik)-suvda botib yashovchi o'simliklar bo'lib, ularning organlarida mexanik to'qima deyarli rivojlanmaydi, aeronxim to'qimalar esa, teskari, juda kuchli rivojlangan. Gidrofitlarning suv yuzasidagi ustki epidermisida og'izchalar joylashadi; ostki, ya'ni, suv tegib turuvchi tomonida og'izchalar bo'lmaydi. Ildiz tuklari ham yaxshi rivojlanmagan, uning suv va mineral moddalarni shimish qobiliyati ham past. Ularga barcha suv o'tlari, suv yong'og'i, suv grechixasi, elodiya va shu kabilar misol bo'la oladi

**Gigrofitlar** (gigros - nam, fiton - o'simlik)-namli sharoitda o'sishga moslashgan o'simliklar guruhi. Bunday guruh o'simlik vakillari botqoqliklar, daryo, ko'l qirg'oqlarida uchraydi

**Mezofitlar** (mezos - o'rta, fiton - o'simlik) mu'tadil namlangan muhitda o'suvchan o'simliklar. Ozuqabop o'simliklar orasida o'rta polosada o'suvchi ko'pchilik o'tlar (sebarga, pirey, koster) yoki tropik mamlakatlarning aksariyat turlari mezofitlardan iborat

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati

1. Шамсутдинов З.Ш. Создание долголетних пастбищ в аридной зоне Средней Азии. / “Фан”, Ташкент: 1975. с. 176.
2. Махмудов М.М. Кейреук – ценнное кормовое растение в пустынной зоне Узбекистана. // Методические рекомендации. Самарканд: 1991. 66 с.
3. Тодерич К.Н., Бобокулов Н.А., Раббимов А.Р., Шуйская Е.В., Мукимов Т.Х., Попова В.В., Хакимов У.Н. Kochia Prostrata (L.) Schrad – ценнное кормое растение для улучшения пустынных и полупустынных пастбищ. / «Fan va texnologiya», Ташкент: 2014. 152 с.
4. Нечаева Н.Т., Шамсутдинов З.З., Мухамедов М.Г. / Улучшение пустынных пастбищ Средней Азии. / «Ўлым», Ашхабад: 1978. 64 с.
5. Юсупов С.Ю., Раббимов А., Гулта Р., Икрамов Р.К., Бекчанов Б., Мукимов Т., Тодерич К.Н., Бобокулов Н.А., Синдаров Ш.К., Хамраева Г. / Опыт поливного кормопроизводства в Кызылкумах. Самарканд: 2009. 44 с.
6. Раббимов А.Р., Мукимов Т., Рахимов Т., Бозоров А., Каҳхоров Д. Қоракўлчилик яйловларини яхшилашга оид тавсиялар. / Самарканд: 2015. 52 б.
7. Раббимов А., Бекчанов Б., Синдаров Ш. Қоракўлчилик хўжаликларида юқори хосилли яйловлар яратиш бўйича тавсиялар. / Самарканд: 2021.32 б.
8. Чўл яйловларидан рационал фойдаланиш ва хосилдорлигини оширишга оид Тавсиялар. / Ўзбекистон қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий тадқикот институти. Самарканд: 2019.
9. Бутник А.А., Тодерич К.Н., Матюнина Т.Е., Жапакова У.Н., Юсупова Д.М. Справочник по морфологии плодов и биологии прорастания семян пустынных растений Центральной Азии. Tashkent.: “Yangi hayot”, 2016. -320 с.
10. Нечаева Н.Т. Динамика пастбищной растительности Каракумов под влиянием метеорологических условий. / “Туркменистан”, Ашхабад: 1958.
11. Нечаева Н.Т., Приходько С.Я. Искусственные зимние пастбища в предгорных пустынях Средней Азии. / “Туркменистан”, Ашхабад: 1966.
12. Гаевская Л.С. Каракулеводческие пастбища Средней Азии. / “Фан”, Ташкент: 1971.
13. Гаевская Л.С., Шамсутдинов З.Ш. Шувах-кормовые полыни пустынных пастбищ Узбекистана. / “Узбекистан”, Ташкент: 1964.
14. Шаймарданов Б.П., Ибрагимов Д.А., Арипов А.О. и др. Сельскохозяйственные машины для улучшения аридных пастбищ. / Янгиюль: 2018. с. 100.
15. Шамсутдинов З.Ш. Селекция и семеноводство пустынных кормовых растений. Москва, ВАСХНИЛ, 1980, - 85стр.
16. Рўзибоев Н.Р. Яйловларда чорвачиликни ташкил этиш. 100 китоб тўплами (75 китоб). “Агробанк АТБ” 2021. 64 б.
17. Шамсутдинов З.Ш., Ибрагимов И.О. Долголетние пастбищные агрофитоценозы в аридной зоне Узбекистана. / «Фан», Ташкент: 1983. 176 с.

18. Maxmudov M., Haydarov Q. Yaylovshunoslik. / Toshkent: 2010., 284 b.
19. Norqulov U., Sheraliyev H. Yaylovlar melioratsiyasi. / "Yangi asr avlodii", T: 2010. 160 b.
20. 2019 yil 21 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" gi Qonuni.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi "Ma'muriy –hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 299-son qarori.
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'yeqtlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida" gi 914 sonliqarori.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgustdag'i "Yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l quyiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to'g'risida" gi qarori.
24. Ruzmetov Maqsud Ismoilovich. Yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.
25. Artukmetov Z.A., Sheraliyev H.Sh. Ekinlarni sug'orish asoslari. Toshkent.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2007.-320 b.
26. Norqulov U., Allanov X., Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi. T.: "Iqtisod-Moliya", 2016.-208 b.
27. To'xtashev B., Qoraboyeva T., Ashirov Y., Eshonqulov J. / Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi va yer tuzish fanidan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari. / T.: "Ijod-Press", 2019.-368 b.
28. Toderich K.N., Shuyskaya E.V., Taha F., Ismail Sh., Gismatullina L.G. LiVE. Adaptive Fruit Structural Mechanisms of Asiatic Salsola Species and Its Germplasm Conservation and Utilization. J. of Arid Land Studies 22-1. 2012. P. 73-76.
29. Akinshina N., Toderich K., Azizov A. Saito L., Ismail Sh. Holophyte Biomass: a promising Source of Renewable Enerjy. Journal of Arid Land Studies 2014. V. 24-1. P. 215-219.
30. Gul B., Khan M.A. Role of calcium in alleviating salinity effects in coastal holophytes //Ecophysiology of high salinity tolerant plants. The Netherlands: Springer, 2006 P 107-114.
31. Kadereit G., Ball P., Beer S., Sokoloff D., Teege P., Yaprak A., Freitag H. A taxonomic nightmare comes true: phylogeny and biogeography of glassworts (*Salicornia* L.) *Chenopodiaceae*. Taxon. 2007. 56 (4). P. 1143-1170.
32. Gul B., Ansari R., Flowers T.J., Khan M.A. Germination strategies of holophyte seeds under salinity. In: Environmental and Experimental Botany. V. 92. 2013. P. 4-18.

## **Аннотация**

Учебное руководство приготовлено на основе учебной программы предмета «Пастбищеводство и мелиорация пастбищ» в качестве учебного пособия для студентов бакалавриатуры по специальностям 5410200-Агрономии (кормовые растения) и 5411300-Растениеводства (растениеводство пустынных пастбищ).

В данном учебном руководстве изложены типы пастбищ сухих аридных зон, жизненные формы основных растений пастбищ, их биоэкологические и хозяйствственные свойства, пути улучшения мелиоративного состояния пастбищ.

## **Annotation**

The training manual was prepared on the basis of the training program of the subject "Pastoralism and amelioration of pastures" as a teaching aid for students bachelor's degree in the specialties 5410200-Agronomy (fodder plants) and 5411300-Crop husbandry (desert pasture crop husbandry).

This training manual outlines the types of pastures in dry arid zones, the life forms of the main pasture plants, their bioecological and economic properties, and ways to improve the ameliorative state of pastures.

## MUNDARIJA

<b>So'z boshi.....</b>	<b>3</b>
<b>1-2 mashg'ulotlar.</b> Qorako'lchilik yaylovleri o'simliklerining asosiy ozuqa guruhlari va ularning muhim biologik va xo'jalik ususiyatlari.....	.....
<b>3-4 mashg'ulotlar.</b> Qorako'lchilik hududlari yaylov tiplari va o zuqabop turlarning bioekologik va xo'jalik xossalri.....	9
<b>5-6 mashg'ulotlar.</b> Yaylovlarda tarqalgan efemer va efemeroit o'simliklar, ularning muhim biologik va xo'jalik xususiyatlari.....	18
<b>7 mashg'ulot.</b> Yaylovlarda tarqalgan dag'al poyali o'simliklar.....	27
<b>8 mashg'ulot.</b> Buta va yarim buta o'simliklar.....	34
<b>9 mashg'ulot.</b> Bir yillik sho'ralar.....	53
<b>10 mashg'ulot.</b> Zaharli va zararli o'simliklar.....	60
<b>11 mashg'ulot.</b> Istiqbolli cho'l fitomeliorantlari va ularning introduksiyasi, seleksiyasi, urug'chilik sohasidagi ilm-fan yutuqlari (O'zQChEITI ga ekskursiya).....	71
<b>12 mashg'ulot.</b> Yaylov tiplari ozuqa zahiralarini aniqlash uslublari va ularga oid misollar yechimi.....	75
<b>13 mashg'ulot.</b> Yaylovlar fitomelioratsiyasida qo'llaniladigan istiqbolli o'simlik turlarining assortimenti.....	84
<b>14 mashg'ulot.</b> Urug'larni ekish me'yorlarini bilish, amalda qo'llash.....	92
<b>15 mashg'ulot.</b> Cho'lda ozuqa yetishtirish fanining yo'nalishlari.....	99
<b>16 mashg'ulot.</b> Madaniy yaylovlar barpo etishning texnologik asoslari.....	103
<b>17 mashg'ulot.</b> Yaylovlar sig'imini aniqlash. Bahor, yoz, kuz mavsumlarida foydalaniladigan yaylovlar maydonini hisoblash tartibi.....	110
<b>18 mashg'ulot.</b> Yaylov o't turlarini o'rghanish.....	115
<b>19 mashg'ulot.</b> Yaylovlar hosildorligi va yuklamasini aniqlash.....	121
<b>20 mashg'ulot.</b> Yaylovlar holati va inqiroz belgilarini aniqlash usullari.....	125
<b>21 mashg'ulot.</b> Cho'l va adir yaylovlaridan samarali foydalanish asoslari.....	131
<b>22 mashg'ulot.</b> Cho'l yaylovlaridan mavsumiy foydalanish va ularga qo'yiladigan talablar.....	137
<b>23 mashg'ulot.</b> Cho'l yaylovlaridan foydalanishning progressiv texnologiyasi.....	143
<b>24-25 mashg'ulotlar.</b> Cho'l hududlari yaylovleri hosildorligini oshirishning zonal texnologiyalari va ularni qo'llash xususiyatlari. Qumli cho'l hududlari yaylovlar holatini yaxshilash xususiyatlari.....	147
<b>26 mashg'ulot.</b> Turli rejimda mol boqishning yaylovlar o'simlik qoplamiga ta'siri.....	157
<b>27 mashg'ulot.</b> Tabiiy yaylovlar holatini yuzaki yaxshilash tizimi.....	163
<b>28 mashg'ulot.</b> Qorako'lchilik yaylovlarini tubdan yaxshilash usullari.....	177

<b>29 mashg'ulot.</b> Yaylovlarning meliorativ holati va ularni baholash.....	186
<b>30 mashg'ulot.</b> Sug'oriladigan madaniy yaylovlar o'simliklarini sug'orish tartiblarini aniqlash.....	193
<b>31 mashg'ulot.</b> Yaylovlarda foydalaniladigan suvning sifati (minerallashganlik) darajasini aniqlash.....	198
<b>32 mashg'ulot.</b> Minerallashgan suvlarning em-xashak ekinlari va madaniy yaylov o'tlarini sug'orish uchun yaroqliligini xlor ioni bo'yicha aniqlash.....	203
<b>33 mashg'ulot.</b> Sug'oriladigan madaniy yaylovlarda yomg'irlatib sug'orish texnikasi elementlari.....	216
<b>34-35 mashg'ulotlar.</b> Yaylovlardan almashlab foydalanish tizimlarini tuzish. Yaylovlarda qo'ralar (zagon) o'Ichamini va kunlik portsiyalar ajratishni aniqlash.....	222
<b>Asosiy yaylov o'simliklari va urug'larning illyustratsiyasi.....</b>	228
<b>Qorako'chilik yaylovlari muhim o'simlik turlari.....</b>	236
<b>Atamalar lug'ati.....</b>	239
<b>Fan bo'yicha glossariy.....</b>	241
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	243

**N.A.Boboyeva, N. Xalilov**

**YAYLOVSHUNOSLIK VA YAYLOVLAR  
MELIORATSIYASI FANIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**o‘quv qo‘llanma**

**Toshkent, “Fan ziyozi” nashriyoti, 2023, 248 bet**

**“Fan ziyozi” nashriyoti MCHJ**

**Litsenziya № 3918, 18.02.2021.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30**

**Nashriyot direktori  
Muhammarr  
Texnik muhammarr**

**L.Xalilov  
N.Tojiqulova  
L.Fayziyev**

**Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.  
Times New Roman garniturasi.  
Shartli hisob tabog‘i – 15,5. Nashriyot hisob tabog‘i – 14,0  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/23**

**«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.**

**Samarqand sh., Tong k.,55**

978-9910-743-4-3-6



9 789910 743436 >